





BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

6/2023



6/2023

<https://buxdu.uz>

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2023, № 6, iyul

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liq Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

ANIQ VA TABIIY FANLAR * EXACT AND NATURAL SCIENCES ***
ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ**

Hasanov I.I.	Kasr tartibli diffuziya tenglamasi uchun Koshi masalasi	4
Murodova U.M.	Cisco Packet Tracer dasturida IoT qurilmalar tarmog'ini loyihalash	11
Turdiyev H.H., Xidirov U.B., Subhonova N.U.	O'zgarmas koeffitsiyentli tashqi manbaga ega integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasidan xotira funksiyasini aniqlash masalasi	16
Subhonova Z.A., Davlatova D.S.	Ko'p o'lchamli kasr tartibli to'lqin tenglamasi uchun qo'yilgan Koshi masalasining yechiluvchanligi	27
Маликов З.М., Наврузов Д.П., Жумаев Ж.	Численное исследование закрученных струйных течений при различной степени закрутки на основе двух-жидкостной модели турбулентности	32
Раззокова М.Б.	Математическое моделирование переноса тепла в плоском солнечном коллекторе	39
Тураев М.М., Наимова М.Ф.	Развитие прудового рыбоводства и аквакультуры в Узбекистане: рациональное использование водных и земельных ресурсов	46
Шадманов И.У.	Эффективный численный алгоритм для расчёта процессов взаимосвязанного тепло-влажпереноса в пористых телах	51
Qurbonov H., Vozorova O'.B., Absalamova D.B.	M G 1 N va G J M 1 N-1 Ikkilanma xizmat ko'rsatish sistemalari statsionar navbat uzunliklari taqsimotlari uchun asimptotik munosabatlar	60
Хайриева Ш.С.	Математик ҳисоблашларни ўқитишда ахборот технологиялари воситалари ва уларнинг имкониятлари	66
Turayev A.A., Turayev O.G', Raximova S.M.	Application of superconductor materials in medicine	71
Ergashov A.Q.	Taus metodidan foydalangan holda yarimo'tkazgich fotoanod tarkibidagi qatlamlarning taqiqlangan zona kengligini aniqlash	75
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Ahmadova U.Sh.	Hunarmandchilik sohasi perifrazarida milliy-madaniy xususiyatlar	84
Babayev J.S.	Joint stylistic devices	89

Ergasheva G.B.	Features of formation of lexicon related to profession in English and Uzbek languages	93
Radjabova D.A.	Ingliz va O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida mineralogik birliklarning mentallik xususiyatlari	98
Tursunov M.M., Rahmatullayeva A.T.	Ingliz va O'zbek lingvomadaniyatida mehnatkashlik va yalqovlik konseptlarini ifodalash yo'llari	105
Zikrillayev G'.N., Safarov F.S., Ro'ziyev Y.B.	Falsafiy tilshunoslik va metodologiya	110
Umarova N.R., Tojiboyeva M.Sh.	Ingliz va o'zbek tillarida "donolik" konsepti bilan bog'liq antropomorfik belgilar	121
Ибрагимова Н.А.	Инглиз ва ўзбек тилларида аутентик матнларнинг шаклланиш тамойиллари	126
Шарипова М.К.	Лексические и грамматические особенности аббревиатур в русских и узбекских СМИ: аспекты стандартизации и нормативности	130
Boltayeva N.R.	Siyosiy nutq – siyosiy diskurs shakli sifatida	138
Jalilzada A.M.	Typology and classification of abbreviations	143
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Xodjayeva D., Bozorova X.B.	Jeyn Ostinning "G'urur va andisha" asarida ayol obrazining tasvirlanishi	151
Elboyeva M.B.	Jek London va Murod Muhammad Do'st hikoyalarida shaxs va jamiyat munosabatlarining psixologik tasviri	156
Mardanov R.G'.	O'zbek mumtoz she'riyatida obrazlar talqinining ilmiy o'rganilishi	160
Qobilova A.A.	Anvar Obidjonning yumoristik she'rlarida an'ana va takomil	166
Yaxshiyeva Z.R.	O'zbek adabiyotida Amir Temur va Temuriylar obrazi talqinlari	171
Yunusova G.R.	Yo'l xronotopining badiiy poetikasi va o'ziga xos xususiyatlari	177
Касимова Р.Р.	Таржима жараёнини тадқиқ этиш	181
Komiljonova K.G'.	Erkin Vohidov lirikasida tashxis san'atining qo'llanilishi	187
Muxammadova M.M.	Muhammad Shayboniy Nisoriy talqinida	192
Ashurova G.N.	Mustaqillik davri dramalarida Alisher Navoiy shaxsiy hayotining talqinlari	197

Mirsharipova Sh.Sh.	Tarixiy romanda ayollar ruhiyati tasviri (Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani misolida)	204
Zaripova D.B.	Huvaydoning poetik mahorati	208
Pashayeva S.R.	The image of Satan in the “Letters from the Earth” by Mark Twain	214
Khudaiberdieva D.M.	The secret of Yesenin's witching color	221
MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Ҳайитов Ш.А.	«Хамсатул-мутахаййирин» ҳамду наътларида инсон камолоти масаласи	226
“NAVOIY GULSHANI”		
Safarova H.O.	Sunbulung oshuftayu savdoyi o‘lmish men kebi...	233
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Elmurodov A.M.	Jadid matbuotining “Turkiston muxtoriyati” tuzish g‘oyalarining rivojlanishidagi roli	236
Suyunova B.S.	Theoretical approaches to international relations in Japan	241
Қаршиев Н.О.	Партиявий тизим тушунчаси ва унинг моҳияти	246
Рустамалиев М.Ҳ.	Бошқарувнинг ижтимоий-сиёсий эҳтиёж эканлиги	251
Матназарова М.А.	Миллатлараро муносабатларнинг ривожда туркий давлатлар бирлиги	257
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА		
Тайлакова Ш.Н.	Ўқувчи-ёшларда креатив фикрлашни оммавий ахборот воситалари медиаконтентлари асосида шакллантириш имкониятлари	266
SAN’AT *** ART *** ИСКУССТВО		
Sadigova S.N.	Definition, history and development of tapestry art	271
MUNOSABAT *** REFLECTION *** ТОЧКА ЗРЕНИЯ		
Расулов З.И.	Языкознание: ретроспектива и перспектива	276

KASR TARTIBLI DIFFUZIYA TENGLAMASI UCHUN KOSHI MASALASI

*Hasanov Ibrohim Ixtiyorovich,**Buxoro davlat universiteti**Differensial tenglamalar kafedrası o'qituvchisi**ihasanov998@gmail.com*

Annotatsiya: Ixtiyoriy tartibli hosilalar va integrallarni o'rganish va qo'llashga bag'ishlangan matematik tahlilning funksiyalar nazariyasidagi turli xil muammolarni, integral va differensial tenglamalar va boshqalarni o'rganadigan va o'zaro bog'liqligi tufayli uzoq tarixga va boy mazmunga ega sohalardan biri bu kasr tartibli differensial hisob. Kasr tartibli differensial hisob doimiy rivojlanishda bo'lib, matematik tahlilning turli yo'nalishlari g'oyalari va natijalari bilan keng tarqalmoqda. Bir va ko'p o'zgaruvchilarning funksiyalarining kasr tartibli hisobi hozirgi vaqtda jadal rivojlanishda davom etmoqda, buni ham katta nashrlar oqimi, ham kasr hisobi masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar tasdiqlaydi. Ehtimol, aynan kasr integrodifferensial nazariyaning doimiy rivojlanishi va so'nggi o'n yilliklarda uning katta tarmoqlanishi, ayniqsa, ko'p o'zgaruvchilarning funksiyalari bo'yicha, bu nazariya bo'yicha monografiyalarning yetishmasligi sababidir. Shu bilan birga, bu holat kasr hisobining rivojlanishiga to'siq bo'lib xizmat qila olmadi.

Ushbu ishda chiziqli vaqt bo'yicha Gerasimov-Kaputa ma'nosi orqali aniqlangan kasr tartibli hosila bilan berilgan diffuziya tenglamasi uchun Koshi masalaning umumiy yechimi Laplas va Furiye almashtirishlaridan foydalanigan holda analitik ko'rinishda aniq topilgan. Yechimning klassik bo'lishi shartlari tekshirilgan va isbotlangan.

Kalit so'zlar: kasr tartibli-Gerasimov-Kaputa hosilasi, Mittag-Leffler funksiyasi, Laplas almashtirish, boshlang'ich shartlar, chegara shartlari.

ЗАДАЧА КОШИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ДИФФУЗИИ ДРОБНОГО ПОРЯДКА

Аннотация: Область математического анализа, называемая дробным исчислением и посвящённая исследованию и применению производных и интегралов произвольного порядка, имеет давнюю историю и богатое содержание, обусловленное его проникновением в различные сферы и взаимосвязями с самыми разнообразными вопросами теории функций, интегральных и дифференциальных уравнений. Она находится в постоянном развитии, которое питается идеями и результатами различных направлений в математическом анализе. Дробное исчисление функций одной и многих переменных продолжает интенсивно развиваться и в настоящее время, свидетельством чему служит как большой поток публикаций, так и международные конференции, специально посвященные вопросам дробного исчисления. Возможно, что именно постоянное развитие теории дробного интегро-дифференцирования, а в последние десятилетия её большая разветвлённость, особенно в случае функций многих переменных, являются причиной отсутствия монографий по этой теории. Между тем, это обстоятельство не могло не служить тормозом в развитии дробного исчисления. Ряд результатов, очень существенных и фундаментальных, опубликован в оригинальных статьях, многие из которых труднодоступны и малоизвестны.

В работе с помощью метода Фурье и преобразования Лапласа решение задачи Коши найдено в явном виде для неоднородного уравнения диффузии, которое представлено с помощью дробной производной Гerasимова-Капуто по времени. Показано, что построенное решение является классическим.

Ключевые слова: дробное производное Гerasимова-Капуто, функция Mittag-Леффлера, преобразование Лапласа, начальное условия, граничное условия.

THE CAUCHY PROBLEM FOR THE FRACTIONAL DIFFUSION EQUATION

Abstract: The field of mathematical analysis, called fractional calculus and devoted to the study and application of derivatives and integrals of arbitrary order, has a long history and rich content, due to penetration into it and relationships with a wide variety of issues in the theory of functions, integral and differential equations, etc. It is located in constant development, which feeds on the ideas and results of

various directions in mathematical analysis. The fractional calculus of functions of one and many variables continues to develop intensively at the present time, as evidenced by both a large stream of publications and international conferences specially devoted to questions of fractional calculus. It is possible that it is precisely the constant development of the theory of fractional integro-differentiation, and in recent decades its great branching, especially in the case of functions of many variables, that is the reason for the lack of monographs on this theory. Meanwhile, this circumstance could not but serve as a brake on the development of fractional calculus. A number of very significant and fundamental results have been published in original papers, many of which are difficult to access and little known.

In this work, using the Fourier method and the Laplace transform, the solution of the Cauchy problem is found in explicit form for the inhomogeneous diffusion equation, which is represented using the Gerasimov-Caputo fractional derivative with respect to time. It is shown that the constructed solution is classical.

Keywords: Gerasimov-Caputo fractional derivative, Mittag-Leffler function, Laplace transform, initial conditions, boundary conditions

Kirish. Hozirgi kunda matematik fizika tenglamalarining kars tartibli differensial tenglamalari uchun qo'yilgan boshlang'ich chegaraviy masalalarni o'rganish jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylangan. Ko'plab ilmiy tadqiqotchilar kasr tartibli differensial tenglamalari va xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar bilan shu'gullanib kelishmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, giperbolik, parabolik tenglamalarning haddan tashqari aniqlanishi bilan bog'liq masalalarga oid ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlari [1]-[10] da keltirilgan. Kasr tartibli differensial tenglamalari uchun qo'yilgan boshlang'ich chegaraviy masalalar inson faoliyatining turli sohalarida, masalan, seysmologiya, foydali qazilmalarni qidirish, biologiya, kompyuter tomografiyasida paydo bo'ladi. So'nggi paytlarda issiqlik uzatish jarayonlarini boshqarish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Shuning uchun issiqlik tenglamalari uchun to'g'ri va teskari masalalarni yechish eng muhim nazariy va amaliy ilmiy tadqiqotlardan biridir.

Klassik integro-differensial to'lqin tarqalishi tenglamalari uchun teskari masalalar keng o'rganildi. Har xil turdagi etarli aniqlash shartlariga ega bo'lgan chiziqli bo'lmagan teskari koeffitsient masalalari ko'pincha adabiyotlarda topiladi [masalan, [11-17] va ulardagi havolalar]. [14-17] da teskari masala yechimining mavjudligi ham, yagonaligi ham isbotlangan.

Quyidagi Koshi masalasini qaraylik:

$${}^c D_t^\alpha u(x, t) - a^2 u_{xx}(x, t) = f(x, t), \quad x \in R, \quad t > 0, \quad 0 < \alpha < 1, \quad (1)$$

$$u(x, 0) = \varphi(x), \quad x \in R. \quad (2)$$

bunda ${}^c D_t^\alpha$ Gerasimov-Kaputa ma'nosidagi kasr tartibli hosila bo'lib quyidagicha aniqlanadi:

$$({}^c D_t^\alpha)(x, t) := (I_t^{1-\alpha} u_t)(x, t) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_0^t \frac{U_r(x, \tau)}{(t-\tau)^\alpha} d\tau \quad (3)$$

bunda

$$(I_t^{1-\alpha} u_t)(x, t) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_0^t \frac{U_r(x, r)}{(t-r)^\alpha} dt. \quad (4)$$

Riman-Liuvill ma'nosidagi kasr tartibli integral $\Gamma(\cdot)$ Eylerning Gamma funksiyasi, $f(x, t)$ va $\varphi(x)$ yetarlicha silliq funksiyalar.

$u(x, t)$ funksiya (1)-(2) masalaning klassik yechimi deyiladi, agarda $u(x, t)$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

- 1.) $u(x, t) \in C_{x,t}^{2,1}(\mathbb{R} \times [0; +\infty))$
- 2.) (1) tenglamani qanoatlantirsa
- 3.) (2) boshlang'ich shartini qanoatlantirsa.

Dastlabki tushunchalar

Foxning H-funksiyasi kasr tartibli hisobning maxsus funksiyalaridan bo'lib, xususiy hollarda Mittag-Leffler funksiyasini ifodalaydi. H funksiya Fox tomonidan kiritilgan bo'lib Meyer funksiyasining umumlashmasini ifodalaydi. Ushbu ishda [8] adabiyotda berilgan ta'rif va xossalardan foydalanamiz. Bundan tashqari H-funksiya Mellin-Braus tipidagi integral bilan quyidagicha aniqlangan.

$$H_{p,q}^{m,n} \left[z \left| \begin{matrix} (a_1, A_1), \dots, (a_p, A_p) \\ (b_1, B_1), \dots, (b_q, B_q) \end{matrix} \right. \right] = H_{p,q}^{m,n} \left[z \left| \begin{matrix} (a_p, A_p) \\ (b_q, B_q) \end{matrix} \right. \right] = \frac{1}{2\pi i} \int_{\Omega} \theta z^{-s} ds \quad (5)$$

bunda:

$$\theta(s) = \frac{\prod_{j=1}^m \Gamma(b_j + B_j s) \prod_{k=1}^n \Gamma(1 - a_k - A_k s)}{\prod_{j=m+1}^q \Gamma(1 - b_j - B_j s) \prod_{k=n+1}^p \Gamma(a_k + A_k s)}$$

bu yerda:

$$i = (-1)^{\frac{1}{2}}, z \neq 0, \text{ va } z^{-s} = \exp\{-s[\ln|z| + i \arg z]\}.$$

$$0 \leq n \leq p, 0 \leq m \leq q, A_e, B_j \in R_+, a_e, B_j \in \mathbb{C}(R), e = 1, 2, \dots, p, j = 1, 2, \dots, q.$$

Agar quyidagi shartlar bajarilsa (5) integral yaqinlashuvchi bo'ladi.

$$1.) C > 0, |\arg z| < \frac{1}{2} \pi \text{ va } z \neq 0;$$

$$2.) C = 0, pD + Re(E) < -1, \arg z = 0 \text{ va } z \neq 0$$

bunda

$$C := \sum_{j=1}^n A_j - \sum_{j=n+1}^p A_j + \sum_{j=1}^m B_j - \sum_{j=m+1}^q B_j,$$

$$D := \sum_{j=1}^q B_j - \sum_{j=1}^p A_j E := \sum_{j=1}^m b_j - \sum_{j=1}^p a_j + \frac{p-q}{2}.$$

Fox ning H -funksiyasi haqida to'liqroq ma'lumotlar [8] adabiyotda mavjud. Biz ushbu ishda quyida keltiriladigan Fox ning H -funksiyasida ba'zi xossalardan va shakl almashtirishdan foydalanamiz.

H-funksiya xossalari. Quyidagi rekurent formulalar o'rinni [8]:

$$H_{p,q}^{m,n} \left[z \left| \begin{matrix} (a_1, A_1), \dots, (a_p, A_p) \\ (b_1, B_1), \dots, (b_{q-1}, B_{q-1}), (a_1, A_1) \end{matrix} \right. \right] = H_{p-1, q-1}^{m, n-1} \left[z \left| \begin{matrix} (a_2, A_2), \dots, (a_p, A_p) \\ (b_1, B_1), \dots, (b_{q-1}, B_{q-1}) \end{matrix} \right. \right] \quad (6)$$

$$H_{p,q}^{m,n} \left[z \left| \begin{matrix} (a_p, A_p) \\ (b_q, B_q) \end{matrix} \right. \right] = H_{p,q}^{n,m} \left[\frac{1}{z} \left| \begin{matrix} (1-b_q, B_q) \\ (1-a_p, A_p) \end{matrix} \right. \right] \quad (7)$$

Ta'rif []: $f(x)$ funksiyaning shakl almashtirishi quyidagicha aniqlanadi.

$$g(x) = \int_0^{+\infty} (\lambda x)^{\frac{1}{2}} J_\nu(x\lambda) g(x) d\lambda, Re(\nu) > -1$$

bunda $J_\nu(z)$ Bessel funksiyasi bo'lib quyidagi ko'rinishga ega .

$$J_\nu(z) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{(-1)^k}{\Gamma(1+\nu+k)k!} \left(\frac{z}{2}\right)^{\nu+2k}$$

Aytaylik $C > 0$ yoki $C = D = 0$ va $Re(E) < -1$. Agar $\lambda, \nu, b \in \mathbb{C}, \sigma > 0$ lar uchun quyidagi shartlar bajarilsa

$$Re(\lambda) + Re(\nu) + \sigma \min_{1 \leq j \leq m} \left[\frac{Re(b_j)}{B_j} \right] > -1 \text{ va } Re(\lambda) + \sigma \min_{1 \leq j \leq m} \left[\frac{1}{A_j} - \frac{Re(a_j)}{A_j} \right] < \frac{3}{2}$$

u holda

$$\int_0^{\infty} x^{\lambda-1} J_\nu(ax) H_{p,q}^{m,n} \left[bx^\sigma \left| \begin{matrix} (a_p, A_p) \\ (b_q, B_q) \end{matrix} \right. \right] dx =$$

$$\frac{2^{\lambda-1}}{a^\lambda} \cdot H_{p+\sigma, q+1}^{m, n+1} \left[b \left(\frac{2}{a} \right) \left| \begin{matrix} (1-\frac{\lambda+\nu}{2}, \frac{\sigma}{2}), (a_p, A_p) \\ (b_q, B_q), (1-\frac{\lambda-\nu}{2}, \frac{\sigma}{2}) \end{matrix} \right. \right].$$

Mittag-Leffler (M-L) ning ikki parametrlil funksiyasi quyidagicha aniqlanadi [29]

$$E_{\alpha, \beta}(z) := \sum_{n=0}^{\infty} \frac{z^n}{\Gamma(\alpha n + \beta)},$$

bu yerda $\beta, z \in \mathbb{C} \Re(\alpha) > 0, E_{\alpha, 1}(\cdot)$ M-L funksiyasi $E_\alpha(\cdot)$ ga $\beta = 1$ bilan qisqarish mumkin

$$E_{\alpha, 1}(z) = E_\alpha(z) := \sum_{n=0}^{\infty} \frac{z^n}{\Gamma(\alpha n + 1)}, \quad (8)$$

bu yerda $z \in \mathbb{C} \Re(\alpha) > 0$.

Xususan, $\alpha = 1$ bo'lganda muntazam eksponensial funksiyani olishimiz mumkin.

Umumlashtirilgan M-L funksiyasi va Fox H-funksiyasi o'rtasidagi munosabatga quyidagicha bo'ladi.

$$E_{\alpha, \beta}(z) = H_{1, 2}^{1, 1} \left[-z \left| \begin{matrix} (0, 1) \\ (0, 1)(1-\beta, \alpha) \end{matrix} \right. \right]$$

M-L funksiyasining m-tartibli hosilalari quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{\alpha,\beta}^{(m)}(z) = \frac{d^m}{dz^m} (E_{\alpha,\beta}(zU)) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{(n+m)!z^n}{n!\Gamma(\alpha(n+m)+\beta)}, \quad (9)$$

integral o'zgarishlar. (1), (4) masalani hal qilish uchun biz Laplas va Furyeni qo'llashimiz kerak $U(x, t)$ funksiyani mos ravishda $t > 0$ va $x \in \mathbb{R}$ [24] ga nisbatan o'zgartirishlari:

$$L\{u\}(x, s) = \hat{u}(x, s) := \int_0^{\infty} e^{-st} u(x, t) dt, \quad x \in \mathbb{R}, \quad s \in \mathbb{C}, \quad (10)$$

$$F[u](\xi, t) = \hat{u}(\xi, t) := \int_{\mathbb{R}} e^{-i\xi x} u(x, t) dx, \quad \xi \in \mathbb{R}, \quad t > 0 \quad (11)$$

va ularning $s \in \mathbb{C}$ va $\xi \in \mathbb{R}$ ga nisbatan teskari o'zgarishlari:

$$u(x, t) = L^{-1}\{\hat{u}\}(x, s) = \frac{1}{2\pi i} \int_{\gamma-i\infty}^{\gamma+i\infty} \hat{u}(x, s) e^{st} ds, \quad x \in \mathbb{R}, \quad t > 0 \quad (12)$$

Bu yerda $\gamma = \Re e(s) > \gamma_0 =: \inf |s|$ va

$$u(x, t) = F^{-1}\{\hat{u}\}(\xi, t); = \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{R}} \hat{u}(\xi, t) e^{i\xi x} d\xi, \quad x \in \mathbb{R}, \quad t > 0 \quad (13)$$

To'g'ri va teskari Laplas va Furye almashtirishlarining xossalari, masalan, [24] da topish mumkin. Aytaylik:

$$\hat{\varphi}(\xi) := \int_{\mathbb{R}} \varphi(x) e^{-ix\xi} dx, \quad \hat{\psi}(\xi) := \int_{\mathbb{R}} \psi(x) e^{-ix\xi} dx.$$

Lemma 1. Ikki parametrlil M-L funksiyasi uchun quyidagi Laplas almashtirishi o'rinli [30]:

$$L[t^{\beta-1} E_{\alpha,\beta}(\pm \omega t^{\alpha})](s) = \int_0^{\infty} e^{-st} t^{\beta-1} E_{\alpha,\beta}(\pm \omega t^{\alpha}) dt = \frac{s^{-\alpha-\beta}}{s^{\alpha} \mp \omega},$$

bu yerda $\left| \frac{\omega}{s^{\alpha}} \right| < 1$

Lemma 2. Ixtiyoriy $\alpha > 0, b \in \mathbb{C}, m > 0$ va $\alpha \in \mathbb{R}$ uchun quyidagi formula to'g'ri keladi [31]:

$$\int_{\mathbb{R}} e^{i\xi x} E_{\alpha,\beta}^{(m)}(-a|\xi|^{\mu}) d\xi = (2\pi)^{\frac{n}{2}} |x|^{1-\frac{n}{2}} \int_0^{\infty} |\xi|^{\frac{n}{2}} E_{\alpha,\beta}^{(m)}(-a|\xi|^{\mu}) J_{\frac{n}{2}-1}(|x| \cdot |\xi|) d|\xi| \quad (14)$$

bu yerda $J_{\frac{n}{2}-1}(\cdot)$ Bessel funksiyasi va $E_{\alpha,\beta}^{(m)}(z)$ M-L ning m-tartibli hosilalarini bildiradi funksiyasi.

Bundan tashqari, M-L funksiyasining m-tartibli hosilalari Fox H funksiyasi bilan ifodalanishi mumkin:

$$E_{\alpha,\beta}^{(m)}(z) = H_{1,2}^{1,1} \left[-z \left| \begin{matrix} (-m, 1) \\ (0, 1), (1 - (\alpha m + \beta), \alpha) \end{matrix} \right. \right].$$

To'g'ri masalani tadqiqlash.

Dastlab, (1) tenglamaga t o'zgaruvchi bo'yicha Laplas almashtirishini va x o'zgaruvchi bo'yicha Furye almashtirishini qo'llaymiz, (2) shart uchun faqat x bo'yicha Furye almashtirishini qo'llaymiz. Bunda nomalum $U(x, t)$ funksiya o'zining barcha hosilalari bilan ya'ni $u_t(x, t), u_{xx}(x, t)$ lar qulay tarzda berilgan.

Bundan tashqari $\varphi(x)$ va $f(x, t)$ funksiyalar ham yetarlicha qulay berilgan deb faraz qilinadi.

Teorema: (1)-(2) ko'rinishida berilgan Koshi masalasining klassik yechimi quyidagicha aniqlanadi.

$$u(x, t) = \int_{\mathbb{R}} Z_1(x - \xi, t) \varphi(\xi) d\xi + \int_{\mathbb{R}} \int_0^t Z_2(x - \xi, t - \tau) f(\xi, \tau) d\xi d\tau. \quad (15)$$

Bu yerda

$$Z_1(x, t) = \frac{1}{x\sqrt{\pi}} H_{3,2}^{1,2} \left[\frac{4a^2 t^{\alpha}}{x^2} \left| \begin{matrix} (\frac{1}{2}, 1), (0, 1), (0, 1) \\ (0, 1), (0, \alpha) \end{matrix} \right. \right]$$

$$Z_2(x, t) = \frac{1}{x\sqrt{\pi}} H_{3,2}^{1,2} \left[\frac{4a^2 t^{\alpha}}{x^2} \left| \begin{matrix} (\frac{1}{2}, 1), (0, 1), (0, 1) \\ (0, 1), (1 - \alpha, \alpha) \end{matrix} \right. \right],$$

bunda $H_{p,q}^{m,n}(z)$ H-fox funksiyasi.

Isbot: Aytaylik $u(x, t)$ funksiyasining x o'zgaruvchi bo'yicha Furye almashtirishi $F[u(x, t)] = \hat{u}(\xi, t)$ bilan belgilansin va $u(x, t)$ funksiyaning Laplas almashtirishi $L[u(x, t)] = \hat{u}(x, s)$ bilan belgilansin bunda Laplas almashtirish t o'zgaruvchisi bo'yicha. (1) tenglamaning ikkala tomoniga mos ravishda Furye va Laplas almashtirishini x va t o'zgaruvchilar bo'yicha qo'llaymiz va quyidagi tenglamaga kelamiz.

$$s^{\alpha-1} [s \hat{u}(\xi, s) - \hat{u}(\xi, 0)] = -a^2 \xi^2 \hat{u} + \hat{f}(\xi, s) \quad (15)$$

(15) tenglamadan $\hat{U}(\xi, s)$ funksiyasini topib olsak.

$$\hat{u}(\xi, s) = \frac{s^{\alpha-1}\hat{\varphi}(\xi)}{s^{\alpha}+a^2\xi^2} + \frac{1}{s^{\alpha}+a^2\xi^2} \cdot \hat{f}(\xi, s) \quad (16)$$

(16) funksiyaga teskari Laplas almashtirishini qo'llasak ushbu natijaga ega bo'lamiz :

$$\begin{aligned} \hat{u}(\xi, s) &= L\{E_{\alpha}(-a^2\xi^2t^{\alpha})\} \cdot \hat{\varphi}(\xi) + L\{t^{\alpha-1} \cdot E_{\alpha,\alpha}(-a^2\xi^2t^{\alpha})\} \cdot L\{\hat{f}(\xi, t)\} \\ \hat{u}(\xi, t) &= E_{\alpha}(-a^2\xi^2t^{\alpha}) \cdot \hat{\varphi}(\xi) + \int_0^t (t-\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-a^2\xi^2(t-\tau)^{\alpha}) \cdot \hat{f}(\xi, \tau) d\tau \end{aligned} \quad (17)$$

Endi (17) tenglikni ikkala tomoniga teskari Furiye almashtirishini bajaramiz.

$$\begin{aligned} u(x, t) &= \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{R}} e^{ix\xi} E_{\alpha}(-a^2\xi^2t^{\alpha}) d\xi * \varphi(x) + \\ &+ \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{R}} e^{ix\xi} \int_0^t (t-\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-a^2\xi^2(t-\tau)^{\alpha}) \hat{f}(\xi, \tau) \cdot d\tau \cdot d\xi \end{aligned} \quad (18)$$

Agar (17) funksiyaning ikkinchi qo'shiluvchisidagi integral ostidagi $f(x, t)$ funksiya chegaralangan bo'lsa u holda o'rama ko'rinishidagi integral tekis yaqinlashuvchi va (18) uchun esa integrallash o'zgaruvchisini almashtirishimiz mumkin bo'ladi.

$$\begin{aligned} u(x, t) &= \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{R}} e^{ix\xi} E_{\alpha}(-a^2\xi^2t^{\alpha}) d\xi * \varphi(x) + \\ &+ \frac{1}{2\pi} \int_0^t \int_{\mathbb{R}} e^{ix\xi} (t-\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-a^2\xi^2(t-\tau)^{\alpha}) \hat{f}(\xi, \tau) \cdot d\tau \cdot d\xi \end{aligned} \quad (19)$$

(19) tenglikning birinchi hadini qaraymiz.

$$\begin{aligned} \frac{1}{2\pi} \int_{\mathbb{R}} e^{ix\xi} E_{\alpha}(-a^2\xi^2t^{\alpha}) d\xi * \varphi(x) &= \\ &= \frac{1}{2\pi} \sqrt{2\pi x} \int_0^{\infty} \xi^{\frac{1}{2}} E_{\alpha}(-a^2\xi^2t^{\alpha}) \cdot J_{\frac{1}{2}}(x, \xi) d\xi * \varphi(x) = \\ &= \sqrt{\frac{x}{2\pi}} \cdot \sqrt{\frac{2}{x^{\frac{3}{2}}}} H_{3,2}^{1,2} \left[\frac{4a^2t^{\alpha}}{x^2} \middle| \begin{matrix} (\frac{1}{2}, 1), (0, 1), (0, 1) \\ (0, 1), (0, \alpha) \end{matrix} \right] * \varphi(x) = \frac{1}{\sqrt{\pi x}} H_{2,1}^{0,2} \left[\frac{4a^2t^{\alpha}}{x^2} \middle| \begin{matrix} (\frac{1}{2}, 1), (0, 1) \\ (0, \alpha) \end{matrix} \right] * \varphi(x) = \\ &= \frac{1}{\sqrt{\pi x}} H_{1,2}^{2,0} \left[\frac{4a^2t^{\alpha}}{x^2} \middle| \begin{matrix} (1, \alpha) \\ (\frac{1}{2}, 1), (1, 1) \end{matrix} \right] * \varphi(x) = Z_1(x, t) * \varphi(x) \end{aligned}$$

va (19) tenglikning ikkinchi qismini qaraymiz.

$$\begin{aligned} \frac{1}{2\pi} \int_0^t \int_{\mathbb{R}} e^{ix\xi} (t-\tau)^{\alpha-1} E_{\alpha,\alpha}(-a^2\xi^2(t-\tau)^{\alpha}) d\xi * \hat{f}(\xi, \tau) d\tau &= \\ &= \int_0^t \frac{1}{\sqrt{\pi x}} H_{3,2}^{1,2} \left[\frac{4a^2(t-\tau)^{\alpha}}{x^2} \middle| \begin{matrix} (\frac{1}{2}, 1), (0, 1), (0, 1) \\ (0, 1), (1-\alpha, \alpha) \end{matrix} \right] * f(x, \tau) d\tau = \\ &= \int_0^t \frac{1}{\sqrt{\pi x}} H_{1,2}^{2,0} \left[\frac{x^2}{4a^2(t-\tau)^{\alpha}} \middle| \begin{matrix} (\alpha, \alpha) \\ (\frac{1}{2}, 1), (1, 1) \end{matrix} \right] * f(x, \tau) d\tau = \int_0^t Z_2(x, \tau) * f(x, \tau) d\tau \end{aligned}$$

Shunday qilib $u(x, t)$ funksiya quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$u(x, t) = \int_{\mathbb{R}} Z_1(x - \xi, t) \varphi(\xi) d\xi + \int_0^t d\tau \int_{\mathbb{R}} Z_2(x - \xi, t - \tau) f(\xi, \tau) d\xi$$

Endi $u(x, t)$, ${}^C D_t^{\alpha} u(x, t)$ va $u_{xx}(x, t)$ funksiyalar uchun baholarni qaraymiz.

$$|Z_1| = \left| \frac{1}{x\sqrt{\pi}} H_{1,2}^{2,0} \left[\frac{x^2}{4a^2t^{\alpha}} \middle| \begin{matrix} (1, \alpha) \\ (\frac{1}{2}, 1), (1, 1) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{1}{x\sqrt{\pi}} \cdot C_1 \cdot \left(\frac{x^2}{4a^2t^{\alpha}} \right)^{\frac{1}{2}} = \frac{C_1}{2\sqrt{\pi} a t^{\frac{\alpha}{2}}}$$

bunda $x \rightarrow 0$ ($t > t_0 > 0$)

$$|Z_2| = \left| \frac{1}{x\sqrt{\pi}} H_{1,2}^{2,0} \left[\frac{x^2}{4a^2t^{\alpha}} \middle| \begin{matrix} (\alpha, \alpha) \\ (\frac{1}{2}, 1), (1, 1) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{C_2}{2\sqrt{\pi} a t^{\frac{\alpha}{2}}}$$

bunda $x \rightarrow 0$ ($t > t_0 > 0$)

$$|Z_1| = \left| \frac{1}{x\sqrt{\pi}} H_{1,2}^{2,0} \left[\frac{x^2}{4a^2t^{\alpha}} \middle| \begin{matrix} (1, \alpha) \\ (\frac{1}{2}, 1), (1, 1) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{C_3}{x\sqrt{\pi}}$$

bunda $x \rightarrow \infty$ ($t > t_0 > 0$)

$$|Z_2| = \left| \frac{1}{x\sqrt{\pi}} H_{1,2}^{2,0} \left[\frac{x^2}{4a^2t^{\alpha}} \middle| \begin{matrix} (\alpha, \alpha) \\ (\frac{1}{2}, 1), (1, 1) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{C_4}{x\sqrt{\pi}} \left(\frac{x^2}{4a^2t^{\alpha}} \right)^{\frac{\alpha-1}{\alpha}}$$

bu yerda $x \rightarrow \infty$ ($t > t_0 > 0$)

$$|u(x, t)| \leq \int_{\mathbb{R}} |Z_1(x - \xi, t)| \|\varphi\| d\xi + \int_0^t d\tau \int_{\mathbb{R}} |Z_2(x - \xi, t - \tau)| \|f\| d\xi$$

Dastlab $\frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_1$ va $\frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_2$ larni hisoblaylik:

$$\left| \frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_1 \right| = \left| \frac{1}{x^3 \sqrt{\pi}} H_{3,2}^{2,1} \left[\frac{x^2}{4a^2 t^\alpha} \middle| \begin{matrix} (1,2), (1,\alpha) \\ (\frac{1}{2},1), (1,1), (3,2) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{C_5}{x^3 \sqrt{\pi}} \left(\frac{x^2}{4a^2 t^\alpha} \right)^{\frac{1}{2}}$$

$$\left| \frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_2 \right| = \left| \frac{1}{x^3 \sqrt{\pi}} H_{3,2}^{2,1} \left[\frac{x^2}{4a^2 t^\alpha} \middle| \begin{matrix} (1,2), (\alpha,\alpha) \\ (\frac{1}{2},1), (1,1), (3,2) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{C_6}{x^3 \sqrt{\pi}} \left(\frac{x^2}{4a^2 t^\alpha} \right)^{\frac{1}{2}}$$

bunda $x \rightarrow 0$,

$$\left| \frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_1 \right| = \left| \frac{1}{x^3 \sqrt{\pi}} H_{3,2}^{2,1} \left[\frac{x^2}{4a^2 t^\alpha} \middle| \begin{matrix} (1,2), (1,\alpha) \\ (\frac{1}{2},1), (1,1), (3,2) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{C_7}{x^3 \sqrt{\pi}}$$

$$\left| \frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_2 \right| = \left| \frac{1}{x^3 \sqrt{\pi}} H_{3,2}^{2,1} \left[\frac{x^2}{4a^2 t^\alpha} \middle| \begin{matrix} (1,2), (\alpha,\alpha) \\ (\frac{1}{2},1), (1,1), (3,2) \end{matrix} \right] \right| \leq \frac{C_8}{x^3 \sqrt{\pi}}$$

bunda $x \rightarrow \infty$.

$$|u_{xxx}| \leq \int_{\mathbb{R}} \left| \frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_1(x - \xi, t) \right| \|\varphi\| d\xi + \int_0^t d\tau \int_{\mathbb{R}} \left| \frac{\partial^2}{\partial x^2} Z_2(x - \xi, t - \tau) \right| \|f\| d\xi$$

$$|{}^c D_t^\alpha u| \leq a^2 |u| + \|f(x, t)\|$$

Teorema isbotlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Беданоква С.Ю. Математическое моделирование водного и солевого режимов в почвах с фрактальной организацией: Автореф. дисс. канд. физ.-мат. наук: 05.13.18. — Таганрог: Юж. фед. ун-т, 2007. — 16 с.
2. Мейланов Р. П., Шабанова М. Р. Уравнение теплопроводности для сред с фрактальной структурой. *Современные наукоёмкие технологии*, 2007. — № 8. — С. 84–85.
3. Сербина Л. И. Нелокальные математические модели переноса в водоносных системах. — М.: Наука, 2006. — 167 с.
4. Р. И. Паровик. Задача Коши для нелокального уравнения диффузии-адвекции радона во фрактальной среде. *Вестн. Сам. гос. техн. ун-та. Сер. Физ.-мат. науки*, 1 (20), (2010), с. 127–132.
5. Л И Сербина Нелокальные математические модели переноса в водоносных системах. *Наука*, (2007) 167 p.
6. A.A. Kilbas, H.M. Srivastava, J.J. Trujillo. *Theory and Applications of Fractional Differential Equations*. Amsterdam: Elsevier, (2006) 523 p.
7. A. Giusti, I. Colombaro, R. Garra, et al., "A practical guide to Prabhakar fractional calculus," *Fract. Calc. Appl. Anal.* 23, 9–54 (2020).
8. Mathai, A.M., Saxena, R.K., Haubold, H.J.: *The H-function. Theory and applications*. Springer, Dordrecht (2010) 269 p.
9. Z. Tomovski, R. Hilfer, and H. M. Srivastava, "Fractional and operational calculus with generalized fractional derivatives operators and Mittag-Leffler type functions," *Integral Transform. Spec. Funct.* 21, 797–814 (2010).
10. Р. И. Паровик, Метод функции Грина для одного дифференциального уравнения дробного порядка. *Вестник КРАУНЦ. Физ.-мат. науки*, 2010, № 1(1), 17–23
11. Durdiev Durdimurod K., Shishkina Elina L., Sitnik Sergei M. The explicit formula for solution of anomalous diffusion equation in the multi-dimensional space. *Lobachevskii Journal of Mathematics* 42(6), 2021, pp. 1264–1273.
12. Durdiev D.K., Turdiev Kh.Kh. "The problem of finding the kernels in the system of integro-differential Maxwell's equations". *Sib. Zh. Ind. Math.*, 24:2 (2021), 38-61.
13. Durdiev D.K. and Turdiev Kh.Kh. "An Inverse Problem for a First Order Hyperbolic System with Memory," *Differentsial'nye Uravneniya* 56 (12), 1666-1675 (2020).

14. Durdiev D.K., Rahmonov A.A., Bozorov Z.R., "A two-dimensional diffusion coefficient determination problem for the time-fractional equation". *Math. Meth. Appl. Sci.* 44 10753-10761 (2021).
15. Durdiev U.D., Totieva Z.D. "A problem of determining a special spatial part of 3D memory kernel in an integro-differential hyperbolic equation". *Math. Met. Appl. Scie.* 2019;42(18):7440-7451.
16. Durdiev D.K. "Inverse coefficient problem for the time-fractional diffusion equation". *Eurasian Journal of Mathematical and Computer Applications.* 9 (1) 44-54 (2022).
17. Durdiev U.D. "Inverse problem for a system of equations viscoelasticity in homogeneous anisotropic media". *Sib. journal industry math.* DOI 10.33048/sibjim.2019.22.403. 22 4 (80), pp.26-32. (2019).

CISCO PACKET TRACER DASTURIDA IOT QURILMALAR TARMOG‘INI
LOYIHALASH

*Murodova Ug‘iloy Murod qizi,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Qarshi filiali magistri
MurodovaOgiloy0218 @gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolaning umumiy mazmunida Cisco Packet Tracer dasturida IoT (Internet of Things) qurilmalar tarmog‘ini loyihalashga yo‘naltirish tahlillari singdirilgan. Maqola, IoT qurilmalar tarmog‘ining nima ekanligi, uning qanday tuzilishi va xususiyatlari, shuningdek, Cisco Packet Tracer dasturida tarmoqni loyihalash, tarmoqni sinash, tarmoqni nazorat qilish va tarmoq xavfsizligini ta‘minlash uchun qanday qadamlar bajarilishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: IoT (Internet of Things), tarmoq, Cisco Packet Tracer, smart home.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ СЕТИ ИОТ УСТРОЙСТВ В ПРОГРАММЕ
CISCO PACKET TRACER

Аннотация: В этой статье рассказывается о программе Cisco Packet Tracer, которая внедряет анализ ориентации на проектирование сети устройств IoT (Интернет вещей). В статье показано, что такое сеть устройств Интернета вещей, какова её структура и характеристики, а также какие шаги предпринимаются в программе Cisco Packet Tracer для проектирования сети, тестирования сети, мониторинга сети и обеспечения сетевой безопасности.

Ключевые слова: IoT (Интернет вещей), сеть, Cisco Packet Tracer, умный дом.

IOT DEVICE NETWORK DESIGN IN CISCO PACKET TRACER

Abstract. In this article written about the Cisco Packet Tracer program which inculcates analysis of orientation towards the design of the IoT (Internet of Things) device network. The article shows what the IoT network of devices is, what its structure and characteristics are, as well as what steps are taken in the Cisco Packet Tracer program to design a network, test a Network, Monitor a network, and ensure network security.

Keywords: IoT (Internet of Things), network, Cisco Packet Tracer, smart home.

Kirish. Dunyoda IoT (Internet of Things) qurilmalarining rivojlanishi kundan kunga jadallashib kelinmoqda. O‘zining ajoyib xususiyatlaridan kelib chiqib, IoT qurilmalari iste‘molchilariga ko‘pgina afzalliklarni taqdim etadi. Ayniqsa xonadonlarda, IoT qurilmalaridan foydalanish, uni o‘rganish va sinash yo‘nalishida muhim ishlar olib borilmoqda. Ushbu ishda bizning maqsadimiz, IoT qurilmalar tarmog‘ini Cisco Packet Tracer dasturida loyihalash bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lishdir. Bu ishda, IoT qurilmalarining xususiyatlarini va tuzilishini o‘rganib, ularning tarmoq ustida ishlaydigan usullarini va ularning tarmoqni sinash va loyihalash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarini tahlil qilamiz. Buning natijasida, IoT qurilmalar tarmog‘ini loyihalash bo‘yicha kerakli qadamlar haqida tushunchalar hosil qilinadi.[1,3].

Asosiy qism. Bugungi kunda IoT qurilmalari bir qancha sohada qo‘llab kelinmoqda, masalan: Umumiy sohalar (smart homes), Mashinlar va transport vositalari (smart cars and transportation), Tijorat (retail), Sog‘lomlashtirish (healthcare), Ijtimoiy tarmoq (social network).

IoT qurilmalari odamlarning hayoti va faoliyatini qanday soddalashtirishi mumkinligini bilish uchun buyumlar internetining sirlari va imkoniyatlarini texnik tushunish shart emas.

IoT qurilmasi aslida bulutga ma‘lumot yuboradigan mini-kompyuterdir. Keyin bulut ma‘lumotni qayta ishlaydi va u bilan nima qilishni hal qiladi. Masalan, bulutli dasturiy ta‘minot ma‘lumotlar uzatilishiga qarab oghlantirish yuborish, sensori sozlash yoki bildirishnomani ko‘rsatishni tanlashi mumkin.

Aksariyat IoT qurilmalari dasturlashdan tashqari hech qanday odam kiritmasdan avtomatik ravishda ma‘lumotlar bilan ishlash uchun ishlab chiqilgan. Biroq turli darajadagi funktsionallikka ega foydalanuvchi interfeysi mavjud. Misol uchun, ba‘zi vazifalar foydalanuvchilardan harakatlarni bajarish uchun "yaxshi" deyishlarini talab qilishi mumkin, boshqalari esa avtomatik ravishda vazifalarni bajarishi mumkin.

Foydalanuvchi interfeysi orqali foydalanuvchi sozlashlari IoT tizimi orqali qaytarib yuboriladi va qurilmaga keyin nima qilish kerakligini aytadi. Bu ogohlantirishga e'tibor bermaslik, anomalayani yozish yoki xodimlarga xabar yuborish bo'lishi mumkin.

IoT qurilmalari qanday ishlashini yaxshiroq tushunish uchun IoT tizimi qanday ishlashini ko'rib chiqaylik. To'rt komponent integratsiyalashgan IoT tizimini tashkil qiladi va IoT qurilmalariga o'z dasturlariga muvofiq vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- Sensorlar yoki qurilmalar
- Ulanish
- Ma'lumotlarni qayta ishlash
- Foydalanuvchi interfeysi

IoT qurilmalarining afzalliklari

Xulosa qilishdan oldin, keling, IoT qurilmalarining ba'zi afzalliklari va kamchiliklarini qisqacha ko'rib chiqaylik. IoT qurilmalarining ba'zi afzalliklari quyidagilardan iborat:

• **Avtomatlashtirish.** IoT qurilmalari foydalanuvchilarga operatsiyalar uchun muhim bo'lgan ko'plab zerikarli vazifalarni optimallashtirish imkoniyatini taklif qiladi, shunda xodimlar vaqtlarini boshqa ishlab chiqarish faoliyatiga sarflashlari mumkin.

• **Mijozlarga xizmat ko'rsatish yaxshilandi.** IoT qurilmalari tezroq ro'yxatdan o'tish, soddalashtirilgan uchrashuvlarni sozlash va brendingiz uchun obro'- e'tiborni boshqarishga yordam beruvchi boshqa mijozlarga qaratilgan tadbirlarni yoqish orqali mijozlar tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

• **Ulanish.** IoT qurilmalari mustaqil emas. IoT qurilmasidan to'plangan ma'lumotlarga vakolatli foydalanuvchilar istalgan joydan kirishlari mumkin.

• **Resurs va aktivlardan yaxshiroq foydalanish.** IoT qurilmalari ERP tizimiga ulanganda texnik xizmat ko'rsatish va resurslarni rejalashtirish faoliyatini soddalashtiradi.

• **Yaxshilangan mahsuldorlik va aloqa.** IoT qurilmalaridan to'plangan ma'lumotlar loyihalarni boshqarish vazifalarini va bir nechta joylarda tarqalgan jamoalar o'rtasidagi aloqani yaxshilashi mumkin.

• **Operatsiyalarni soddalashtirish va iqtisodiy samaradorlik.** Xarajatlar, rejalashtirish, tashish va materiallar kabi narsalarni kuzatish va boshqarish IoT qurilmalari yordamida soddalashtirilgan.

• **Yaxshi sanoat xavfsizligi shartlari.** IoT qurilmalari xavfli materiallarni kuzatish, mashinalarni tartibga solish va tashkilotlarga muvofiqlik standartlarini saqlashda yordam berishi mumkin.

• **Yaxshilangan marketing va biznesni rivojlantirish.** IoT qurilmalaridan to'plangan ma'lumotlar foydalanuvchi kiritishi va mijozlar xatti-harakati asosida biznes qarorlarini bildirishi mumkin.

IoT qurilmalarining kamchiliklari

Boshqa tomondan, IoT qurilmalari uchun bir nechta kamchiliklar mavjud:

• **Kiberxavfsizlik muammolari.** Mobil hujum har 39 soniyada amalga oshiriladi va ko'plab IoT qurilmalari infiltratorlarning tarmoqqa kirish yo'llarini oshiradi.

• **Standartlashtirishning yo'qligi.** HIPAA muvofiqligini ta'minlashi kerak bo'lgan korxonalariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni boshqarish ustidan qat'iy nazoratni o'rnatish uchun tartibga soluvchi protokollar mavjud emas.

• **Tarmoq va quvvatga bog'liqlik.** Quvvat va ulanish imkoniyatisiz IoT qurilmalari deyarli foydasiz.

• **Joylashtirish muammolari.** IoT tizimini joriy etish yuqori narx yorlig'i va kompaniya bo'ylab o'qitish va resurslarni talab qiladigan keskin o'rganish egri chizig'i bilan birga keladi.


Bu faqat bir necha misollar va IoT-quyidagi qurilmalar foydalanish sohasiga qarab juda kengroq. Bugungi kunda IoT-quyidagi qurilmalar foydalanish sohasi eng keng tarqalayotgan sohalaridan biri hisoblanadi [2].

Tarmoq, bir yoki bir nechta qurilmalar orqali bir-biriga bog'liq, axborot almashinuvi yoki resurslarni almashinuvi qilish uchun qurilgan axborot tizimi hisoblanadi. Tarmoq dasturlari va serverlar, asosan, tarmoqda o'tkazilayotgan axborot almashinuvi uchun ishlatiladi [3].

Cisco Packet Tracer dasturi, tarmoq tizimlari va ularning tuzilishini, xususiyatlarini tushunish va o'rganish uchun ishlatiluvchi yagona dastur hisoblanadi. Bu dastur tarmoq sozlamalari, virtual tarmoq vositalari, qurilmalar, tarmoq topologiyalari, tarmoq protokollari va boshqa tarmoq xususiyatlari haqida qiziqarli tajriba yaratish imkoniyatlarini beradi [4,5].


Cisco Packet Tracer dasturi talabalar, tarmoq administratorlari va hodimlari, hamda tarmoq sozlamalari yaratishni va o'rganishni osonlashtiradi.

Cisco Packet Tracer dasturini ishga tushiramiz va qo'yidagi ko'rinishda tarmoq qurib olamiz:




1-rasm. Tarmoq ko'rinishi

Wi-Fi routerga qurilmalarni kabel orqali bog'laymiz va IoT qurilmalari uchun Wi-Fi signali tarqatamiz, signaldan foydalanib barcha IoT qurilmalarini Wi-Fi ga bog'laymiz va quyidagi tarmoqni hosil qilamiz:




2-rasm. Wi-Fi signalga IoT qurilmalarini bog'lash

IoT qurilmalarni boshqarish uchun, biz kompyuter Desktop menyusidan IoT Monitor qismini tanlaymiz va Serverimiz IP manziliga, yaratgan User name va Password orqali kiramiz:



3-rasm. Serverga kirish oynasi

Yakuniy natija ushbu ko'rinishda bo'ladi. Biz kompyuter IoT monitoridan qurilmalarni barchasiga buyruq berdik va endi biz masofadan turib serverga bog'langan barcha IoT qurilmalarini boshqara olamiz.



4-rasm. Yakuniy natija. Barcha IoT qurilmalari ishlash jarayoni

IoT qurilmalarini amaliyotga tatbiq etishda uning ba'zi afzalliklari haqida tasavvurga ega bo'lish foydalanuvchilarga qulayliklar yaratadi:

Avtomatlashtirish. IoT qurilmalari foydalanuvchilarga operatsiyalar uchun muhim bo'lgan ko'plab zerikarli vazifalarni optimallashtirish imkoniyatini taklif qiladi, shunda xodimlar vaqtlarini boshqa ishlab chiqarish faoliyatiga sarflashlari mumkin.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish yaxshilandi. IoT qurilmalari tezroq ro'yxatdan o'tish, soddalashtirilgan uchrashuvlarni sozlash va brendingiz uchun obro'- e'tiborni boshqarishga yordam beruvchi boshqa mijozlarga qaratilgan tadbirlarni yoqish orqali mijozlar tajribasini yaxshilashga yordam beradi.

Ulanish. IoT qurilmalari mustaqil emas. IoT qurilmasidan to'plangan ma'lumotlarga vakolatli foydalanuvchilar istalgan joydan kirishlari mumkin.

Resurs va aktivlardan yaxshiroq foydalanish. IoT qurilmalari ERP tizimiga ulanganda texnik xizmat ko'rsatish va resurslarni rejalashtirish faoliyatini soddalashtiradi.

Yaxshilangan mahsuldorlik va aloqa. IoT qurilmalaridan to'plangan ma'lumotlar loyihalarni boshqarish vazifalarini va bir nechta joylarda tarqalgan jamoalar o'rtasidagi aloqani yaxshilashi mumkin.

Operatsiyalarni soddalashtirish va iqtisodiy samaradorlik. Xarajatlar, rejalashtirish, tashish va materiallar kabi narsalarni kuzatish va boshqarish IoT qurilmalari yordamida soddalashtirilgan.

Yaxshi sanoat xavfsizligi shartlari. IoT qurilmalari xavfli materiallarni kuzatish, mashinalarni tartibga solish va tashkilotlarga muvofiqlik standartlarini saqlashda yordam berishi mumkin.

Yaxshilangan marketing va biznesni rivojlantirish. IoT qurilmalaridan to'plangan ma'lumotlar foydalanuvchi kiritishi va mijozlar xatti-harakati asosida biznes qarorlarini bildirishi mumkin.

Shu bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlarimizning amaliy natijalarining ijobiy jihatlari bilan birgalikda ushbu maqolamizda uning ba'zi kamchiliklari haqida to'xtalishni joiz deb topdik. Boshqa tomondan, xolis olib qaralganda, IoT qurilmalari uchun bir nechta kamchiliklar mavjud:

- Kiberxavfsizlik muammolari. Mobil hujum har 39 soniyada amalga oshiriladi va ko'plab IoT qurilmalari infiltratorlarning tarmoqqa kirish yo'llarini oshiradi.
- Standartlashtirishning yo'qligi. HIPAA muvofiqligini ta'minlashi kerak bo'lgan korxonalariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni boshqarish ustidan qat'iy nazoratni o'rnatish uchun tartibga soluvchi protokollar mavjud emas.
- Tarmoq va quvvatga bog'liqlik. Quvvat va ulanish imkoniyatisiz IoT qurilmalari deyarli foydasiz.
- Joylashtirish muammolari. IoT tizimini joriy etish yuqori narx yorlig'i va kompaniya bo'ylab o'qitish va resurslarni talab qiladigan keskin o'rganish egri chizig'i bilan birga keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu ishda Internet of Things (IoT) qurilmalarini tarmog'ini loyihalash va ularni qo'llanishni o'rganish mumkin. Cisco Packet Tracer dasturi IoT qurilmalari uchun yaxshi vositalardan biri hisoblanadi. Bu dastur IoT qurilmalari va ular bilan ishlashga virtual muhiti hisoblanadi. Bunda sodda loyihalar, tarmoqlar va komponentlarni jamlab yaratishingiz mumkin. Bu dastur yordamida, aqlli uy tarmog'ini yaratish, loyihalash va tahlil qilishni o'rganish mumkin.

Aqlli uyda qo'llanadigan IoT qurilmalarini tarmog'ini loyihalashni o'rganish, bizning tarmoq va qurilma tushunchalarimizni kengaytirish, tahlil qilish va muhim xususiyatlarni aniqlash uchun yaxshi bir imkoniyat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. <https://www.techtarget.com/iotagenda/definition/Internet-of-Things-IoT>
2. Al-Fuqaha A., Guizani M., Mohammadi M., Aledhari M., & Ayyash M. (2015). *Internet of things: A survey on enabling technologies, protocols, and applications. IEEE Communications Surveys & Tutorials*, 17(4), 2347-2376.
3. Zhang Y., & Wang W. (2019). *Research on the Internet of Things technology based on smart home. Journal of Physics: Conference Series*, 1231(1), 012122.
4. Li, X., Li, H., & Zhou, X. (2019). *Design and implementation of a smart home system based on Internet of Things. International Journal of Online and Biomedical Engineering*, 15(4), 29-39.
5. Kharde R. S., & Sonawane R. R. (2016). *Internet of Things: A review of applications in smart home and city. International Journal of Next-Generation Computing*, 7(2), 51-61.

O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI TASHQI MANBAGA EGA INTEGRO-DIFFERENSIAL ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASIDAN XOTIRA FUNKSIYASINI ANIQLASH MASALASI

Turdiyev Halim Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti, "Differensial tenglamalar" kafedrasida katta o'qituvchisi
hturdiev@mail.ru

Xidirov Umidjon Bahronovich,
Buxoro davlat universiteti, "Differensial tenglamalar" kafedrasida o'qituvchisi
Subhonova Nilufar Usmon qizi,
Buxoro davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki o'lchamli o'zgaruvchi koeffitsiyentli integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun to'g'ri va teskari masala qaraldi. Avvalo, integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun boshlang'ich chegaraviy masala qo'yildi. Shundan so'ng qo'shimcha shart yordamida integral had ostidagi yadroni aniqlash bo'yicha teskari masala qaraldi. Teskari masala yechimini mavjudligini ko'rsatish uchun berilgan masalada yangi funktsiya kiritib, berilgan masalaga yordamchi ekvivalent masala olindi. Yangi funktsiyaga nisbatan olingan ekvivalent masalaning yechimi mavjudligi va yagonaligi isbotlandi. Bunda asosan integro -differensial tenglama uchun qo'yilgan boshlang'ich chegaraviy masala Grin funksiyasiga bog'liq holda Puasson formulasi yordamida Volterra ikkinchi tur integral tenglamaga keltirildi. Ushbu Volterra ikkinchi tur integral tenglamasi va integro-differensial issiqlik tarqalish tenglamasi uchun yordamchi boshlang'ich chegaraviy masala ekvivalent ekanligi ko'ratildi. Volterra ikkinchi tur integral tenglamasi yechimi mavjudligi ketma-ket yaqinlashish yordamida, yechimning yagonaligi esa Gronoull integral tengsizligi yordamida isbotlangan.

Yuqorida keltirilgan teoremlarning tatbiqi sifatida ξ_1 va ξ_2 tasodifiy miqdorlar taqsimotlari uchun N va ρ_1 larning har xil o'zgarishlaridagi o'tish holatlarini qaraymiz. Quyidagi belgilashlarni kiritaylik:

$$\delta = \frac{1 - b^{-N}}{b - 1},$$

$$E(x) = \begin{cases} 0, & x \leq 0, \\ x, & 0 < x \leq 1 \\ 1, & x > 1. \end{cases}$$

$$F_{\alpha,A}(x) = \begin{cases} 0, & x \leq 0, \\ \frac{1 - e^{-\frac{x\alpha m}{A}}}{1 - e^{-\alpha m}}, & 0 < x \leq A \\ 1, & x > A. \end{cases}$$

$$K(x) = \begin{cases} 0, & x \leq 0 \\ 1 - e^{-x}, & x > 0. \end{cases}$$

5-teorema. $N \rightarrow \infty, \rho_1 \uparrow 1$ da $N(1 - \rho_1) \rightarrow \alpha (0 \leq \alpha \leq \infty)$ bo'lsin. U holda quyidagi asimptotik munosabatlar o'rinli:

$$P(\xi_1 < x\delta) \rightarrow \begin{cases} E(x), & \alpha = 0, \\ F_{\alpha,A}(x), & 0 < \alpha < \infty, \\ K(x), & \alpha = \infty, \end{cases}$$

bu yerda $A = \alpha m (1 - e^{-\alpha m})^{-1}$, $m = 2(\mu\sigma)^{-2}$.

6-teorema. $N \rightarrow \infty, \rho_1 \downarrow 1$ va $N(\rho_1 - 1) \rightarrow \beta$ da ushbu asimptotik munosabatlar o'rinli:

$$P(N - \xi_1 < x\delta) \rightarrow \begin{cases} E(x), & \beta = 0, \\ F_{\beta,B}(x), & 0 < \beta < \infty, \\ K(x), & \beta = \infty, \end{cases}$$

bu yerda $B = \beta m (1 - e^{-\beta m})^{-1}$, $m = 2(\mu\sigma)^{-2}$.

7-teorema. $N \rightarrow \infty, \rho_2 \uparrow 1$ va $N(1 - \rho_2) \rightarrow \beta$ da ushbu asimptotik munosabatlar o'rinli:

$$P(\xi_2 < x\delta) \rightarrow \begin{cases} E(x), & \beta = 0, \\ F_{\beta,B}(x), & 0 < \beta < \infty, \\ K(x), & \beta = \infty. \end{cases}$$

8-teorema. $N \rightarrow \infty, \rho_2 \downarrow 1$ va $N(\rho_2 - 1) \rightarrow \alpha$ da ushbu asimptotik munosabatlar o'rinli:

$$P(N - \xi_2 < x\delta) \rightarrow \begin{cases} E(x), & \alpha = 0, \\ F_{\alpha,A}(x), & 0 < \alpha < \infty, \\ K(x), & \alpha = \infty. \end{cases}$$

5-teoremaning isboti. (1) munosabatga ko'ra

$$P(\xi_1 < x\delta) = \frac{1 - b^{-\alpha x \delta}}{1 - b^{-N-1}} + O\left(\frac{1}{x\delta} + 1 - \rho_1\right) \quad (12)$$

tenglikka ega bo'lamiz. Aytaylik, $N \rightarrow \infty$ va $\rho_1 \uparrow 1$ da $N(1 - \rho_1) \rightarrow \alpha (0 < \alpha < \infty)$ bo'lsin. U holda ushbu munosabatlar o'rinli bo'ladi:

$$b^{-N} = \left[1 + \frac{2(1-\rho_1)}{\lambda^2\sigma^2}\right]^{-N} = \left[1 + \frac{2N(1-\rho_1)}{N\lambda^2\sigma^2}\right]^{-N} \rightarrow e^{-\frac{2\alpha}{\mu^2\sigma^2}} = e^{-\alpha m}, \quad (13)$$

$$\frac{1}{x\delta} = \frac{1-\rho_1}{x(1-b^{-N})} \rightarrow 0, \quad (14)$$

bu yerda $m = 2(\mu\sigma)^{-2}$, x - ixtiyoriy fiksirlangan son.

Ma'lumki,

$$a_{x\delta} = [x\delta] + 1 = x\delta + 1 - h, \quad 0 < h < 1.$$

Bunga ko'ra $N(1-\rho_1) \rightarrow \alpha$ da

$$b^{-a_{x\delta}} = \left[1 + \frac{2(1-\rho_1)}{\lambda^2\sigma^2}\right]^{-x\frac{1-b^{-N}}{b-1}+1-h} = \left[1 + \frac{2(1-\rho_1)}{\lambda^2\sigma^2}\right]^{-x\frac{1-b^{-N}\lambda^2\sigma^2}{1-\rho_1}+1-h} \rightarrow$$

$$\rightarrow e^{-x(1-e^{-\alpha m})} = e^{-x\frac{\alpha m}{A}}, \quad A = \alpha m(1-e^{-\alpha m})^{-1}. \quad (15)$$

(13) – (15) larga ko'ra (12) dan ushbu munosabatni hosil qilamiz:

$$P(\xi_1 < x\delta) \rightarrow \frac{1 - e^{-x\frac{\alpha m}{A}}}{1 - e^{-\alpha m}}, \quad 0 < x \leq A, 0 < \alpha < \infty.$$

Endi faraz qilaylik, $N(1-\rho_1) \rightarrow 0$ bo'lsin. U holda (13) va (15) munosabatlarga ko'ra:

$$\frac{1 - b^{-N-1}}{N(1-\rho_1)\frac{2}{\lambda^2\sigma^2}} = \frac{1 - \left[1 + \frac{2N(1-\rho_1)}{N\lambda^2\sigma^2}\right]^{-N-1}}{N(1-\rho_1)\frac{2}{\lambda^2\sigma^2}} \rightarrow 1 \quad (16)$$

va

$$\frac{1 - b^{-a_{x\delta}}}{N(1-\rho_1)\frac{2}{\lambda^2\sigma^2}} = \frac{1 - \left[1 + \frac{2(1-\rho_1)}{\lambda^2\sigma^2}\right]^{-x\frac{1-b^{-N}\lambda^2\sigma^2}{1-\rho_1}+1-h}}{N(1-\rho_1)\frac{2}{\lambda^2\sigma^2}x} \cdot x \rightarrow x \quad (17)$$

hosil bo'ladi. $N(1-\rho_1) \rightarrow \infty$ da

$$b^{-N} = \left[1 + \frac{2N(1-\rho_1)}{N\lambda^2\sigma^2}\right]^{-N} \rightarrow e^{-\infty} = 0 \quad (18)$$

va

$$1 - b^{-a_{x\delta}} = 1 - \left[1 + \frac{2(1-\rho_1)}{\lambda^2\sigma^2}\right]^{-x\frac{\lambda^2\sigma^2}{1-\rho_1}(1-b^{-N})+1-h} \rightarrow 1 - e^{-x} \quad (19)$$

munosabatlarni hosil qilamiz. (16) – (19) dan teoremaning $N(1-\rho_1) \rightarrow 0$ va $N(1-\rho_1) \rightarrow \infty$ dagi qismining isboti kelib chiqadi.

Xulosa. Ushbu holatlarni $F_{\alpha,A}(x)$ funksiyadan $\alpha \rightarrow 0$ va $\alpha \rightarrow \infty$ da limitlarga o'tib ham hosil qilish mumkin.

6-8- teoremlarni 2-4- teoremlardagi tasdiqlardan foydalangan holda, 5- teorema isbotidagi mulohazalarni takrorlab isbot qilish qiyin emas.

5 va 6- teoremlardagi munosabatlar $M|M|1|N$ sistema uchun, ya'ni

$$B(x) = \begin{cases} 0, & x \leq 0, \\ 1 - e^{-\mu x}, & x > 0 \end{cases}$$

bo'lganda [5] ishda keltirib chiqarilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Азларов Т.А., Тахиров А. Случайные процессы и статистические выводы., Ташкент, “Фан”, 1974, вып.4., с. 4-9.

2. Висков С.В., Исмоилов А.И. Система массового обслуживания с ограниченной очередью. Исследования по математической статистике и смежные вопросы. Науч.тр. ТашГУ, Ташкент, 1972, вып.402, с.43-49.

3. Курбанов Х. Соотношение двойственности для распределений периодов занятости систем $M/G/1/N$ в $GJM/G/1/N-1$ и его применение. Ред. Изв.АН УзССР, сер.ф.м.н.-Ташкент, 1987. -45. Библиография. -5.назв. -рус.Деп.в ВИНТИ. 4.05.87 г. N 3154-B87.
4. Ташманов Х.Т., Курбанов Х.К. Исследование стационарные распределения длин очередей двойственных систем.Сб. тр.ТашГУ, 1987, с.79-82.
5. Ташманов Х.Т. Переходные явления в простейшей системе массового обслуживания с ограничением. Изв.АНУзССР.серия ф.м.н., № 4, 1973, с. 46-49.
6. Кокс Д.Р., Смит В.Л. Теория восстановления. М: Соврадио, 1967,299 стр.
7. Боровков А.А. Теория вероятностей. М: Наука, 1976, 372 стр.
8. Саати Т.Л. Элементы теории массового обслуживания и ее приложения. М.: Советское радио, 1971.
9. Harris T.J. The remaining busy period of finite queue. Oper.Res., v19, 1971, 219-233 pg.
10. Солнышкина И.В. Теория систем массового обслуживания Комсомольск-на-Амуре, 2015

МАТЕМАТИК ҲИСОБЛАШЛАРНИ ЎҚИТИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
ВОСИТАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ

Хайриева Шаҳноза Сайдулло қизи,
Ўзбекистон, Навоий давлат педагогика институти
Математика-информатика факультети
Математика-информатика таълим йўналиши 3-курс талабаси
arziqulovhusannormurodovich@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада математик ҳисоб-китобларни бажаришда қўлланиладиган математик пакетларнинг имкониятларини баҳолаш натижалари, маъруза машғулотларини ташкил этишида, ҳамда, талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятида мисол ва масалаларнинг ечимларини таҳлил этишида Maple математик амалий пакетидан фойдаланишнинг илмий таҳлили келтирилган.

Калим сўзлар: математик пакет, GNU Octave, Derive, Mathematica, Maple, MathCAD, Maxima, Scilab, Genius, SMath Studio, KSF Math JS.

СРЕДСТВА ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИХ ВОЗМОЖНОСТИ
ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИЧЕСКИМ РАСЧЁТАМ

Аннотация: В данной статье представлены результаты оценки возможностей математических пакетов, используемых при выполнении математических расчетов, научный анализ использования математического пакета Maple при организации лекций, а также при разборе примеров и решений задач. в самостоятельной учебной деятельности студентов.

Ключевые слова: математический пакет, GNU Octave, Derive, Mathematica, Maple, MathCAD, Maxima, Scilab, Genius, SMath Studio, KSF Math JS.

INFORMATION TECHNOLOGY TOOLS AND THEIR CAPABILITIES
IN THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICAL CALCULATIONS

Abstract: This article presents the results of evaluating the capabilities of the mathematical packages used in performing mathematical calculations, the scientific analysis of the use of the Maple mathematical package in the organization of lectures, as well as in the analysis of examples and solutions to problems in independent educational activities of students.

Keywords: math package, GNU Octave, Derive, Mathematica, Maple, MathCAD, Maxima, Scilab, Genius, SMath Studio, KSF Math JS.

Кириш. Дастлаб математик ҳисоб-китобларни енгиллаштириш учун биринчи компьютерлар ишлаб чиқилган (компьютерлар - электрон ҳисоблаш машиналари), шу сабабли математикани ўқитишда компьютерлардан фойдаланиш бошқа фанларга қараганда олдинроқ бошланган. Фундаментал математика ва компьютер технологиялари соҳасида компьютер математикаси деб номланган янги йўналиш пайдо бўлди. Бу борада В.П. Дяконов ушбу йўналишни «... ҳисоблашларнинг барча босқичларини визуализация қилиш даражаси юқори бўлган турли хил турдаги математик масалаларни компьютерларда самарали ечиш учун мўлжалланган назарий, алгоритмик, аппарат ва дастурий воситалар тўплами» деб таърифлайди. Компьютер математикаси тизимлари кўпинча компьютер математикасида дастурий таъминот воситаси сифатида ишлатилади.

Ушбу синф дастурлари турли хил номларга эга: компьютер алгебра тизимлари, компьютер математикаси тизимлари, компьютер математик тўпламлари, математик тизимлар, компьютернинг математик амалий пакетлари ва бошқалар. Биз тадқиқотимизда компьютернинг математик амалий пакетлари деб, таъриф беришни лозим топдик.

Компьютернинг математик амалий пакетларини яратиш даври одатда 60-йилларнинг бошида бошланган. Ўша пайтда стандарт алгебраик ўзгаришларни амалга оширишга кодир бўлган компьютер тизимларини яратиш мумкин эди: ифодаларни алмаштириш ва соддалаштириш, чизикли ва ночизикли тенгламаларни ечиш, матрицалар устида амаллар бажариш, функция графикларини

чизиш каби амалий натижаларни олиш. Бу, асосан, таҳлилий натижаларни ўрганиш ва анализ қилиш имкониятини яратган [1].

Асосий қисм. Дастурий таъминот бозорида компьютер математикасининг дастлабки амалий пакетлари ўтган асрнинг 80-йилларида пайдо бўлган. Уларнинг ривожланиш даври 90-йилларга тўғри келади. Ҳозирда ушбу амалий пакетлар математик ҳисоб-китобларни бажаришда, тадқиқот ишларини олиб боришда ва олинган натижаларни таҳлил этишда юқори имкониятларни яратади [1].

Ушбу математик амалий пакетларнинг янгиланишлари давом этмоқда, ҳар бир кейинги версия аввалгисининг имкониятларини кенгайтиради, аммо асослари ўзгармайди.

В.П. Дяконов ўз асарларида компьютернинг математик амалий пакетларини шартли равишда тўртта асосий синфга ажратади [2]:

- рақамли ҳисоблаш тизимлари;
- статистик ҳисоблаш тизимлари;
- махсус ҳисоб-китоблар учун тизимлар;
- аналитик ҳисоблаш тизимлари (компьютер алгебраси).

Ушбу математик амалий пакетларни баъзиларининг имкониятлари ҳақида қисқача маълумотлар келтираемиз.

GNU Octave – амалий пакети математик ҳисоб-китоб ишларини бажариш ва тажрибалар ўтказишга мўлжалланган тизим ҳисобланади. Octave амалий пакети ёрдамида чизиқли ва чизиқли бўлмаган алгебра масалаларини, дифференциал тенгламаларни, оптималлаштиришнинг чизиқли ва ночизиқли масалаларини ечиш, интегралларни ҳисоблаш ҳамда функция графикларини чизиш мумкин [3].

Derive – амалий пакети математик ва илмий-техник муаммоларнинг кенг доирасини ҳал қилишга йўналтирилган универсал математик амалий пакет ҳисобланади. Derive амалий пакети ўзининг имкониятларини сезиларли даражада кенгайтирадиган кутубхонаси билан таъминланган [5].

“Mathematica – амалий пакети дастурлашнинг мураккаблигига қарамасдан жуда кўп сонли масалаларни ечишга имкон берадиган универсал математик тизимлардан бири”. Унинг ёрдами билан рақамли ва аналитик ҳисоб-китоблар қулай амалга оширилади. Амалий пакетнинг қолган қисмидан фарқли жиҳатларидан бири, икки ва уч ўлчовли графиклар бўлиб, улар уч ўлчовли фазодаги эгри чизиқлар ҳамда сиртларни тасаввур қилишда фойдаланилади. Mathematica муҳити замонавий ва юқори даражадаги дастурий тилни ўз ичига олади, бу эса янада қулайроқ ва ўзининг функционал имкониятига эга. Тизим интерактив, яъни фойдаланувчи билан доимий мулоқот режимида ишлайди. Mathematica амалий пакети умумий ўрта таълим мактаблари, касб-хунар коллежлари, академик лицейлар, олий таълим муассасалари ўқитувчилар ва ўқувчилари ҳамда математикага оид тадқиқотлар олиб боровчилар фойдаланиши учун универсал амалий пакет ҳисобланади [1].

Maple – амалий пакети аналитик ва рақамли усуллардан фойдаланган ҳолда мураккаб ҳисоблаш лойиҳаларини амалга ошириш учун мўлжалланган юқори ҳисоблаш тизими ҳисобланади [4]. Maple амалий пакети математик масалаларни ечишнинг рақамли алгоритмга эга. Шунингдек, мураккаб масалаларни ҳисоблашга мўлжалланган кутубхонага, ҳамда, дастурлаш тилига эга. Бу фойдаланувчига буйруқлар ва дастурларни мустақил равишда яратишга имкон бериш орқали, унинг имкониятларини кенгайтиради. Шу билан бирга яхши матн муҳаррири, босма сифатли формулалар ва ажойиб икки ва уч ўлчовли графикларни қуриш имконини яратади [6].

“MatLab – амалий пакети рақамли сигнал ва тасвирни қайта ишлаш, бошқарув тизимини лойиҳалаш, табиий фанлар, молия ва иқтисодий масалаларни ҳисоблаш учун самарали амалий пакет ҳисобланади” [4]. Очiq архитектура тадқиқот учун MatLab ва тегишли маҳсулотлардан фойдаланишни осонлаштириш орқали рақобатбардош махсус воситаларни яратади [6]. Асосий хусусиятлар: тезкор ва аниқ рақамли алгоритмлар, маълумотларни таҳлил қилиш ва намойиш қилиш учун графиклар, интерфаол тил ва дастурлаш муҳит, фойдаланувчи интерфейсларини созлаш воситалари, C, C++, Delphi ва Java каби замонавий тиллар билан интерфейси ва операторларининг ўхшашлиги, рақамли алгоритмлар тезкор аниқ ва ишончлилиги, матрица ва вектор операциялари учун оптималлаштирилганлиги билан бир хил ҳисоблаш тезлигига эга [1].

MathCAD – амалий пакети кўп функцияли интерактив ҳисоблаш тизими, ўрнатилган алгоритмлар туфайли дастурлашга мурожаат қилмасдан жуда кўп сонли математик масалаларни аналитик ва сонли ечишга имкон беради. MathCAD профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар, талабалар, техник муҳандислар, физиклар, қолаверса барча касб эгалари учун ҳисоблаш ишларини бажарувчи дастурий таъминот ҳисобланади [7]. MathCADда юздан ортиқ ўзгарувчи ва константали чизиқли ва ночизиқли тенгламалар тизими, матрица ва векторлар устида амаллар, алгебраик

EXACT AND NATURAL SCIENCES

хисоблашлар, Лаплас, Фурье интеграллари, массивлар, оддий дифференциал тенгламалар, чегаравий шартлар, хусусий ҳосилали дифференциал тенгламалар, полиномлар, устида ҳисоблаш ишларини бажариш мумкин. MathCAD амалий пакети илмий ишларнинг натижаларини графиклар билан визуал шаклда тақдим этиш имкон беради. Фойдаланувчи икки ва уч ўлчовли функция графикларини турли рангларда, текисликда тасвирлаш имконига эга бўлади [7]. MathCAD дастури техник ҳисоб-китоблар учун кучли воситалар тўпламини ёзиш формулаларининг полиграфик сифати ва мослашувчан, тўлик хусусиятли матн муҳаррири билан бирлаштиради [1].

1-жадвал.

		GNU Octave	Derive	Mathematica	Maple	MatLab	MathCAD	Maxima	Scilab	Genius	SMath Studio	KSF MathJS 1.	LogiTable
1.	ASCII маълумот файлидан маълумотларни ўқиш	7	6	4	8	3	8	7	5	6	5	4	5
2.	FFT 1048576 дан ортик ($= 2^{20}$) тасодифий кийматлар	8	9	7	10	7	9	6	7	8	6	6	5
3.	Фойдаланиш соддалиги	8	9	7	10	10	9	7	6	7	7	6	6
4.	Математик функцияларнинг графикини ҳосил қилиш имконияти мавжудлиги	9	7	8	10	9	6	7	8	8	7	8	8
5.	Ишлатиладиган операторларнинг соддалиги	6	7	8	9	8	10	5	5	6	7	6	5
6.	Математик масалаларнинг сонли ечиш имконияти мавжудлиги	7	8	7	8	7	6	7	7	8	8	9	9
7.	Математик масалаларнинг аналитик ечиш имконияти мавжудлиги	7	8	8	9	9	8	7	6	4	5	4	5
8.	Пакетда дастурлаш имконияти мавжудлиги	7	6	6	7	7	8	8	7	8	8	9	9
9.	Windows операцион тизмининг версияларига мослашуви	8	8	9	10	8	10	9	8	10	10	10	9
10.	Ишлаш тезлиги	9	9	8	10	9	10	8	8	9	9	9	10
	Максимал 100 балл	76	77	72	91	77	84	71	67	74	72	71	71

Maxima – амалий пакети математик ҳисоб-китобларни бажариш учун мўлжалланган. Ушбу амалий пакет ўзида кўп сонли буйруқлар ва функцияларни бирлаштиради шунингдек, қўшимча функцияларни қўшиш имкониятига ва ўз дастурлаш тилига эга. Бу дастурлаш тили турли

масалаларни ечиш имкониятини ва алоҳида модулларни яратиш каби бир қатор вазифаларни ҳал қилади [8].

Scilab – амалий пакети муҳандислик ва илмий ҳисоблаш ишларини бажариш учун мўлжалланган. Ўзининг имкониятлари бўйича Scilab тўплами MathCAD математик тизими билан таққосланади ва интерфейсида у MatLab пакетига ўхшайди. Scilab стандарт операцияларни (масалан, арифметик, таққослаш ва ҳ.к.) бажариш имкониятига эга, фойдаланувчи томонидан маълумотлар турларини аниқлаш орқали кенгайтиришга имкон беради. Scilab фойдаланувчилари аниқ вазифалар учун ўзларининг модулларини ишлаб чиқишлари мумкин. Delphi, C++ каби бошқа тилларда ёзилган кодни динамик равишда боғлаш мумкин. Scilab амалий пакети икки ва уч ўлчовли функцияларнинг гафикларини қуришда самарали ҳисобланади [9].

Genius – амалий пакети MatLab ва GNU Octave каби математик пакетларга ўхшаш имкониятга эга. Унинг стандарт функциялари дастурлаш тилларида ёзилган. Фойдаланувчи ушбу амалий пакетдан фойдаланиш учун дастурлаш тилларида ишлаш кўникмасига эга бўлиши лозим. Genius амалий пакети икки ва уч ўлчовли функция графикларини намойиш этиш ва график усулида ечилган масалаларни таҳлил қилиш имкониятини яратади [10].

SMath Studio – символли ва рақамли ҳисоблашга мўлжалланган математик амалий пакет ҳисобланади. Ушбу пакет Windows, Linux операцион тизимларда ва смартфонларда ишлайди. Интерфейси MathCad дастурига ўхшаш бўлиб, ундан фойдаланиб тенгламаларни ечиш ва мураккаб ҳисоблаш ишларини бажариш мумкин бўлиб, қуйидаги имкониятларга эга: кўп тилли интерфейс (22 тилга таржима қилинган: инглиз, немис, дания, голланд, испан, француз, португал, хорват, серб, юнон, турк, хитой тиллари соддалаштирилган, хитой анъанавий, чех, венгер, италян, поляк, рус, болгар, литва, украин); ҳар қандай пикселлар сонига ва экранга йўналтирилган қурилмаларда ишлаш (240x240 пиксел ва ундан юқори); икки ва уч ўлчовли функцияларни намойиш этиш; рақам ва белгилар билан ишлаш каби.

KSF MathJS 1. – математик амалий пакети турли хил математик масалаларни ечишга мўлжалланган. Ушбу пакет математик масалаларни ҳисоблаш учун қулай интерфейсга эга ва юқори малакага эга бўлмаган фойдаланувчи ҳам ундан фойдаланиши мумкин [11].

Ҳозирги кунда математик амалий пакетларнинг оммалашуви туфайли математика таълимида фойдаланувчилар сони ошиб бормоқда. Буни таълим жараёнида математик амалий пакетлардан фойдаланишга бағишланган илмий тадқиқотлар ва ушбу масалага бағишланган илмий рисолалар далолат беради.

Тадқиқотчиларнинг илмий тадқиқот ишларини таҳлил ва математик амалий пакетларнинг имкониятларининг ўрганиш натижаси, ҳамда тажриба-синов ўтказилаётган олий таълим муассасаларининг математика ва информатика фани профессор-ўқитувчилари билан сўровномалар ўтказиш натижасига кўра, математик амалий пакетларининг имкониятларини баҳолаш бўйича мезонлар ишлаб чиқдик (1-жадвал).

1-жадвалда келтирилган математик амалий пакетларнинг имкониятларини баҳолаш натижаларига кўра, Maple амалий пакетининг имконияти юқори эканлиги маълум бўлди. Яъни 100 баллик баҳолаш натижасига кўра, 91 балл билан баҳоланди.

Хулоса. Математик амалий пакетлар ёрдамида математик ҳисоб-китобларни аналитик, сонли ва графикли ечиш нуқтаи назаридан, уларнинг натижаларини таҳлил қилиш имкониятини яратади. Натижаларни икки ва уч ўлчовли графикларини қуриш орқали, уларнинг турли нукталардаги ечимларини график кўринишда акс эттириш имкониятини таъминлайди. Шу боис олий таълим муассасаларида математикага оид фанлардан мисол масалаларни ечишда амалий пакетларлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, олий таълим муассасаларида маъруза машғулотларини ташкил этишда, ҳамда, талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятида мисол ва масалаларнинг ечимларини таҳлил этишда Maple математик амалий пакетидан фойдаланишни тавсия этамиз. Ушбу тизим қулай интерфейслиги, фойдаланиш операторларининг соддалиги туфайли бошқа математик амалий пакетлардан фарқланиб туради. Шу боис дифференциал тенгламалар модулидан маъруза машғулотларини ташкил этишда Maple математик амалий пакетидан фойдаланишни тавсия этамиз.

АДАБИЁТЛАР:

1. Безручко А.С. *Методика обучения решению дифференциальных уравнений будущих учителей математики, основанная на использовании информационных технологий // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2014. – 231 с.*
2. Дьяконов В.П. *Новые информационные технологии: Учеб. пособие / Смол. Гос. Пед. ун-т. – Смоленск, 2009. – Ч. 3. – 192с.*
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/GNU_Octave
4. Холиқов С.Н. «Differensial tenglamalar» bo'limini o'qitish samaradorligini oshirishda kompyuterning matematik amaliy paketlaridan foydalanish // Узлуксиз таълим илмий-услубий журнал. – Тошкент, 2021. Махсус сон. – Б. 72-75.
5. Семенов С.П., Славский В.В., Татаринцев П.Б. *Системы компьютерной математики. Учебное пособие для студентов математического факультета АГУ / – Барнаул: Изд-во Алт. Ун-та, 2004. – 128 с.*
6. Беленкова И.В. *Методика использования математических пакетов в профессиональной подготовке студентов вуза // Дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / Екатеринбург, 2004. – 261 с.*
7. Jumaniyozov S.P. *MathCAD dasturidan foydalanib funksiya grafigini qurish metodi // "Science and Education" Scientific Journal. June 2020. – 144-148 pp.*
8. Губина Т.Н., Андропова Е.В. *Решение дифференциальных уравнений в системе компьютерной математики Maxima: учебное пособие / Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2009. — 99 с.*
9. Андриевский А.Б. и др. *Решение инженерных задач в среде Scilab. Учебное пособие. – СПб. : НИУ ИТМО, 2013. – 97 с.*
10. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Genius>
11. <http://www.lab4students.narod.ru/progl.html>

APPLICATION OF SUPERCONDUCTOR MATERIALS IN MEDICINE**Turayev Akmal Atayevich,**

Associate Professor of Physics Department of Bukhara State University

a.a.turaev@buxdu.uz**Turayev Ozodjon G 'ayrat o'g'li,**

Doctoral student of Bukhara State University

o.g.turaev@buxdu.uz**Raximova Sarvinoz Mustafo qizi,**

Independent student of Bukhara State University

s.m.raximova@buxdu.uz

Abstract: Superconductivity is playing an increasingly important role in advanced medical technologies. Compact superconducting cyclotrons are emerging as powerful tools for external beam therapy with protons and carbon ions, and offer advantages of cost and size reduction in isotope production as well. Superconducting magnets in isocentric gantries reduce their size and weight to practical proportions. In diagnostic imaging, superconducting magnets have been crucial for the successful clinical implementation of magnetic resonance imaging. In this article, the principle of operation of some medical devices and describes the role which superconductivity is playing in them.

Keywords: magnetic Resonance Imaging (MRI), biomagnetic fields, magnetoencephalography (MEG), magnetocardiography (MCG), Positron emission tomography (PET).

ПРИМЕНЕНИЕ СВЕРХПРОВОДЯЩИХ МАТЕРИАЛОВ В МЕДИЦИНЕ

Аннотация: Сверхпроводимость играет всё более важную роль в передовых медицинских технологиях. Компактные сверхпроводящие циклотроны становятся мощными инструментами для внешней лучевой терапии протонами и ионами углерода, а также предлагают преимущества снижения стоимости и размеров при производстве изотопов. Сверхпроводящие магниты в изоцентрических гентри уменьшают их размер и вес до практических размеров. В диагностической визуализации сверхпроводящие магниты сыграли решающую роль в успешном клиническом применении магнитно-резонансной томографии. В этой статье рассматривается принцип работы некоторых медицинских устройств, и описана роль, которую играет в них сверхпроводимость.

Ключевые слова: магнитно-резонансная томография (МРТ), биомангнитные поля, магнитоэнцефалография (МЭГ), магнитокardiография (МКГ), позитронно-эмиссионная томография (ПЭТ).

TIBBIYOTDA SUPER O'TKAZISH MATERIALLARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya. Supero'tkazuvchanlik ilg'or tibbiy texnologiyalarda tobora muhim rol o'ynamoqda. Yilni o'ta o'tkazuvchan siklotronlar protonlar va uglerod ionlari bilan tashqi nur terapiyasi uchun kuchli vosita sifatida paydo bo'ladi va izotop ishlab chiqarishda xarajatlar va o'lchamlarni kamaytirish afzalliklarini taklif qiladi. Izosentrik gantriyalardagi supero'tkazuvchi magnitlar ularning o'lchamlari va og'irligini amaliy nisbatlarga qisqartiradi. Diagnostik tasvirlashda supero'tkazuvchi magnitlar magnit-rezonans tomografiyaning muvaffaqiyatli klinik amalga oshirilishi uchun juda muhim bo'lgan. Ushbu maqolada ba'zi tibbiy asboblarning ishlash prinsipi va ularda o'ta o'tkazuvchanlik qanday rol o'ynashi tasvirlangan.

Kalit so'zlar: magnit-rezonans tomografiya (MRT), biomagnit maydonlar, magnetoensefalografiya (MEG), magnitokardiografiya (MKG), pozitron emissiya tomografiyasi (PET).

Introduction. The two dominant applications of superconductivity in medicine are: (1) the Magnetic Resonance Imaging (MRI) in strong magnetic fields, where 1.5 to 3T (7T for research) high-field-homogeneity superconducting magnets are employed, and (2) the passive, non-invasive measurement, mapping and evaluation of extremely weak biomagnetic fields, which originate from various organs in humans and animals. Such fields can be best measured using highly sensitive SQUIDS (Superconducting Quantum Interference Devices) as detectors [3]. This seminar is dedicated to the second area of research and

diagnostic applications. The status of methods such as magnetoencephalography (MEG), magnetocardiography (MCG) and liver susceptometry will be described with some emphasis on early detection and imaging of cardiac ailments, which are the number 1 killer in highly-developed Western societies. The promising low-field MRI using SQUID detectors will be also briefly mentioned and speaker's subjective outlook towards the future presented.

Magnetic Resonance Imaging - MRI

The introduction of MRI into the healthcare system has resulted in substantial benefits. MRI provides an enormous increase in diagnostic ability, clearly showing soft tissue features not visible using X-ray imaging or ultrasound. At the same time, MRI can often eliminate the need for harmful X-ray examinations. These advantages have greatly reduced the need for exploratory surgery. The availability of very precise diagnostic and location information is contributing to the reduction in the level of intervention that is required, reducing the length of hospital stays and the degree of discomfort suffered by patients [8].

The basic science of resonance imaging has been understood for many years. The nucleus of most atoms behaves like a small spinning magnet. When subjected to a magnetic field, the nuclear spin tries to align, but the spin means that instead it rotates around the field direction with a characteristic frequency proportional to the field strength. When a pulse of exactly the right radio frequency is applied, some of the energy of the pulse is absorbed by the nucleus, which can be measured as a signal that decays typically within several milliseconds [8]. The timing of this signal decay, or relaxation, was discovered to depend critically on the chemical environment of the atom, and in particular was found to be different between healthy and diseased tissue in the human body. By rapidly switching on and off magnetic field gradients superimposed on the main field, it is possible to determine very accurate position information from these signals. The signals are processed by a computer to produce the now-familiar images from within the human body. Since the first crude MRI images were made in the 1970s, the industry has grown to a turnover of approximately \$4B/year in new equipment sales. There are now well over 30,000 MRI systems installed worldwide, and the number is growing by 10% annually.

Advantages of Superconductivity:

The heart of the MRI system is a magnet. The typical field values required for the latest generation of MRI cannot be achieved using conventional magnets. Just as importantly, high homogeneity and stability of the magnetic field are essential to achieve the resolution, precision and speed required for economical clinical imaging. The use of superconducting magnets provides a unique solution to these requirements. This trend will continue as field strength continues to progress from the current mainstream 1.5 T (Tesla) and 3 T systems to ever higher strengths in order to improve the clarity of the signal generated and increase the speed of image acquisition.




Figure. 1 Magnetic resonance imaging device and the image obtained in it

Magnetoencephalography (MEG) and Magnetic Source Imaging (MSI)

The same extreme sensitivity of SQUIDs that enables ULF-MRI has already enabled the development and use of Magnetoencephalography (MEG), sometimes referred to as magnetic source imaging (MSI). In these systems, which are available commercially, an array of SQUID sensors detects magnetic signals from the brain in a totally non-invasive manner. Major successes include:

- Pre-surgical mapping of brain tumors. By applying external stimuli (visual, audio, tactile), one can map out the function of the brain (which can be highly distorted by the presence of the tumor) prior to surgical removal of the tumor. With the aid of an MRI, this enables one to construct a 3D model of the brain and tumor.
- Showing the least invasive way of performing the surgery. This technique has been successful in reducing the incidence of collateral damage to the brain resulting from the surgical removal of the tumor.

- Location and pre-surgical mapping of the source of focal epilepsy. The focus is located using MSI. Pre-surgical mapping is conducted as for tumor surgery.
- Monitoring recovery from stroke or brain trauma (e.g. severe blow to the head as in football players, motorcycle accidents). MSI is used to monitor the response of the brain to standardized external stimuli (visual, audio, tactile) over a period of time to quantify the rate of recovery.

The use of MEG has been also extended to studies of unborn fetuses (fMEG). This technique has the potential to provide assessment of fetal neurological status and to assist physicians during high-risk pregnancies and diagnostics associated with infections, toxic insult, hypoxia, ischemia and hemorrhage. There are presently no other techniques for noninvasive assessment of fetal brain status.

The major challenge for the wider deployment of MEG systems is the initial cost of the system and the large database required to demonstrate excellent correlation of MSI with subsequent surgery. This effort involves system installation and data collection at research hospitals, an activity that is currently sparsely supported. The current initial diagnostic technique is low cost, Electroencephalography (EEG). The major advantage of MEG over EEG is that the former does not require any contact with the patient's skin. In EEG, since electric currents travel the path of least resistance, moisture on the patient's scalp and variations in skull thickness can distort the mapping of the epilepsy source.

Conversely, the magnetic field detected in MEG passes undistorted from the source to the SQUID detectors in the helmet worn by the patient. Since the interpretation of MSI inevitably requires an MR image, the combination of ULF-MRI with MSI into a single system would both reduce the cost of the combined procedures and improve their co-registration accuracy.

Magnetocardiography (MCG)

Sensitive SQUIDS are also the basis of functional imaging of the heart in magnetocardiography (MCG or MFI- heart magnetic field imaging) systems. MCG systems detect, non-invasively and with unprecedented accuracy, the net flows of cardiac electric currents that drive the muscles in the heart. In many clinical locations around the world, both scientists and physicians are independently validating the benefits of utilizing MCG for the detection and diagnosis of many forms of heart disease, especially cardiac ischemia and coronary artery disease. Sensitivity for the detection of ischemia has been reported as high as 100% in recent studies, and with such diagnostic accuracy it is not unreasonable to predict that MCG systems will find a home not only in hospitals, and especially emergency departments, but also in outpatient imaging centers and cardiology clinics, where the rapid evaluation of patients with suspicion of a life-threatening heart attack is absolutely critical to save lives. Significant economic benefits can also be projected. Compared with electrocardiography (EKG), MCG has a number of distinct advantages:

- completely non-invasive, requiring no electrode contact with the skin;
- provides wide-ranging information about the electrophysiological activity of the heart, including the detection of coronary artery disease; and
- signal strength depends on the distance between the heart and the detector, enabling the accurate measurement of the MCG of a fetus without saturating the detector with the signal from the mother's heart (fetal-MCG or fMCG).

While commercial systems do exist, the challenge for MCG, as in the case for MEG, is the development of a large enough database of clinical diagnostic correlations to convince insurers, such as Medicare, of the economic and healthcare benefits of MCG. Because it is radiation-free and risk-free, MCG can be used often during routine follow-up after an operation or during cardiac rehabilitation. The efficacy of a drug regimen can be tracked with MCG or even the recurrence of blockages after invasive treatment of a coronary artery. With the safety of a blood pressure reading and being equivalent to the diagnostic power of a magnetic resonance imaging procedure, MCG should be poised to revolutionize cardiac care.

Positron emission tomography

PET also relies on detection of photons, but in this case the photons are 511 keV back-to-back gamma rays emitted when a positron annihilates with an electron. The positrons are emitted by a radioactive nucleus disintegrating inside the subject; these positrons slow down and encounter an electron typically within a 1-2mm distance from the parent nucleus. The annihilation gammas are given off almost perfectly aligned, so detecting the two photons allows one to draw a line defining the path along which the decaying nucleus will be located. By observing many such coincident pairs, a density map of the radioactivity can be generated [1].

The radioactive material is attached to a substance that is selectively absorbed in the tissue being imaged, so the PET spectrum will identify these tissues. As discussed in Subsec. 2.5, a common system is to attach ^{18}F to deoxyglucose, which is absorbed from the blood to fuel metabolic activity. PET can be used for studies of activity in the brain, or inversely areas of the brain that have been inactivated by disease such as

Alzheimer's. Identification of metastatic lesions, also characterized by higher metabolic activity, makes PET of extreme value for locating targets for therapy. Figure 2 shows a whole-body PET scan, identifying locations of metastatic disease, secondary tumors located far from the primary mass [1]. We have seen in Subsec. 2.5 that the production of the short-lived positron emitters is a major application for small accelerators. Desirable half-lives for these isotopes should be short enough to render insignificant the dose of radiation to the patient following the procedure, and so are less than an hour or two. Consequently, isotopes that are not available from a "generator" should be produced very close to the use point to minimize the loss of activity due to long delivery times. Large PET centers tend to have their own cyclotrons, with automated chemistry to transport and process the target material directly into the pharmaceutical to be used for the procedure.




Figure 2. Whole-body PET scan showing metastatic tumors, identified by high metabolic activity and the uptake of FDG (^{18}F -deoxyglucose). (Courtesy of Blanchard Valley Health System, <http://www.bvhealthsystem.org>.)

As stated previously, this places great emphasis on development of accelerator and chemistry systems that are compact, reliable and inexpensive.

Conclusion. In conclusion, most modern medical devices manufactured and invented in recent years use superconducting materials. It is widely used in diagnostic devices. This is because the electrical resistance of the superconducting material is very small. This increases the level of accuracy of the obtained analysis results. In addition, these devices are energy-efficient, since the electrical resistance of their conductors is almost $r=0$, heat energy is released very little, and it is possible to obtain a strong magnetic field in a small size using a superconductor. In the article, we have given an overview of a few devices, in the following articles we will provide more extensive and detailed information about all devices that work on the basis of superconductors in medicine.

REFERENCES:

1. Jose R. Alonso, Timothy A. Antaya, "Superconductivity in Medicine" *Reviews of Accelerator Science and Technology* Vol. 5 (2012) 227–263.
2. Santosh Miryala "Recent Superconducting Applications in the Medical Field" Nova Science Publishers, Inc. ISBN: 978-1-53613-341-7.
3. Djurayev D, Turayev A, Torayev O "High temperature cuprate superconductors and their practical significance" - *Science and Innovation*, 2022.
4. Djurayev Davron Rahmonovich To'rayev Ozodjon G'ayrat o'g'li, Turayev Akmal Atayevich, "Bi_{1.7}Pb_{0.3}Sr₂Ca_nCu_n-1O_y vismut asosli kupratlarning olinish texnologiyasi". *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*, 1/2023.
5. Alonso J.R., *Accelerators for America's future workshop: Medicine and biology*, *J. Health Phys.* 103, 667–673 (2012).
6. Kamada T. and H. Tsujii, *HIMAC: A new startfor heavy ions*, in *Ion Beam Therapy*, ed. U. Linz(Springer, 2012), pp. 611–621.
7. Jones B., *The neutron-therapy saga: a cautionary tale*. <http://medicalphysicsweb.org/cws/article/opinion/32466>, 17 Jan. 2008 (link verified 28 June 2012).
8. <http://www.ccas-web.org>.

TAUS METODIDAN FOYDALANGAN HOLDA YARIMO'TKAZGICH FOTOANOD TARKIBIDAGI QATLAMLARNING TAQIQLANGAN ZONA KENGLIGINI ANIQLASH

Ergashov Abdurasul Qodirjonovich,

Namangan muhandislik texnologiya instituti o'qituvchisi

abdurasul.ergashev.85@mail.ru

ORCID: 0000-0002-6141-0017

Annotatsiya. Yarim o'tkazgich hamda sezgir bo'yoq tarkibli quyosh elementlarining tarkibiy qismlarini o'tkazuvchanlik xossalari bilan bog'liq o'lchov kuzatuv ishlari bajarildi. Ruteniy asosli bo'yoqlarni sezgirlashtiruvchi xususiyatini foto EYUK hosil qilish samaradorligiga ahamiyati tajriba asosida aniqlandi. Yupqa yarimo'tkazgich qatlamlarda optik hodisalarning natijalaridan kelib chiqib kattaliklarni tahlil qilish ishlari olib borildi. Yarimo'tkazgich qatlamlar uchun o'tkazuvchanlik hodisalari turli tashqi ta'sirlar ostida organildi. TiO_2 , FTO va ITO oynalarning tarkibi to'liq o'rganish uchun spectral elektron mikroskopda kuzatuv ishlari olib borildi. TiO_2 qatlamni bo'yalgan va bo'yalmagan qismi uchun mezoproslik xossasini aniqlash ustida kuzatuv ishlari olib borildi. Tajriba jarayonida tayyorlangan fotoanod uchun har bir qatlamni alohida holatlarda nurning yutilish qonuni o'rganilib Buger Lambert qonuni asosida namunalarning fotogeneratsiya uchun maqbul tanlovi belgilash metodidan foydalanildi. Olingan natijalardan foydalanib Taus metodiga tayangan holda fotoanod qatlamlarini taqiqlangan zona kengligi hisoblab topildi.

Kalit so'zlar: optik zichlik, fototok, fotoo'tkazuvchanlik, taqiqlangan zonaning kengligi, titan dioksidi, Foto anod, ruteniyli bo'yoq, FTO oyna, ITO oyna, fotogeneratsiya, otsiloskop, sinusoidal tok, temperatura, ultratovush, deformatsiya, fotorezistor,

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ШИРИНЫ ЗАПРЕЩЁННОЙ ЗОНЫ СЛОЁВ В ПОЛУПРОВОДНИКОВОМ ФОТОАНОДЕ МЕТОДОМ ТАУСА

Аннотация. Были проведены измерения и наблюдения, связанные со свойствами проводимости компонентов солнечных элементов, содержащих полупроводники и чувствительные красители. Экспериментально установлено значение сенсibiliзирующих свойств красителей на основе рутения для эффективности формирования фотоЭДС. По результатам оптических явлений в тонких полупроводниковых слоях проведён количественный анализ. Явления проводимости для полупроводниковых слоёв были организованы при различных внешних воздействиях. Для полного изучения состава стекол TiO_2 , FTO и ITO были проведены наблюдательные работы в спектральном электронном микроскопе. Были проведены наблюдательные работы по определению свойства мезопроницаемости для окрашенной и неокрашенной части слоя TiO_2 . Для фотоанода, изготовленного в ходе эксперимента, изучали закон поглощения света каждым слоем в отдельных случаях и использовали метод определения оптимального подбора образцов для фотогенерации, основанный на законе Бугера-Ламберта. Используя полученные результаты, ширину запрещённой зоны слоев фотоанода рассчитывали по методу Тауса.

Ключевые слова: оптическая плотность, фототок, фотопроводимость, ширина запрещённой зоны, диоксид титана, фотоанод, рутениевый краситель, стекло ФТО, стекло ИТО, фотогенерация, осциллограф, синусоидальный ток, температура, ультразвук, деформация, фоторезистор.

DETERMINATION OF THE FORBIDDEN ZONE WIDTH OF THE LAYERS IN THE SEMICONDUCTOR PHOTOANODE USING THE TAUS METHOD

Abstract. Measurements and observations related to the conduction properties of solar cell components containing semiconductors and sensitive dyes have been carried out. The significance of the sensitizing properties of ruthenium-based dyes for the efficiency of photoEMF formation has been experimentally established. Based on the results of optical phenomena in thin semiconductor layers, a quantitative analysis was carried out. Conduction phenomena for semiconductor layers were organized under various external influences. For a complete study of the composition of TiO_2 , FTO, and ITO glasses,

observational work was carried out in a spectral electron microscope. Observational work was carried out to determine the mesopermeability property for the colored and uncolored part of the TiO₂ layer. For the photoanode fabricated during the experiment, we studied the law of light absorption by each layer in individual cases and used the method for determining the optimal selection of samples for photogeneration based on the Bouguer–Lambert law. Using the results obtained, the band gap of the photoanode layers was calculated by the Taus method.

Keywords: optical density, photocurrent, photoconductivity, band gap, titanium dioxide, photoanode, ruthenium dye, PTO glass, ITO glass, photogeneration, oscilloscope, sinusoidal current, temperature, ultrasound, deformation, photoresistor.

Kirish. Jahonda aholi sonining ko‘payishi hamda bunga mutanosib tarzdan energiyaga bo‘lgan talab ortib borayotgani, sanoatning jadal o‘shishi yirik sanoatlashgan davlatlarda yaqqol sezilarli kuzatilgan. Jahonda Energiyaga bo‘lgan ehtiyojni rivojlangan Davlatlarda va butun dunyoda qazib olinadigan yoqilg‘ilar hisobiga qoplanmoqda, bu manbalardan olinadigan umumiy energiya hatto 2040-yilgacha 75% dan yuqori ulushda bo‘lib qolishi tahlil qilingan. Statistika hisoblashlarga ko‘ra, agar mavjud ishlab chiqarish sur‘atlari saqlanib qolinsa, 50-60 yil ichida tasdiqlangan neft va tabiiy gaz zaxiralari tugaydi.[1]

Jahonda bunday xavotirli vaziyat quyosh, shamol, biomassa, geotermal va gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini tadqiq qilish, ishlab chiqish va tijoratlashtirishdagi sa’y-harakatlarning kuchayishiga olib keldi.

Qayta tiklanadigan manbalar orasida quyosh kelajakning doimiy o‘shib borayotgan energiya talablarini qondirish uchun ekologik sof, ko‘proq energiya etkazib berishda eng katta salohiyatga ega, chunki uning resurs manbai boshqa barcha qayta tiklanadigan manbalarga qaraganda ancha katta.[2] Quyoshdan yerga umumiy $1,7 \cdot 10^5$ TW energiya yerga tushadi. Agar atigi 600 TVtni amalda o‘zlashtirish mumkin bo‘lsa va quyosh energetikasi texnologiyalari atigi 10% samara bilan ishlasa, 60 TVt quyosh energiyasini hali ham olish mumkin, bu hatto yaqin kelajakdagi kutilayotgan energiya talabidan ham ancha yuqoridir. [3]

Jahonda birinchi bo‘lib 1968-yilda Gerischer va uning hamkasblari organik bo‘yoqlar yorug‘likni elektrokimyoviy jarayonlar sabab elektr energiyasiga aylantirishi mumkinligini aniqladilar va natijada an’anaviy yarimo‘tkazgichli quyosh batareyalariga arzon alternativ sifatida yarimo‘tkazgich asosli yuqori sezgir bo‘yoqli quyosh elementlarini (Dye-sensitized solar cell-SBQE) rivojlanishiga olib keldi.[4]

Natijada, mezoproslik koeffitsiyenti taxminan 1000 bo‘lgan nano g‘ovakli titan dioksid (TiO₂) tarkibli elektrodli kashf etildi va 1991 yilda 7% samarali SBQELar tajriba sharoitida foydalanildi. Gratzel elementlari sifatida tanilgan bu elementlar dastlab 1988-yilda UC Berkliida Brayan Oregon va Maykl Gretzel tomonidan ixtiro qilingan.[5]

Banerjee jamoadoshlari bilan 2014-yilda o‘tkazuvchi polimer bilan qoplangan grafen plyonkasidan foydalangan holda platinasiz, arzon narxlardagi va moslashuvchan SBQELar haqidano‘z ishlarini e‘lon qildilar.[6] So‘ngra Li va uning hamkasblari MoN, WN va Fe₂N metall nitridlari bo‘yoqqa sezgir quyosh elementlari uchun Pt-ga o‘xshash elektrokatalitik faollikni ko‘rsatadi deya tajriba natijalarini e‘lon qilishdi. Bugungi kunda jahondagi ilg‘or laboratoriyalarda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli izlanishlar olib borilmoqda.[7]

Tadqiqot metodologiyasi. Nurlanuvchi faol modda. ds yo‘li bo‘ylab intensivlikning o‘zgarishi proportsionallik qonuniatiga bo‘ysinadi.

$$dI_{\lambda} = -\beta_{e,\lambda} I_{\lambda} d_s \quad (1)$$

$$dI_{\lambda} = \beta_{s,\lambda} I_{\lambda} d_s \quad (2)$$

bu yerda $\beta_{e,\lambda}$ - hajmiy so‘nish koeffitsiyenti bo‘lib. Birlik uzunlik bo‘yicha manba intensivligi I_{λ} funksiyasining koeffitsiyenti hisoblanadi.[9] Ayni bir muhit uchun yutilish koeffitsiyenti va tarqalish koeffitsiyentlari yig‘indisini manba uchun yo‘qolish koeffitsiyentiga tenglab tushunish mumkin.

$$\beta_{e,\lambda} = \beta_{a,\lambda} + \beta_{s,\lambda} \quad (3)$$

Nurning tarqalish yo‘nalishidagi moddalar miqdorini (konsentrasiyalari, massa konsentratsiyasi va boshqalar) aniqlashga ko‘ra, so‘nish koeffitsiyenti (shuningdek, yutilish va sochilish koeffitsiyentlari) turli ko‘rinishlarda ifodalanishi mumkin. Koeffitsiyentlarni birligini quyidagicha tushunish mumkin. Massa koeffitsiyenti-massa birligiga to‘g‘ri keladigan birlik yuz maydoni (sm^2g^{-1}), (m^2kg^{-1}) va boshqalar. Agar ρ ma‘lum turdagi zarrachalarning (yoki molekullarning) zichligi (massa konsentratsiyasi) bo‘lsa, u holda

$$\beta_{e,\lambda} = \rho k_{e,\lambda} \quad (4)$$

$$\beta_{s,\lambda} = \rho k_{s,\lambda} \quad (5)$$

$$\beta_{a,\lambda} = \rho k_{a,\lambda} \quad (6)$$

Bu yerda $k_{e,\square}$; $k_{s,\square}$, va $k_{a,\square}$ mos ravishda umumiy yutilish, tarqalish va yutilish koeffitsiyentlari. Umumiy yutilish koeffitsiyentidan foydalanib Buger-Lambert qonunini to'liq yutilish uchun quyidagicha yozamiz.[10]

$$dI_{\lambda} = -\rho k_{e,\lambda} I_{\lambda} ds \quad (7)$$

$$dI_{\lambda} = \rho k_{s,\lambda} I_{\lambda} ds \quad (8)$$

Nurning tarqalish yo'nalishidagi zarrachaning (yoki molekulaning) so'nish kesimi bu zarracha (yoki molekula) elektromagnit nurlanishning zaiflashishini belgilaydigan kattalikdir. Agar N bir xil o'lchamdagi ma'lum turdagi zarrachalar (yoki molekulalar) ning zarracha (yoki molekula) soni kontsentratsiyasi bo'lsa, u holda


$$\beta_{e,\lambda} = \sigma_{e,\lambda} N \quad (9)$$

$$\beta_{s,\lambda} = \sigma_{s,\lambda} N \quad (10)$$

$$\beta_{a,\lambda} = \sigma_{a,\lambda} N \quad (11)$$

Bu yerda $\sigma_{e,\lambda}$, $\sigma_{s,\lambda}$, $\sigma_{a,\lambda}$ lar mos holda so'nish sochilish va yutilish kesimlarini ifodalaydi. S_1 va S_2 nuqtalari orasidagi muhit quyidagicha aniqlanadi

$$\tau_{\lambda}(s_2; s_1) = \int_{s_1}^{s_2} \beta_{e,\lambda}(s) ds \quad (12)$$



1-rasm.

Agar optik chuqurlik, optik qalinlik, optik yo'l tushunchalari bir hil manoda ekanligidan fazo uchun umumiy nur yutilish qonuniyatini izlashni maqsad qilsak

$\beta_{e,\lambda}(s)$ ning s ga bog'liqligi yo'nalishga bog'liq emas (bir hil optik yo'l deb ataladi), shuning uchun

$$\beta_{e,\lambda}(s) = \beta_{e,\lambda} \text{ va } \tau_{\lambda}(s_2; s_1) = \beta_{e,\lambda}(s_2 - s_1) = \beta_{e,\lambda} s$$

Bu holda tenglamani integrallash orqali yutilish qonunini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$I_{\lambda} = I_0 \exp(-\tau) = I_0 \exp(-\beta_{e,\lambda} s) \quad (13)$$

Elektromagnit to'lqin uchun optik uzunlikni bir necha usulda ifodalanishi mumkin

$$\tau_{\lambda}(s_2; s_1) = \int_{s_1}^{s_2} \beta_{e,\lambda} ds = \int_{s_1}^{s_2} \rho k_{e,\lambda} ds = \int_{s_1}^{s_2} N \sigma_{e,\lambda} ds \quad (14)$$


Agar ma'lum hajmda har bir yo'nalish bo'ylab bir nechta optik faol zarrachalar mavjud bo'lsa $\beta_{e,\lambda}^i$ va hokazo, keyin optik uzunlikni quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\tau_{\lambda} = \sum_i \int_{s_1}^{s_2} \beta_{e,\lambda}^i ds = \sum_i \int_{s_1}^{s_2} \rho_i k_{e,\lambda}^i ds = \sum_i \int_{s_1}^{s_2} N_i \sigma_{e,\lambda}^i ds \quad (15)$$

Yuqorida o'rganilgan ifodalar ma'lum bir yo'nalishda tarqaladigan aniq bir intensivlikka ega nurning tatbig'i uchundir.[11] Kerakli burchak va to'lqin uzunliklarida (yoki chastotalarda) intensivlikning to'liq umumiy taqsimotini elementar yechimini barcha tushayotgan nurlar va barcha to'lqin uzunliklari (yoki chastotalar) uchun takrorlash orqali olish mumkin.

O'rganiluvchi obyekt bir nechta yupqa qatlamlar jamlanmasidan iborat ekanligidan qatlamlarni o'zaro biri-biriga difuzion kirishgan qismlarida fizik va kimyoviy jarayonlarni hossalari bilan birgalikda organish maqsadga muvofiqdir. Fotoelementlarda elektr o'tkazuvchanlikni, fotogeneratsiyani, to'yinish tokini va boshqa kattaliklarni o'rganish kata aniqlikda ishlovchi va nano o'lchamli birliklarda kuzatish olib boruvchi qurilmalarni talab qiladi.[12] Yarimo'tkazgich materiallarda taqiqlangan zona kengligi materialdan tayyorlangan qurilmaning ko'pgina imkoniyatlarini belgilab beradi. Qurilmaning taqiqlangan zona kengligini uning Volt-Amper tavsifidan va uning turli tashqi ta'sirlarga bog'liqliligidan o'rganish mumkin.

Yorug'likni intensivligini katta aniqlikda o'lchash imkoniyatiga ega qurilmalarda muhitda o'tuvchi nurning dastlabki va muhitdan keyingi qismidagi intensivligini o'rganish orqali muhitning nur yutish koeffitsiyentini aniqlash mumkin.[13] Bu esa Buger-Lambert-Beer qonuniyatlarini orqali quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi.



2-rasm.

O'tgan elektromagnit to'qlinning intensivligini (I), dastlabki o'rganiluvchi obektdan o'tmagan elektromagnit to'qlinning intensivligini (I_0) deb hisoblasak Buger-Lambert- qonuniyatlariga ko'ra

$$I = I_0 e^{-\alpha d} \quad (16)$$

Bu yerda α -spektrning yutilish koeffitsiyenti, d -namunaning elektromagnit to'qlin bo'ylab kengligi. Buger-Lambert tenglamasidan α -spektrning yutilish koeffitsiyentini keltirib chiqarsak:

$$\frac{I}{I_0} = e^{-\alpha d}, \frac{I_0}{I} = e^{\alpha d}, \lg e^{\alpha d}, \alpha d \lg e = \lg \frac{I_0}{I} \quad (17)$$

Agar muhitning optik zichligi A va muhitga kiruvchi va chiquvchi nurlarning intensivligini mos ravishda I va I_0 qiymatlarini bilsak ular o'arasidagi mutanosiblik quyidagicha ifodalanadi.

$$A = \lg \frac{I_0}{I} \quad (18)$$

Bir nechta qatlam uchun uyg'unlashgan optik zichlikni natijaviy qiymati o'rnida A ni hisoblash mumkin.

$$\lg e \approx 0.43; \alpha d \lg e = A; \alpha = \frac{1}{d} \frac{A}{\lg e}, \quad (19)$$

$$\frac{1}{\lg e} = \text{const} \approx 2.32 \quad \text{o'zgarmas ekanligidan (4) ifodadan } \alpha = \frac{2.32}{d} A \text{ ishchi ifoda kelib chiqadi.}$$

[1/sm], [sm⁻¹].

Yuqorida keltirilgan ifodalardan foydalanib Taus uslubdan foydalangan holda elektromagnit to'qlining yutilish spektri va taqiqlangan zona kengligini bog'lovchi tenglamadan foydalanamiz.[14]

$$(\alpha h\nu)^n = k(h\nu - E_g) \quad (20)$$

Bu yerda α -yutilish koeffitsiyenti, k -mutanosiblik koeffitsiyenti, $h\nu$ -foton energiyasi, n -yarimo'tkazgich materialning zona ko'rsatkichi. Agar $n=2$ bo'lsa to'g'ri zonali, $n=1/2$ bo'lsa to'g'ri zonali bo'lmagan yarim o'tkazgich hisoblanadi. E_g -yarimo'tkazgich namunaning taqiqlangan zona kengligi.

Fotoo'tkazuvchanlik faqat nur yutilishi natijasida vujudga keladi. Bunda fotonni energiyasi, chastotasi va to'qlin uzunligi orasidagi bog'liqliklarni quyidagicha bo'ladi. $E = h\nu = \frac{hc}{\lambda}$ bu yerda h plank doimiysi. $E > E_g$ hususiy yarimo'tkazgichda fotoo'tkazuvchanlik kuzatiladi. $E > E_d, E > E_a$ bo'lgan holatlarda aralashmali yarimo'tkazgichlarda fotoo'tkazuvchanlik kuzatiladi.

$$\text{Hususiy yarim'tkazgich uchun} \quad \lambda = \frac{hc}{E_g}, \quad (25)$$

$$\text{Donor va akseptor aralashma uchun} \quad \lambda = \frac{hc}{E_a}, = \frac{hc}{E_d} \text{ ko'rinishda bo'ladi.} \quad (26)$$

aralashmali yarimo'tkazgich materiallarda elektronlar va kovaklarning termik ga'alayonlanishini organilsa va bu hodisani xisobga olgan holda solishtirma o'tkazuvchanlik ifodasini quyidagicha yoziladi.[15]

$$\sigma_0 = e(n_0\mu_n + p_0\mu_p) \quad (27)$$

Bu yerda n_0 , va p_0 elektronlar va kovaklarning konsentratsiyalari. Ifodada yorug'likni ta'siri kuzatilmaganlig bois σ_0 ni qorong'u holat uchun solishtirma o'tkazuvchanlik deyiladi. Agar yorug'lik tas'irida erkin elektronlar hosil bo'lsa optik generatsiya deb tushuniladi. Generatsiya hisobiga hosil bo'lgan o'tkazuvchanlik

$$\sigma = e(n\mu_n + p\mu_p) \quad (28)$$

Bunda $n = n_0 + \Delta n$, $p = p_0 + \Delta p$ yoritilgan yarimo'tkazgich materialda fotogeneratsiya hisobiga qo'shimcha hosil bo'lgan erkin elektronlar konsentratsiyasidir. Shunda foto'tkazuvchanlikni yorug'lik tasirida qanday farq bilan o'zgarganligini aniqlash uchun yoritilgan va qorong'ulik holatlar uchun hisoblangan solishtirma o'tkazuvchanliklarni ayirmasini keltirib chiqaramiz.[16]

$$\Delta\sigma = \sigma - \sigma_0 = e(\Delta n\mu_n + \Delta p\mu_p) \quad (29)$$

To'liq o'tkazuvchanlik esa qorong'ulikda termik va yoritilgandagi fotogeneratsiyalangan elektronlar konsentrantiyasiga bo'g'liq bo'ladi. $\sigma = \sigma_t + \sigma_f$

Fotoqarshilik yoritilgandan biroz vaqt o'tkach barqaror o'tkazuvchanlik $\Delta\sigma_{turg}$ hamda elektronlar Δn_{turg} va kovaklarning Δp_{turg} turg'un konsentratsiyasi qaror topadi. Bu vaqtda rekombinatsilashuvchi zarralar miqdori ham noldan turg'un qiymatiga qadar ortib boradi. Har bir erkin zaryadli zarraning rekombinatsiyagacha bolgan vaqtiga uning yashash davri deb ataladi. O'rtacha yashash vaqti τ bilan belgilanadi.[17]

$$\frac{d(\Delta n)}{dt} = G - \frac{\Delta n}{\tau} \quad (30)$$

G-birlik hajm uchun electron va kovakni xosil bo'lish tezligi. Statsionar fotoo'tkazgich uchun $\frac{d(\Delta n)}{dt} = 0$ bo'ladi. Yuqoridai ifodalardan satsionar elektronlar konsentratsiyasi uchun $\Delta n_{st} = G\tau$ ifoda hosil bo'ladi. Hususiy yarimo'tkazgichda kovaklarni konsentratsiyasi $\Delta p_{st} = \Delta G\tau$ bo'ladi. Shunda fotoo'tkazuvchanlik

$$\Delta\sigma_{st} = e\Delta n_{st}(\mu_n + \mu_p) = Ge\tau(\mu_n + \mu_p) \quad (31)$$

Hosil bo'lga ifoda yarimo'tkazgichlar uchun fotoo'tkazuvchanlikni geeratsiyaga bog'liqligini ifodalovchi funksiya bo'lib xizmat qiladi. Buger qonuniga ko'ra X qalinlikdagi plastinkada nurning yutilishi

$$N(x) = N_0 \exp(\alpha x) \quad (32)$$

Bu yerda α -yutilish koefisiyenti(modda tabiatiga va to'lqin uzunligiga bog'liq).

$$\Delta N = N_0 - N_0 \exp(-\alpha \Delta x) = N_0(1 - \exp(-\alpha \Delta x)). \quad (33)$$

Bu yerda ΔN foton yutilishi natijasida hosil bo'lgan elektron va kovaklar juftligi.

$$\Delta N_{juft} = \beta \Delta N = \beta N_0 \alpha \Delta x \quad (34)$$

β koefitsiyentini ichki fotoeffektini kvant rentabilligi deyiladi. U yarimo'tkazgichda yutilgan fotonlarning qancha qismi tok tashuvchilar juftligini tashkil qilganini ko'rsatadi. Odatda $\beta < 1$, sababbi elektronlar va kovaklar hosil bo'lmasdan ham electron hosil bo'lish jarayonlari mavjud. Birlik plastina qalinligida ΔN_{juft} electron va kovak juftliklari hosil bo'lishi uchun ularni generatsiya tezliklarini Δx chuqurlikka ega obekt uchun hisoblab chiqiladi.

$$G = \frac{\Delta N}{\Delta x} = \beta N_0 \alpha \quad (35)$$

Statsionar holdagi solishtirma o'tkazuvchanlik quyidagi holatga keladi.


$$\Delta\sigma_{st} = e\beta\alpha\tau(\mu_n + \mu_p)N_0 \quad (36)$$

ν - nurlanish chastotasi va N_0 foton oqimining zichligi orasidagi bo'g'liqlikni quyidagicha keltirib chiqariladi. $N_0 = \frac{P}{h\nu}$

$$\Delta\sigma_{st} = e\beta\alpha\tau(\mu_n + \mu_p) \frac{P}{h\nu} \quad (37)$$

Yuqorida barcha o'rganilgan ifoda qiymatlari real holatga nisbatan to'g'ri deb hisoblanmaydi, chunki ularni hosil qilishda yarimo'tkazgichlardagi jarayonlarning soddalashtirilgan modeli ko'rib chiqilgan. Fotooqimning yorug'lik P ga haqiqiy bog'liqligi chiziqli funksiya qiymatlaridan farq qilishi mumkin.[18]

odatda fotorezistorda hosil bo'lgan fototokning qiymatini tushuvchi nurning to'lqin uzunligiga



bog'liqligi o'rganiladi. $I_f = f(\lambda)_{E=const}$

3-rasm.

$\frac{hc}{\lambda_0} = \Delta E$ ifodadan foydalanilganda ΔE ni o'rganish orqali taqiqlangan zona kengligini aniqlash imkoni vujudga keladi.

Yuqorida o'rganilgan formulalarga tayanib Taus uslubi yordamida fotoanodni turli qatlamlari uchun taqiqlangan zona kengligi aniqlanadi. Buning uchun grafikni egrilanish sohasidan o'tmagan ikkita urinma chizib olinadi. Ushbu urinmalarda yotuvchi ikkitadan nuqtaning kordinatalari belgilab olib bir nechta matematik qadamlardan so'ng bu urinmalarni kesishish nuqtasining kordinatasiga ega bo'lindi. Bu kesishgan nuqta kordinatasining X o'qudagi proyeksiyasi esa ko'rilayotgan namuna uchun taqiqlangan zona kengligini (E_g) ifodalaydi. Hisoblash jarayonini ikki hil usulda olib borish mumkin. [19]1) trigonometrik qonuniyatlarga asoslangan geometrik usul bo'lib uzoq hisoblashlarni talab qiladi. 2) funksiyalarni kesishish nuqtasini topishga asoslangan matematik analiz usuli.

1. Grafikga o'tkazilgan ikkita urinmani kordinatalarini mos ravishda belgilab olinadi. $(X_1; Y_1)$, $(X_2; Y_2)$, $(X_3; Y_3)$, $(X_4; Y_4)$ Har bir urinmada olingan nuqtalar orasidagi kesmani X va Y o'qlaridagi proyeksiyasi topiladi.

$$\Delta x_1 = x_2 - x_1 \quad \Delta y_1 = y_2 - y_1$$

$$\Delta x_2 = x_4 - x_3 \quad \Delta y_2 = y_4 - y_3$$

$$\text{Bundan } \operatorname{tg} \alpha_1 = \frac{\Delta y_1}{\Delta x_1} \quad \alpha = \operatorname{arctg} \frac{\Delta y_1}{\Delta x_1} = \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1} \quad (38)$$

$$\text{Xuddi shunday } \operatorname{tg} \beta_1 = \frac{\Delta x_2}{\Delta y_2} \quad \beta_1 = \operatorname{arctg} \frac{\Delta x_2}{\Delta y_2} = \frac{x_4 - x_3}{y_4 - y_3} \quad (39)$$

Bunda urinmalarga berilgan boshlang'ich va oxirgi nuqtalarni tutashtiruvchi kesma

$$a = \sqrt{(x_4 - x_1)^2 + (y_4 - y_1)^2} \quad (40)$$

$$\cos \alpha = \frac{(x_4 - x_1)}{a} = \frac{(x_4 - x_1)}{\sqrt{(x_4 - x_1)^2 + (y_4 - y_1)^2}} \rightarrow \alpha = \operatorname{arccos} \frac{(x_4 - x_1)}{a} \quad (41)$$

$$\sin \alpha = \frac{y_4 - y_1}{a} = \frac{y_4 - y_1}{\sqrt{(x_4 - x_1)^2 + (y_4 - y_1)^2}} \rightarrow \alpha = \operatorname{arcsin} \frac{(y_4 - y_1)}{a} \quad (42)$$

Ushbu amalda qarama-qarshi tomonlarni sinus va kosinus qiymatlarini almashtirib ishlatish mumkin.

Demak $\alpha - \alpha_1 = \alpha_2$ ni $\beta - \beta_1 = \beta_2$ ni beradi.

(41-42)-ifodadan olingan burchak qiymatlaridan foydalanib $\gamma = 180 - (\beta_2 + \alpha_2)$ ifodaga ega bo'linadi. Burchaklar va ularning qarama-qarshi tomonlari o'zaro mutanosibligidan uchburchakning noma'lum bo'lgan ikkita tomonini topish imkoniga ega bo'lindi.

$$\begin{cases} ax = \gamma \\ bx = \beta_2 \\ cx = \alpha_2 \end{cases} \quad x = \frac{\gamma}{a}, \quad b = \frac{b_2}{x} = \frac{b_2 * a}{\gamma}, \quad c = \frac{\alpha_2}{x} = \frac{\alpha_2 * a}{\gamma} \quad (43)$$

Uchburchakning ABC tomonlarini (43) ifodadan aniq bo'lgandan so'ng A nuqta kordinatasini X o'qidagi qiymati aniqlanadi.

Masalan: $\cos \alpha_1 = \frac{\Delta x_1}{b} \rightarrow \Delta x_1 = b \cos \alpha_1$ bu qiymatdan foydalanib kesishgan nuqtani x o'qidagi proyeksiyasi $x = x_1 + \Delta x_1$ bo'ladi. Ushbu amallarni bajarishda zarur buluvchi urinmadagi nuqtalarning kordinata qiymatlarini maple, matcad, origin, exell dasturlaridan foydalanib kiritib olinadi.

$$x = x_1 + b \cos \alpha_1 = x_1 + b \sqrt{\frac{1}{\operatorname{tg}^2 \alpha_1 - 1}} = x_1 + \left(\frac{b_2}{\gamma}\right) a \sqrt{\frac{1}{\operatorname{tg}^2 \alpha_1 - 1}} \rightarrow x_1 + \left(\frac{b - b_1}{\gamma}\right) a \sqrt{\frac{1}{\operatorname{tg}^2 \alpha_1 - 1}} \Rightarrow x_1 + \frac{\left(\operatorname{arcsin} \frac{(x_4 - x_1)}{a} - \operatorname{arctg} \frac{(x_4 - x_3)}{(y_4 - y_3)}\right) a}{\gamma} \cdot \sqrt{\frac{1}{\operatorname{tg}^2 \alpha_1 - 1}} \quad (44)$$

2. Ikkinchi usulda olingan to'rtta nuqta kordinatalari yotuvchi ikkita funksiyani koefitsiyentlarini va boshlang'ich qiymatlarini topib olish va ularni tenglash orqali kesishgan nuqtalarni topiladi. Grafikga o'tkazilgan ikkita urinmani kordinatalarini mos ravishda belgilab olinadi. $(X_1; Y_1), (X_2; Y_2), (X_3; Y_3), (X_4; Y_4)$

$$\begin{cases} y_1 = k_1 x_1 + b_1 \\ y_2 = k_1 x_2 + b_1 \end{cases} \quad \begin{cases} y_3 = k_2 x_3 + b_2 \\ y_4 = k_2 x_4 + b_2 \end{cases} \quad (45)$$

$$y_2 = k_1 x_2 + y_1 - k_1 x_1 = k(x_2 - x_1) + y_1 \quad (46)$$

$$k_1 = \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1}, \quad b_1 = y_1 - \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1} x_1, \quad (47)$$

huddi shunday usulda ikkinchi funksiya koefitsiyentlari ham topib olinadi.

$$k_2 = \frac{y_4 - y_3}{x_4 - x_3}, \quad b_2 = y_3 - \frac{y_4 - y_3}{x_4 - x_3} x_3 \quad (48)$$

$$\text{shunda } \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1} x + y_1 - \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1} x_1 = \frac{y_4 - y_3}{x_4 - x_3} x + y_3 - \frac{y_4 - y_3}{x_4 - x_3} x_3 \quad (49)$$

(49)-tenglama yechilganda ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Natijalar va uning muhokamasi. Bugungi kunda fotoelektronika tajriba kuzatuv jarayonini osonlashtirganligi bilan xalqaro talab va meyorlarga mos kelgan "Shimadzu1900i" qurilmasida quyidagi avzalliklarni sanab o'tish mumkin.


1. Kerakli λ to'lqun uzunlikdagi yorug'likni avtomatik tanlaydi.
2. Tanlovga mos lampalarni kerakli quvvat bilan mustaqil ishga tushiradi.
3. Yoritilganlikni bir xil qiymatda ushlab tura oladi.
4. Qadamlar ketma-ketligini avtomatik ta'minlaydi.
5. Natijalarni tavsifini kompyuter interfeysida mustaqil chizadi.
6. Tavsif kordinatalarini kompyuterga turli formatda raqamli export qiladi.

Yarimo'tkazgich va sezgir bo'yoq tarkibiga ega quyosh fotoelementining tarkibiy qismlarini Malayziya Davlati Malaya universitetida hamda Namangan Muhandislik texnologiya institutida tayyorlangan.

Yuqorida o'rganilgan Buger

a) b) c) d)

4-rasm.




Lambert qonuniga ko'ra namunadan kerakli to'lqin uzunlikda yorug'lik to'lqini o'tkazish va o'tgan va o'tmagan nurning intensivliklari farqidan yutilgan nurning qiymatlari farqidan foydalanib (44) va (49) ifodalar asosida taqiqlangan zona kengligi aniqlandi.

1. Tajriba maqsadida DSSC fotoelementi uchun kerakli bo'lgan shisha namuna tanlandi va o'lchov kuzatuv ishlari olib borildi. Bu holda tajriba maqsadida optik shaffof bo'lgan asosan kremniydan tashkil topgan shishadan foydalanilgan. Biroq foydalanish maqsadida elastik va optik shaffof bo'lgan organic shisha va yupqa qatlamli plyonkalardan foydalanish imkoniyati mavjud.

2. Shisha oynaga maxsus termik ishlov va sprey holida ftor yoki indiyini briktirish orqali shaffofiligi saqlangan elektrod tayyorlanadi. Bu elektroddan asosan fotoanod sifatida foydalaniladi.

3. Tayyorlangan fotoanodni yupqa qatlam holida TiO_2 bilan qoplash uchun turli texnologik usullardan foydalanildi. Bu usullar esa DSSC qismini o'kazuvchanligiga o'z navbatida foydali ish koefitsiyentini harhil bo'lishiga sabab bo'ldi. Masalan TiO_2 ning mezoproslik hususiyatini oshirish unda birlik vaqtda yutilgan fotonlar miqdorini ortishiga, bu esa fotogeneratsiya samaradorligi ortishiga sabab bo'ldi.

4. Fotoanodni tayyorlanishning navbatdagi bosqichida ruteniy tarkibli bo'yoq bilan fotogeratsiya



5-rasm.

uchun samaradorlikni ortishiga sabab bo'luvchi taqiqlangan zona kengligini kamaytirish ishlari olib borildi. Bunda ruteniyning miqdoriga bo'g'liqligi, bo'yoqqa botirilib qoldirilgan vaqt (soat, kun, va oylarda) hisoblanishi bilan ta'siri o'rganildi.

5. Fotoanodni tayyorlanishning navbatdagi bosqichida ruteniy tarkibli bo'yoqning 0.2 ulushlik tarkibida foydalanilganda 126 sutka davomida qoldirilgan elektrodni foto'tkazuvchanlik xususiyatlari ko'rib chiqildi. Bunda uzoq vaqt bo'yoqda qoldirishning yorug' va qorong'u joyda qoldirilgan namunalarning farqlari mavjudligi tajriba natijalarida ko'rindi.

Xulosalar. Tajriba natijalaridan olingan tavsiflar shuni ko'rsatadiki, TiO_2 ning mezoproslik xossasi samaradorlikning ortirishi sababi deb topildi. Bunda yutilgan fotonlar sonining ortishiga olib keluvchi asosiy sabab mesoproslikdagi yuzaning ortishi deb topildi. Uzoq muddat suyuq bo'yoqda qoldirilgan $\text{FTO}+\text{TiO}_2$ fotoanod va $\text{ITO}+\text{TiO}_2$ fotoanodlarning samaradorligi o'zgarmaganligi kuzatilmadi. Barcha tajriba tavsiflarini aynan bir grafikda ko'rilsa taqiqlangan zona kengligini ishchi miqdoriga keltirish omilini aniqlash mumkin. Bo'yoqda elektrodni qisqa vaqtlarda bir yoki bir necha o'n kun qoldirishda vaqtlarning tafovuti hosil qilingan yarimo'tkazgich qatlam samaradorligida sezilarli natija beradi. Biroq uzoq vaqt bo'yoqda qoldirib tayyorlangan yarimo'tkazgich qatlamlarda bo'yoqning ligirlanish vaqtining bo'g'liqligi kamayib boradi. Buni amalda ko'rish uchun barcha tavsiflarni to'lqin uzunliklari yoki yutilgan nurning energiya kattaliklarini umumlashtirib ayni bir grafik tavsifida kuzatish bajarildi.

Ayni bir grafikda barcha qatlamlarni tavsifini tushirish uchun beriladigan yorug'lik manbayidan tushuvchi nurning to'lqin uzunligi qadamlarini electron qurilma yoqdamida kompyuterdan foydalanib aynan bir xildagi qadamlar hisobida amalga oshiriladi. Shunda grafiklarni birlashtirishda X o'qi bo'yicha to'lqin uzunligini nanometrlarda (nm) yoki energiya bo'yicha electron voltlarda (eV) mos qiymatlarda qo'yiladi. Bu jarayon avtomatlashtirilgan va dasturiy ta'minotga ega bo'lmagan qurilmalarda uzoq vaqtda va juda yomon aniqlikda olingan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR:

1. Veerappan G., Ramasamy E., and Gowreeswari B., *Economical and highly efficient non-metal counter electrode materials for stable dye-sensitized solar cells*. Elsevier Inc., 2019.
2. Sharma S., Bulkesh Siwach, Ghoshal S. K., and Mohan D., "Dye sensitized solar cells: From genesis to recent drifts," *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, vol. 70. 2017, doi: 10.1016/j.rser.2016.11.136.

3. Wang T., Jiang Z., Zhu L., and Ji X., "The spectrum of light wave on scattering from an anisotropic semisoft-boundary medium," *Optik (Stuttg.)*, vol. 127, no. 20, pp. 9231–9235, Oct. 2016, doi: 10.1016/j.ijleo.2016.06.116.
4. Grüneis F., "Estimation of the lowest limit of 1/f noise in semiconductor materials," *Phys. Lett. Sect. A Gen. At. Solid State Phys.*, vol. 384, no. 6, Feb. 2020, doi: 10.1016/j.physleta.2019.126145.
5. Gulyamov G., Sharibaev N. Y., and Erkaboev U. I., "The Temperature Dependence of the Thermodynamic Density of States and Urbach Rule," *World J. Condens. Matter Phys.*, vol. 05, no. 01, pp. 43–47, 2015, doi: 10.4236/wjcm.2015.51006.
6. Yusuffjanovich S. N., Qodirjonovich E. A., Mamadjanovich M., and Siddiqjonovich Q. S., "Determination Of The Characteristics Of Polymer-Containing Electronic Elements Using A Mobile Device Determination Of The Characteristics Of Polymer-Containing Electronic Elements Using A Mobile Device," vol. 12, no. 4, pp. 61–68, 2021.
7. Sharibaev N. and Ergashov A., "Mathematical modeling of processes in dye-sensitized photocell," *J. Phys. Conf. Ser.*, vol. 2373, no. 7, 2022, doi: 10.1088/1742-6596/2373/7/072044.
8. Gulyamov G., Erkaboev U. I., and Sharibaev N. Y., "Simulation of the Temperature Dependence of the Density of States in a Strong Magnetic Field," *J. Mod. Phys.*, vol. 05, no. 08, 2014, doi: 10.4236/jmp.2014.58079.
9. Arof A. K., Mat Nor N. A., Aziz N., Kufian M. Z., Abdulaziz A. A., and Mamatkarimov O. O., "Investigation on morphology of composite poly(ethylene oxide)cellulose nanofibers," in *Materials Today: Proceedings*, 2019, vol. 17, pp. 388–393, doi: 10.1016/j.matpr.2019.06.265.
10. Singh R., Noor I. M., Singh P. K., Bhattacharya B., and Arof A. K., "Synthesis of active absorber layer by dip-coating method for perovskite solar cell," *J. Mol. Struct.*, vol. 1158, pp. 229–233, Apr. 2018, doi: 10.1016/j.molstruc.2018.01.037.
11. Hishida R., Watanabe K., Kudoh M., and Shibuki K., "Transcranial electrical stimulation of cortico-cortical connections in anesthetized mice," *J. Neurosci. Methods*, vol. 201, no. 2, pp. 315–321, Oct. 2011, doi: 10.1016/j.jneumeth.2011.08.007.
12. Gong J. and Krishnan S., *Mathematical modeling of dye-sensitized solar cells*. Elsevier Inc., 2019.
13. Areias I. A. D. S., Da Silva L. E. B., Bonaldi E. L., De Oliveira L. E. D. L., Lambert-Torres G., and Bernardes V. A., "Evaluation of current signature in bearing defects by envelope analysis of the vibration in induction motors," *Energies*, vol. 12, no. 21, 2019, doi: 10.3390/en12214029.

HUNARMANDCHILIK SOHASI PERIFRAZALARIDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLAR

Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi,

Buxoro davlat universiteti,

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrasida o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

u.s.ahmadova@buxdu.uz

uaxmadova477@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>

Annotatsiya. Maqolada hunarmandchilik sohasiga aloqador bo‘lgan perifrastik birliklar keltirilib tahlil qilingan. Ushbu soha va tilshunoslik fanining o‘zaro bog‘liqligi asoslanilgan bo‘lib, til, nutq, madaniyat, millat, an‘ana va qadriyat tushunchalari mushtaraklik hosil qilishi va ular biri ikkinchisini taqozo etishi dalillangan. Lingvistik birlik sanalgan perifrazalar nutqning ta‘sirchanligini, badiiyligini ta‘minlovchi uslubiy vositalardan biri ekanligi asoslanilgan.

Kalit so‘zlar: til, tilshunoslik, perifraza, hunarmandchilik, miliy, madaniy, qadriyat, lingvistika, tafakkur, an‘ana, hunar, ilm-fan, soha, lison, nutq, mazmun, mohiyat, xalq, jamiyat, ijtimoiy.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В ПЕРИФРАЗАХ СФЕРЫ РЕМЁСЕЛ

Аннотация. В статье представлены и проанализированы перифрастические единицы относящиеся к сфере ремёсел. Обосновывается взаимосвязь этой области и науки языкознания и доказывается, что понятия языка, речи, культуры, нации, традиции и ценности образуют общность и дополняют друг друга. Обосновано, что перифразы, считающиеся языковой единицей, являются одним из методических средств, обеспечивающих эффективность и артистичность речи.

Ключевые слова: язык, языкознание, перифразы, ремесло, национальное, культурное, значение, языкознание, мысль, традиция, наука, сфера, язык, речь, содержание, сущность, народ, общество, социальное.

NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS IN PERIPHRASES OF THE CRAFT FIELD

Abstract. The article presents and analyzes periphrastic units related to the field of crafts. The relationship between this field and the science of linguistics is substantiated that the concepts of language, speech, culture, nation, tradition and value create commonality, and require each other. It is justified that periphrasis, which is considered a linguistic unit, is one of the methodological tools that ensure the effectiveness and artistry of speech.

Keywords: language, linguistics, paraphrases, craft, national, cultural, meaning, linguistics, thought, tradition, science, sphere, language, speech, content, essence, people, society, social.

Kirish. Ilm-fan taraqqiyotida turli sohalarning integratsiyalashuvi tildan amaliy foydalanishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lisoniy birliklarning nazariy asoslari bilan emas, balki ularning nutqiy ifodasi, mazmun-mohiyati, pragmatik va psixologik xususiyatiga e‘tibor tobora kuchaymoqda. Bu esa amaliy tilshunoslik tarkibida jamiyat farovonligini ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan, inson omilini ulug‘lashni vazifasi deb bilgan qator yo‘nalishlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli til va xalq madaniyati yuksalishi yanada kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda o‘zbek tilshunosligi muammolarini jahon tilshunosligida erishilgan yutuqlar asosida chuqur hal qilishga e‘tibor ortmoqda. Jahon va o‘zbek tilshunosligida perifrazologiya hodisasining keng ko‘lamda o‘rganilishi mazkur hodisaning semantik va funksional tabiatini talab darajasida ochib berish, uning matn tuzilishida bajaradigan vazifalarini aniqlash imkonini beradi. Hunarmandchilik sohasiga oid perifrazalar o‘zbek tilshunosligida o‘rganilmagan hamda ularning yuzaga kelishiga turtki beruvchi omillar batafsil tavsiflanmagan. Shuningdek, perifrastik munosabatlarning diskursda voqelanishi shartlari ilmiy

jihatdan to'liq asoslab berilmagani mazkur muammoni majmuaviy ravishda, zamonaviy tahlil usullari tatbiqida tadqiq qilinishini taqazo etmoqda. Ayniqsa, hunarmandlar nutqi perifrallarini o'rganish til uchun muhim sanaladi. Tilshunoslik ilmida o'zbek xalqining o'zligi, turmush tarzi, tafakkuri, dunyoqarashi, o'tmishi va kelajagini aks ettirishda lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanish, madaniy nutqning bunyodkorlik kuchiga alohida e'tibor qaratish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimiz aholisining milliy-madaniyatini o'rganishda hunarmandlar nutqini lingvistik jihatdan o'rganish, tahlil qilish milliy mentalitet, urf-odat, an'ana, etnomadaniy qarashlar mahsuli bo'lgan tushunchalarni ifodalashda perifrallarining lisoniy va nutqiy bosqichda qo'llanilishini takomillashtirishda leksikografik, lingvistik jihatdan rivojlangan tilshunoslik maktablarining nazariy va amaliy qarashlari muhim manba sanaladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan milliy hunarmandchilik turlarini, xalq badiiy-amaliy san'atini rivojlantirish, qo'li gul hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash va mehnati mahsullarini keng targ'ib etish bo'yicha «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 1-noyabrdagi «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarorlari [1] hunarmandlar madaniyatini, tilini o'rganishga yanada kengroq imkoniyat eshigini ochdi. Bugungi zamonaviy tilshunoslik ilmida til va madaniyat, til va muloqot munosabatiga e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda lingvokulturologik tadqiqotlarning ya'ni hunarmandlar nutqi bilan bog'liq bo'lgan perifrallarining o'rganilishi har bir til egasi o'z tilining sofligi, uni boyitish, ta'sirli qilish, effektivligini kuchaytirish maqsadida perifrallarga murojaat qilishi, o'zbek xalqi milliy-madaniyatini dunyoga tarannum etishda, milliy mahsulotlar sotuvini rivojlantirishda o'zbek tili lingvistikasining serqirralik tabiati yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida»gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga tatbiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodi. So'nggi yillarda tilshunoslik sohalarida yangicha yo'nalishlarda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmogda. Bunday izlanishlar ko'laminin kengligi, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari g'oyatda rang-barangligini ko'rsatadi. Ayni paytda tadqiqotlarda til hodisalariga turlicha nuqtayi nazardan yondashuv tendensiyalari kuzatilmogda. Tilshunoslikda lingvistika doirasidagi tadqiqotlar lingvopoetika, psixolingvistika, pragmalingvistika, stilistika, lingvokulturologiya, kognitologiya, sotsiolingvistika hamda kommunikatsiya nazariyasi kabi yangi yo'nalishlarning qaror topishiga omil bo'lmogda. Kommunikatsiya jarayonida nutq ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini ifodalovchi vositalarga antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan yondashuv tilshunoslikdagi ana shunday yangi yo'nalishlardan biridir. Dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham antroposentrik nazariyaga asoslangan izlanishlar dolzarblik kasb etmogda. Nutqiy muloqot jarayonida so'zlashuvchilar shaxsi bilan alohida masalalar nafaqat aktuallashtirmogda, balki lingvistik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmogda. Antroposentrik paradigmaga asoslangan fan yo'nalishlarining takomillashuvi shu sohaga oid tadqiqotlar rivojiga xizmat qilmogda. Hunarmandlar leksikasining til xususiyatlarini o'rganish ham ana shunday dolzarb tadqiqotlar sirasidan o'rin oladi. Hunarmandchilik sohasiga alohida e'tiborning qaratilayotganligi, ichki va tashqi turizmning rivojiga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, til, nutq, madaniyat hamda ijtimoiy aloqalarning integratsiyalashuvi shu soha tilining leksikasini tadqiq qilish dolzarbligidan dalolat beradi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda nomoddiy merosni asrab-avaylashga, shu soha tilini alohida o'rganishga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasi sifatida baholasa bo'ladi.

O'zbek hunarmandchiligi juda boy va rang-barang bo'lib, u uzoq tarixga ega. Qadimgi va zamonaviy o'zbek ustalari – hunarmandlarning kulolchilik, gilamchilik, ipakchilik, kashtado'zlik, zardo'zlik, yog'och o'yakorligi, ganchkorlik, zargarlik, kandakorlik, naqqoshlik va hunarmandlikning boshqa sohalaridagi eng sara asarlari o'zbek milliy hunarmandchiligining har bir tarixiy davridagi rivojlanish bosqichlaridan darak beradi. XX asr o'rtalariga kelib, ayrim hunarmandchilik markazlari va hunar turlari, ularning noyob texnologiyalari yo'q bo'lib keta boshlaganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham ularni qayta tiklash bo'yicha hozirgi paytda olib borilayotgan ishlar juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu xalq madaniy merosining bebaho qatlamini asrab qolish bilan birga shu soha tilini tadqiq qilish imkonini beradi. O'tgan asr 90-yillari avvalida boshlangan yangi tarixiy davr O'zbekiston an'anaviy milliy hunarmandchiligini asrash va rivojlantirish jarayonining o'ziga xos yo'lini belgilab bergan. Yurtimizdagi milliy mustaqillik xalqimizning milliy madaniyati, an'analarini e'zozlashga, shuningdek, an'anaviy hunarmandchilikni avaylab-asrashga

qiziqish va e'tiborni ortishiga olib keldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, usta-hunarmandlarni qo'llab-quvvatlashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi (PF-1741) Farmoniga ko'ra, barcha hunarmandlar soliq va bojxona to'lovlaridan ozod qilindi, «Musavvir» ilmiy ishlab chiqarish markazi qoshida tashkil etilgan xalq ustalari, hunarmandlar va rassomlarning «Hunarmand» uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hunarmand» uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (№PQ-3393 17.11.2017) qaroriga ko'ra «Hunarmand» uyushmasi deb o'zgartirildi. «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» unvoni tasis etildi va hanuzgacha O'zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy va faxriy a'zolari eng sara va iqtidorli hunarmandlar mazkur e'tirofga sazovor bo'lib kelishmoqda. «Ustozshogird» tamoyiliga asoslangan yosh hunarmandlarni tayyorlash maktablari qaytadan jonlantirilganligini ko'rish mumkin. Keyingi yillarda O'zbekistonda an'anaviy hunarmandchilikning deyarli unutilayotgan turlari ham qayta tiklandi va mamlakatning ko'plab mintaqalarida turli hunarmandchilik markazlari tashkil etilishi shu yo'nalishdagi ishlarning taraqqiy toptirishga qaratilayotgan e'tiborning namunasi sanaladi. Anglashiladiki, hunarmandlar tilini, nutqini lingvistik jihatdan o'rganish va tadqiq qilish juda muhim. Hunarmandchilikni rivojlantirish turizmni rivojlanishiga olib kelsa, bu orqali o'zbek xalqining milliy-madaniy omillarini tarannum etishga keng yo'l ochadi. Xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat shubhasiz bu tilimiz. Bugungi rivojlanayotgan yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalish deb e'tirof etilgan vaqtda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Nutq madaniyati millat ma'naviy kamoloti va jamiyat madaniy taraqqiyotining muhim belgisidir. «...til, millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. Millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir» [2,3]. Muayyan bir xalq madaniyatining ushbu xalq tilidagi aksi va ifodasi – nutq madaniyatida ifodalanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda nutq madaniyati masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ma'naviy-ma'rifiy islohotlar deb e'lon qilinganligi bois har qachongidan ham dolzarbdir. A.Rustamov ham «til sofligi millat mustaqilligining muhim sharti» [3,4] ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Muhokama. Hunarmandlar leksikasi boy til sanaladi. Unda nafaqat milliylik omili balki, o'zbek xalqining eng qadimgi davrlarga borib taqalishi xususidagi ma'lumotlarni olish mumkin. O'zbek tili leksikasining imkoniyatlari kengroq ekanligini o'z sohasida qo'llangan terminlarda asoslaydi. Adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtiradi. Xalqdan olib, uni boyitib, sayqallashtirib xalqqa beradi. Hunarmandlar tili nutq madaniyatini, lingvokulturologiyani rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Uzoq ming yillik tariximizni, ma'naviyat-u madaniyatimizni o'zida jonli aks ettiradi. Xalqona an'ana va urf-odatlarimizni bag'rida asraydi. Shuning uchun ham hunarmandlar leksikasini o'rganish, lingvistik jihatdan tahlil qilish tilimiz uchun samara beradi.

Til jamiyat ko'zgusi. Tilsiz jamiyat mavjud emas. Hunarmandlar tili ham o'zbek tili leksikasining asosiy bir qismi sanalib, uni boyituvchi manba sirasiga kiradi. Hunarmandchilik sohasida o'zbek xalqining milliy-madaniy xususiyatlari, o'ziga xos nomoyon bo'ladi. Tilning bunyodkorlik qudratidan jamiyatdagi har bir shaxs o'z shaxsi, salohiyati va qobiliyatidan kelib chiqqan holda foydalanadi. Shu jumladan, hunarmandchilik sohasida ham perifrazalarning paydo bo'lishi hamda qo'llanishi ham inson tafakkuriga borib taqaladi. Bilamizki, har bir mamlakatning milliyligi, an'ana va urf-odatlari uning ya'ni xalqning hunarmandchilik sohasida ham o'z aksini topadi. Milliy hunarmandchiligimizni rivojlantirish, boyitish maqsadida ko'plab festivallar o'tkazilib kelinmoqda. Bugungi kunda hunarmandchilikning uch yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, bularga kulollik, misgarlik, temirchilik, binokorlik, duradgorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, zardo'zlik, rixtagarlik, bo'yoqchilik, tunukasozlik, yog'ochsozlik kabi sohalarini kiritish va bu turlarni uzoq davom ettirish mumkin.

Hunarmandchilik an'analari uzoq tarixiy taraqqiyotga borib tutashadi. Shunday ekan, jamiyatda qaysi soha vakili bo'lmasin barchasining nutqi tilda, tilshunoslik ilmida o'rganiladi va tahlilga tortiladi. Hunarmandchilik sohasida tayyorlangan mahsulot nomlarini atashda, soha vakillari nutqida perifrazalarning qo'llanilishi milliy mahsulotlarimizni chiroyli nomlash, uning qiymatini oshirish, diqqatni tortish, xaridorgir qilish natijasida tilimizda perifrazalab gapirish va ta'sir qilish ehtiyojini vujudga keltirdi. A.Hojievning «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati»da «Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma'lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom» [4,67] tarzidagi fikrlari, perifrastik birliklar to'g'risida keltirilgan izohi quyida tahlilga tortiladigan misollar bilan mutanosiblik hosil qiladi. Jumladan:

Ipakchilar, hunarmandlar yurti – Farg'ona

Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahri azal-azaldan ipakchilar, hunarmandlar yurti deb ta'riflanadi. Shahar mamlakatimizning qadimgi tarixi, xalqimizning o'ziga xos va takrorlanmas madaniyati, urf-odatlar va an'analarini o'zida aks ettiruvchi maskandir (<https://yuz.uz/uz/news/hunarmandchilik-azaliy-qadriyat>).

Farg'ona vodiysining turistik manzillaridan biri – Marg'ilon

Marg'ilon – Farg'ona vodiysining turistik manzillaridan biri. Hunarmandlar markazi ushbu shaharning sayyohlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi (<https://yuz.uz/uz/news/hunarmandchilik-azaliy-qadriyat>).

Hunarmandlar yurti – Shahrixon

Shahrixon azaldan hunarmandlar yurti sifatida dovrug' taratgan. Ayniqsa, tumanda pichoqchilik, do'ppido'zlik, beshiksozlik, temirchilik, tikuvchilik, milliy choponlar tayyorlash, kosibchilik, yog'ochdan turli buyumlar yasash kabi hunar turlari juda rivojlangan. Shahrixonlik hunarmandlar mahsulotlariga xorijda ham qiziqish katta (https://uza.uz/ru/posts/hunarmandlar-markazi-foydalanishga-topshirildi_277862?q=%2Fposts%2Fhunarmandlar-markazi-foydalanishga-topshirildi_277862).

Usta hunarmandlar yurti – Farg'ona vodiysi

Farg'ona vodiysi – usta hunarmandlar yurti. Shu jihatdan ham mazkur festivalning har ikki yilda bir marta Qo'qon shahrida o'tkazilishi bejiz emas (<https://kknews.uz/oz/30015.html>).

Tadbirkorlar va hunarmandlar yurti – Urgut

Urgut azaldan tadbirkorlar va hunarmandlar yurti hisoblanadi. Bu yerda yirik ishlab chiqarish korxonalar bilan birgalikda, turli hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi ustalar va korxonalar ham bor (<https://kun.uz/uz/news/2022/05/19/foto-ming-yillik-chinorlari-kokka-boy-chozgan-urgut?q=%2Fnews%2F2022%2F05%2F19%2Ffoto-ming-yillik-chinorlari-kokka-boy-chozgan-urgut>).

Mohir hunarmandlar, usta dehqonlar yurti – Farg'ona

Farg'ona – mohir hunarmandlar, usta dehqonlar yurti. Bu yerning ko'pchilik, bog'dorchilik an'analari – tayyor brend (<https://president.uz/oz/lists/view/2559>).

Tadbirkor va hunarmandlar yurti – Buxoro

«Buxoro azal-azaldan tadbirkor va hunarmandlar yurti bo'lib shuhrat qozongan. Bu salohiyatni ishga solish uchun aholiga dastak bo'ladigan sharoitlar yaratib, kasbga o'rgatsak va ozgina ko'mak bersak, bemalol 90 ming aholining bandligini ta'minlasa bo'ladi», deydi Shavkat Mirziyoyev (<https://qalampir.uz/uz/news/280-mingta-yangi-ish-urni-makhsus-turizm-dasturi-mirziyoyev-bukhoroni-ng-keyingi-5-yili-%D2%B3ak-ida-47610>).

Kulollar yurti – Rishton

Ayni kunlarda Farg'ona vodiysining eng qadimgi maskanlaridan biri, kulollar yurti deya e'tirof etiladigan Rishtonda O'zbekistonda yagona bo'lgan kulolchilik majmuasida so'nggi pardoqlash ishlari ketmoqda. Majmua usta kulollar uchun barcha shart-sharoitlarga ega ustaxona va turarjoylar bo'lib qolmay, chet ellik sayyohlarning ham sevimli joyiga aylanishi kutilmoqda (<https://uzreport.news/society/ozbekistondagi-yagona-kulolchilik-majmuasi-faoliyatini-boshlashga-tayyorgarlik-korilmoqda>).

Noyob tovar – Samarqand qog'ozi

Ushbu savdo yo'llarida Xitoy chinni va shoyisi hamda hind ziravorlari qanchalik shuhrat qozongan bo'lsa, moziyning yaqin ming yilligiga qadar Samarqand qog'ozi ham Buyuk ipak yo'lida eng ko'p xarid qilinadigan noyob tovarga aylandi (<https://meros.uz/object/samarqand-qog'ozi>).

Perifrazalash nafaqat hudud nomlariga balki mahsulot, xomashyo va predmetlarga nisbatan ham ishlatiladi. Jumladan, tikuvchilik ishlarida qo'llaniladigan angishvona (o'ymoq)ga nisbatan ham qayta nomlashni kuzatish mumkin. Masalan:

Barmoq himoyachisi – Angishvona

Kiyim-kechak, ko'rpa-yostiq tikishda barmoqlarga igna sanchilmasligi va ignani qalinroq gazlamadan o'tkazishda barmoq himoyachisi ishlatiladi (So'zlashuvdan).

Oddiygina qilib aytganda, matolarning turiga qarab ham perifrazlash holatini kuzatish mumkin. Masalan: *shohlar va shohonalar ko'rki – ipak va ipak matolaridan tayyorlangan mato, mahaliy aholi matosi – chit matolari, beqasam, kelinlik ziynati, suluvi – olacha, tafta matolariga nisbatan ishlatilgan.*

Xalq irimlariga ko'ra, ipak sehrli xususiyatga ega bo'lgani bois, undan muqaddas va himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari ya'ni ayollar va bolalarning kiyimlarida va jamiyatning yuqori tabaqalari, shuningdek, sirli kuchlar himoyasiga ehtiyoj sezadigan odamlar uchun ipak matolari, ko'pincha ichki astar yoki ot yopinchi'gi, erkaklarning kundalik buyumlarida ko'p foydalanilgan. Ushbu turdagi mahsulot nomlari ham perifrazalangan holda qo'llanganligini kuzatish mumkin. Jumladan: *sehrli mato, olov mato, his-tuyg'ular jilvasi, haroratni asrovchi, ikkinchi teri, shohlar matosi, hashamatlar hashamati, boylar ko'rki, sehrli mavjlar, shaffof ipak, ulug'vorlik ramzi* kabi perifrazalar qo'llangan.

Hunarmandchilikning tikuv-bichuv ishlarida baxmal matosidan ham keng foydalaniladi. Baxmal ham hashamdor matolar sirasiga kiradi. 1990-yillarda uni faqat Buxoro to'qimachilari ishlab chiqargan. Buxorolik hunarmandlar yakrang, yo'l-yo'l va abr naqshlariga ega ipak baxmallar to'qiganlar. Shahar aholisi eng yuqori tabaqasining barcha vakillari baxmaldan kiyim kiyib yurishgan. O'rta tabaqadagilar orasida uni faqat ayollar va bolalar kiygan. Hunarmandlar va quyi tabaqa vakillaridan faqat bolalar uchun bunday matodan liboslar tikilgan. 1900-yillarga kelib, bozorlarga Rossiyaning fabrika baxmallari kirib kelgach, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlab chiqarish inqirozga yuz tuta boshlagan. XIX asrning oxirlarida mashhur Buxoro baxmalining har xil turlari va namunalari haqida tasavvur qilish imkonini beradi. Ular orasida baxmal jiyaklar bilan tikilgan chimildiq alohida qimmatga ega. Yakrang baxmal matolaridan tikilgan erkaklar choponlari, zardo'zilik bilan bezatilgan ot yopinchiqlari alohida o'rin tutgan. Tikuvchi va hunarmandlar tomonidan ham baxmal matosiga nisbatan perifrazalash hollarini kuzatish mumkin. Masalan: *olov baxmal, oltin baxmal, guldor baxmal, gulko'rpa baxmal* kabilar.

Xulosa. O'zbekiston azaldan o'zining tarixiy obidalari, xalq hunarmandchiligi, qo'li gul ustalari va ularning ijod mahsullari bilan dunyoga tanilib kelgan. Shaharlar va uning atroflarida XV – XIX asrlar davomida yuzdan ortiq xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at turlari rivojlanib, Buyuk ipak yo'li orqali g'arbga ya'ni Yevropaga, Sharqqa esa Xitoy va Hindistongacha tarqalgan. Mana shu katta sohada perifrastik birliklardan unumli foydalanganligi nutqni ta'sirli, maqsadli va aniq yo'naltirish vazifasini bajarishi bilan bir qatorda perifrazalarga istalgan davrda, imkon qadar sohalarda ham murojaat qilishga ehtiyoj mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, barcha tasviriy vositalar singari perifrazlarning ham lingvistika va leksikografiyada o'ziga xos o'rni mavjud. Perifrastik birliklar tilning estetik funksiyasini oshirishda muhim omillardan sanaladi. Til va jamiyat taraqqiyotida perifrazlar asosan, odob-axloq o'zaro hurmat, xushxulqlik, ya'ni milliylik tamoyili asosida paydo bo'ladi. Perifrazalar serqirra va keng qamrovli hodisa bo'lib, u nafaqat metafora so'zlar o'rnida, qolaversa, ko'plab tasviriy vositalar o'rnida badiiylashtirib, ta'sirchan qilish uchun ham qo'llaniladi. Milliy-madaniy xususiyatlar tilning barcha qatlamlarida leksikasida ham, grammatikasida ham, hattoki fonetikasida ham mavjuddir. Milliy-madaniy belgi va xususiyatlar tilning harakatdagi birliklarida namoyon bo'ladi. Hunarmandlar leksikasini boyitishda ham perifrastik birliklarning o'rni beqiyosdir. Hunarmand nutqida yoki sohasida til birliklaridan ya'ni ekspressivlikka boy so'zlar, perifrazalar, tasviriy ifodalardan foydalanish orqali mahsulotni xaridorgir qilish, diqqatni tortish, milliy an'ana va urf-odatlarini tarannum etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada lingvomadaniy vosita sanalgan perifraza yordamida o'zga yurt vakillari o'zbek xalqining madaniyati, tarixi bilan tanishishni istaydi. Perifraza nutqning rang-barangligini ta'minlovchi uslubiy vositadir.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30 dekabrda PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
2. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б.3.
3. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. Тошкент: Extremumpress, 2010. – Б.4.
4. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 67-б.

Babayev Javid Sabir,

The head of the chair of "English and methods"

Nakhchivan State University, Azerbaijan

ORCID ID- 0009-0009-2472-0006

javidbabayev@yahoo.com

Abstract: *The article elaborates joint stylistic devices existing within an example. Figures of speech may be analyzed and found along the sentence from different aspects. It depends on what prism we approach the matter. Several figures of speech might coexist in an example even when we are unaware of their presence in most cases. As we know, a language is composed of different linguistic units which are included in lexicology, grammar, phonetics, onomastics, phraseology, etc. Some language units may jointly emerge in one example. The article reveals that metaphor, dysphemism, antonomasia, as well as antanaclasis, homographs, homophones, pun may coexist in one sentence. Besides, stylistic opportunities of homonyms have been analyzed in the article. Difference between antanaclasis and tongue-twisters has been scrutinized and some obscure details have been determined in the article. Another focus is on the stylistic opportunities of onomastics. The terms of "pars pro toto" and "totum pro parte" are the figures of speech which can be the constituents of onomastics, particularly place names. The article concludes that several figures of speech may easily be found in one example. So it occurs when different views, characteristic features and prisms overlap in one so-called example.*

Key words: *antanaclasis, joint, onomastics, dysphemism, euphemism, homophones, homographs, homonym, lexeme, pars pro toto, totum pro toto.*

СОВМЕСТНЫЕ СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ПРИЁМЫ

Аннотация: *В статье разрабатываются совместные стилистические приёмы, существующие в примере. Фигуры речи можно анализировать и находить в предложении с разных сторон. Это зависит от того, с какой призмы мы подходим к делу. В примере могут сосуществовать несколько фигур речи, даже если в большинстве случаев мы не осознаем их присутствия. Как известно, язык состоит из различных языковых единиц, которые входят в лексикологию, грамматику, фонетику, ономастику, фразеологию и т. д. Некоторые языковые единицы могут совместно возникать в одном примере. В статье выявлено, что в одном предложении могут сосуществовать метафора, дисфемизм, антономазия, а также антанаклазис, омографы, омофоны, каламбур. Кроме того, в статье проанализированы стилистические возможности омонимов. В статье тщательно изучена разница между антанаклазисом и скороговоркой, и выявлены некоторые неясные детали. Другой акцент делается на стилистических возможностях ономастики. Термины «pars pro toto» и «totum pro parte» являются фигурами речи, которые могут быть составляющими ономастики, в частности топонимов. В статье делается вывод о том, что в одном примере легко можно найти несколько фигур речи. Так бывает, когда разные виды, характерные черты и призмы накладываются друг на друга в одном так называемом образце.*

Ключевые слова: *антанаклазис, сустав, ономастика, дисфемизм, эвфемизм, омофоны, омографы, омоним, лексема, pars pro toto, totum pro toto.*

QO'SHMA STILISTIK QURILMALAR

Annotatsiya: *Maqolada misolda mavjud bo'lgan qo'shma stilistik vositalar ishlab chiqilgan. Nutq shakllarini turli tomonlardan tahlil qilish va gap bo'ylab topish mumkin. Bu masalaga qanday prizma bilan yondashishimizga bog'liq. Bir nechta nutqiy figuralar misolda birga bo'lishi mumkin, hatto biz ko'p hollarda ularning mavjudligidan bexabar bo'lsak ham. Ma'lumki, til leksikologiya, grammatika, fonetika, onomastika, frazeologiya kabilar tarkibiga kiradigan turli lingvistik birliklardan tashkil topgan. Ayrim til birliklari bir misolda birgalikda paydo bo'lishi mumkin. Maqolada metafora, disfemizm, antonomaziya, shuningdek, antanaklaziya, omograflar, omofonlar, so'z birikmasi bir gapda birga bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Bundan tashqari, maqolada omonimlarning uslubiy imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada antanaklaziya va tilni burish o'rtasidagi farq sinchkovlik bilan ko'rib chiqildi va ba'zi noaniq tafsilotlar aniqlandi. Yana bir*

e'tibor onomastikaning stilistik imkoniyatlariga qaratiladi. "Pars pro toto" va "totum pro parte" atamolari onomastikaning, xususan, joy nomlarining tarkibiy qismi bo'lishi mumkin bo'lgan nutqiy figuralardir. Maqolada bir misolda bir nechta nutqiy figuralarni osongina topish mumkin, degan xulosaga kelinadi. Shunday qilib, bu turli xil ko'rinishlar, xarakterli xususiyatlar va prizmalar bitta misolda bir-biriga yopishganda sodir bo'ladi.

Kalit so'zlar: antanaklaziya, bo'g'im, onomastika, disfemizm, evfemizm, omofonlar, omograflar, omonim, leksema, pars pro toto, totum pro toto.

Introduction. Stylistic devices are the colorful notes of the sentences which can be found both in literary layer and colloquial layer of the language. When someone speaks, different rhetoric devices come out of his mouth unknowingly. That person himself does not even know that he employed a bunch of stylistic devices in his speech. As obvious, every branch of linguistics has the stylistic opportunity. Lexicology, phraseology, onomastics, grammar, phonetics are capable of building up different stylistic devices in speech. Lexical units and phraseological units might make up several joint stylistic devices in one sentence. Sometimes lexical and phraseological units merge in one sentence and express several rhetoric devices. While saying a sample, there may be several stylistic devices depending on what prism we approach the issue.

Main part. Lexicology examines every feature of a word including formation, spelling, origin, usage and definition [5]. Lexicology also studies the relationships between word as synonyms, homonyms and antonyms. Lexicon consists of lexemes. Lexemes can create a number of stylistic devices. For example,

He is a sheep, a swine, a donkey who is unable to evaluate something.

From above-mentioned example, we witness several rhetoric devices including metaphor, dysphemism, antonomasia. As we see, as the person's character reminds of some animals' characters, there was a resemblance between them. That person might be indifferent, whimsical who does not care anything. For this reason, this example might be taken. Secondly, the person is humiliated by resembling him to some specific animals which leads to dysphemism. Dysphemism is the harsh expression of some events or somebody. Babayev Javid underline in his article: "Dysphemisms differ from vulgar words in one specific point. Vulgarisms express or reflect a sense which is related to sexual discourse and contain the words (mainly genitals and physical-sexual actions) belonging intimate relationships or persons doing these actions in a harsher way while dysphemisms don't possess such contents. As we know, all harsh words are not considered vulgar words, but all vulgar words are harsh or rude" [1, p.11]. Lastly, by enumerating some rude animals, we describe or hint that person's character which is characterized as antonomasia.

“*Yor-yor*”larda keltiriladigan “*tilla sochish*” anʼanasi mamlakatimizning barcha hududidagi toʻy marosimlarida aks etadi. Garchand hozirda “*tilla*” oʻrnini bolalar uchun turli shirinliklar egallagan boʻlsa-da, baribir, bu qadimdan davom etib kelayotgan milliy odatlardan biri hisoblanadi. *Tilla* – qadimda faqat maʼdan maʼnosida emas, balki, koʻpincha pul birligi maʼnosida qoʻllanilgan. Toʻyda *tilla* tangalarni “*ulyanmagan yigitlar*”ning sochishini esa oʻzbek xalqida er kishining bekligini, zoʻrligini, sohibligini *tilla*, *oltin* tushunchalari bilan izohlash mumkinligi gʻoyasiga (“*Alpomish*” dostoni) borib taqaladi.

Esganida bodi sabo,

Gul ochilar, yor-yor.

Qudalarning ogʻzidan,

Dur sochilar, yor-yor.

Ikki inson hayotini bir rishtaga bogʻlar ekan, ularning tinch-totuv, goʻzal hayot kechirishlarida, avvalo, kattalarning hissasi beqiyos. Ikki yoshga oʻz hayot tajibalarini boʻlishuvchi, ular yoshlik qilib xato qilishganda ularni toʻgʻri yoʻlga boshlovchi, oilaning mustahkamligi uchun qoʻllaridan kelgan yordamlarini ayamasdan yordam qoʻlini choʻzuvchilar aynan shu yoshlarning ota-onalaridir. Bu borada esa faqat bir tomonning emas, ikki tomonning hamjihatlikda ish koʻrishi juda muhimdir. Buni anglagan dono xalqimiz qudalar bir-biriga nisbatan, xushmuomala, shirinsoʻz boʻlishlariga ishora qilishgan. Chunki, xushmuomalikda gap koʻp, zero “*yaxshi soʻz bilan ilon inidan chiqar, yomon soʻz bilan pichoq qinidan*”. Shunday ekan, qudalar bir-birilari bilan soʻzlashganda soʻzlarning eng saralarini – durlarini tanlab olib ishlatishlari lozim.

Tillo taxtning ustidan,

Toydim, tushdim, yor-yor.

Qoʻlimda tilla qaychi,

Toʻnlar bichdim, yor-yor.

Har bir qiz farzand oʻz ota-ona uchun malikaday goʻyo. Shuning uchun ham xalq ogʻzaki ijodi namunalarida ota uy “*tillo taxtli*” saroyga muqoyasa qilinadi. Chunki, ota-ona mehri, ularning issiq bagʻirlari “*tillo taxt kabi*” qimmatli. Ota uyida oʻsib-ulgʻayib, kamol topgan har bir qiz kun kelib kelin boʻladi va oʻzga bir xonadonga kirib boradi. Yangi bir hayotga qadam qoʻyar ekan barcha erkaliklari-yu injiqliklarini shu ota uyda qoldirib ketadi. Endi u oʻzi uchun *tilla* va *oltin* singari qimmatli boʻlgan uyiga faqatgina mehmon boʻlib kelishi mumkin boʻladi.

Turmush qurib, oʻzga bir xonadonga qadam bosib, yangi bir hayotni boshlash arafasidagi qizlarga barcha yaxshi va ezgu tilaklar bildirilishi barcha xalqlar uchun tabiiy hodisa. Xoʻsh, bu kabi sof niyatlarni ifoda etishda “*tilla*”, “*oltin*”, “*kumush*”, “*gavhar*” kabi maʼdan nomlarini ifodalovchi lingvistik birliklar anglatuvchi maʼno-mazmun nimalardan iborat? Toʻy marosimlarda ijro etiladigan “*Yor-yor*”larning aksariyat variantlarida kelin boradigan xonadonning “**ostonasi tillodan**”:

Ostonasi tillodan

Uy seniki yor-yor

“oltin bilan qurshalgan ayvon”ining:

Oltin bilan qurshalgan ayvonda boʻl yor-yor,

Kuyov bilan bir umr davronda boʻl yor-yor.

“oltin bilan kumushdan tom”ining:

Oltin bilan kumushdan

Toming boʻlsin yor-yor

bo'lishi niyat qilinadi. Biz yuqorida, xalq dostonlaridan birida ta'kidlaganimizdek, “*tilla*”, “*oltin*” birliklari “*beklik*”, “*sardorlik*”, “*zo'rlik*” kabi semantik munosabatlarni ifodalaydi. Bu o'rinda ham qizning kelin bo'lib boradigan xonadonining “*ostonasi tillodan*”, “*ayvoni oltindan*”, “*tomi kumushdan*” ekanligi kuyovning bek ekanligidan, uning zo'rlar ichra sardor ekanligidan nishonadir. Shu o'rinda oltin va kumush ma'danlarining kimyoviy xossasi, ya'ni uning hech qachon chirimasligi, o'z sifatini yo'qotmaslik xususiyati vositasida kelinchak orzu qilayotgan chinakam baxtni ham yori uyidan topishini va bu baxt xuddi oltin va kumush singari haqiqiy bo'lib, o'z taftini hech qachon yo'qotmasligi kerakligi kabi mental qarashlar aks etib turgan. Bunday chinakam baxtga erishish uchun esa bir-biriga muhabbat qo'ygan ikki yosh doimo hamjihat bo'lib, birgalikda harakat qilmoqliklari lozim bo'ladi. Folklor namunalarida bunday munosabatlarni aks ettiruvchi o'rinlarni ko'plab uchratish mumkin.

Biring marjon, biring dur,

Tizilibsiz yor-yor.

Biring bulbul, biring dur,

Soz bo'libsiz, yor-yor.

Marjon va *dur* tabiatda g'aroyib tarzda uchraydigan noyob toshlar hisoblanadi. Ularning boshqa qimmatbaho toshlardan farqlovchi jihati – tabiatda ma'dan tarzida emas, balki dengiz jonivorlari organizmida hosil bo'luvchi qoldiq sifatida uchrashidir. Bu maftunkor toshlar ummon qari hamda dengiz sohillaridan olinadi. Shu boisdan ham xalq orasida bu ikki toshni bir-biri bilan almashtirish holatlari yoki ikkisini bitta tosh deb o'ylovchilar topiladi va bu ko'pincha xato fikr hamda noto'g'ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi “*yor-yor*”dan olingan parchadagi “*marjon*” va “*dur*” tushunchalarini izohlashga urinsak, dono xalqimizning chuqur mulohazali so'zlariga qoyil qolish mumkin. Yangi kelin-kuyovni go'zal juftlik sifatida marjon va durga qiyos etilgan desak, satrikdagi mazmun to'laligicha oydinlashmasligi mumkin. Ya'ni, bur yerda marjon va durning o'ziga xos shakliy joylashuviga diqqat qaratish joiz bo'ladi. Ular, odatda, bir-biriga zich joylashgan holda uchraydi. Demak, turmush deb atalmish yangi hayot ostonasida turgan ikki yosh ham hayotda xuddi shu dur-u marjonlar singari o'zaro hamjihatlikda: yaxshi kunda ham, yomon kunda ham bir-birlariga yelkadosh bo'lmoqlari darkor degan ma'no-mazmun anglashiladi. Shuningdek, kelin va kuyovni *oltin* hamda *kumush* singari qimmatbaho ma'danlarga qiyoslash o'rinlariga oid namunalarni ham ko'pgina uchratish mumkin:

Biring oltin, biring kumush

Qush bo'libsiz yor-yor

Biring jonsan, biring tana

Qo'sh bo'libsiz, yor-yor

Ikki yoshni ishq osmonidagi *oltin* va *kumush qush*larga o'xshatish xalq og'zaki ijodining o'ziga xos go'zal badiiy tasviri deb aytilish mumkin. Badiiy matnlarda *qush obrazi* – baxt, davlat, erk va hurlik ramzlarini ifodalab keladi. Xo'sh, baxt osmonida erkin parvoz qilayotgan ikki qushga nima uchun oltin va kumush sifatlari berilgan? Bu savolimizga bu ikki qimmatbaho ma'danning o'ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berish orqali javob qidiramiz. Oltin va kumush insoniyatga qadimdan ma'lum bo'lgan elementlardan hisoblanadi. Bu ma'danlar tarixdan to bugungi kunga qadar o'z qiymatini yo'qotmagan. Boisi, bu ma'danlarning kimyoviy reaksiyaga kirishish xususiyatining pastligi, ya'ni o'tda kuymasligi, korroziyalanmasligi (zanglamasligi), har qanday davr va ob-havoda ham o'zining yarqiroqlik xususiyatini yo'qotmasligi bois nodir metallar hisoblanishai. Bundan tashqari, bu ikki nodir metalning tibbiy xossalari ham anchayin faol bo'lib, aksariyat xalqlar tabobatida turli kasalliklarni davolovchi “*tabiiy dori*” vositasi sifatida foydalaniladi. Demak, zakiy xalqimiz ham yangi bir hayotga qadam qo'yayotgan ikki yosh hayotning har qanday sharoitida ham, har qanday davrda ham xuddi oltin va kumush singari o'zlarining chin insoniy fazilatlarini va sof muhabbatlarini saqlab qolishlarini xohlamodalar.

To'yxonaning eshigi guldani emish, yor-yor,

Kelinoyim kiygan libos durdan emish, yor-yor.

To'yni kelinsiz, kelinni esa kelinlik sarpolarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Birgina “*Alpomish*” dostonida Oybachinning sepi 90 tuyaga yuk bo'lishining o'ziyoq so'zimizning dalilidir. Bu sarpolarning asosiy vazifasi – kelinchakning husniga husn qo'shish. Shu sababdan kelinchakka eng go'zal va qimmatbaho liboslar olinadi. Toki, ularni kiygan kelin yal-yal yonib, hammaning havasini keltirsin. Jajji-jajji qizaloqlar ham kelinchakka havas bilan tikilib, o'zlarini ham kelinchak deb tasavvur qilib, uning harakatlarini taqlidan takrorlaydilar. To'y oqshomida kelinchak kiygan liboslarning qimmatbaholigi va dur kabi jilolanishi mana shunday yor-yorlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan deyish mumkin.

Kelinchaklar liboslari ichida “zardo’ppilar” eng e’tiborli sanaladi. Ular o’zbek xalqining milliy liboslari sirasiga kirib, yurtimizning har bir viloyatida o’ziga xos shakl va ko’rinishlariga ega bo’ladi. Buxoroda esa, asosan, tillarang zar iplardan tayyorlangan turli shakldagi do’ppilar shevalarda “kallapo’sh” tarzida ifodalanadi. Quyida keltirmoqchi bo’lgan “Ishimma” ham Qoqako’l va Olot tumani folklor namunasidan olingan bo’lib, unda bunday “zarkallapo’sh” o’ziga xos o’xshatish asosida keltiriladi:

*Havo havoga o’xshar,
Havoda bulut qaqshar.
Mening qizim kiygan do’ppi,
Oltin toboqqa o’xshar.*

*Ro’molim bor childiriq, yor-yor, yoroney
Qivladan ochiq eshik, yor-yor, yoroney
Kelinchak o’g’il tug’sa, yor-yor, yoroney
Tilladan yasang beshik, yor-yor, yoroney*

Xulosa. Qimmatbaho tosh va ma’dan nomlari qatnashgan ingliz va o’zbek xalq og’zaki ijodi namunalarini tahlil qilarkanmiz, qardosh bo’lmagan bu ikki tilda ko’p o’xshash jihatlarni kuzatdik. Jumladan, xalq og’zaki ijodi namunalarida mineralogik birliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- millatning milliy-mentallik qarashlarini ifodalash;
- har bir millatning o’ziga xos urf-odati, an’anasi, maishiy hayoti, falsafasini aks ettirish;
- xalq tajribasi, bilimi, aql-zakovatini ifodalash;
- boylik, xazina, kuch-qudrat, pul birligi semantik ma’nolarini ifodalash;
- beklik, zo’rluk, mardlik, davlatmandlik ma’nolarini ifodalash;

Shuningdek, har ikki til xalq og’zaki ijodi namunalarida qimmatbaho tosh nomlari nozik metaforik birliklar, yuksak poetik ko’chimlar, badiiy tasvir namunalarini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Alpomish. O’zbek xalq qahramonlik dostoni. Toshkent: Tafakkur, 2014. B-12.*
2. *Safarov O. O’zbek xalq og’zaki ijodi. Toshkent: Musiqa, 2010. B.- 232*
3. *Beowulf an anglo-saxon epic poem part xv. hrothgar’s gratitude. translated from the heyne-socin text by jno: lesslie hall, Ph. D. (J.H.U.) BOSTON 2021*
4. *Robin Hood Retold by Liz Austin Series Editors: Andy Hopkins and Jocelyn Potter England 2000 p.11*
5. *Greensleeves: Mythology, History and Music. Part 1 of 3: Mythology". Early Music Muse. 2015.*

INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDA MEHNATKASHLIK VA YALQOVLIK KONSEPTLARINI IFODALASH YO'LLARI

Tursunov Mirzo Mahmudovich,
Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi
kafedrası dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
mirzobek.tursunov81@gmail.com

Rahmatullayeva Anora To'lqin qizi,
Buxoro davlat universiteti, Lingvistika: ingliz tili
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
rahmatullayevaanora088@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslik uchun muhim bo'lgan mavzulardan biri haqida ma'lumot beradi. Unda mehnatkashlik va yalqovlik dixotomiyasining turli paremiologik birliklar, ya'ni maqol, hikmatli so'zlar, frazeologik birliklarda qanday qo'llanilishi haqida misollar beriladi. Bundan tashqari, maqolada badiiy asarlarda ushbu ikki tushunchaga oid yuqorida keltirilgan til birliklaridan namunalar keltirilib, tahlil qilinadi. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi mehnatkashlik va yalqovlik konseptlari ishtirokidagi leksik birliklar qiyoslanadi, hamda ma'lum lingvomadaniy farqlar kuzatiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, konsept, lingvokulturemalar, paremiologik birliklar, maqollar, aforizmlar, iboralar.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ КОНЦЕПТОВ ТРУДОЛЮБИЯ И ЛЕНИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье представлена информация об одной из важных тем для языкознания. Приводятся примеры употребления дихотомии трудолюбия и лени в различных паремиологических единицах, т.е. в пословицах и фразеологизмах. Кроме того, в статье анализируются примеры употребления вышеперечисленных языковых единиц, связанных с этими двумя понятиями, в художественных произведениях. В статье сравниваются лексические единицы с понятиями трудолюбия и лени в английском и узбекском языках, и отмечаются определённые языковые и культурные различия.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, лингвокультура, концепт, паремиологические единицы, пословицы, мудрые поговорки, афоризмы, фразеологизмы.

WAYS OF EXPRESSING THE CONCEPTS OF HARD WORK AND LAZINESS IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTICS

Abstract. This article provides information about one of the important topics for linguistics. It gives examples of how the dichotomy of hard work and laziness is used in various paremiological units, i.e. proverbs, aphorisms, phraseological units. In addition, the article presents and analyzes examples of the above-mentioned linguistic units related to these two concepts in literature. The article compares the lexical units involving the concepts of hard work and laziness in the English and Uzbek languages, and certain linguistic and cultural differences are observed.

Key words: cognitive linguistics, linguoculture, concept, linguocultural units, paremiological units, proverbs, aphorisms, phraseological units.

Kirish. Zamon taraqqiy etar ekan, yangi bilimlar orttirish istagi paydo bo'laveradi. Jumladan, ilmiy soha vakillari ham fanda haligacha o'z isbotini to'laligicha topmagan yo'nalishlardan biri kognitiv tilshunoslik haqida izlanishlar olib bormoqdalar. Ma'lumki, kognitiv tilshunoslik insonning bilish qobiliyati haqidagi fandır. Ushbu soha paydo bo'lgan vaqt turli olimlar tomonidan turlicha aytiladi. Mohiyatiga ko'ra kognitiv lingvistika 1980-yillarning oxirida shakllanib bo'lgan. Ushbu fanning maqsadi til tizimining inson bilish jarayonidagi ishtirokini aniqlash hisoblanadi [1; 11-13]. Kognitiv tilshunoslik bilan ko'plab olimlar ish olib borgan, jumladan, Charlz Fillmor, Jorj Lakof, Ronald Langaker, Leonard Talmi, Aleksandr Kibrik.

Bundan tashqari bir necha o'zbek olimlari ham kognitiv lingvistika haqida o'z fikrlarini bildirib tadqiqotlar olib borganlar.

Sh.Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lash, chuqur ilmiy tadqiq etishdir [1; 14-15].

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bu - konsept. Konsept so'zi lotincha conceptus bo'lib, "tushuncha" ma'nosini ifodalaydi.

Ye.S.Kubryakovaning fikricha, "konsept termini tafakkur, anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya, kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya fanlari uchun "soyabon" vazifasini o'taydi [2; 34].

Inson tug'ilibdiki, dunyoni anglash jarayoni sodir bo'la boshlaydi va bola ongida nafaqat u o'rgangan so'zlarning ma'nolari, balki shu ma'no ostida yashiringan tug'ilib o'sgan millatning milliy qadriyat, an'ana va tarixiy tajribalarining mujassamligida konseptlar paydo bo'la boshlaydi. Ya'ni, tajriba qanchalik boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik kengayib boraveradi. Konsept yuksak darajadagi umumiylikga ega. Konsept asosida tushuncha, ma'no, obraz yotadi. Konsept tushunchasi 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof, Lakoflarning asarlari orqali tilshunoslar iste'moliga kirib keladi.

Konsept nafaqat kognitiv tilshunoslikning balki XX asrning oxirlarida fanga yangi bir masala, til va madaniyat muammosini o'rganish istagidan vujudga kelgan yangi yo'nalish lingvokulturologiyaning ham asosiy tushunchasi hisoblanadi. Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Yevropadagi tilshunoslikda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin. Bu boradagi ishlarni sanab sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan [3].

Ushbu yangi yo'nalish borasida g'arb va sharqning bir qancha olimlari tadqiqot olib borgan. Bulardan jahon tilshunosligida G.B.Palmer, V.V.Vorobev, V.A. Maslova, V.I.Karasik, O.E.Salnikova, o'zbek tilshunosligida esa G.Boqiyeva, A.Mamatov, J.Yoqubov, Sh.Safarov, D.Ashurova kabi tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologiyaning predmeti doimiy o'zaro ta'sirlanish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, til madaniyatning tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltira oladi.

Konseptdan tashqari lingvokulturologiyaning yana bir asosiy tushunchalaridan biri bu lingvokulturemadir. Ushbu atama ilk bor V.V.Vorobev tomonidan qo'llangan bo'lib, lingvokulturema predmetlik ma'nosidan tashqari milliy-madaniy ma'noni ham o'z ichiga oladi.

O'.Yusupovning ta'kidlashicha, "Lingvokulturema o'z semantikasida madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi" [4].

Asosiy qism. Barcha tillardagi frazeologik birikmalar, xususan ingliz tilidagi frazeologik birikmalar ham, millatning donishmandligi va lingvistik didini ko'rsatuvchi xalq ijodi hisoblanadi. Ko'pgina frazeologik birikmalar o'zida ingliz xalqining an'analari, odatlari va e'tiqodi, Angliya tarixining biz bilgan va bilmagan tarixiy haqiqat va dalillarini aks ettiradi. Ko'plab frazeologik birikmalarning ildizlari kasbiy muloqotga borib taqaladi. Frazeologik birikmalarning asosiy manbasi – bu ularning tarkibidagi o'zaro birikkan so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishidir [5].

Lingvokulturemalar xalqning o'ziga xos madaniyatini uning til birliklari orqali aks ettiruvchi lisoniy hodisadir. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini ifodalovchi so'zlar, frazeologik birliklar, maqollar, so'z birikmalari va hokazolalar kiradi. Ushbu maqolada ana shunday lingvokulturemaning tarkibiy qismiga kiruvchi maqollar va aforizmlar talqinida ingliz va o'zbek madaniyatida mavjud bo'lgan ikki tushuncha: mehnatsevarlik va yalqovlik konseptlarining tahliliga nazar tashlanadi.

Maqollar xalq donishmandligining yorqin namunasi sifatida avloddan-avlodga o'tib, meros bo'lib keluvchi xalq boyligidir. Maqollar xalqning orzu-istak, armonlari, quvonch, baxt, omad, xullas jamiki xislatlarini ifoda etuvchi purmano birliklardir. Maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi o'zida xalqning milliy madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. O'zbek milliy madaniyatida maqollarga bola tarbiyasida muhim rol o'ynovchi vosita sifatida qaraladi va bola tug'ilibdiki unga to'g'ri tarbiya bermog' uchun xalq maqollari yordamga keladi. Hozirda tilimizda 30 dan ortiq mavzudagi minglab maqollar mavjud. Shulardan biz maqolada mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi maqollarga to'xtalib o'tamiz.

Mehnatli non-shakar,

Mehnatsiz non-zahar.

Mehnatning ko'zini topgan

Boylikning o'zini topar [6; 33].

Ushbu mehnatni ulug'lovchi maqollar o'zbek xalqi uchun tanish, albatta. Ularda mehnat ortidan kelgan rizq shirin va barakali bo'lishi, mehnatni sevgan odam aslo xor bo'lmasligi kabi ma'nolar yotadi.

Yalqovlik, oxiri xo'rlik.

Yalqov – o'ziga yov.

Yuqoridagi maqollarda esa yalqov va dangasalik qoralanib, shunday xislatli kishilar aslo baraka topmasligi, hayotda xorlik va xo'rlikdan boshqa narsani ko'rmasligi uqtiriladi.

Xalqimizda bolaga yoshlikdan ertak aytib berish odati mavjud. Kishi uchun zarur fazilatlar: mehnatsevarlik, halollik, oqillik, donolik aynan ertaklar orqali singdiriladi. Shu jihatdan mehnat haqidagi ertaklar juda o'rinlidir, chunki ularda mehnatni ulug'lab, dangasalikni qoralovchi maqollar mavjud. Deyarli har bir ertakni shu mavzudagi maqollarsiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, "Mehnat-mehnatning tagi rohat", "Gap desang- qop-qop, ish desang- betob", "Yomg'ir bilan el ko'karar, mehnat bilan-el", "Ishlagan osh tishlar, ishlamagan-tosh" kabi maqollar bolajonlarning mashhur ertaklaridan joy olgan. Ushbu sermazmun maqollar yosh avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilmay qolmaydi, albatta.

Maqollar xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va kundalik hayotini yorituvchi ko'zgudir. Biror yozuvchi, shoirlar yo'qki, asarlarida xalq maqollaridan foydalanmagan bo'lsa. Xususan, mutaffakkir Mahmud Koshg'ariy o'zining mashhur "Devoni lug'otit-turk" devonida 250 dan ortiq maqollar qo'llagan. Mavzu jihatdan turlicha bo'lgan ushbu maqollar ichida mehnat haqidagi maqollar ham uchraydi.

Kichikda qatig'lansa, ulg'azu sevnur [7; 50].

Bu maqol yoshlikda qiynalib harakat, mehnat qilgan inson, kata bo'lgach sevinadi degan ma'noga ega. Darhaqiqat, yoshlikda qiynalgan inson, ulg'aygach albatta rohatini ko'radi. Mehnatsevarlik ruhida yozilgan bu maqol hozirgi "Mehnat-rohatning poydevori", "Mehnat qilsang rohat ko'rasan" kabi maqollarga mazmunan yaqin.

Bundan tashqari, XX asr o'zbek adabiyotining namoyondalaridan biri Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida "Oson ishda lazzat yo'q" [8; 80] maqoli qo'llanilgan. Bu bilan yozuvchi davlat ishlarini boshqarish oson emasligini, xalqni boshqarishda ham yetarli bilim, tajriba buning ortida esa mashaqqatli mehnat yotishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham ingliz madaniyati, turmush tarzini aks ettiradigan milliy maqollar bor.

The labourer is worthy of his hire [9].

Ushbu maqol o'zbek tilidagi "Ishlab topganing-osh, Ishlamay topganing-tosh" maqoliga mazmun jihatdan to'g'ri keladi. Biz maqollarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilolmaymiz, ularning boshqa tildagi ekvivalentini bera olamiz xolos. Buning sababi esa, maqollar madaniyatning bo'lagi, madaniyat esa turli millatlarda turlichadir. Yuqoridagi maqolda halol mehnat ortidan topilgan non lazzatli bo'lishi, ammo, mehnatsiz topilgan narsa hech qachon huzur bermasligi haqidagi ma'nolarni mujassam qilgan.

"Work is done, time for fun" maqolining o'zbekcha ekvivalenti aynan "Mehnat qilib topganing, qand-u asal totganing" dir, ya'ni, dunyoda barcha yaxshiliklar mehnat ortidan keladi. Yalqovlik, dangasalik insonga na halovat, na rohat bera oladi.

Ingliz tilidagi mehnatni ulug'lovchi maqollar ham mashhur yozuvchilar e'tiboridan chetda qolmagan. Asarning ma'nosini boyitish va kitobxonning qiziqishini uyg'otish uchun ingliz yozuvchilari maqollardan o'z asarlarida unumli foydalanishgan. Shulardan mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi maqollar tahliliga to'xtalib o'tamiz. Mashhur yozuvchi Achebe Chinka o'zining "Arrow of God" romanida "The lizard that jumped from the high iroko tree to the ground said he would praise himself if no one else did" [10; 77-78] maqolini majoziy ma'noda qo'llagan. Ushbu maqol asar qahramoni yosh fermer Okonkvoning mehnatsevarligini, maqsadi yo'lida hech bir qiyinchilikka yengilmasligini ifodalaydi. Yana bir maqol "An old woman is always uneasy when dry bones are mentioned in proverbs" asarda ishlatilgan bo'lib, unda yalqov odam keraksiz bir buyumga taqqoslanadi. Asarda bu maqol qahramonning dangasa otasiga nisbatan qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har ikkala millat milliy madaniyatida ham mehnatkashlik va yalqovlikka nisbatan qarashlar deyarli bir xil. Har ikkala millatda mehnat qiluvchilar ulug'lanib, dangasa va tekinxo'r kishilar esa jamiyatning eng past tabaqasidan hisoblanib hurmat qilinmaydi.

Mehnatkashlik va yalqovlik konseptlarini ifodalaydigan birliklardan yana biri bu aforizmlardir. Aforizmlar mashhur donishmand, mutaffakkirlar tomonidan aytilgan hikmatli so'zlar bo'lib unda xalq donishmandligi mujassam. Ushbu barqaror birikmalar ham ingliz va o'zbek millati turmush tarzi, dunyoqarashi, tarixi va madaniyatini yoritib beradi. Maqoldan farqli ravishda, aforizmlarda aynan muallif

bo'ladi. Aforizmlar ham yozuvchilar tomonidan asarlarning badiiy bo'yoqdorligini oshirish uchun ishlatilib kelinadi. Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi asarlarda keltirilgan mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi aforizmlarni tahlil qilamiz.

Buyuk mutaffakkirlarimizdan Abdurahmon Jomiy mehnatkashlik haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. U har bir inson mehnat bilan yashab, hayot kechirmog'i lozimligini, mehnat baxt keltiruvchi vosita ekanligini ta'kidlab, buni o'zining ijodida ham aks ettiradi:

O'z mehnating bo'lsin doim yo'ldoshing,

O'zga minnatidan og'ritma boshing.

Alisher Navoiy insonni komil inson sifatida shakllanishining asosiy omili bu- mehnat ekanligini ta'kidlaydi:

Mehnat arodir murod topmoq, bilgil,

Mehnat arodir qo'shoq topmoq, bilgil.

Ushbu parchada azaldan xalqimiz nechog'lik mehnatni qadrlashining guvohi bo'lishimiz mumkin. Millatimizda barcha ezguliklarning boshi halol mehnatga borib taqaladi.

Yusuf Xos Hojibning mashhur "Qutadg'u bilig" dostonida shunday deyilgan:

Qaysi narsaga ko'p mehnat qo'shilsa,

O'sha narsa sevimli, hamma (narsa) dan aziz bo'ladi [11; 90].

Kishi qaysi narsaga mashaqqat bilan qiynalib erishsa, shu narsa totli, qadrli bo'lishi yana bir karra aks ettirilgan ushbu parchada. Osonlik bilan erishilgan narsa esa hamisha beqadr bo'ladi.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida ham biror ishni bitkazish uchun mashaqqat talab etiladi, yaxshi ishga qiyinchiliksiz erishib bo'lmaydi ma'nosida qo'llangan quyidagi hikmatli so'z keltirilgan: "Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas" [12; 46].

XX asr yozuvchilaridan Asqad Muxtorning "Chinor" romanida ham insonni mehnatga undovchi "Mehnatda gap ko'p", "Mehnat qilishimiz farz-u, barcha ishlarimizni tamom oxiriga yetkazish bizga nasib qilmagan" [13; 56-106] kabi aforizmlar asar qahramonlari tilidan aytilgan.

Xuddi shunday ingliz adabiyotida ham mehnatkashlik va yalqovlikni ifodalovchi aforizmlar ko'p qo'llangan. Jumladan, Oskar Vildening "The Importance of Being Earnest" asarida "It is awfully hard work doing nothing" [14; 68] aforizmini ishlatgan, ya'ni eng rasvo, qiyin ish bu hech narsa qilmaslikdir. Hech qanday yumush bilan band bo'lmaslik bu eng yomon narsa deya ta'riflaydi yozuvchi.

Yozuvchi Frank Sonnenbergning "The path to a Meaningful life" asaridagi quyidagi aforizmi e'tiborga molik, "Hard work isn't a punishment. It builds character, provides a sense of purpose, and promotes confidence and self-esteem" [15; 14]. Darhaqiqat, og'ir mehnat bu jazo emas, balki u kelajak uchun maqsadlar belgilab beruvchi va insonda shu maqsadga erishish uchun ishonch beruvchi kuchdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mehnatkashlik va yalqovlik tushunchalari haqida keltirilgan yuqoridagi aforizmlar insonlarning bu dixotomiyaga nisbatan qarashlari, munosabatlarini yaqqol ko'rsatib bergan. Bu ham, albatta, bevosita milliy madaniy qarashlarga borib taqaladi. Demak, hech bir millat yo'qki, dangasalikni ulug'lasa, mehnatsevarlikni esa hayotiy muhim xususiyatlardan biri deb hisoblamasa. Ingliz va o'zbek tillarida bu ikki tushunchaga nisbatan munosabat bir xil. Buni xalq xazinasining ko'zgusi-maqollar hamda aforizmlardan keltirilgan namunalar orqali kuzatdik va o'rgandik. Kuzatganimizdek, ingliz va o'zbek tilidagi mehnatkashlik va yalqovlik konseptlarini ochib berishda maqollarda bir qancha vositalar muhim rol o'ynagan. Barcha maqollarda metaforalik, obrazlilik, ta'sirchanlilik, hissiy bo'yoqdorlik, qisqalik, majoziylik mavjud. Yuqorida tahlil qilingan ko'pchilik ingliz tilidagi maqollarda ham aynan metaforalardan foydalanilgan. Demak, o'zbek tiliga qiyoslaganda ingliz tilidagi maqollar majoziy, ko'chma ma'no orqali yaratilgan. Buni ikki til leksik birliklaridagi farq deya olamiz. Ammo, ta'kidlaganimizdek, ingliz va o'zbek tilidagi mehnatkashlik va yalqovlik mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma'no-mazmunga egadir. Faqat har ikkala tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanilmagan. Ikki tildagi mehnatkashlik va yalqovlik haqidagi maqollarning barchasida mehnat muvaffaqiyat kaliti sifatida, yalqovlik esa bir chuqurlikka g'arq qiluvchi salbiy xususiyat sifatida ko'rsatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Sangzor nashriyoti. 2006. 11-13-betlar.*
2. *Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика – психология-когнитивная наука. Вопросы языкознания. 1994. 34-б.*
3. *Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. O'zbek tili va adabiyoti. 2012.*
4. *Komilova.G. T. Scientific journal Impact Factor. 2021.*

5. Tursunov M. Ubaydullayeva M. *Ingliz va o'zbek tillarida mubolag'aga asoslangan ba'zi bir frazeologik birliklarning lingvokognitiv tahlili. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2022.*
6. Suvonqulova X. *O'zbek xalq maqollari. Adabiyot uchqunlari. 2014. 33-b.*
7. Koshg'ariy M. *Devoni lug'otit-turk. III tom. O'zbekiston F.A nashriyoti. 1963. 50-b.*
8. Qodiriy A. *Mehrobdan chayon. Toshkent. Navro'z nashriyoti. 2019. 80-b.*
9. Mieder.W. *International Proverb Scholarship. New York: Garland publishing.*
10. Achebe Chinka. *Arrow of God. London Heinemann. 1974. 77-78.*
11. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig. Toshkent. Fan. 1971. 90-b.*
12. Gulxaniy. *Zarbulmasal. Ma'naviyat nashriyoti. 2016. 46-b.*
13. Asqad Muxtor. *Chinor. Yoshlar nashriyoti uyi. 2018. 56-106.*
14. Oscar Wilde. *The Importance of Being Earnest. 1899. 68-b.*
15. Frank Sonnenberg. *The Path to a Meaningful life. 2022. 14-b.*

Zikrillayev G'ani Nasrullayevich,
filologiya fanlari doktori

Safarov Firuz Sulaymonovich,
Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc),
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
f.s.safarov@buxdu.uz

Ro'ziyev Yarash Bozorovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
y.b.ruziev@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada falsafiy tilshunoslik vakili H. G'. Ne'matov hamda uning shogird-u izdoshlari tomonidan istiqlol yillarida yaratilgan ayrim monografiya va hamkorlikdagi ishlar mazmun-mohiyati, metodologiyasi tahlil qilinadi. Bu ishlarda metodologiya uch omilning bir butunligidan iboratligi aytiladi. Bular: 1) bilim turi (bilish bosqichi); 2) tadqiqotchining tadqiq manbaiga yondashishi (yoki yondashish usuli) va 3) tadqiqotchining tayanch nuqtayi nazari ekanligi ko'rsatilib bu uch omilning mazmuni izohlanadi. Til birliklari tadqiqiga dialektik yondashishning 16 tamoyili misollar asosida tushuntiriladi. O'zbek substansial tilshunosligining tamoyillari va metodologik asosi tahlil qilinib lisoniy birliklar ya'ni fonema, morfema, leksema va qolip (model)ning dialektik tabiatini ochish va ularni tavsiflashda o'zbek substansial tilshunosligi vakillari tomonidan substansionallik, ichki ziddiyatlik, ko'p qatorlik, oraliq uchinchi kabi asosiy tamoyillarga tayanilishi, bu tamoyillar mazkur tilshunoslik yo'nalishining metodologik asosini tashkil etishi bayon qilinadi. Substansiya (zot) deganda mazkur tilshunoslik vakillari tomonidan mohiyat (umumiy ma'no) nazarda tutilishi izohlab beriladi. Xulosa sifatida substansial tilshunoslik tadqiqotchilarining fikriga ko'ra hozirgi dialektikada tadqiq manbai haqida bilim hosil qilishda Gegel va gegelchilar tomonidan ajratiladigan 16 ta asosiy tamoyil zamonaviy oliy cho'qqi hisoblanishi aytiladi.

Kalit so'zlar: metodologiya, hissiy, fahmiy, zohiriy, tashqi, tajribaviy, alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat, aqliy, idrokiy, mantiqiy, nazariy, ichki, botiniy, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, nominalistik yondashuv, dialektik yondashuv, idealistik (ruhoni) nuqtayi nazar, materialistik (mashshoiy) nuqtayi nazar, dialektikaning 16 tamoyili, sinxronik formal-tavsifiy metod, struktural (sistemaviy) tahlil usuli va tilshunosligi, o'zbek substansial tilshunosligi, substansionallik, ichki ziddiyatlik, ko'p qatorlik, oraliq uchinchi, substansiya, zot.

ФИЛОСОФСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И МЕТОДОЛОГИЯ

Аннотация. В статье анализируется содержание и методология некоторых монографий и совместных работ, созданных представителем философского языкознания Х. Г. Нигматовым, его учениками и последователями в годы независимости. В этих работах указывается, что методология состоит из трёх факторов: 1) тип знания (уровень познания); 2) подход исследователя к источнику исследования (метод подхода) и 3) точка зрения исследователя, а также разъясняется сущность этих трёх факторов. На основе примера объясняются 16 принципов диалектического подхода к изучению языковых единиц. Анализируются принципы и методологические основы узбекского субстанционального языкознания. Указывается, что при выявлении и описывании диалектической природы языковых единиц, т.е. фонем, морфем, лексем и моделей представители узбекского субстанционального языкознания опираются на субстанциональность, внутреннюю противоречивость, многорядность, включённое третье. Эти принципы составляют методологическую основу этого направления языкознания. Разъясняется, что под термином «субстанция» представители данного языкознания подразумевают сущность (общее значение). В заключении излагается, что по мнению исследователей субстанциональной лингвистики 16 основных принципов, выделяемых Гегелем и гегельянами при формировании знания об источнике исследования, в сегодняшней диалектике считается современной вершиной.

Ключевые слова: методология, чувственный, перцептивный, внешний, опытный, единичность, явление, действительность, следствие, умственное, разумное, логическое, теоретическое, внутреннее, общее, сущность, возможность, причина, номиналистический подход,

диалектический подход, идеалистическая точка зрения, материалистическая точка зрения, 16 принципов диалектики, синхронный формально-описательный метод, структурный (системный) метод и языкознание, узбекское субстанциональное языкознание, субстанциональность, внутреннее противоречие, многорядность, субстанция, включенное третье.

PHILOSOPHICAL LINGUISTICS AND METHODOLOGY

Abstract. The article analyzes the content and methodology of some monographs and joint works created by the representative of philosophical linguistics Kh. G. Nigmatov and his students and followers during the years of independence. Based on these works, it is said that the methodology consists of three factors: 1) type of knowledge (level of knowledge); 2) approach to the source of research (method of approach); and 3) the point of view of the researcher and the essence of these three factors is explained. Based on the example, 16 principles of the dialectical approach to the study of language units are explained. The principles and methodological foundations of Uzbek substantive linguistics are analyzed and it is indicated that when identifying and describing the dialectical nature of linguistic units, i.e. phonemes, morphemes, lexemes and templates (models), representatives of Uzbek substantive linguistics are based on substantiality, internal inconsistency, multi-row, included third, and these principles form the methodological basis of this direction of linguistics. It is revealed that under the term "substance" the representatives of this linguistics mean the essence and general meaning. In conclusion, it is said that, according to the researchers of substantive linguistics, the 16 basic principles identified in the formation of knowledge about the source of research in modern dialectics, the approach of Hegel and the Hegelians is considered the modern peak.

Key words: methodology, sensual, perceptual, external, experiential, singularity, phenomenon, reality, consequence, mental, rational, logical, theoretical, internal, general, essence, possibility and cause, nominalistic approach, dialectical approach, idealistic point of view, materialistic point of view, 16 principles of dialectics, synchronous formal descriptive method, structural (systemic) method and linguistics, Uzbek substantive linguistics, substantiality, internal contradiction, multiple rows, substance, included third.

Kirish. Ma'lumki 2017-yil 16-fevralda Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Unda jumladan shunday deyiladi. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur'atlar oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg'or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta'lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qator xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotiga muvofiq 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali bosqichi joriy etildi. Unga ko'ra dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha **falsafa doktori** (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura hamda dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha **fan doktori** (Doktor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimi joriy qilindi [1].

Ayon bo'ladiki *yosh tadqiqotchilar* ham o'z ilmiy faoliyatini farmonda nazarda tutilgan talab va ko'rsatmalar asosida tashkil etishi zarur. Bu esa ulardan o'z sohasi bilan birga *falsafa, dialektik mantiq* kabi fanlarni ham puxta o'zlashtirishni taqozo qiladi. Shuni inobatga olib ushbu maqolada yosh tadqiqotchilarni falsafiy tilshunoslik vakili H. G'. Ne'matov hamda uning shogird-u izdoshlari tomonidan istiqloq yillarida yaratilgan ayrim monografiya va hamkorlikdagi ishlar [2; 3; 4; 5; 6; 7] mazmun-mohiyati, metodologiyasi bilan tanishtirishga harakat qilamiz.

Asosiy qism. Shuni ta'kidlash joizki falsafa olimning dunyoqarashini, borliqni ko'rish va *tushuna olish*, uqish, uni talqin etish ko'nikmasini shakllantiradi; aniq falsafiy dunyoqarashga ega bo'lmagan kimsa *ko'radi*, lekin uqolmaydi [2, 5]. Ludvig Feyerbax *falsafa fanlarning onasidir* deydi. U tabiat, jamiyat, inson va ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fan. Har bir fan obyektiv voqelikning muayyan ko'rinishi, sohasini tadqiq qiladi, falsafa esa bularning barchasining umumiy qonuniyatlarini o'zida umumlashtiradi, poydevor, zamin bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda **falsafa sohaviy tadqiqotlarning hamma turi uchun metodologik asos vazifasini o'taydi** [2, 6].

Tilshunoslik tadqiqotlari metodologiyasi falsafaning tarkibiy qismi bo'lib uning gnoseologiya (bilish nazariyasi) bo'limi bilan uzviy aloqador. Shuning uchun metodologiya deganda tadqiqotda kamida uch omilning mujassamlanishi va uning ilmiy tadqiq mahsulida namoyon bo'lishi tushuniladi. Bular: 1) bilim turi (bilish bosqichi); 2) tadqiqotchining tadqiq manbaiga yondashishi (yoki yondashish usuli) va 3) tadqiqotchining tayanch nuqtayi nazari [3, 37; 4, 39, 42].

Birinchi omil ya'ni *bilim turi* ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqichdagi bilimni ifodalash uchun ona tilimizda yozilgan falsafiy, falsafiy-metodologik va tilshunoslikka doir adabiyotlarda *empirik, sensual, nominal, empiriokritik, praktik, eksperimental* kabi baynalmilal, *hissiy, fahmiy, zohiriy, tashqi, tajribaviy* kabi o'zbekcha atamalar ishlatiladi. Prof. H. G'. Ne'matov va uning shogird-u izdoshlari tomonidan ko'proq *fahm, fahmiy* atamasi qo'llanadi. Bu atama tasavvuf¹ (islomiy dialektik falsafa)dan olingan. Amaldagi falsafiy adabiyotlarda asosan rus tilidan aynan o'girilgan *hissiy* (чувственное) atamasidan foydalaniladi.

Tadqiq manbai bo'yicha fahmiy bilim insonning sezgi a'zolari vositasida hosil qilinadi. Unli va undoshlarning artikulyatsion va fiziologik xususiyati, so'z va qo'shimchani, so'z birikmasi va gapning konkret (muayyan, nutqiy) ma'nolari, nutq turlari va uslubning muayyan o'ziga xosligi, yozma yodgorliklarning tanqidiy-tahliliy nashri asosan fahmiy bilish usulida hosil qilingan bilim mahsulidir. Shu bilan birga yozma yodgorliklar, lahja va shevalarda tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gapning qo'llanishidagi o'ziga xoslikni qayd etib tavsiflash; nutqiy hodisada voqeliklarni topish, saralash, turli guruhga ajratish, birlashtirish, sistemalashtirish; turli-tuman izohli, ko'p tilli lug'atlar tuzish; adabiy til me'yorlarini o'z ichiga olgan mukammal grammatikalar yozish; adabiy til me'yorlarini belgilashga doir tavsif va tavsiyalar tayyorlash kabi juda ko'p turli lingvistik tadqiq va izlanish ham shu bosqichda amalga oshiriladi. Insonning sezgi a'zolari juda o'zgaruvchan bo'lganidan ular xilma-xil asbob-uskuna (mikroskop, teleskop, EHM va b.) yordamida kuchaytiriladi, fahmiy bilish salmog'ini oshirib uni tobora aniqlashtiradi.

Fahmiy usul bilan tilshunos shu jumladan yosh tadqiqotchilar ham til birliklarining tashqi (zohiriy) belgi-xususiyati asosida bilim hosil qiladi. Bunday holda nutqda voqelangan, bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birlik (tovush, bo'g'in, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gap, matn)lar alohida-alohida olinib tashqi (fizik) belgilari aniqlanadi, tavsiflanib *sistemalashtiriladi*.²

Fahmiy bilishda asosan nutq birliklari *alohidalik, hodisa, voqelik va oqibat* (qisq. AHVO) sifatida tahlil-u tavsif etiladi. Shu bois ushbu tadqiq usuli fanda *atomistik* tahlil deb ham yuritiladi.

Til birliklari haqida zaruriy moddiy ma'lumot beruvchi *tavsifiy tilshunoslikni* 20-asr sistem-struktur tilshunoslik asoschilaridan biri Boduen de Kurtene shunday ta'riflaydi. Tom ma'noda empirik bo'lgan tavsifiy yo'nalishda mutlaqo zohiriy dalillarni to'plash va umumlashtirish bilan shug'ullaniladi, ular orasidagi sababiy bog'lanishni, genetik va qarindoshlik aloqalarini tushuntirib berish maqsad qilib qo'yilmaydi. Shunday bo'lsa-da yaxshi tavsifiy grammatikalar yozish, yodgorliklarni nashr etish va lug'atlar tuzish fanning birinchi ehtiyoji bo'lib qolaveradi chunki ularsiz hatto ulkan nazariyalar ham asossiz deb baholanadi [9, 227–228]. Binobarin fahmiy bilim tilshunoslikda beqiyos ahamiyatga ega. U barcha nazariy ishlar uchun zamin, moddiy asos. O'zbek tilshunosligida hozirgi kunda fahmiy bilim beradigan tadqiqotlar salmoqli bo'lsa-da ularni yetarli deb bo'lmaydi. Negaki davrimiz yangi-yangi tavsifiy ishlarga talab va ehtiyoj tug'dirmoqda [3, 37 – 41; 4, 39 – 48].

Falsafiy-metodologik adabiyotlarda ikkinchi bosqichdagi bilimni ifoda etish maqsadida *ratsional, teoretik, kauzal, logik, sintetik, fenomenologik* kabi baynalmilal, *aqliy, idrokiy, mantiqiy, nazariy, ichki, botiniy* kabi o'zbekcha atamalar ishlatiladi. Falsafaga doir adabiyotlarda asosan *mantiqiy* va *aqliy* atamasi qo'llanadi. Ushbu maqolada sharhlanayotgan monografiya va boshqa ishlarda bilimning mazkur bosqichini ifodalash uchun *idrokiy* atamasidan foydalaniladi.

Idrokiy bilim lisoniy birliklarni *umumiylik, mohiyat, imkoniyat* va *sabab* (qisq. UMIS) sifatida tadqiq qilish jarayonida hosil bo'ladi. Bunday holda fahmiy o'rganish (AHVO) asosida aniqlanib tavsiflangan hamda sistemalashtirilgan hodisalar rang-barangligining sabab va qonuniyatlari ochib beriladi, tushuntiriladi. Idrokiy bilim hosil qilishning hozirgacha yagona vositasi inson miyasi (ongi)dir. Hech qanday asbob-uskuna, kuchaytirgich, "fikrovchi mashina" bu turdagi bilim hosil qila olmaydi. Bunday vositalar inson ongi, miyasi uchun idrokiy bilim (qonuniyat, hukm, xulosa) hosil qilishga aniqroq material berishi mumkin xolos.

¹ Tasavvuf (sufiylik) islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot [11, 454]. Tasavvuf islomdagi diniy-falsafiy oqim. 8-asrda arab mamlakatlarida paydo bo'lgan. Tasavvuf ta'limotidagi axloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda [10, 389, 390].

² Haqiqatan ham 20-asrda o'zbek tilshunosligining umumiy vazifasi va yutug'i til hodisalarini ovrupoviy tahlil usullari bilan *sistemalashtirishdan* iborat bo'lsa 21-asrda fanimizning vazifasi G'. Zikrillayev namunalaridan birini berganidek sistemaning ichiga "sho'ng'ish" va uni ichdan tavsiflashdir [8, 7].

Fahmiy tahlilda narsaning shakl, moddiylik, zohiriy farqli belgi-xususiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa idrokiy tadqiqda asosiy e'tibor uning mazmun, vazifa va munosabatiga qaratiladi. Bunday munosabat tizimi, butun ichida bo'lakning o'rni turlicha oqibatga olib keluvchi sabab bevosita kuzatishda berilmagan, ular idrokiy tahlil asosida ochilishi mumkin. Shunga ko'ra idrokiy bilim hosil qilish usuli turlicha bo'ladi. Bular *ratsionalizm, pozitivizm, funksionalizm, strukturalizm, semantizm, sistemologiya* deb ataladi.

Tilshunoslikda fahmiy va idrokiy bilimni izchil farqlash sistemaviy tilshunoslik (strukturalizm)ning eng asosiy tamoyili bo'lgan *lison-nutq* dixotomiyasida o'z aksini topadi. Bu ikkilikda *lison* (til) va *lisoniy* atamasi bilan ko'rsatilgan hodisa (UMIS) bevosita kuzatishda berilmagan, idrokiy bilish asosida tavsiflanadigan umumiylik, munosabat va qonuniyat bo'lsa *nutq, nutqiy* atamasi asosan fahmiy usul bilan o'rganiladigan, bevosita kuzatishda berilgan *AHVODir*.

Fahmiy va idrokiy bilim o'zaro bog'liq, biri ikkinchisi asosida rivojlanib boradi. Barcha turdagi idrokiy bilim narsaning moddiy, fahmiy belgi-xususiyati haqidagi bilimga tayanadi. Har qanday idrokiy hukm amaliyotga tatbig'i bilan tasdiqlanadi. *Haqiqat mezoni amaliyotdir* (I. Kant). Idrokiy bilim amaliyotga tatbiq etilmasa quruq yog'och, hech qanday samara bermaydi. Bu haqda ulug' Gyote shunday degan: *Nazariya quruq og'och, Yam-yashildir hayot daraxti* [12, 15]. Idrokiy va fahmiy bilimning o'zaro birligi va bog'liqligi *ilm-u amal* iborasida ham o'z aksini topgan. Ta'kidlash joizki yosh tadqiqotchilar oldida ham ilm-u amal birligini ta'minlash vazifasi turibdi [3, 46 – 51; 4, 49 – 53].

Metodologiyaning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lgan *tadqiqotchining tadqiq manbaiga yondashish usuli* o'z navbatida ikkiga ajraladi. Bular falsafada narsaga yondashishning *nominalistik va dialektik usuli* deb ataladi. Birinchi usulda narsa taraqqiyot va aloqadorlikdan uzilgan, obyektiv voqelik sifatida qabul qilinadi. Boshqacha aytganda tadqiq manbaiga turg'un, tadqiqotchining sezgi a'zolari vositasida qabul qilinadigan alohida hodisa sifatida yondashiladi. Bunday yondashuv falsafada *narsaning o'zi (narsa o'zida)*, tasavvufda *fihl ma fihl* deb yuritiladi. Falsafiy adabiyotlarda nominalizm bilan bir qatorda *sensualizm, empirizm, realizm, atomizm, fenomenalizm, empiriokrititsizm, metafizika* kabi atamalar qo'llanadi.

Nominalistik yondashuvda tadqiqotchining hukmi va xulosalari formal (oddiy) mantiq qonun-qoidalari asosida quriladi. Bunday holda ma'lum bir narsaga nisbatan tasdiq va inkor mazmunidagi ikki hukmdan faqat bittasi to'g'ri bo'ladi. Negaki formal mantiqning qat'iy qonunlaridan biri uchinchisi istisno qonunidir.

Ta'kidlash joizki nominalistik yondashuv narsalar (o'rganish manbai) bevosita kuzatish va voqelikda qanday mavjud yoki namoyon bo'lsa shunday tavsif-u tasvirlash uchun eng qulay usul, fahmiy bilim hosil qilishning asosiy yo'lidir. Ushbu usul 20-asrda o'zbek tilshunosligida ham *tavsifiy-fahmiy* tadqiqotlarda keng qo'llangan. Jumladan 40–70-yillarda o'zbek tilining turli grammatik kategoriyalari tavsifiga bag'ishlab yuzlab tadqiqot amalga oshirilgan, yigirmaga yaqin risola, darslig-u qo'llanma, hatto birinchi akademik grammatika ham nashr etilgan. Akademiklar V.V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovning o'zbek dialektologiyasi bo'yicha izlanishlari asosida ellikka yaqin tadqiqot yaratilgan va hokazo.

Yuqorida nominalistik yondashuvda narsalar (tadqiq manbai) tadqiqotchiga qanday ko'rinsa shunday tavsiflanadi deyildi. Yosh tadqiqotchilarga tushunarli bo'lishi uchun namuna tariqasida bitta misol keltiramiz. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga* (yoki chiqish kelishigi qo'shimchasi *-dan*) turli sharoitda o'ndan ortiq fonetik ko'rinishga va qirqdan ziyod (xilma-xil qurshovda) ma'no nozikligiga ega bo'la oladi. Nominatistik yondashuvga amal qilgan tadqiqotchi mazkur shakily ko'rinish va ma'no nozikliklarini sabot va matonat bilan to'playdi, sistemalashtiradi (tartibga soladi) va fotoapparat singari tadqiqotda muhrlaydi. Bu fan taraqqiyotiga poydevor, moddiy zamin sifatida katta ahamiyatga ega [3, 56 – 58; 4, 60 – 62].

Nominalistik yondashishga zid (qarama-qarshi) bo'lgan usul **dialektik yondashuv** deb ataladi. Dialektik usulda narsa (organish obyekt) muntazam o'zgarib, taraqqiy etib turadigan, boshqa narsalar bilan rang-barang aloqa va bog'lanish (munosabat)ga kirishadigan *umumiylik* deb qaraladi. Shunga ko'ra narsaning o'ziga emas, aloqa-munosabatini aniqlash va tavsiflashga katta e'tibor beriladi. Dialektik yondashuv narsani asosan idrokiy o'rganish bilan, qisman fahmiy bilishga bog'liq. Masalan ilmiy dialektik yondashishning o'ziga xos o'n olti tamoyilidan birinchisi bo'lgan narsaning obyektivligi (haqqoniyligi) bevosita fahmiy bilish bilan aloqador.

Yosh tadqiqotchilarning tilshunoslikda qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gap kabi birliklarning dialektik yondashuvga asosan qanday tavsiflanishi ko'proq qiziqtirishi tabiiy. Bitta misol keltiramiz. **Katta olim** va **ulkan olim** birikmalaridagi sifatlar ma'nosini ularning bir-biriga munosabatini o'rganish orqali (ya'ni dialektik yondashuv asosidagina) aniqlash mumkin [qarang: 13, 119 – 120]. Mazkur sifatlar shaklan mutlaqo o'xshash emas. Yana bitta misol. O'zbek tilining izohli lug'atida alohida-alohida berilgan *ot* so'zi (*ot I* va *ot II* tarzida) shakldosh ya'ni shaklan bir xil. Ammo mazmunan ikki qator (paradigma)ga mansub.

Bitta ma'nosi bilan *nom, ism, laqab*, ikkinchi ma'nosi bilan *eshak, xachir, tuya* kabi so'zlar bilan birlashadi. Mazkur so'zni lug'atda joylashtirishda dialektik yondashuvga asoslanib ikkita alohida so'z sifatida izohlangan. Arab leksikografiyasida bunday holda hozirgi kunda ham nominalistik yondashuvga asoslaniladi. Shuning uchun shakldosh so'zlar o'zi yasalgan fe'l bilan bitta uyada joylashtiriladi [jumladan qarang: 14].

Tilshunoslikda faqat lug'aviy emas, grammatik va uslubiy (stilistik) paradigmalar (so'z turkumlari, son kategoriyasi, kelishik paradigmalari va hokazo)ni ajratish ham dialektik yondashuv asosida amalga oshiriladi. Negaki bunday paradigma (qator)lar bevosita kuzatishda berilmaganligidan ya'ni sezgi a'zolari bilan aniqlab bo'lmaganligi bois aqliy (idrokiy) umumlashtirish yo'li bilan ochilgan. Binobarin ilmiy tadqiq jarayonida o'rganish manbaiga nominalistik va dialektik yondashish ko'p holda hamkorlik qiladi.

Mazkur usullar tadrijiy jihatdan ketma-ket qo'llanishi ham mumkin. Bunga o'zbek tilshunosligi yaqqol misol bo'ladi. 20-asrning 40–70-yillarida tadqiq manbaiga yondashishda nominalistik usul yetakchilik qilgan bo'lsa hozirgi kunda sistemaviy tahlilning turli yo'nalishida dialektik usul ustunlik qilmoqda. Yosh tadqiqotchilar bilib qo'yishi kerakki bu yo'nalishda izlanish olib borayotgan tilshunoslarning ko'pchiligi metodologiya masalasiga yetarli e'tibor bermaydi. O'z yo'nalishi asoslaridan bexabar. Faqat ayrim olim jumladan Buxoro tilshunoslik maktabi a'zolari [qarang: 15, 8–14] shuningdek A. Abduazizov, A. Nurmonov, G'. Zikrillayev, N. Mahmudov tadqiqotlarida dialektik yondashuvning ustunlik qilayotganligi rasman va ochiq e'tirof etilmoqda.

Metodologiyaning uchinchi tarkibiy qismi *tadqiqotchining tayanch nuqtayi nazari* deb atalishi yuqorida aytiladi. Tayanch nuqtayi nazar falsafaning bosh masalasi bo'lib tadqiqotchining nima birlamchi ya'ni ong (ruh, xudo) borliqni yaratganmi yoki borliq (materiya) ongni yaratganmi degan savolga munosabatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) *idealistik (ruhoniyy)* va 2) *materialistik (mashshoiy)* nuqtayi nazar.

Falsafa va mazkur sohaga bag'ishlangan tadqiqotlardan ma'lumki *idealistik nuqtayi nazar* o'nlab yo'nalish, oqim-u maktabga bo'linadi. Ular orasida *mutaassib diniy qarash* keng tarqalib ommalashganligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat dunyoviy dinlarning barchasiga xos. Dinning bunday ko'rinishi ijtimoiy hayotni boshqarganda jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Buning sabablaridan biri shuki din mutlaq taqdir tushunchasiga asoslanib barcha narsa, butun mavjudotning o'tmishi va kelajagi yaratuvchi irodasiga bog'liq deb taraqqiyot, ilmiy izlanishlarga, jamiyat hayotini inson xohish-istagi asosida yangilashga qattiq qarshilik qiladi. Har qanday yangilik G'arbda inkvizitsiya¹, Sharqda diniy mutaassiblik² aniqrog'i shariat va muftilar tomonidan yaratganga shakkoklik, uning ishiga aralashish deb qaraladi va ta'qib etiladi. Bundan tashqari din tabiiy fanlar taraqqiyotiga tamomila qarshi edi. Bu hol ayniqsa XIV asardan keyin islom hokimiyati mustabittlashgan (sabit, barqaror bo'lgan) davrlarda kuchayadi. Shunday bo'lsa-da Sharqda ham G'arbda ham *idealistik-materialistik* (dualistik) nuqtayi nazarda turib ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlar yetishib chiqqan. Bu siraga jumladan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Galileo Galiley, Jordano Bruno, Isaak Nyuton kabi qomusiy bilim sohiblari kiradi.

Idealistik-materialistik qarash tarafdorlari borliqni shu jumladan til va uning birliklari, til tabiatan ramziy sistema ekanligi, tilga shakl va mazmun, barqarorlik ~ o'zgaruvchanlik, umumiylik ~ xususiylik, sabab ~ oqibat munosabati kabi asosiy mutlaq qonuniyatlar Haq tomonidan yaratilgan va belgilanganligini tan oladi. U zot yaratdi, qonuniyatlarni o'rnatdi, yaxshi-yomonni farqladi, insonga aql-u tanlash ixtiyorini berdi. O'zi oxiratda inson faoliyatini yana baholaydi. Bunday qarash Sharqda IX – XIII asarlarda keng tarqalgan bo'lib mashshoiya atamasi bilan ifoda etilgan. Hozirgi kunda olimlarning ko'pchiligi mazkur nuqtayi nazar tarafdori. Negaki Haqqi mutlaq va umuman materiya mohiyatini anglashga inson aqli, qudrati o'z. Tabiiyki mutaassib islom va nasroniylikda mazkur qarash kufr³ hisoblanadi.

Keyinchalik G'arbda obyektiv idealizm (haqqoniy idealizm) yo'nalishi shakllanadi. Bu yo'nalish tarafdorlari ham ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo'shadi. Immanuel Kant, Fridrix Gegel, Plank, Albert Eynshteyn, Avgust Shleyxer, Vilhelm Humbolt, Ivan Pavlov, Sechenov shular jumlasidan.

¹ Inkvizitsiya tar. Erkin fikrlovchi, dahriy, mavjud cherkov tartib-qoidalariga qarshi chiqqan kishilarni, shuningdek yahudiylarni ta'qib va sud qilish uchun 13-asr boshlarida katolik cherkovi tomonidan tuzilgan, Rim papasiga bo'ysungan sud-politsiya tashkiloti [16, 2-jild, 211].

² Qiyoslang: Mutaassiblik, fanatizm – o'z e'tiqodi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lish. M. ning asosiy sabablaridan biri diniy ilm – Qur'on, hadis va shariatni bilmaslikdir. Islom dini M.ka xayrixohlik bildirmaydi [11, 328].

³ Qiyoslang: Kufr – islomiy e'tiqodga ko'ra islom dinini yoki Alloh, borliq va inson to'g'risidagi dunyoqarashni tan olmaslik, yagona Alloh, uning farishtalari, payg'ambarlari, ilohiy kitoblari, qazo va qadariga ishonmaslik hamda bunday dunyoqarash va aqidaga qarshi kurashish; imonsizlik, kofirlik [11, 267].

Mazkur nuqtayi nazar asosida fanlarda *bixeviorizm*, *pozitivizm*, *strukturalizm*, *funksionalizm* kabi ilmiy yoʻnalishlar rivojlangan. Barcha yoʻnalish tarafdorlari tomonidan borliqda gʻayrimoddiy (gʻayritabiiy, ilohiy) kuch mavjudligi inkor etilmaydi. Umumiylik ~ alohidalik, mohiyat ~ hodisa, imkoniyat ~ voqelik, sabab ~ oqibat (UMIS ~ AHVO), shakl ~ mazmun, barqarorlik ~ oʻzgaruvchanlik, taraqqiyot ~ tanazzul kabi ziddiyat va qonuniyatlar shu kuch tomonidan borliqda mujassamlashtirilgan deb qabul qilinadi. Bu borliqni tadqiq qilish, kashf etish (ochish), undan amaliy foydalanish uchun insonga sohibi qudrat tomonidan ong berilgan. Shuning uchun taqdir va taraqqiyot insonning oʻz qoʻlida, u faol boʻlmogʻi lozim deya uqtiriladi.

Materialistik nuqtayi nazar ham oʻz ichida oʻnlab yoʻnalish, oqim-u maktabga boʻlinadi. Ulardan keng ommalashgani ateistik mafkura edi. Ushbu mafkura 1920 – 80-yillarda sobiq Ittifoqda din darajasida mutlaqlashtirildi. Barcha dinlar hukmronligi davrida boʻlganidek shoʻro saltanatida ateistik mafkurani kuchli inkvizitsiya qoʻriqlar va tadqiqotlarda zoʻrlab tatbiq etilishini izchillik bilan qattiq nazorat qilar edi. Materilaistik nuqtayi nazar oddiy (vulgar) yoki ongsiz (intuitiv) hamda ilmiy yoʻnalishga ega. Oddiy materializm borliqdagi narsa, voqea-hodisalarni qanday bor boʻlsa shunday tasvirlashda realizm, mexanizm, nominalizm, sensualizm kabi yondashuvlarda namoyon boʻladi.

Materilaizmning idealistik qarash bilan bogʻlangan yoʻnalishi yuqorida koʻrib oʻtilgan dualistik nuqtayi nazarni beradi. Materilaizmning dialektik usul bilan bogʻlangan koʻrinishi dialektik materializm sifatida sovet fani va siyosatida metodologik asos sifatida qabul qilingan edi. Lekin XX asrning 20 – 80-yillarida materialistik asos xususan uning ateistik mohiyati mutlaqlashtirilishi, dialektika ogʻizda tan olinib amalda undan chekinilishi fetishizm aniqrogʻi fan va iqtisodga bir yoqlama yondashishga, ulkan imperiyada bozor va tovar ishlab chiqarish qonuniyatlarining buzilishiga, toptalishiga olib keldi. Buning oqibatida iqtisod, siyosat va mafkurani batamom yangilashga, bozor iqtisodiyotini yangi asosda tiklashga zarurat kuchayib Ittifoqning inqirozi va parchalanishi yuz berdi [3, 61 – 66; 4, 65 – 69].

Shuni taʼkidlash joizki ilmiy tadqiq metodologiyasining tarkibiy qismlari orasida uzviy bogʻlanish mavjud. Bu asosan ikki koʻrinishda namoyon boʻladi: 1) fahmiy-nominalistik-materialistik; 2) idrokiy-dialektik-idealistik. Birinchi bogʻlanish tadqiqotchiga narsa (oʻrganish obyekti)ning zohiriy, tashqi tomonlarini tavsiflashda, ikkinchisi uning ichki, botiniy munosabat va aloqadorligini ochishda qoʻl keladi. Ilmiy tadqiq jarayonida metodologiyaning biror tarkibiy qismini mutlaqlashtirmaslik kerak. Aks holda fetishizm¹ga yoʻl qoʻyiladi. Bu esa har qanday tadqiqotda xususan amaliyot bilan bogʻliq izlanish va xulosalarga katta ziyon yetkazadi. Jumladan materializmning fetishizmi asosida sovet tilshunosligida strukturalizmning dialektik tadqiq usuli toʻla-toʻkis rad etilgan edi. Holbuki dialektika xoʻjakoʻrsinga sovet fanining rasmiy tadqiq usuli sifatida tan olinar edi. 60-yillardan keyingina sovet tilshunosligi rasman maʼqullangan toʻgʻri tadqiq yoʻlini topa oldi.

Sovet tilshunosligining tarkibiy qismi sifatida oʻzbek tilshunosligida grammatika, leksikologiya, fonetika darsliklari rus tili andozasi, til qurilishining fetishizatsiyasi asosida yaratildi. Uning asoratidan haligacha qutulganimiz yoʻq. Qutulish uchun esa tilshunos shu jumladan yosh tadqiqotchilar sinalgan, hech qanday mutlaqliksiz tatbiq etiladigan metodologik tamoyillarga ega boʻlishi, har bir tamoyildan mohirona foydalanishi kerak boʻladi [3, 67 – 71; 4, 69 – 72].

Dialektika hech bir ijtimoiy tuzum va tizim mutlaqligini tan olmaydi, dialektika dialektikaning oʻzidan yaʼni hamma narsaning nisbiy va oʻzgaruvchanligidan oʻzga hech qanday mutlaqlikni tan olmaydi hamda barcha holat va narsaning nisbiyligini oʻrgatadi. Dialektik metodologiyadan amalda foydalanish uchun tilshunos metodologiya tadqiq manbai (narsa)da nimalarni *koʻrishni*, nimalarni *qidirishni* va *topib sharhlashni*, boshqacha qilib aytganda narsaning dialektik tadqiqi unda nimalarni *izlash*, *bilish* va *sharhlash*, *ochib berishni* yosh tadqiqotchi ham bilishi zarur.

Maʼlumki dialektik yondashuv Sharqda IX–XI asrlarda toʻla shakllangan mukammal nazariya mavqeyini kasb etadi, axloq va odob sohasida turli tariqat rivojlanishiga asos boʻladi. Arab faylasufi Ibn Rushd (lot. Averroes, 1126–1198) asarlarining lotincha tarjimasida asosida dialektik talqin aberroizm yoʻnalishi orqali Gʻarbiy Yevropa falsafiy fikrida qaytadan jonlanib uning ravnaqiga aniqrogʻi Bekon, Dekart, Kant silsilasiga katta taʼsir koʻrsatadi va F. Hegel (1770–1831) taʼlimotida oʻz choʻqqisiga koʻtariladi. F. Hegel asarlari xususan uning *Mantiq fani* nomli tadqiqoti tahlili asosida faylasuflar tomonidan oʻrganish manbai (narsa)da dialektik yondashishning 16 tamoyili ajratiladi. Bu tamoyillar asosida tadqiq manbai (narsa)ni oʻrganish jarayonida dialektikaning uch asosiy qonuni (qarama-qarshiliklar birligi, inkorni inkor, miqdor oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga oʻtishi qonunlari), formal mantiqning *uchinchisi mustasno* qonuniga zid *oralik uchunchi* qonuni shuningdek qisqargan shakli *UMIS – AHVO* boʻlgan

¹ Fetishizm. 2. *koʻchma*. Biror narsaga koʻr-koʻrona berilib eʼtiqod qilish, bunday narsaga mahkam yopishib olish [16, 4-jild, 340–341].

umumiylik – alohidalik (xususiylik, yakkalik), mohiyat – hodisa, imkoniyat – voqelik, sabab – oqibat hamda shakl – mazmun, zarurat – tasodif, sifat – miqdor, harakat – turg'unlik kabi kategoriyalari o'z amaliy tatbig'ini topadi.

Dialektikaning mazkur 16 tamoyili til birliklarining barchasida alohida-alohida emas, birgalikda namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi ularni ko'ra olishi, ocha olishi va to'g'ri sharhlashi kerak. Namuna tariqasida qisqa savol-javob (dialogik nutq)da amalga oshirilgan tahlilga murojaat qilamiz:

– *Bu qiz kim?*

– **Ammam.**

Bir so'zli ushbu javobda tartib bilan avval mantiqiy jihatdan hukmda, so'ngra til hodisasi sifatida *amma* leksemasida 16 tamoyilning voqelanishi batafsil tahlil qilinadi. Birinchi holda *Ammam* nolisoniy hodisa, shaxs sifatida, ikkinchi holda *amma* leksemasi lisoniy hodisa sifatida qaraladi.

1-tamoyil. Narsa obyektiv (*haqqoniy, mustaqil, alohida*) **mavjud**. Shunga muvofiq *Ammam* ta'kidi (ya'ni so'zlovchi tomonidan) narsaning haqqoniy, *mendan* tashqaridagi boshqa bir mavjudlik, **obyektiv borliq birligi (shaxsi)** ekanligini tasdiqlaydi. *Amma* leksemasi haqqoniy ya'ni so'zlovchidan tashqaridagi **obyektiv tabiatli lisoniy birlik**.

2-tamoyil. Narsa munosabat majmui. *Ammam* ta'kidida *amma* inson umumiyliqi, ayollik jinsi, shaxslik, qon-qarindoshlik toifasiga mansublik belgi-xususiyatlariga molik shaxs ya'ni **majmui sifot** ekanligi o'z aksini topgan. *Ammam* so'zshaklining asosi bo'lgan *amma* leksemasi inson leksemasining giponimi, ayol, shaxs, qon-qarindoshlik semalariga ega ya'ni **majmui sifot lisoniy birlik**.

3-tamoyil. Narsa doim o'zgarib taraqqiy etib boradi. Tug'ilishidan oldin *ammam amma* emas edi. Tug'ilgach *amma* bo'ldi ya'ni o'zgardi. Hozir u *ona* emas. Lekin ma'lum muddat o'tgach *ona* bo'ladi. Demak u doimo o'zgarib turadi. Til paydo bo'lganda *amma* ushbu nomemaga ega emas edi. Bugungi kunda u shunday qiyofaga keldi. Demak u o'zgardi, o'zgarish unga xos xususiyat.

Keyingi uch tamoyil. Narsada ichki ziddiyat borligi (4), narsa ziddiyat (qarama-qarshilik) butunligi (5) va qarama-qarshi tomonning voqelanishi (6). *Amma* menga nisbatan *amma*, boshqa birovga nisbatan *ona*, *qiz*, *xola*, *jiyan*, *xotin* bo'la olishi *-m* egalik qo'shimchasi bilan ta'kidlangan. Bir-biriga zid bunday belgi-xususiyat bitta narsa ya'ni **amma shaxsida mujassamlangan**. *Amma men* leksemasiga nisbatan boshqa, *ona*, *qiz*, *xola*, *jiyan*, *xotinga* nisbatan boshqa semantik qirrasini bilan munosabatga kirishadi. Demak *amma* leksemasi *men* leksemasiga nisbatan bir turdagi sifat va munosabatga, boshqa leksemalarga nisbatan esa boshqa-boshqa sifat-munosabatga ega bo'ladi. Bir-biriga zid mazkur belgi-xususiyatning barchasi bitta til birligi ya'ni **amma leksemasida mujassamlangan**.

7-tamoyil. Analiz va sintez (tahlil va umumlashtirish) **birliqi**. *Ammam* hukmda bir narsa (*qiz*)ni inson, ayol, shaxs va hokazo umumiyliklardan ajratish (analiz) uni qon-qarindoshlar guruhiga birlashtirish va *men* bilan bog'lash (sintez) voqelangan. *Amma* leksemasida bir leksemani inson, ayol, shaxs va hokazo leksemasi umumiyliklaridan ajratish (analiz), uni qon-qarindoshlar lug'aviy-ma'noviy guruhiga birlashtirish va *ammam* so'zshaklida *men* leksemasi bilan bog'lash (sintez) yuzaga chiqqan.

8-tamoyil. Narsaning o'zga narsalar bilan munosabati cheksizligi. *Amma* shaxs, ayol jinsiga mansublik bilan birga kasb-kori, yashash joyi kabi tomonlariga ko'ra boshqa shaxs va narsalarga munosabatdor. Kelajakda bunday munosabatdan yana bir qatori (*xotinlik*, *kelinlik*, *onalik*, *buvilik*; *o'qituvchilik*, *rahbarlik* va hokazo) ochilishi mumkin. O'tmishda ham u bog'cha, maktab, oila kabi munosabatlar egasi bo'lgan. Xullas *ammaning* barcha munosabatini hech qachon to'liq ochib bo'lmaydi. *Amma* leksemasi *shaxs*, *ayol* semalari bilan birga substansial mohiyatining boshqa qirralari asosida o'zga lisoniy birliklar bilan munosabatga kirishadi. Kelajakda uning boshqa munosabatlarida namoyon bo'ladigan juda ko'p ma'nosi ham bor. Bular *xotin*, *kelin*, *ona*, *buvi*, *o'qituvchi*, *rahbar* kabi semalar va hokazo. Sirasini aytganda mazkur leksemaning barcha munosabatini to'liq ochish imkoni yo'q.

9-tamoyil. Narsaning o'z aksiga ko'chishi. *Ammam* men uchun *amma*. O'z ammasi (*xolasi*, *tog'asi*, *amakisi* va b.)ga buning aksi ya'ni *jiyan*. *Amma men* olmoshi bilan olinganda avtosemantik birlik, fonemalar bilan birga olinganda nominativ birlik, morfemalar bilan olinganda leksema, yordamchi so'zlar qatorida mustaqil leksema.

10-tamoyil. Narsa munosabati (aloqadorligi)ning cheksizligi. Ushbu tamoyil 4, 5, 6 va 8-tamoyil bilan o'xshash. Chunki narsadagi belgi-xususiyat uning munosabatida voqelanadi. Ushbu tamoyilda lisoniy xususiyati mantiqiy xususiyat izohiga aynan mos.

11-tamoyil. Narsa mohiyatiga chuqurlashishning cheksizligi. *Ammani* o'rgangan sari uning mohiyati ya'ni oddiy tanishdan mukammal bilishga chuqurlashib borilaveradi. *Amma* leksemasini turli metodologik asosda turli tomondan va turli metodga tayanib o'rgangan sari uning mohiyatiga chuqurlashib borilaveradi.

12-tamoyil. Narsa aloqadorligining cheksiz miqdorda oshib borishi. Ushbu tamoyilda 10-tamoyil va unga aloqadorlikning inson ongida aks etishi hamda narsa haqida bilimning obyektiv borliq bilan aynanligi nazarda tutiladi. Lisoniy tahlilda ham ushbu ta'rif hech o'zgarishsiz takrorlangan.

Keyingi to'rt tamoyil narsaning taraqqiyot va o'zgarishi bilan bog'liq. Haqiqatan *amma* uzluksiz o'sib boradi, u miqdoran nihoyatda oz bo'lganidan sezilmaydi. O'n-o'n besh yildan keyin esa miqdoriy o'zgarish sifat o'zgarishiga o'tadi (*16-tamoyil*). *Amma* qizlik holatidan kelinchak, juvon, ayol, xotin, ona, kampir, buvi, momo holatiga o'tadi (*14-tamoyil*). Bora-bora *boladek* (bola emas) bo'lib qoladi (*13-tamoyil*). Shakl va mazmun qisman yoki butunlay o'zgaradi (*15-tamoyil*). *Amma* leksemasining izohi ham *Ammam* hukmining izohiga aynan mos.

Shunisi diqqatga sazovorki obyektiv borliq va til birligi sifatidagi atigi bitta so'zning tahlili asliyatda uch sahifani egallagan. Bu bir tomondan tahlilning nihoyatda chuqur bo'lganligidan dalolat bersa ikkinchi tomondan tajribali olimlar bilan birga yosh tadqiqotchilardan ham faqat tilshunoslik emas, dialektik mantiqning nazariy masalalaridan xabardor bo'lishni taqozo etadi. Binobarin prof. H. Ne'matov va uning shogirdlari to'g'ri ta'kidlaganidek har bir tadqiqotchi o'z metodologik asoslarini aniq bilib olishi, ishining kirish qismida uni muxtasar sharhlab berishi zarur. Metodologik bilim va uquv tadqiqotchi, olim uchun suv va havodek zarur: u olimlik belgisidir [3, 71 – 80; 4, 73 – 82].

Monografiyaning lingvistik tadqiqot metodlariga bag'ishlangan bobida ham mualliflar ta'biri bilan aytganda suv va havodek zarur nazariy fikr hamda amaliy ko'rsatma kam emas. Bob metodga berilgan ta'rif bilan boshlanadi. *Metod tadqiq manbaining biror qirrasini o'rganishga bag'ishlangan usul, yo'ldir.* Keyingi fikr-mulohazalar o'zining nazariy salmoqdorligi va amaliy ahamiyati bilan diqqatni tortadi. Tilshunoslik yo'nalishlari hamisha ma'lum bir tadqiqot metodi bilan bog'liq. Tadqiqot metodi tilshunoslikning ma'lum bir yo'nalishini birlashtiruvchi eng asosiy omil. Shu asosda tilshunoslik yo'nalishlari har qaysi yo'nalishda yetakchi bo'lgan metod nomi bilan ataladi: *tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik* va b.

Ma'lumki tilshunoslikda tadqiqot metodi juda ko'p. Monografiyada shulardan o'n bittasining o'ziga xos jihatlari bayon qilinadi. Jumladan **sinxronik formal-tavsifiy metod** bilan 20-asrning 40-yillaridan deyarli hozirgacha o'zbek adabiy tili bo'yicha ulkan tadqiqotlar, turli murakkablikdagi grammatikalar, darslik, qo'llanma, lug'at, o'quv-tadrisiy adabiyotlar yaratildi, nazariy izlanishlar amalga oshirilib keng ommalashtirildi. Yaqin kunlarga hozirgi o'zbek tilshunosligi deganda shu tadqiqot usuli bilan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va ularning mahsuli tushunilar edi. Buning sababi jumladan sho'ro tilshunosligida hukm surgan sovet fetishizmi bilan bog'liq. Bu metodning asosiy tamoyillari: 1) tilga ijtimoiy hodisa sifatida yondashish; 2) til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlamay birgalikda tavsiflash va b. Bu metodning metodologik asosi *fahmiy* (empirik)-*nominalistik-materialistik* bo'lib hodisalarni sistemalashtirish ratsional usullarda amalga oshiriladi.

Struktural (sistemaviy)¹ tahlil usuli va tilshunosligi sinxronik formal-tavsifiy metod va tilshunoslikdan ko'p jihatdan farq qiladi. Jumladan ushbu usulning to'rt ko'rinishi tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Ularni birlashtiruvchi tamoyil beshta: 1) tilga ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida yondashiladi; 2) til, lison va nutq izchil farqlanadi; 3) lison semiotik ya'ni shartli belgi (ishora, ramz)lar sistemasi sifatida tushuniladi; 4) lisoniy birliklar mohiyati ularning paradigmatic, sintagmatic va iyerarxik munosabati orqali aniqlanadi, shu bilan uzviy bog'liqlikda asosiy e'tibor lisoniy tizimda oppozitivlik va paradigmalar tahlil-u tavsifi tadqiqotchining diqqat markazida turadi; 5) ayni paytda asosiy e'tibor lisoniy birlik va hodisalarning semantik-funksional tomoniga qaratiladi. Struktural tahlil usulida idrokiiy-dialektik-idealistik metodologiya yetakchilik qiladi. Nominalistik-materialistik usullardan ham foydalaniladi.

Mazkur tahlil usuli asosida bajariladigan tadqiqotlar asosida grammatik kategoriyaga mazmunan bir-biriga yaqin ikki xil ta'rif beriladi. *Muayyan substansial ma'no umumiyliги ostida birlashgan va o'zaro substansial ma'noning parchalanishi, xususiy lashuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi grammatik kategoriya hisoblanadi.* Ikkinchi ta'rif. *Bir umumiy grammatik ma'no tagida birlashuvchi, shu asosda bir-birini taqozo va bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi.* Mazkur metod va tilshunoslik haqidagi fikr-mulohazalar quyidagicha yakunlanadi. Ko'rinadiki bunda sistem tilshunoslikning asosiy tushunchalari bo'lgan *zot va tajalli, lison va nutq, umumiylik va xususiylik, butun-bo'lak, sistema va element* kabi tayanch tushunchalaridan foydalanilgan holda lisoniy hodisalarga ilmiy munosabat bildirilgan.

¹ Ushbu atama ayrim adabiyotda juft so'z (системно-структурное) tarzida qo'llanadi [17]. Ayrim tadqiqotda qavsdan tashqaridagi so'z tushirib qoldiriladi [18].

Keyingi yoʻnalish eng avvalo nomlanishi bilan boshqalaridan keskin farq qiladi. **Substansial tahlil metodi** deb sarlavha qoʻyilgan-u davomidan *hozirgi oʻzbek substansial tilshunosligi, formal-funksional, zotiy, dialektik tilshunoslik* deb atalgan. Biroq ilgari nashr etilgan monografiya [5] va darslik [6]da *struktur* atamasi ham qoʻshilgan. Bunday xilma-xil nomlanish bejiz emas albatta. Avvalo oʻzbek substansial tilshunosligi (OʻST)ning oʻziga xos xususiyati bayon qilinadi. OʻSTning oʻzagini struktur (sistem) tilshunoslikning funksional tahlil usuli tashkil etadi. Aniqroq qilib aytganda Praga strukturalizmidagi *lison-nutq, lisoniy birlik-nutqiy birlik*, dialektikaning *umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab* (UMIS) va *alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat* (AHVO) kategoriyalari mazmuniga muvofiq talqin qilinadi. Dialektikaga muvofiq shakl va mazmun aloqadorligi eʼtirof etilsa-da mazmunga koʻproq eʼtibor qaratiladi. Shu sababli ushbu yoʻnalishda fonetika-fonologiyada N. Trubetskoy, R. Yakobson, A. Reformatskiy tadqiq tamoyillari asosan saqlanib tilning mazmun bilan bogʻliq sathlari boʻlgan leksika, morfologiya va sintaksis tadqiqi yetakchilik qiladi.

Qoʻshaloq atama (*formal-funksional*)ning birinchi soʻzida oldingi yoʻnalish (*formal-tavsifiy*) bilan aloqadorlikka ishora boʻlsa ikkinchi soʻzida *struktural (sistemaviy)* yoʻnalish bilan uzviy bogʻliqligi nazarda tutilgan. Quyidagi jumlar buni yaqqol koʻrsatadi. OʻST bosh tamoyili lingvistik tadqiq jarayonida (lisoniy birlik tabiatini ochish va talqin etishda) dialektik tahlil usullaridan onglilik va izchillik bilan foydalanishdan iborat. OʻSTda tilshunoslikning eng asosiy tushunchalari boʻlgan *til-lison-meʼyor-nutq* oʻziga xos tarzda tushuniladi.

OʻSTning turlicha nomlanishi sababi qisman uning tamoyillari va metodologik asosi taʼrifdan oydinlashadi. Lisoniy birliklar yaʼni fonema, morfema, leksema va qolip (model)ning dialektik tabiatini ochish va ularni tavsiflashda OʻST vakillari tomonidan *substansionallik, ichki ziddiyatlik, koʻp qatorlik, oraliq uchunchi* kabi asosiy tamoyillarga tayaniladi. Bu tamoyillar OʻSTning metodologik asosini tashkil etadi. Jumladan falsafiy atama boʻlgan substansionallik¹ tilshunoslikning yangi yoʻnalishida shunday tavsiflangan. Lisoniy birlik nutqda voqelantiruvchi barcha maʼno va vazifalarini oʻzida ontologik mujassamlashtirgan, yashirgan deb olinadi. Nutqda hech bir narsa yaratilmaydi, lisoniy birlikdagi imkoniyat yuzaga chiqariladi xolos. Shuning uchun tilshunoslik oldida lisoniy birlik voqelanishidagi nutqiy aloqadorlikni umumiy lisoniy maʼnoga birlashtirish va lisoniy imkoniyat sifatida ong va lisoniy tizimda mavjud boʻlgan bu maʼnoni nutqda voqelantirish yoʻllarini oʻrganish vazifasi turadi.

Avvalo shuki metodologiya taʼrifida uning uchta tarkibiy qismi alohida-alohida aniq ifoda etilmagan. Boshqa yoʻnalishlar sharhida shunday yoʻl tutilgan. Natijada OʻST vakillarining tadqiq manbaiga nisbatan taynch nuqtayi nazari oydinlashmay qolgan. Bu esa mazkur yoʻnalishda ilmiy ish bilan shugʻullanmoqchi boʻlgan yoshlarda nega degan savol tugʻdirishi mumkin.

Grammatik qurilishning tayanch unsuri boʻlgan grammatik kategoriyaga berilgan ikkala taʼrifda ham uning tarkibiga mansub shakllar maʼnosi oʻzaro *zidlangan, bir-birini inkor etadi* deyilgan. Boshqacha aytganda mazkur maʼnolar oʻzaro *oppozitiv* munosabatda boʻladi [qarang: 19, 172, 173]. Ilm-fan dargohi eshigini taqillatayotgan yosh tadqiqotchilar shuni bilishi kerakki tilshunoslikda *oppozitsiya* atamasining qoʻllanishi 20-asrning 30-yillariga toʻgʻri keladi. Uni dastlab N. S. Trubetskoy ishlatgan. Bu olim fonologik oppozitsiyani uning aʼzolari orasidagi munosabatga koʻra uch turga yaʼni privativ, ekvipolent va gradual oppozitsiyaga ajratgan. Bu nuqtayi nazar grammatikaga R. O. Yakobson tomonidan tatbiq etilgan. Uning fikricha hamma grammatik kategoriya *oppozitsiya*² tushunchasiga asoslangan.

70-yillarda ayni paytda shoʻro tilshunosligida til qurilishi shu jumladan grammatik kategoriya sistemasi-tizimi barcha tilda bir xil emas degan *yangicha metodologik qarash* bayon qilindi. Bundan grammatik kategoriyaga beriladigan taʼrifda tilning grammatik qurilishi hisobga olinishi kerakligi anglashiladi. V. N. Yarseva eʼtiborini shunga qaratadi. *Grammatik kategoriya strukturasi tilning morfologik turiga bogʻliq boʻlgan grammatik shakllar sistemasi orqali izchil ifodalanuvchi umumlashgan maʼnodir* [20, 5]. Mazkur yondashuv boshqa tilshunoslar tomonidan eʼtirof etildi. Jumladan A. V. Bondarko ilgari nuqtayi nazaridan voz kechib grammatik kategoriya aʼzolari orasida **faqat oppozitsiya emas, nooppozitiv farqlanish** ham mavjud deb yozadi [21, 17–28]. Bunday holda oppozitsiya grammatik kategoriya strukturasi-tuzilmasida yagona va mushtarak tamoyil emas, grammatik kategoriya shakllarini bir sistema-

¹ *Substansiya* (lot. substantio – mohiyat) qadimgi Yunoniston, Hindiston, Xitoy falsafasi tarixida butun mavjudotning bosh asosini ifodalovchi tushuncha. Jumladan Arastu substansiya mohiyat, barcha kategoriyalarning real asosi, borliqni substansiya tushunchasiz tushuntirib boʻlmaydi deb taʼkidlaydi. Falsafiy tafakkur tarixida substansiya muammosi boʻyicha olib borilgan bahs-munozaralar moddiy va ruhiy jarayonlarni chuqurroq oʻrganish, ular oʻrtasidagi tafovut va oʻzaro birlikni har tomonlama tahlil etish tomon yoʻnaltirilgan [10, 380 – 381].

² Qiyoslang. Очевидно, термин «оппозиция» призван обозначать особый тип отношений между различными языковыми единицами, определяющий действие всего языкового механизма, **но отнюдь не единственный** [23, 176].

tizimga birlashtiruvchi tamoyillardan biri deb qaraladi. Binobarin bu nuqtayi nazarga ko'ra grammatik kategoriya asosini umumiylik tushunchasi ya'ni umumlashgan ma'no tashkil etadi. Oppozitsiya bilan nooppozitiv farqlanish esa grammatik kategoriya shakllari bir tizimga birlashuvining turlicha ko'rinish (usul)idir. Grammatik kategoriya a'zolari orasidagi mazmuniy aloqa-munosabatning bunday talqini ta'rifning boshqacha bo'lishini taqozo etadi. *Grammatik kategoriya umumiy (подовое) ma'no asosida birlashuvchi grammatik shakllar sistemasidir; umumiy ma'no kategoriya shakllarida xususiy (евдовое) ma'no tarzida namoyon bo'ladi; xususiy ma'nolar orasida oppozitiv munosabat bilan nooppozitiv farqlanish ham mavjud; grammatik kategoriya strukturasi-tuzilishi tilning qurilishiga qarab boshqacha bo'lishi mumkin* [21, 24].

Yuqoridagi ikki ta'rifdan anglashiladiki grammatik kategoriyaga o'zbek tili nuqtayi nazaridan beriladigan ta'rifda ona tilimiz aniqrog'i o'zbek adabiy tili qurilishining o'ziga xos xususiyati aks etishi kerak. Grammatik kategoriyaga 1990-yilda berilgan ta'rifda shu inobatga olingan. *Grammatik kategoriya ikki va undan ortiq shakl tizimi orqali turli daraja va ko'rinishda ifodalanuvchi umumlashgan ma'nodir. Boshqacha aytganda grammatik kategoriya umumlashgan ma'no bo'lib ikki va undan ortiq grammatik shakl tizimi orqali turli daraja va ko'rinishda ifodalanadi* [24, 19].

Substansial tilshunoslikning *zotiy tilshunoslik* deb atalishi esa darslik-monografiya [5, 77 – 81]da teran talqin qilingan. Narsaning haqiqiy mohiyati uni turli xil tarkibiy qismning bog'lanishidan hosil bo'lgan yaxlit bir butunlik (zot) sifatida qarab tahlil etgandagina ochilishi mumkinligi to'g'risidagi xulosani beradi. Shu bois borliqdagi narsa va hodisani har tomonlama o'rganish, uning tub mohiyatini ochish natijasida fan va falsafada zot, zotiylik tushunchasi paydo bo'lgan. Zot tushunchasi haqida manbada quyidagini o'qiymiz: "Zot (substansiya) ichki birligi tomonidan qaraladigan obyektiv borliq bo'lib, o'zining har xil o'zgarishiga nisbatan befarq, ammo shu o'zgarish hisobiga yashaydigan, barcha shakli va harakati aspektidagi materiya; bu harakatda paydo bo'luvchi farq va qarama-qarshilik. Фалсафа луғати. Т.: Ўзбекистон, 1976)".

Demak zot o'zining tajallisi (refleksiya) zamirida yotuvchi umumiylik (mohiyat) bo'lib barcha ko'rinishi uchun yagona asos rolini o'taydi¹. Tasavvuf falsafasida borliq, undagi narsa-buyum, voqea-hodisaning mohiyatini tushuntirishda zot va uning yuz berish shakli bo'lgan tajalli tushunchasidan foydalaniladi. Zero borliq nima degan so'roqqa tasavvuf ahli Haqqi mutlaqning tajallisidir deb javob beradi. Tasavvufda zot moddiylik, muayyan shakldan mutlaqo xoli bo'lganligi sababli "majmui asmo va sifot" (ism va sifat majmuasi) sifatida qaraladi. Aniqroq aytganda munosabat va sifatning dialektik butunligi zotni tashkil qiladi.

Dialektika va tasavvuf gnoseologiyasi asosida shakllantirilgan zot hozirgi davr falsafasida umumiylik sifatida qaraladi. Umumiylik/xususiylik/alohidalik dialektikasi esa hozirgi zamon falsafasining fundamental kategoriyasidan biri. Boshqacha aytganda narsa mavqeyida lisoniy birlik kelganda bunday yondashish substansial tilshunoslik asosini tashkil etadi. Bunday tilshunoslik lisoniy birlik zotini uning umumiy ma'nosi sifatida talqin qiladi². Ma'lum bo'ladiki **zot** deganda mazkur tilshunoslik vakillari tomonidan *mohiyat, substansiya va umumiy ma'no* nazarda tutiladi.

Yosh tadqiqotchilar shuni ham bilib qo'yishi kerakki islomda zot va tajallining mazmun-mohiyati zamonaviy falsafadagidan boshqacha talqin qilinadi. Chunonchi *tajalli – Allohning zuhurlanishi, namoyon bo'lishi*. Tajallining uch turi farqlanadi: a) *zot tajallisi* – ilohiy mohiyatning namoyon bo'lishi (tajalli az zot) yoki ilohiy vahiy (mukoshafa); b) *sifat tajallisi* – ilohiy mohiyatning o'z sifatlarida namoyon bo'lishi (tajalli sifat az zot) yoki nur taratish (maudian nur); v) *fe'l tajallisi* – ilohiy hukmning namoyon bo'lishi (tajalli hukm az zot) yoki kelajak hayot (al axira va ma fiha) [11, 444 – 445].

Xulosa. O'zbek substansial (formal-funksional, struktur, dialektik, zotiy) tilshunosligi (O'ST)da Sharq-u G'arb falsafasida erishilgan yutuqlarga tayaniladi. F. Hegel dialektikasi va tasavvufdagi zot, tajalli tushunchalari tilga tatbiq etilib til qurilishi va birliklarining lisoniy hamda nutqiy boshqacha aytganda umumiy va xususiy jihatlari tahlil qilinadi. Tahlil va xulosa tilshunosligimizdagi boshqa yo'nalishlardan farq qiladi. Muxtasar qilib aytganda substansial tilshunoslik tadqiqotchilarining fikriga ko'ra hozirgi dialektikada tadqiq manbai haqida bilim hosil qilishda Hegel va gegelchilar tomonidan ajratiladigan 16 ta asosiy tamoyil *zamonaviy oliy cho'qqi* hisoblanadi.

¹ Borliqdagi narsa doimo bir-biri bilan munosabatda bo'ladi. Muayyan zot sifati tajallida, tajalli esa munosabatda yuzaga chiqadi.

² Lisoniy umumiylik esa fonema, morfema, leksema va qolipdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent, 2017-yil, 16-fevral.
2. Ne'matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Buxoro, 2005.
3. Ne'matov H., Hamroyeva Sh. Lingvistik tadqiq metodikasi, metodologiyasi va metodlari. Buxoro, 2005.
4. Ne'matov H., Mengliyev B., Hamroyeva Sh. Tilshunoslikning metodologik masalalari. Monografiya. Toshkent, 2020.
5. Замоновий ўзбек тили. Морфология. Тошкент, 2008.
6. Zamonaviy o'zbek tili. II jild. Sintaksis. Toshkent, "Mumtoz so'z", 2013.
7. Бозорбоев О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент, "Фан", 1995.
8. Неъматов Х. Системалаштиришдан системани очиб ва тавсифлашга (масъул муҳаррирдан) // Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. Тошкент, "Фан", 2004.
9. Бодуэн де Куртене И. А. Некоторые общие замечания о языковедении и языке // Звегинцев В. А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Часть I. М., Учпедгиз, 1960.
10. Фалсафа. Қомусий лугат. Тошкент, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти наشريёти, 2004.
11. Ислом. Энциклопедия. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий наشريёти, 2017.
12. Зикриллаев Ф. Н. Назария қуруқ оғоч // Истиқлол ва она тили таълими (тўплам). Тошкент, "Фан", 2000.
13. Ҳоҗиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. Тошкент, "Ўқитувчи", 1974.
14. Ан Наимул Кабир. Арабча-ўзбекча лугат. Тошкент, "Муҳаррир", 2021.
15. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Содда гап синтаксиси учун материаллар. Тошкент, "Университет", 2002.
16. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 2-жилд. Тошкент, Ўзбекистон наشريёти, 2020.
17. Солнцев В. М. Язык как системно-структурное образование. М., "Наука", 1977.
18. Мельников Г. П. Принципы системной лингвистики в применении к проблемам тюркологии // Структура и история тюркских языков (тўплам). М., 1968.
19. Zikrillayev G., Ro'ziyev Y., Safarov F. Dialektik materilaizm va tilshunoslik metodologiyasi. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2023, 2-son.
20. Ярцева В. Н. Иерархия грамматических категорий и типологическая характеристика языков. Типология грамматических категорий (тўплам). М., 1975.
21. Бондарко А. В. О структуре грамматических категорий (Отношения оппозиции и неоппозитивного различия). Вопросы языкознания журналы. 1981, № 6.
22. Булыгина Т. В. Грамматические оппозиции. Исследования по общей теории грамматики (тўплам). М., 1968.
23. Булыгина Т. В. Грамматические оппозиции (к постановке вопроса). Исследования по общей теории грамматики (тўплам). М., "Наука", 1986.
24. Зикриллаев Ф. Н. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. Тошкент, "Фан", 1990.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "DONOLIK" KONSEPTI BILAN BOG'LIQ ANTROPOMORFIK BELGILAR

*Umarova Nargiza Rustamovna,
Farg'ona davlat universiteti, f.f.d.professor (v.b.)
Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
mtojiboyeva95@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologiya sohasida madaniy kodlarning shakllanishi va vazifalari haqida so'z yuritilib, o'zbek tilshunosligida madaniyat kodlari haqida qizg'in izlanishlar olib borgan olim va olimalar to'g'risida fikrlar bayon etilgan. Madaniyat kodlarining turli tilshunoslar tomonidan berilgan tasniflari ko'rib chiqilib, ularga qisqacha ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, ingliz tilida "wisdom" va o'zbek tilida "donolik" konseptlari bilan bog'liq antropomorfik kodlar kasbiy faoliyat va xarakter xususiyatlariga tayangan holda taqqoslanib, har ikki tilda ularning o'xshash va farqli tomonlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, madaniyat kodlari, antropomorf kodlar, somatik kodlar, gastronomik kodlar, kasbiy-faoliyat bog'liq kodlar, xarakter belgilari.

АНТРОПОМОРФНЫЕ ПРИЗНАКИ, СВЯЗАННЫЕ С КОНЦЕПТОМ "МУДРОСТЬ", В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В этой статье рассказывается о формировании и задачах культурных кодов в области лингвокультурологии, и излагаются мнения учёных, проводивших интенсивные исследования культурных кодов в узбекском языкознании. Были рассмотрены классификации кодов культур, данные различными лингвистами, и даны краткие определения для них. Также антропоморфные коды, относящиеся к понятиям "мудрость" на английском и "мудрость" на узбекском, сравнивались с опорой на профессиональную деятельность и черты характера, причём в обоих языках определялись их сходства и различия.

Ключевые слова: лингвокультурология, культурные коды, антропоморфные коды, соматические коды, гастрономические коды, профессионально-деятельностные коды, черты характера.

ANTHROPOMORPHIC CHARACTERS RELATED TO THE CONCEPT OF "WISDOM" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract: This article talks about the formation and tasks of cultural codes in the field of linguoculturology and describes the opinions of scientists and scientists who have conducted intense research on cultural codes in Uzbek linguistics. Classifications of cultural codes given by various linguists have been reviewed and given brief definitions. Also, anthropomorphic codes associated with the concepts of "wisdom" in English and "wisdom" in Uzbek were compared, relying on professional activity and character traits, and in both languages their similarities and differences were determined.

Keywords: linguoculturology, culture codes, anthropomorphic codes, somatik codes, gastronomic codes, professional-activity related codes, character traits.

Kirish. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishning eng muhim yo'nalishlaridan biri "madaniyat kodi" tushunchasi bo'lib, har bir xalqning milliy, madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi hodisa sanaladi.

Hozirgi kunda lingvokulturologiyada "madaniyat kodi" atamasining mavjud ta'riflari va yondashuvlari V.N.Teliya tomonidan taklif qilingan fikrlarga borib taqaladi. Unga ko'ra: madaniyat kodlari insonning moddiy va ma'naviy faoliyatining har qanday subyektida mavjud bo'lgan belgilar, ma'nolar va ularning kombinatsiyalari to'plamidir.[1,38] D.B.Gudkov va M.L.Kovshova monografiyasida bizga quyidagi ta'rifni taklif qiladi: madaniyat kodi – madaniy mazmunga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy olam belgilari bo'lib, u yoki bu obyektarning nomlari bir-biri bilan bog'langan ikkalamchi semiotik tizimlarni

tashkil qiladi.[2,15] Bunga ko'ra, lingvokulturologiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan madaniy kodlar milliy madaniy makonda markaziy o'rinni egallaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Madaniy kodlarning vazifalariga to'xtaladigan bo'lsak, funksional jihatdan mazkur belgilar ma'lum bir tashuvchilari tomonidan madaniy makondagi moddiy va ma'naviy olamni tasvirlash va konseptualizatsiya qilish usulidir. Bu masalada quyidagi fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q: [2,18-19] "Olamning lisoniy manzarasida madaniyat kodlari ikki tomonlama funksiyani bajaradi. Bir tomondan, ular bizning ongimiz doimiy ravishda izlayotgan o'xshashliklar orqali metaforalarga asoslangan holda tilda aks ettirishga, voqelikni tushuntirishga, abstrakt tushunchalarni izohlashga, analogiya asosida harakat dasturini baholash va bashorat qilishga imkon beradi; boshqa tomondan, madaniy kodlar dunyoni soddalashtirmaydi, balki murakkablashtiradi: turli xil obyektlarning o'xshashligi bizni dunyoni shifrlardan ochish kerak bo'lgan "sehrli kitob" sifatida qabul qilishga majbur qiladi va ularni ochish uchun bizga "kalitlar" (kodlar) zarur bo'ladi".

Madaniyat kodlari tipologiyasini taqdim etishda turlicha moddiy xususiyatga ega bo'lgan belgilar yig'indisi sifatida emas, balki ular haqidagi madaniy tasavvurlar to'plami sifatida qaraladi. Ya'ni mohiyatan bir tomonlama – og'zaki belgilari inobatga olingan holda, ularning nomlariga e'tibor beriladi. Masalan, madaniyatning somatik kodi ostida inson tanasi va uning qismlari (bosh, qo'l, yurak, qon) nominatsiyalarining jamlanmasi; gastronomik kod bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari (sariyog', non, asal) tushuniladi.

V.N.Teliya madaniy kodlarni yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqib quyidagicha tasniflaydi:[3,776] antropomorfik yoki insoniy, zoomorf, vegetativ, artefakt-predmetli, gastronomik, ma'naviy, diniy-antropomorfik, diniy-artefaktli, davriy (temporal), fazoviy, miqdoriy, somatik, rang bilan bog'liq kodlar. Bu ro'yxat ochiq holda bo'lib, yana davom ettirilishi mumkinligi aytib o'tilgan.

V.V.Krasnix o'z e'tiborini "olamning tuzilishi haqidagi fazoviy va arxetipik tasavvurlar bilan bog'liq kodlarga" qaratadi. [4,233] Uning fikricha, quyidagi madaniy kodlardan keng foydalaniladi: 1) somatik; 2) fazoviy; 3) davriy; 4) mavzu; 5) biomorf; 6) ma'naviy. Bularni ajrata turib, olim madaniy kodlar o'rtasida aniq chegaralar yo'qligini ta'kidlaydi. "Insonning atrofidagi olamni madaniyatlashtirish jarayoni nuqtai nazaridan, somatik kod ko'p jihatdan fazoviy kodni oldindan belgilab beradi; fazoviy kod esa, o'z navbatida, davriy kod uchun "ustun bo'ladi", deya fikrini isbotlaydi.

O'zbek lingvomadaniyatshunosligida tadqiqqa tortilmagan mavzulardan biri lingvomadaniy kodlar hisoblanishiga [5,8] qaramay, bir nechta salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, D.Xudoyberganova tomonidan tuzilgan "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati" da madaniyat kodlari va ularning turlari: biomorf kod, vaqtga doir kod, makoniy kod, ma'naviy kod, predmetli kod, somatik kod kabi terminlar atroflicha izohlangan. [6,44] Shuningdek, muallifning lingvokulturologiyada madaniy kodlar talqiniga bag'ishlangan maqolasida [7,16] ushbu termini muayyan madaniy mazmuni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi deya bayon etadi. Madaniyat kodlari tilda asosan xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqish kabi lingvomadaniy birliklarda in'ikos etadi. Shunday ekan, madaniy kodlarda insonlarning moddiy va ma'naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy tafakkuri, aksiologik qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, F.Usmonov tomonidan amalga oshirilgan "O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingmadaniy tadqiqi" ga bag'ishlangan dissertatsiya ishida turg'un o'xshatishlar vositasida madaniy axborotni tashuvchi lingvomadaniy kodlar ierarxiyasi aniqlangan [8,8]. Unga ko'ra, o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarda eng ko'p qo'llanuvchi lingvomadaniy kod predmetli (artefakt va naturfaktlar) kod bo'lib, keyingi o'rinlarda biomorf, antropomorf, mifologik hamda somatik kodlar joylashgan.

Biz o'z maqolamizda ingliz tilida "wisdom" va o'zbek tilida "donolik" tushunchalari bilan bog'liq madaniy axborot tashuvchisi bo'lgan til birliklariga e'tibor qaratamiz va antropomorfik kodlarni tahlil qilamiz.

Natijalar va muhokama. Har bir xalq madaniyati uning tilidagi obrazlarda mujassamlashadi. Shu singari, inson hayotiy faoliyatining barcha turlari bilan bog'liq voqea-hodisalarning obrazli ifodasi ham milliy mentalitetni ko'rsatib beruvchi lingvomadaniy vositalar qatoridan o'rin oladi.

Masters of wisdom (Donolik ustalari) deya teosofistlar tomonidan e'tirof etilgan Hellena Blavatskiy, S.Genri, Olkott, Alfred Persi Sinnett kabi ma'rifat targ'ibotchilari nazarda tutiladi. Ular teosiofiyani Nyu York shahrida alohida din sifatida targ'ib qilib, "Teosofiya jamiyati" (Theosophical society) ni tuzishgan.

Peasant wisdom. Ingliz tilida "dehqon donologi" iborasi jamiyatdagi oddiy insonlarning kundalik turmush-tarzidan kelib chiqib, orttirilgan bilim va tajribalarini ifodalashda qo'llaniladi.

A piece of peasant wisdom from my father comes to mind here: "Never think you can make another person do work, you think you are too good to do yourself"

Ecological wisdom. "Ekologik donolik" insonlar atrof-muhitning a'zolari ekanligi va unga bog'liq ekanligini ta'kidlab, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ulardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratadi.

Shuningdek, ingliz tilida kasbiy faoliyat bilan bog'liq "political wisdom" (siyosiy donolik), "economic wisdom" (iqtisodiy donolik), "wisdom of medicine" (tabobat donoligi), "the guardian of wisdom" (donolik qo'riqchisi) kabi metaforalar ham bo'lib, keltirib o'tilgan sohalarga oid bilim va malakani nazarda tutadi.

O'zbek tilida "donolik" konseptini kasb-hunar bilan bog'laydigan aniq bir turg'un o'xshatish yoki metaforaga duch kelmadik. Vaholanki, milliy madaniyatimizda donolik ba'zi soha vakillari uchun xos bo'lgan xususiyatdir. Jumladan, *dono muallim:*

Sizga berib tarbiya, ta'lim,

Til o'rgatsin dono muallim. (E.Vohidov, She'r dunyosi)

–*dono tabib:*

Sochim to'kilmoqda, ey dono tabib,

Nima qilmoq kerak chorasini ayt? (A.Oripov, Bemor va tabib)

–*dono vazir:*

Dono vazir shuddirki, o'z o'rniga qarab, goh qattiqo'llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi.

(B.Ahmedov, Amir Temur o'g'itlari)

–*dono hukmdor:*

Mutlaqo dono hukmdor donishmandlikka emas, qonunga tayanib ish ko'radi.

(S.Jo'rayeva. Haqiqat manzaralari)

Shuningdek, o'zbek tilida shaxsning mashhurligi bilan bog'liq belgilar ham mavjud bo'lib, tarkibiy qismidagi antroponim donolik bilan uzviy bog'lanadi. Ular orasida o'zbek adabiyotida eng ko'p foydalaniladigan ba'zi obrazlarni keltirib o'tamiz. *Bahlul obrazi: Mashhurlar xalifa Xorun ar-Rashidning zamondoshi Bahlulni devonavor hayot kechirgani uchun "Devona Bahlul", hikmatli so'zlari bilan mashhurligi uchun "Dono Bahlul" der edilar.* (Sh.Zunnun, Oz-oz o'rganib dono bo'lur)

–*Navoiy obrazi: Shoir kerak Bedilday chuqur, Navoiyday dono, sarbaland.*

(E.Vohidov, Ishq savdosi)

Shohi Jahon obrazi: Shohi Jahon jasur, dono, Ko'p hikmatga yor edi.

(E.Vohidov, She'r dunyosi)

Ingliz tilida bu kabi o'xshatish Birlashgan Qirollikning sobiq bosh vaziri Winston Churchill nomi bilan bog'liq. U o'zining oqilona siyosati bilan Britaniya tarixida o'chmas iz qoldirgan. Hattoki, uning aql-zakovati, donologiga ishora qiluvchi kitoblar ham chop etilgan.

Har ikki tilda, shu bilan bir qatorda, "xalq" semasi yoki bitta xalqning donologi bilan aloqador etalonlar mavjud:

Folk wisdom. Collins Online Dictionary da "folk wisdom" quyidagicha ta'riflanadi: *wisdom or belief associated with or traditional to the ordinary people of a country* ya'ni oddiy xalq vakillarining an'anaviy e'tiqodlari yoki donologi. O'zbek tiliga "xalq donishmandligi" tarzida tarjima qilinadi.

Crystal suggests that every culture has its own stock of folk wisdom already and tends to resist imports, which seems plausible. (Sunday Times)

...boshing osmunda bo'lsa ham, oyog'ing yerda bo'lsin, degan ibora xalq donishmandligining falsafiy mohiyatini teran ifodalaydi. (Ilm sarchashmalari)

Ingliz tilidagi *tribal wisdom, British wisdom, Norman wisdom, Greek wisdom;* o'zbek tilidagi *sharq donishmandligi, g'arb donishmandligi* kabi so'z birikmalari ham "donolik" konsepti bilan bevosita aloqador.

Kasbiy faoliyat bilan bog'liq belgilar	Wisdom	Donolik
"donolik ustalari"	+	–
"dehqon donoligi"	+	–
"ekologik(iqtisodiy,siyosiy)donolik"	+	–
"donolik qo'riqchisi"	+	–
"mashhurlik bilan bog'liq donolik"	+	+
"xalq donoligi"	+	+

1-jadval. Kasbiy faoliyat bilan bog'liq belgilar

Ushbu jadvalda kasbiy faoliyatga oid belgilar qiyosiy analizi bilan yaqindan tanishamiz.

“Donolik” tushunchasi inson xarakteriga xos bo’lgan fazilatlar bilan ajralib turadi. Ingliz va o’zbek tillarida quyidagi hollarda o’xshashliklar kuzatiladi:

Humility. Donolik bu hayotda o’zini kamtorona tutish:

Knowledge is proud that he has learned so much; wisdom is humble that he knows no more. (William Cowper)

Sen hayotni kuzatar ekansan, kamtarlik donolarga, manmanlik nodonlarga xos xususiyat ekanligiga to’la ishonch hosil qilasan. (R.Usmonov, Saodatnoma)

Silence. Sukut donolar tomonidan qo’llaniladigan eng yaxshi “usul”:

Silence is true wisdom’s best reply. (Euripides)

Tinglash va sukut saqlash seni donolikka yetaklaydi. Sukut – donolikning boshlanishi. (S.Jo’rayeva, Haqiqat manzaralari)

Ushbu xarakter belgilariga qo’shimcha ravishda “wisdom” konseptida quyidagilarni misol keltirmoqchimiz:

Patience. Sabr donolikning hayotdagi eng yaqin hamrohi:

Patience is the companion of wisdom. (Saint Augustine)

Honesty. Halollik donolikning birinchi belgisi:

Honesty is the first chapter in the book of wisdom. (Thomas Jefferson)

Responsibility. Mas’uliyat insonlarni dono bo’lishiga turtki bo’ladi:

We are made wise not by the recollection of our past, but by the responsibility for our future. (G.B.Show)

O’zbek tilida, o’z navbatida, “donolik” konsepti bilan bog’liq quyidagi fazilatlar mavjud:

Soxtalik. Donolik ham soxta bo’lishi mumkin, xuddi soxta insonlar kabi:

Soxta donolikka asoslangan bahslarga ham, narsaning asl tabiatini tushuntirmay u haqda soxta tushunchaga ega bo’lishdan kelib chiquvchi bahslarga ham o’rin qolmaydi. (Forobiy, Fozil odamlar shahri)

Xotirjamlik. Xalqimizga ma’lumki, dono insonlar doimo xotirjamdir. Shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, ingliz madaniyatida *halollik* donolikning asosiy belgisi sifatida qaralsa, o’zbeklar dono bo’lishning siri xotirjamlikda, deya bilishadi.

Donolikning eng muhim belgisi – doimiy xotirjamlikdir.

(S.Jo’rayeva, Haqiqat manzaralari)

Xarakter belgilarining qisqacha xulosasini ushbu jadval orqali tanishib chiqamiz:

Xarakter belgilari	Wisdom	Donolik
“kamtarlik”	+	+
“sukut”	+	+
“sabr”	+	–
“halollik”	+	–
“mas’uliyat”	+	–
“soxtalik”	–	+
“xotirjamlik”	–	+

2-jadval. Xarakter belgilari

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, lingvomadaniy kodlar ma’lum bir xalqqa tegishli bo’lgan tushunchalar bo’lib, har bir xalq o’z urf-odatlarini, an’analarini va mentalitetiga oid so’zlarni ular orqali aks ettiradi. Bu esa, o’z navbatida, milliy o’ziga xoslikni ajdodlardan avlodlarga o’tishini ta’minlaydi. Biz yuqorida tahlil qilgan “donolik” konsepti bilan bog’liq antropomorfik belgilar ham har ikki xalq madaniyatida muhim belgi hisoblanib, o’sha millat vakillarining turmush-tarzi bilan bevosita bog’liq.

ADABIYOTLAR:

1. Теля В.Н. О феномене воспроизводимости языковых выражений /В.Н. Теля // Язык, сознание, коммуникация: Сб. Статей. Вып. 30. –М.: МАКС ПРЕСС, 2005. – С.38.

2. Гудков Д.Б., Ковшова М.Л. Телесный код русской культуры: материалы к словарю. М.: Гнозис, 2007. – С.15.

3. Теля В.Н. (отв.ред) // Большой фразеологический словарь современного русского языка. Значение. Употребление. Культурологический комментарий. – М.: АСТПРЕСС КНИГА, 2006. – С. 776-782.
4. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – С.233.
5. Xudoyberganova D. O'zbek lingvomadaniyatshunosligining ustuvor vazifalari // O'zbek tili va adabiyoti T.:2020, 8-bet.
6. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015, 44b.
7. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O'zbek tili va adabiyoti T.:2019, 16-bet.
8. Usmonov F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ...diss. –Toshkent, 2019, 8-bet.

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА АУТЕНТИК МАТНЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ

*Ибрагимова Найира Анваровна,
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот
технологиялари университети, фалсафа фанлари доктори (PhD), доцент
nayira@inbox.ru*

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

khurshida_sunny@yahoo.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz nasriy asarlarida ayollar obrazining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Har bir xalqning milliy qarashlaridan kelib chiqqan holda o'z milliy adabiyotida ayol obrazini turlicha tasvirlaydi. Ingliz adabiyotida ayollar obrazi davrlar davomida tadrijan o'zgarib borgan. XIX asrda ingliz nasriy asarlarida ayol obrazi ayol yozuvchilar tomonidan to'laqonli ravishda ideallashtirilgan holda yaratilgan. Shuningdek, maqolada ayol hamda jamiyat munosabatlari ham turli jihatdan o'rganilib chiqiladi. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida ayollar obrazlarini yaratishda asosan ayol va jamiyat o'rtasidagi munosabatdan, ayolning jamiyat qatlamlarida qay tarzda tan olinishi va uning jamiyatda, oilasida tutgan o'rnini tahlil qilgan holda ayolning nasriy asarlarda tasvirlanishini baholash mumkin.

Kalit so'zlar: ingliz nasriy asarlari, ayol xarakteri, poetika, ayol va jamiyat, timsollar, obraz.

ОТОБРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ДЖЕЙН ОСТИН «ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ»

Аннотация. В статье рассматриваются особенности представления о женщине в английской прозе. Каждая национальность описывает взгляд на женщину в своей литературе по-разному, исходя из своего национального образа. В английской литературе представление о женщине менялось эволюционно в течение нескольких периодов. В английской прозе XIX века образ женщины был создан писательницами с полной идеализацией. Также в этой статье были изучены отношения женщины и общества. Поскольку мы анализируем литературу о взгляде женщины, то можно оценить описание женщины в прозе, главным образом, с точки зрения отношений между женщинами. и и обществе, проанализировав, как женщина была признана во всех слоях общества и её место в обществе, в её семье.

Ключевые слова: английская проза, женский персонаж, поэтика, женщина и общество, символы, образ.

DISPLAY OF THE IMAGE OF A WOMAN IN THE WORK OF JANE AUSTEN «PRIDE AND PREJUDICE»

Abstract. The article deals with the features of the view of woman in English prose. Each nationality describes the view of a woman in its literature in different ways based on its national image. In English literature, the view of a woman has been changed evolutionarily over some periods. In the 19th century English prose, the view of a woman has been created by female writers with full-idealization. Also, in this article, the relationship of women and society has been studied. As we are analyzing the literature of the view of a woman, it is possible to evaluate the description of a woman in prose, mainly from the perspective of the relationship between women and society, analyze how a woman has been recognized in all layers of society and her place in society, in her family.

Keywords: English prose, female character, poetics, woman and society, symbols, image.

Kirish. Dunyoning biq qancha xalqlari madaniyatlari doimo bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, adabiyot vositasida ham madaniy, ham ma'naviy jihatdan boyitilib boriladi va o'ziga xosligi bilan ajralib turgan, ammo bir-birini to'ldiradigan milliy adabiyotlar jahon adabiyoti sahnasini tashkil etadi. Shunga ko'ra, jahon xalqlari adabiyoti bir-biri bilan chambarchas ravishda bog'lanib, tobora ko'proq o'zaro aloqalarda bo'lishi va o'zaro ta'sirlarni adabiy-tarixiy makonlarda o'rganilishi jahon adabiyotshunosligining har taraflama rivojlanishi uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, hozirgi kunga qadar ingliz adabiyotining barcha adabiy davrlarida ayol obrazini tasvirlagan ko'plab asarlar yaratilgan. Xususan, Jeyn Ostinning "G'urur va andisha" asaridagi Elizabet Bennet obrazi, Sharlotta Brontoning "Jeyn Eyer" romanidagi Jeyn Eyer obrazi, Margaret Mitchellning "Shamollarda qolgan hislarim" asaridagi Skarlett O'Hara obrazi bunga misol bo'la oladi. Shu bilan birga taniqli ingliz yozuvchilaridan biri bo'lgan Charlz Dikens, Uolter Skott, Emily Bronte kabi jahon adabiyotining buyuk yozuvchilari o'z asarlarida ayol obrazini turlicha tasvirlashga harakat qilishgan.

Ayol zoti dunyo va insoniyatning boshlanish nuqtasi hisoblanib, uning go'zalligi, jozibadorligi, boy ma'naviy dunyosi yozuvchilarni har doim ilhomlantirgan. Go'zal ayollar tasvirlari haligacha kitobxonlar yuragini hayajonga solib kelmoqda. XX asrdagi shoir va yozuvchilar ham o'z an'alariga sodiq qolib, hayratga soluvchi ayollar obrazlari tasvirlangan asarlarni yaratganlar. Jahon adabiyoti tanqidida XX asr oxirlarida ingliz adabiyoti ayollar estetikasi, ayollar qo'lyozmalari, ayollar fenomenlari, ayollarning ijodkorligi, ayolning donishmandligi, ayolning sabr-toqati kabilarga alohida e'tibor qaratilgan. XIX asr adabiy va badiiy tasvirlari esa ayolning zamonaviy qiyofasiga yo'naltirilgan.

Ingliz adabiyoti asarlarida mavjud bo'lgan ingliz ayolining obrazini ajoyib tarzda ochib bergan asar Jeyn Ostin tomonidan yozilgan "G'urur va andisha" romanidir. Bu asardagi ayolning obrazini ochib berish bo'yicha juda ko'plab tadqiqodlar amalga oshirilgan. Masalan, Tanner fikricha, Jeyn Ostin o'z asari qahramoni Elizabet Bennetga ulkan jozibadorlik bergan hamda mukammalashtirishga harakat qilgan. Elizabet nafaqat go'zal ko'rinishi hamda jonli ruhga ega bo'lishidan tashqari, oqilona fikrlar yuritishi bilan alohida e'tirof etib o'tilgan. Shu sabab ham Bennetda boshqa opa-singillari singari ahmoqona fikr yuritilish kuzatilmaydi. Ammo Ualdron bu fikrga qarshi borib, Elizabet obrazi mukammal ayol sifatida tasvirlanmaganligini ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, Elizabet avliyo ham emas va uning zaifligini asarning ba'zi joylarida yaqqol ko'rsatishgan. Masalan, Elizabet Pemberlining bekasi bo'lish nima anglatishini anglaganida, bu holat u uchun ham, uning oilasi uchun ham yaxshi bo'lishini bilgan hamda bundan foydalanishga harakat qilgan bo'lar edi. U ham boshqa insonlardek pul haqida qayg'uruvchi inson sifatida tasvirlangan, degan fikr ham mavjud.

Maishiy turmushni mohirona chiza olishi bilan jamiyatni, asl hayotni haqqoniy ko'rsatib bera olgan Jeyn Ostin o'z asarini maishiylikdan olib chiqadi va unga realizm tamgasini bosa oladi. Aytish mumkinki, Jeyn Ostin tom ma'noda, ayol qalbini, uning kechinmalarini mohirona chiza olgan katta rassomdir. [1,5]

Arnold Jeyn Ostinning asarlarida ayollar xarakteri ijobiy ko'rinishda tasvirlanmagan degan qarashlarni ilgari suradi hamda asardagi barcha ayollarning ma'lum darajadagi axmoqona harakatlarini ko'rsatib bera oladi. Shunday qilib, Arnoldning taxmin qilishicha, Jeyn Ostin o'zi ham o'quvchilari uchun yangi ayolning qiyofasini yaratmoqchi bo'lgan bo'lishiga qaramay, ayol stereotiplaridan qocha olmagan va bu o'z o'rnida ayollar obrazini yaratishga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Elizabetdan tashqari ham, asarda boshqa ayol qahramonlar obrazlari gavdalanmagan, bular Bennet Xonim va Sharlotta Lukasdir. Ushbu asarda Bennet xonim aksariyat holatlarda salbiy qahramon sifatida jonlantirildi. Arnoldning fikricha, Bennet xonim doim arzimagan narsalardan shikoyat qiladigan, zerikarli, tor fikrlaydigan ayol sifatida tasvirlangan va uning hayotdagi asosiy maqsadi qizlarini turmushga uzatishdan iborat. Tanner bo'lsa Bennet xonim dunyoqarashi cheklangan va mulohaza qilishga qodir emasligi haqida aytib o'tdi. Ualdronning ta'kidlashicha, Bennet xonim boshqalar his-tuyg'ulari haqida o'ylamay gapiradigan hamda fikrlash doirasi judayam tor deb aytib o'tgan. Bu asardagi yana bir ayol qahramon Sharlotta haqida ham tanqidchilar turlicha fikrlar bildirishgan.

Ueinsheimer yana Sharlottaning beparvoligini qat'iy tanqid qiladi, chunki u nikohdagi haqqoniy baxtdan ko'ra uy-joy, mol-mulkka ega bo'lgan turmushni istashini eslatib o'tadi. Ammo Nyutonning fikricha, Sharlotta ham aynan o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy kuchi hamda bosimining qurboni bo'lgan. Bu bo'lsa o'sha davrning qo'ygan talablaridan kelib chiqqan holda harakatlanishi sanaladi, deb aytib o'tadi. Tanner ushbu fikrlarga qarshi chiqmasdan, Sharlottani ayblamaslik kerak ekanligini, u bu hayotda tirik qolish, yashab ketish maqsadida shu yo'lni tanlaganini ta'kidlab o'tdi.

Ingliz adabiyoti har doim o'z g'oyaviy mazmuni teranligi, hayot mazmun-mohiyati masalalarini hal qilishda tinimsiz intilishi, insonparvarlik munosabatlari, tasvirlashning haqiqiyliги bilan alohida ajralib turadi. Ingliz yozuvchilari ayollar obrazlarida eng a'lo xususiyatlarni ifodalashga harakat qilishgan. O'z sodiq va mehribon yuragi, betakror ma'naviy go'zalligi orqali ajralib turadigan ayollar obrazi jahon adabiyotida turlicha tasvirlangan. Ayol zoti ko'p qirrali xilqat sanalib vaqt o'tishi bilan uning vazifalari yanayam kengayib, dunyoga qarashi teran o'zgargan bo'lishidan qat'iy nazar, uning o'zgacha nozikligi, oilaparvarligi, mehribon ona sifatidagi xislatlari o'zgarimasdan qolaveradi.

Jeyn Ostin o'z romanlarida ayol obrazini bosh qahramonlar tomonidan aniq tasvirlaydi va ularni sahna markaziga aylantiradi. U ayollardagi sevgi va nikoh haqidagi yangi g'oyalarini qo'llab quvvatlaydi.

Jejn Ostin ingliz adabiyotining yorqin namoyandalaridan biridir. Uning yozgan asarlari, oradan ikki asr o'tib ketgan bolishiga qaramay, hamon o'z ijtimoiy-badiiy dolzarbligini yo'qotmagan. Yozuvchining millatdoshlari va muxlislari hanuzgacha uni «Bizning Jejn» deya faxr-u iftixor bilan tilga olishadi. Yozuvchining asarlari keng kitobxonlar ommasidan e'tirof etilgan bo'lib, ular mazmun va ifodasi hamda syujetining soddaligi, samimiyligi, qiziqarliligi, badiiy tilining latifligi bilan kitobxonlar qalbini o'ziga rom etgan.

Asosiy qism. Jejn Ostin o'z durdona asari "G'urur va andisha"da Georgian hukumatida ayollarning jamiyatdagi o'rnini aniq va tushunarli qilib ifodalagan. Yozuvchining jo'n va go'zal tasviri har qaysi o'quvchini rom eta oladi. Ayniqsa, uning samimiyligi kishi qalbiga mustahkam o'rtnashib oladi. Jejn Ostinning ijodiy davri XVIII-asrdan XIX-asrga o'tayotgan vaqti, ya'ni, realizmga o'tish vaqtiga to'g'ri kelib qolgan va bu narsa yozuvchi asarlarida sezilmay qolmagan. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada Regressiya davri o'sha vaqtlar "gullardi".

Andisha so'zi, tojikcha so'z bo'lib, "andesha" ya'ni, o'ylash, fikrlash, fikr kabi ma'nolarni anglatadi. Xurofot esa, arabcha so'z bo'lib, xato ya'ni, xato fikr, mavhum kabi ma'nolarni bildiradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Umuman, asar "Futsilyam va Elizabetta" deb nomlanishi ham mumkin edi, lekin bu yerda ramziy ma'no bor edi. Ya'ni, Futsilyam yoshligidan faqat bir o'zi haq bo'lib kelganligi va unga eng oliy tabaqa vakilligini anglatib kelaverishganidan haddan ortiq g'ururli kishi edi. Bu esa, uning odamlarga faqat tepadan qarashga olib keldi. Elizabet esa, Futsilyam unga aynan, tabaqasi sabab past e'tibor beryapti va bu kishida xato bo'lsada hech qanaqa samimiylik, xolislik va saxiylik yo'q deb o'ylaydi.

Yana bir muhim tomoni shundaki, biz buni shunchaki sevgi qissasi emas, jamiyat va davr ko'zgusi deb bilishimiz kerak. Ya'ni, "G'urur va andisha" istisno qilib ko'rsatilgan, lekin bunaqalar oz emasdi. Nurlar ko'zguda jilg'anadi. Romanning ochilish satrida quyidagi yozuv bor: "Qo'lida puli bo'lgan balog'atga yoshiga yetgan har bir yigit o'ziga qalliq topishi kerakligi hammaga ma'lum." Bu nikohni motiv va muammo sifatida belgilaydi. Ya'ni, bu - kitobxonga savol bo'lsa, obrazlarga muammo hisoblanadi.

Nikoh - bu endi "o'zim bir burda non ham yesam bo'ladi" degani emas. O'zing bir burda non yemasang ham, oilangga non yedirishing kerak, degani. Bu iqtisodga bog'liq murakkab faoliyatda otonalar har doim qizini "o'ziga to'q"larga berishni ko'zlashadi. Lekin bu muammoga faqat iqtisodiy nuqtayi-nazardan qarashdir. Ammo odam bolasiga bundan ham muhimroq bo'lgan, qalb, kerak.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Buyuk Britaniyada qizli oilalarni ko'pi o'zidan baland tabaqadan yoinki katta mablag'larga ega kuyovlarni "izlash" ishlari bilan band edilar. Ularga ayniqsa, ball va mehmondorchilik qo'l kelardi. Shu masalada to'xtalib, mulohaza yuritimiz. Bu qanchalik sog'lom harakat? Demak, o'sha davrdagi yoshlar emin-erkin baxtli bo'lishdan mosuvo. Ostin ayni shu tuzumga qarshi Elizabet gavdasini jonlantiradi (Amakivachchasi Kollinz bilan turmush qurishga ko'nmasligi, Futsilyam Darsini birinchi taklifini rad etishda hech qanday mol-mulkni o'ylamagani va Darsining xolasining do'q-po'pisalariga qarshi qat'iyat ko'rsatganligini eslang) va bu bilan qizlarni o'z hayoti uchun kurashishga chorlaydi. Ostinning kurashmayotganlarga nisbatan o'z hayratini ko'rsatish maqsadida Sharlotta Kollinzning taklifini qabul qilganda, Elizabetning munosabati jilolantiradi.

Bu masalani faqat munosabat bilan tushuntirish qiyin, chunki asosiy muammo janob Bennet va missis Bennetda edi. Ular bir-birlari bilan faqatgina burchlari sabab yashardilar va ularni baxtli deb bo'lmasdi. O'zlari baxtga yetmagan bo'lsa mayli edi, ammo "olma tagiga olma tushadi-da" (Lidiya va Kittining tarbiyasi, Merining odamoviyli). Agar butun jamiyat shunday nosog'lom muhitda yashar ekan, odamlarda oilaga, hayotga va muhabbatga qarashlar yomonlasha boraveradi. "Ammo insoniyatga asl er-xotinlik baxti nimaligini isbotlab beradigan bu nikohning bo'lishi nasib qilmagan ekan!"

Ostin davr va zamonning rivojlanishidan qat'iy nazar, ayol taqdiri ijtimoiy mavqega kishilar hamda kiborlar to'dasining ta'biga qarab shakllanmasligi kerak, degan g'oyani oldinga suradi.

Kishining ko'rinishiga, "cho'ntagi"ga qarab munosabatda bo'lishlik bu - xato. Ostin bunday odamlar ustidan missis Bennet va Kollinzlar obrazi orqali kuladi, ya'ni jamiyatni akslantiradi. Misol uchun, missis Bennetga berilgan ta'rifga e'tibor qaratsak: "...uning hayotdagi eng asosiy maqsadi qizlarini turmushga chiqarish bo'lib, yagona qiziqishi esa mehmondorchiliklarda yurish va yangiliklar edi." Jamiyatni oldindan, faqat moddiy manfaat uchun yashashligini qoralashni "kulish" orqali yoritadi.

To'g'ri, Jejn "romantika"si bilan mashhur, ammo yozuvchi o'z asarlarida bir necha ijtimoiy muammolarni aks ettira olishining guvohi bo'ldik. Masalan, turmush o'rtoq tanlashdagi nosog'lom muhit va buning natijasida tug'ilajak farzandlarning yaxshi tarbiya olmasligi, risoladagidek baxtli hayot uchun yoinki qashshoq, yoinki hamma uchun beburd nomini olishligi, eng asosiysi, bularning hammasi bir bo'lib insonlarni g'urur va xurofotga chorlashi namoyon bo'ladi.

Jeyn Ostin ayol bo'lishiga qaramay, o'z davridagi ayollarning odatiy stereotiplaridan qochib qutula olmadi. U kichkina ijtimoiy hududda va ko'pincha kinoya orqali ingliz jamiyatidagi ayollarning ayanchli holatini, xususan, ular moliyaviy muhtojlikdan xoli kelajakni ta'minlash uchun qanday qilib erkaklarga bog'liq bo'lishlari kerakligini taqdim etadi. Bu ayollarning o'zi uchun munosib turmush o'rtoqni tinimsiz izlashi va Ostin asarlarida keltirilganidek, muhtojlikdan himoya qiluvchi yaxshi turmush qurishga intilishida aks ettirilgan. Turmush qurgan ayollar boshqalarga, ayniqsa, opa-singillariga imkoniyatlar eshiklarini ochadilar. Bu fikr isbotini asar qahramoni Bennet xonimning Jeyn va Bingli o'rtasidagi munosabatni sezgan holda boshqa qizlarining g'amxo'rlikini Jeyn bilan chegaralash haqidagi fikrlarida kuzatish mumkin. Va u ta'kidlaganidek, Jeynning boy oilaga turmushga chiqishi o'zining kenja singillari uchun yo'l ochiladi, chunki ular boshqa boy erkaklar bilan aloqada bo'lishadi, deb hisoblaydi. Bu qadriyat ijrosini biz asarning boshqa qahramonlarida ham ko'rishimiz mumkin. Jeynni Londonda mehmon bo'lish uchun Garddiner xonim taklif qiladi. Elizabet turmushga chiqqan dugonasi Sharlottaning taklifiga ko'ra, Xansfordga tashrif buyuradi. Lidiya Forster xonimning taklifi bilan Braytonga boradi. Elizabet Derbishr grafligiga Gardinerlar hamrohligida sayohat qiladi.

Er-xotin o'rtasidagi munosabat o'zaro hurmatga asoslangan. Biz buni ularning bir-birlariga "xonim" va "janob" so'zlari bilan murojat qilishidan ham bilishimiz mumkin. Tan olish mumkinki, turmush qurish ba'zi ayollar uchun jamiyatning qarashlari bilan majburlanadi. Yolg'iz ayol hayotda qoniqarli hayot kechira olmaydi g'oyasi asosida, roman bosh qahramoni Jeynning nikohi nafaqat opa-singillari uchun teng darajada yaxshi turmush qurish imkoniyati, balki ularni o'z qaramog'iga olish imkoniyatidir.

Nikoh ayollarga muhtojlikdan saqlovchi vosita sifatida "G'urur va andisha" asarida bir necha bor ifodalangan. Romanda Bennet xonim turmushga chiqmagan ayollarning o'z jamiyatidagi o'rni va mavqeyini nafaqat ikkinchi darajali fuqarolar, balki qashshoqlar deb hisoblaydi. Ayollar merosga ega bo'lolmaydigan yoki hatto mulkka ega bo'lolmaydigan davr sifatida ular uchun yagona imkoniyat - pul evaziga turmush qurish yoki abadiy qarindoshlariga qaram bo'lishdir. Bunday noqulay holat "G'urur va andisha"da Bennet xonimning besh qizini munosib erkaklarga turmushga berishga urinishi bilan tasvirlangan. Shunday qilib, ayollar o'zlarini muhtojlikdan saqlab qolish uchun turmush qurishlari kerak. Qashshoqlikdan xalos bo'lish umidi "G'urur va andisha" romanida bir nechta misollarda aks ettirilgan. Ulardan biri Elizabetning Pemberliga tashrifi paytida, u yerda binoni, uning atrofini va tarkibini ko'zdan kechirar ekan, shu xonadon bekasi bo'lishini xohlardi.

Roman so'ngida u ham Elizabet kabi yolg'on tamoyil va qoidalardan ozod bo'ladi, ulardan baland turib, o'zi sevgan qizning muhabbatiga sazovor bo'ladi.[1,6]

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, roman keng qamrovli bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Mazkur maqolada romandagi ijobiy qarashlar va ularga sodiqligi tufayli baxtga erishgan qahramonlar hayoti muhokama qilingan. Asar bosh qahramoni Elizabetning nikoh masalasida o'z qarashlariga ega ekanligi, bu yo'lda qat'iyat bilan harakat qilishi, o'z mezonlaridan qaytarishga uringan har qanday to'siqni yengib o'tishi, barcha davralarda o'zini erkin tutishi va xatolarini anglab ulardan to'g'ri xulosa chiqarishi orqali baxtga erishgani ko'rsatilgan. Bir-birini tushunish, hurmat qilish, sevish nikohning muhim omili ekanligi va baxtiyor nikoh atrofdagilarga ijobiy ta'sir etishi, jamiyatda mehr-oqibat tuyg'ularining yuksalishiga sabab bo'lishi isbotlangan.

Butun dunyo adabiyotining bosh qahramoni, bosh mavzusi bu - ayoldir. To'g'ri, asosan, adabiyotlarda ota-onaga muhabbat, tabiatning go'zalligi, iymon-insof, farzandning muhabbati, dushmanga nisbatan nafrat kabi abadiy mavzular mavjud bo'lib, ulardan har biri ming-minglab xalqlarning adabiyotida tarannum etiladi. Ayol va ularning jamiyatdagi mavqeyi mavzusini o'rganish ham adabiyotshunoslikda tadqiq etilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'sha paytda turmushga chiqmagan ayollarning aksariyati turmushga chiqmaguncha ota-onasi yoki qarindoshlari bilan yashagan. Masalan, umrining oxirlarida Ostin qarindoshlari bilan yashashga majbur bo'lgan. Xuddi shunday, qirolicha Viktoriya ham Albertga turmushga chiqqunga qadar onasi (hatto ikkalasi gaplashmasa ham) bilan qolishga majbur bo'ldi. Bu shuni ko'rsatadiki, de Bou ogohlantirganidek, yosh ayol har doim erkak yoki keksa ayolning qaramog'ida bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova Ma'suma. Azizim Jeyn. «Jahon adabiyoti» jurnalining 2014-yil 5-soni [1, 5-6]
2. Ika M. Aditya P. Representation of Women Image in Anthology of Poetry "Poetry of Rahim" by the Women Poet of five Countries //The 1st International Seminar on Language, Literature and Education, KnE Social Sciences [2, 588-594].

2. Карагода А.П. Социокультурная обусловленность женских образов в искусстве нового времени: дис. ... канд. искусствоведения. — Краснодар, 2019. — [2, 155].
3. Хабибуллина Л.Ф. Женский национальный тип в английской литературе XIX века//Вестник Челябинского государственного педагогического университета, 11-1, 2009. — [3, 292–299].
4. Kodirova G. *The comparison of Women image in Russian and English Literature*, 2021// *International Journal on Orange Technologies*, Volume 03, Issue 06, June 2021, [4,97–99]. URL: — www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT e-ISSN: 2615-8140|p-ISSN: 2615-7071
5. *Jeyn Austen. Pride and Prejudice. Novel.* - Published / Update on: June 24, 2020. – [6, 479].
6. Sautam, B., 2020 yil. *Jeyn Oustin | Biografiya va romanlar.* [onlayn] Britannica entsiklopediyasi.
7. *Pride & Prejudice. United International Pictures.* - British Board of Film Classification (25-iyul 2005-yil).

JEK LONDON VA MUROD MUHAMMAD DO'ST HIKOYALARIDA SHAXS VA JAMIYAT MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK TASVIRI

*Elboyeva Madina Botirovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
Elboyevamadina1102@gmail.com*

Annotatsiya: Umuman olganda, badiiy adabiyotda shaxs psixologiyasi muammosi bir tomondan adabiy qahramon (shaxs), ikkinchi tomondan muallif muammosidir. Tadqiqotimizda biz ikkala muammoni ham hal qilishni maqsad qildik. Bir tomondan, yozuvchining ijodiy uslubi va shaxsiyatidan qat'i nazar, adabiy qahramonning shaxsiyati boshlang'ich nuqtadir. Ushbu maqolada ham adabiy shaxs, jamiyatdagi muhitning qahramon psixikasida aks etishi kabi masalalar nazariy tahlil etildi.

Kalit so'zlar: shaxs, jamiyat, badiiy qahramon, psixoanalitik tahlil, insonning ijodiy salohiyati, ijtimoiy-madaniy faoliyat, badiiy tasvir vositalari.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ОБРАЗ ОТНОШЕНИЙ ЛИЧНОСТИ И ОБЩЕСТВА В РАССКАЗАХ ДЖЕКА ЛОНДОНА И МУРАДА МУХАММАДА ДУСТА

Аннотация: Вообще проблема психологии личности в художественной литературе — это проблема литературного персонажа (личности), с одной стороны, и автора, с другой. В нашем исследовании мы стремились решить обе проблемы. С одной стороны, независимо от творческого стиля и личности писателя, отправной точкой является личность литературного героя. В данной статье также теоретически проанализированы такие вопросы, как отражение литературной личности и социальной среды в психике героя.

Ключевые слова: личность, общество, художественный герой, психоаналитический анализ, творческий потенциал человека, социокультурная деятельность, средства художественной репрезентации.

PSYCHOLOGICAL IMAGERY OF INDIVIDUAL AND SOCIETY RELATIONS IN THE STORIES OF JACK LONDON AND MURAD MUHAMMAD DOST

Abstract: In general, the problem of personality psychology in fiction is the problem of the literary character (personality) on the one hand, and the author on the other. In our study, we aimed to solve both problems. On the one hand, regardless of the writer's creative style and personality, the literary hero's personality is the starting point. This article also theoretically analyzed issues such as the reflection of the literary personality and the social environment in the hero's psyche.

Keywords: person, society, artistic hero, psychoanalytical analysis, human creative potential, socio-cultural activity, means of artistic representation.

Kirish. Shaxsiyat ichki dunyoning markazi va tashqi dunyo bilan munosabatlarning asosiy regulyatoridir. Bu insonning asosiy muhim xususiyati, uning jamiyat bilan aloqasi "instrumenti". Shaxsdagi barcha psixologik shakllanishlarning integratsiyalashuvi insonning hayot yo'lining subyekti sifatidagi xususiyatlarida, uning ichki faoliyatini uning ma'naviy-axloqiy fazilatlariga muvofiq ravishda amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Badiiy ijod – insonning olamga alohida, yaxlit munosabatda bo'lgan holda o'zini yaratishi sifatida umuman inson ijodining turlaridan biri.

An'anaga ko'ra, shaxs uni bilishga turli yondashuvlar orqali tavsiflanadi. Shaxs psixologiyasining ontologik jihati, bu shaxsning real mavjudligining ko'plab variantlarini tavsiflaydi va bu badiiy adabiyotda aks ettirish hozirgacha juda kam o'rganilgan. Shu bilan birga, adabiy matnlardan shaxsning mavjudligini psixologik tadqiq qilish uchun material sifatida foydalanish samaralidir. Jahonga mashhur adabiy obrazlarda badiiy-majoziy rekonstruksiya tufayli shaxs o'z hayot yo'lida hajmli va yaxlit tarzda, haqiqiy ijodkorning intuitiv idroki tufayli o'zining butun nomuvofiqligi va to'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyotda insonning xilma-xil tarjimayi hollari turli xil murakkablikdagi ichki dunyoni va hayot yo'llarini ifodalaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Bugunki kunga kelib o'zbek adabiyotida ham Jek London hikoyalar tahlili bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, Karimov U. "Jek London

obrazlari (xususan, “Martin Iden”) da avtobiografik ruhiyat”, Muhammadjonova G.M. “Jek Londonning “Hayot qonuni” hikoyasida hayotga muhabbat talqini”. Undan tashqari o‘zbek adiblari bilan ingliz yozuvchi hikoya va asarlarini tahlil qilinmoqda: Alimova Sh.Y. “Jek London va O‘tkir Hoshimov ijodida o‘z davridagi ijtimoiy hayotning ta’sir va tasviri”.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning maqsadidan kelib chiqib, ishda analitik, tarixiy-tipologik, psixoanalitik metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ko‘pgina psixoanalitiklar o‘z qahramonlarining ichki dunyosining buyuk ustalarining adabiy asarlarida tasvirlangan personajlar, ikkinchi tomondan, ularning harakatlari haqida o‘z tushunchalarini berishga harakat qilishdi. Shu bilan birga, eng avvalo, inson hayotidagi ongsizlikning namoyon bo‘lishi, ularning qonuniyatlari insonning psixologik tashkilotining taniqli psixoanalitik modeliga muvofiq tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor ongsizning himoya mexanizmlarini aniqlashga, ichki va tashqi hayot tuvaliga o‘ziga xoslikni berishga qaratilgan. Shunday qilib, personajlarning ruhiy harakatlari va harakatlarini psixoanalitik tushuntirishning umumiy tamoyilini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda psixologlar ko‘pincha badiiy adabiyotdan namunalarni ilmiy tahlil yordamida olingan naqshlarning illyustratsiyasi sifatida ishlatadilar, bu esa to‘g‘ri bo‘lsa-da, ammo ilmiy dalillarga hajm va hayotiy ishonchlikni berishga imkon beradi.

Kamdan kam hollarda yozuvchining shaxsiyati yoki uning jamiyatdagi roli psixologik o‘rganish amalga oshiriladi. Ammo ko‘plab adabiy obrazlarni tahlil qilish natijasida umumiy psixologik qonuniyatlarni olish mumkin. Bu, ehtimol, eng qiyin vazifadir, chunki badiiy adabiyot tilidan fan tiliga tarjima qilish muammosi haligacha hal etilmagan. Hikoya va asarlari, ocherklari butun dunyoo bo‘ylab “shaxs” va “jamiyat” nazariyasiga ko‘ra tahlil etilgan eng mashhur yozuvchilardan biri Jek Londondir.

Jek London XX asrda nafaqat Amerika Qo‘shma Shtatlarida, balki butun dunyoda mashhurlikka erishgan birinchi amerikalik yozuvchi edi. Uning birinchi asari nashr etilganiga 100 yildan oshdi. Jek Londonning ijodiy faoliyati uzoq davom etmadi, u juda qisqa umr kechirdi, lekin bu davrda jahon adabiyotining ko‘plab durdonalarini yaratdi. Hatto XX asrda ham Jek Londonning ishi o‘zining dolzarbligi va jozibasini yo‘qotmagan. U salkam 20 yil ijod bilan shug‘ullanib, shu vaqt ichida hali ham katta qiziqish bilan o‘qiladigan badiiy asarlar yaratgan.

London qahramonlari – birinchidan, oddiy mehnatkash kishilar, qaysiki qiyinchiliklarga tik ko‘z bilan qarashga ularni yengib o‘tishga harakat qiluvchilar. Masalan, oddiy dengizchi Martin Iden, havaskor-bokschi Felips Rivera, universitet professori Freddi Dramond-ularning bari mehnatni e‘zozlaydigan, atrofdagi voqealarga e‘tibor beradigan insonlardir.

Nosir, publitsist, shoir va dramaturg Jek Londonning yoshligida shakllangan faol hayotiy pozitsiyasi nafaqat uning xarakterining rivojlanishiga, balki asarlarida “jamiyat” va “shaxs”ning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Dunyoga ijodiy munosabatning o‘rni va mohiyatini, adabiy ijod qonuniyatlarini aniqlash amerikalik yozuvchi uchun hayot qanday bo‘lishi kerakligini tushunish birdek muhim edi. Tahlilchi va rassom London ijodkorlikni ikki jihatda tushunadi: falsafiy (ijodiy jarayonning maqsad va shakllari) va psixologik (birinchi navbatda shaxsiy rivojlanish muammosi bilan bog‘liq). U ijodiy harakatning psixologik “mexanizmi” bilan qiziqadi, u adabiy asar yaratish, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish, yangi narsalarni yaratishga qaratilgan har qanday ish shaklida shaxsiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishdir. E.G. Naumova insonning ijodiy salohiyatini uning “o‘zini-o‘zi rivojlantirish”ning dastlabki sharti deb hisoblagan holda, unda “shaxsni hayotning yangi bosqichiga – ijodiy, ijtimoiy mohiyatni o‘zgartirishga yordam beruvchi...” omilini ko‘radi. [6, 363]. London uchun jamiyatning ijtimoiy va madaniy faoliyati jarayonida ishtirok etuvchi shaxsning ijodiy salohiyati masalasi ustuvor hisoblanadi.

Amerikalik yozuvchi D.J. Vichlanning keng jurnalistik merosida jurnalistika va gazeta jurnalistikasini, xususan, adabiy ijodga oid maqolalarni alohida ta’kidlaydi [3, 185]. Londonning adabiy ijodning vazifalari va shakllari haqidagi qarashlari 1899-1905 yillarda, uning aksariyat maqolalari, ijodiy shaxsga oid ocherklari: “Boshlagan mualliflarga birinchi yordam”, “Men chop etishni qanday boshladim”, “Batafsil” kabi maqolalari yozilgan paytda shakllandi. Ularda u adabiy ijodni jamiyat madaniy hayotining alohida sohasi deb biladi va bu ocherklarda tahlil predmeti sifatida shaxsni tahlil markazaiga oladi, bunda shaxs – badiiy asarni ijodiy harakat sifatida yaratish jarayoni asoschisi va yozuvchi, ijodiy jarayon ishtirokchisi.

London insonning shaxs masalasi nafaqat uning fikrlari tabiati bilan, balki uning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki/ishtirok etmaslik darajasi bilan ham bevosita bog‘liq. Jamiyat haqidagi o‘z nuqtai nazarini “Men uchun hayot nimani anglatadi” maqolasida taqdim etar ekan, yozuvchi o‘zi “yuqori jamiyat” sifatida ko‘rsatganlarning jamoaviy qiyofasini yaratadi: bular hayotda, biznesda, san’atda moddiy muvaffaqiyatlarga erishgan odamlardir. Ularni ikkiyuzlamachi (bir narsani aytadilar – boshqa narsa qiladilar) deb ta’riflab, faqat o‘z manfaatini o‘ylaydilar, ayni paytda ularning hayotiy faolligini ham qayd etadi. Muallif-tahlilchi

ularni olijanob va fikrda “pok” kimsalarga qarama-qarshi qo‘yib, afsus bilan ta’kidlaydi: “Odamlar faol, lekin harom va qabih; yoki pok va olijanob – lekin tiriklar orasida o‘lik” [5, 80]. Faol hayotiy pozitsiyasiz ma’naviy poklik va olijanoblik, London nazarida, insofsiz, ikkiyuzlamachi, yollanma odamlarning faol tashabbusi kabi salbiy hodisadir.

Jek Londonning yozuvchi sifatida o‘zini ijodga yo‘naltirilgan shaxs sifatida shakllantirishga munosabati uning badiiy asarlari qahramonlarining leytmotiv xususiyatiga aylanadi. Qahramonlarning shaxsiy hayotiylik mezonlarini belgilashda muallif ularning o‘zini va dunyoni yaratishdagi ijodiy faolligi darajasiga e’tibor beradi. London qahramoni – amerikalik, ya’ni “o‘zini o‘zi yaratgan odam”, amerikacha ma’noda individualizmni tan oladi: u uchun o‘zining “men” ni yaratish juda muhimdir. U o‘quvchi oldida dinamikada namoyon bo‘ladi: u passiv hayotiy pozitsiyadan ijodiy pozitsiyaga aylanadi – Van Veyden (“The Sea Wolf” – “Dengiz bo‘risi”), Bill va Sakson (“The Valley of the Moon” – “Oy vodiysi”), Stending (“The Star Rover” – “Yulduzlararo sayohatchi”) haqidagi ba’zi hikoyalar qahramonlari buning yaqqol misolidir. Bundan tashqari, yozuvchining dastlabki asarlarida (1900–1909) personajlar ijodiy faoliyatining mavzusi ko‘pincha ularning o‘ziga xos “men”ga aylangan bo‘lsa, keyingi qahramonlar uchun hayotga ijodiy munosabat; hayotni o‘zgartirish istagi bilan belgilanadigan shaxsга aylangani ko‘proq xarakterlidir. 1913–1916 yilda yozilgan hikoyalari va ularning qahramonlari shunday shaxslardir: “Burning Daylight” – “Olovli kun”) (1909) romani, “The Valley of Moon” – “Oy vodiysi” (1913), “The Little Lady of the Big House” – “Katta uyning kichkina Bekasi” (1916) hikoyalari, “The Acorn-Planter” “Don ekuvchi” pyesasi (1915).

Tadqiqotimizning yana bir obyekti sifatida Murod Muhammad Do‘st va uning hikoyalari tanlangan bo‘lib, unda qahramonlarning shaxs sifatida jamiyatdagi holatini aks etishiga urg‘u berib o‘tdik.

Adib jamiyatdagi illatlarning nozik qirralari juda yaxshi ko‘ra olgan va ularni o‘z qalamiga ko‘chira olgan. Yozuvchi qahramonlari mard, halol, kamtarin, ko‘pchilikning nazaridan chetda, to‘g‘riroq aytganda, dunyoda tinch-totuv yashayotgan oddiy qishloq ahlidir. Bular ba’zi asarlarda bo‘lgani kabi muallif ko‘rsatkich barmog‘i bilan ko‘rsatgan joyda harakatlanadigan yuzsiz odamlar emas. Ular haqiqatan ham yashaydilar, kurashadilar, xato qiladilar, ba’zan o‘z xatolaridan bexabar bo‘lishadi, agar sezsalor, ichki egoizmlari bilan o‘zlarini ham, boshqalarni ham haq ekaniga ishontirishga harakat qiladilar. Bularning yaqqol misoli sifatida “Mustafo” va “Galatepaga qaytish” qissalarini keltirish mumkin.

Mustafo obrazida kitobxon o‘z qadr-qimmatini saqlay oladigan insonni ko‘radi. Uning imoni va ishonchi jamiyat tayanchiga qiyoslanadi. Sudlanganlikni o‘zgartirish o‘limga teng. Shuning uchun u ayol sha’nini suiiste’mol qilishga yo‘l qo‘ygan qizini kechira olmaydi.

Mustafo uyg‘onish davri, xalq va shaxsning axloqiy o‘zligini anglash davri qahramonlarining bir turi. Bunday odamlar har doim jamiyatda mavjud bo‘lgan.

Mustafo obrazi orqali o‘zbek adabiyoti qissasining markazida sinfiy yovuzlikka qarshi turuvchi qahramon tipi paydo bo‘ldi. Mustafo ijtimoiy muammolarga qarshi turadi, yomonlikdan va zo‘ravonlikdan qo‘rqmaydi. Uning noroziligi ichki norozilik bo‘lib, u ijtimoiy yovuzlikda qatnashmaslikni afzal ko‘radi, garchi majbur bo‘lsa ham, lekin u doimo ijtimoiy, sinfiy yovuzlikka qarshi turadi.

Murod Muhammad Do‘st Mustafo obrazi bilan bog‘liq voqealarni nihoyatda xolisona ko‘radi. Hikoyada o‘zbek qishloqi mehnatkashlarining dunyoni, jamiyatni idrok etish o‘ziga xosligi, uning go‘zal va xunuk, ezgulik va yomonlik haqidagi tasavvurlari aks ettirilgan. Badiiy tasvir vositalari milliy xarakterning chuqur psixologik rivojlanishiga, milliy o‘zlikni anglashning xosligini ochib berishga xizmat qiladi.

Murod Muhammaad Do‘st “Mustafo” qissasida keksalarning milliy timsollarini yaratib, ularning qiyofasi va nutqini faqat o‘ziga xos yumor bilan aks ettirib bergan. Xarakterni tasvirlashda adib ko‘plab yozuvchilar va ko‘plab xalqlar adabiyotining badiiy tajribasini jamlagan. “Mustafo” qissasi adib ijodida, mahoratining yuksalishida, voqelikni chuqur badiiy idrok etishida muhim qadam bo‘lib, bu uning keyingi asari – “Galatepaga qaytish”da yanada yorqin va kuchli namoyon bo‘lgan.

Xususan, “Galatepaga qaytish” qissasi sovet hokimiyati mavjudligining so‘nggi yillarida ziyolilar ongida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aks ettirishi bilan qimmatlidir. Toshpo‘lat Xaybarov va uning do‘sti Samad obrazlari o‘sha davrning ikki xil ziyolilari sifatida taqdim etilgan [4, 28].

Xaybarov qissada iqtidorli va g‘ayrioddiy shaxs sifatida tasvirlangan. Uning izlanuvchan ongi hamisha tarix va zamonaviy hayotning eng xilma-xil hodisa va hodisalari mohiyatiga kirib borishga intiladi.

Qahramonlar shaxsining murakkabligi va nomuvofiqligi muallifdan mos badiiy tasvir shaklini talab qildi. Shuning uchun ham hikoyaning o‘ziga xosligi, ya’ni janr tabiati va konfliktning o‘ziga xos xususiyatlari qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan.

Hikoyada badiiy qahramonlar orqali “shaxs” va “jamiyat” psixologik tahlil qilinar ekan, inson taqdirining o‘zgarishlarini, murakkabliklarini baholash, uning intellektual va ma’naviy imkoniyatlarini

aniqlash, tashqi muhit bilan to‘qnashuvdagi hayotiy pozitsiyalarni, jamiyat ko‘rsatmalar bilan to‘qnashuvda qayta baholash zarurati insoniyatning paydo bo‘lishi uchun obyektiv shartlarni belgilab berdi.

Xulosa. Badiiy adabiyot materiali bo‘yicha shaxsni psixologik o‘rganish nafaqat shaxsiyat fenomenini, birinchi navbatda, shaxsiy mavjudlik usullarini chuqurroq tushunish uchun nazariy ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini anglash jarayonida o‘zi haqidagi bilimlar nima bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyaga mos keladigan qadriyatlar bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha, badiiy adabiyotni mazmunli o‘qish insonning ichki dunyosini kognitiv va ekzistensial tahlilning ana shunday uyg‘unlashuviga yorqin misoldir. Bugungi kunda yoshlarning yarmidan ko‘pi badiiy adabiyotdagi sevimli qahramonlariga mos ravishda hayotiy g‘oyalarni boshqaradi va amalga oshiradi. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda “shaxs” va “jamiyat”ning o‘rni va roli muhim deb his qilgan holda ijod bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. *A'zam A., Haqqulov I. Mas'ul so'z. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. – 264 b.*
2. *Muhammad Do'st M. Galatepaga qaytish. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 239 b.*
3. *Wichlan D.J. The Essays, Articles, and Lectures of Jack London // The Oxford Handbook of Jack London / ed.by J. Williams. New York: Oxford University Press, 2017. P. 177–202.*
4. *Куронов Д. Х., Шералиева М. И. Отражение «двойного сознания» в повести М. Мухаммада Доста «Возвращение в Галатепе» // Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования. 2020. Т. 6. № 3. С. 28-36. DOI: 10.18413/2408-932X2020-6-3-0-3*
5. *Лондон Дж. Сочинения: в 2 т. Т. 1. пер. с англ. М.: Терра, 2001. – 384 с.*
6. *Наумова Е.Г. Творчество и творческая личность в современной репрезентативной культуре // Гуманитарные и социальные науки. 2012. № 2. С. 356–365.*

O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA OBRAZLAR TALQININING ILMIIY O'RGANILISHI

*Mardanov Rahim G'aybulla o'g'li,
Jizzax politexnika instituti O'zbek tili va
adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
mardanovrahim42@gmail.com*

Annotatsiya. O'zbek navoiyshunosligining bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri yangi imkoniyatlarga tayanib, Alisher Navoiy va boshqa ulug' ajdodlarimiz meroslarini davr talablariga muvofiq butkul yangicha yondashuvlarda yorqin ochib berish, har tomonlama tadqiq etishdir. Navoiy she'riy merosidagi muayyan bir timsol tadqiqiga maxsus bag'ishlangan tadqiqotlar nihoyatda kamsonli, mavjudlari ham boshqa bir mavzuni ochib berishga xizmat qilishi maqsadida yo'l-yo'lakay zikr etib kelingan, olimlarimizning ilmiy izlanishlari Navoiy ijodidagi timsollarning ma'lum bir jihatlari tadqiqiga bag'ishlanganligini kuzatishdir.

Zamonaviy o'zbek navoiyshunosligida Navoiy hayoti va ijodi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Ular orasida ulug' shoir she'riyatida uchraydigan muayyan timsol, uning tarixiy ildizlari, shoir she'riyatida tutgan o'rni va ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari maydonga keldi

Ushbu maqolada Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar talqinining o'rganilishi haqida fikr yuritiladi.

Kali so'zlar: mumtoz, tadqiqot, ajdod, poetik mahorat, tasavvufiy manbalar, dunyoqarash, navoiyshunoslik, mumtoz poetika, ibora, timsol.

НАУЧНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ОБРАЗОВ В КЛАССИЧЕСКОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. Одной из актуальнейших задач узбекского навоиведения сегодня является раскрытие наследия Алишера Навои и других великих предков в соответствии с требованиями времени совершенно по-новому, всесторонне исследуя его на основе новых возможностей. Исследований, специально посвящённых изучению того или иного символа в поэтическом наследии Навои, очень мало, а существующие упоминаются вскользь, чтобы раскрыть ещё одну тему, стоит заметить, что она посвящена другим вопросам. В современной узбекской навоистике создано множество исследований жизни и творчества Навои.

Среди них на первый план выдвинулась исследовательская работа по изучению специфического символа, встречающегося в поэзии великого поэта, его исторических корней, места и значения в поэзии поэта.

В данной статье рассматривается изучение трактовки образов в поэзии Алишера Навои.

Ключевые слова: классика, исследование, родоначальник, поэтическое мастерство, мистические источники, мировоззрение, навоиология, классическая поэтика, фраза, символ.

SCIENTIFIC STUDY OF THE INTERPRETATION OF IMAGES IN CLASSICAL UZBEK POETRY

Abstract. One of the most urgent tasks of Uzbek Navoi studies today is to clearly reveal the heritage of Alisher Navoi and other great ancestors in accordance with the requirements of the time, in a comprehensive way, based on new opportunities. There are very few studies specifically dedicated to the study of a specific symbol in Navoi's poetic heritage, and the existing ones are mentioned in passing in order to reveal another topic. It is to observe that it is dedicated.

In modern Uzbek Navoi studies, many studies on Navoi's life and work have been created. Among them, the research works on the specific symbol found in the great poet's poetry, its historical roots, its place and importance in the poet's poetry have come to the fore.

This article discusses the study of the interpretation of images in the poetry of Alisher Navoi.

Keywords: classic, research, ancestor, poetic skill, mystical sources, worldview, navoiology, classical poetics, phrase, symbol.

Kirish. Bugungi kungacha o'zbek va jahon navoiyshunoslari katta ishlarni amalga oshirdi. O'tmish qaramlik davri sharoitining so'nggi davrida mafkuraviy asosda dahshatli qirg'in-qatag'onlar deyarli bo'lmasa-da, dahriyona kommunistik mafkuraning yalpi (total) hukmronligi ijtimoiy-gumanitar fanlarni to'liq o'z aqidalari chegarasida tutib turdi. Nafaqat xolis gap aytish qiyin edi, balki buning uchun axborot imkoniyatlari ham o'ta cheklangan edi. Bugungi hurlik davrida endi ko'p narsalarni qayta ko'rib chiqish imkoni paydo bo'ldi. Axborot vositalarining takomillashuvi ham ilm ahliga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbek navoiyshunosligining bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri ham shu yangi imkoniyatlarga tayanib, Alisher Navoiy va boshqa ulug' ajdodlarimiz meroslarini davr talablariga muvofiq butkul yangicha yondashuvlarda yorqin ochib berish, har tomonlama tadqiq etishdir. Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek: *"Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak[1]"*.

Navoiyning dunyoqarashi, ijod va go'zallikka bo'lgan estetik munosabati, falsafiy va filologik qarashlari, poetik mahorati, ijodiy metodi va uslubi, adabiy muhit bilan aloqasi va uning shoir faoliyatiga ta'siri o'zbek va xorij olimlari tomonidan sarmahsul o'rganilgan. E.E.Bertels, Oybek, S.Ayniy, M.Shayxzoda, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallayev, A.Rustamov, S.Erkinov, T.Jalolov, Y.Ishoqov, A.Valixonov, A.Shomuhamedov, A.Hojiahmedov, S.G'aniyeva, A.Mirzayev, S.Ivanov, Ali Asqar Hikmat, Rukniddin Humoyun Farrux, N.Komilov, I.Haqul, M.Imomnazarov, M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, A.Erkinov, S.Olim kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari[2] navoiyshunoslikka qo'shilgan bebaho hissadir. Shuningdek, XXI asrning birinchi o'n yilligida navoiyshunoslar orasida D.Salohiy, N.Bekova, D.Yusupova, Z.Mamadaliyeva, M.Tojiboyeva, S.O'tanova, E.Nasrullayev singari olimlarning tadqiqotlari katta avlod navoiyshunoslar boshlagan xayrli ishning munosib davomi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiy she'riyatida obrazlar talqini bo'yicha himoya qilingan ishlar tanlab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Turkiy xalqlar og'zaki ijodiyotida samoviy timsollarga juda ko'p o'rinlarda murojaat qilingani aytilgan va doston, ertak, qo'shiqlardan turli misollar keltirilgan. Masalan, Ahmad Yassaviy, Boborahim Mashrab, Zahiriddin Muhammad Bobur she'rlarida aks etgan samoviy timsollar ma'nolari tadqiq qilingan. Shuningdek, Jaloliddin Rumi masnaviyalarida ham samo va samoviy jismlar bilan aloqador tasvirlarning juda ko'p uchrashini ta'kidlagan dissertant Qur'oni karimda yulduzlar, osmon va sayyoralar bilan bog'liq oyatlar kelgan sura nomlarini sanagan. Keyingi o'rinlarda "Qisasi Rabg'uziy" va "Qutadg'u bilig"ga murojaat qilgan muallif ularda uchraydigan samoviy timsollar haqida fikr yuritib, bu bejiz emasligi, aniq g'oya, yorqin ma'noni anglatishga xizmat qilganiga e'tibor qaratgan.

Navbatdagi bo'limda olim XIV-XV asrlarda o'zbek she'riyatida samoviy jismlarning badiiy timsol sifatida qo'llanishi bilan bog'liq ba'zi jihatlarga to'xtalgan. Dissertant Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy ijodida samoviy jismlarning badiiy timsol sifatida qo'llanishiga nazar tashlab, bevosita Navoiy ijodida bu holatning aks etishini tahlil qilgan.

Ikkinchi bob "She'riyatda quyosh va oy timsollaridan foydalanishdagi Alisher Navoiyning badiiy mahorati" deb nomlanib, dastlabki bo'limda shoir she'riyatida quyosh va oying badiiy timsol sifatida qo'llanilishidagi o'ziga xosligi va mahorati tahlilga olingan. Dissertant dastavval "Badoe' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya"dagi qaysi she'rlarda samo bilan aloqador so'z va timsollarning uchrashi bilan bog'liq raqamlarni keltirgan. Mazkur devonlar tarkibidagi g'azallarda quyosh va oy timsollari ifodalagan ma'no, qo'llanish o'rinlari aniq misollar bilan asoslangach, tadqiqotchi hamd, na't g'azallarda keladigan quyosh va oy timsollarini, quyosh va oy timsolida boshqa payg'ambarlar siymolarining tasvirlanishini, quyosh va oy timsollarining burjlar timsollariga bog'lab qo'llanganini tahlil etish lozim, degan xulosaga kelgan hamda keyingi bo'limlarda aynan shu masalalarga atroflicha to'xtalishga harakat qilgan.

Shu tariqa belgilab olingan tartibda izlanishlar amalga oshirilgan va olim o'z qarashlarini baytlar vositasida dalillashga intilgan.

Adabiyotshunos N.Bozorova 2002-yilda filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun filolofiya fanlari doktori, professor I.Haqulov rahbarligida "Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi ("Badoe' ul-bidoya" asosida)" nomli dissertatsiya yoqladi. Unda Alisher Navoiy she'riyatida ko'ngil obrazi anglatgan ma'nolar "Badoe' ul-bidoya" devoni asosida ko'rsatilib, devondagi she'rlar asosida ko'rsatilib, devondagi she'rlar asosida Alisher Navoiyning ruhoniyyat, borliq va odam haqidagi qarashlari tadqiq qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Ko'ngil obrazining tarixiy ildizlari va tadrijiy takomili" deb nomlanib, unda dastlab ko'ngil so'zi va u anglatgan lug'aviy, istilohiy ma'nolar haqida so'z boradi. Lug'atlarda

berilgan ma'nodan so'ng xalq og'zaki ijodi, xususan, maqollar, naqlar hamda xalq qo'shiqlarida ko'ngilning obraz sifatida namoyon bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Undan so'ng O'rxun bitiklarida, uyg'ur matnlarida, "Devoni lug'otit-turk"da, "Qutadg'u bilig"da ko'gil so'zi anglatgan ma'no, unga yuklangan zohiriy va botiniy yuk izohlanishi barobarida tasavvufda ko'ngil anglatgan mazmun ham tahlil qilingan. Xususan, imom G'azzoliyning ko'ngil bilan bog'liq qarashlaridan ko'chirma keltirilgan va turk olimi Umur Jeylonning ko'ngil haqida sanab o'tgan darajalariga murojaat qilingan.

Bundan tashqari, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy kabi shoirlar ijodida ko'ngil so'zining obraz darajasiga ko'tarilgani turli iqtiboslar yordamida asoslangan.

Ikkinchi bob "Badoe' ul-bidoya"da ko'ngil obrazi: hol, haqiqat va talqin" deb nomlangan bo'lib, muallif mavzu ichiga kirishga harakat qilgan. Dastlab ko'ngil bilan bog'liq ba'zi fikrlar bayon etilib, Jomiy, Hofiz Sheroziydan ko'ngil so'zi ishtirok etgan baytlar keltirilgan va "Badoe' ul-bidoya"dan o'rin olgan "Ko'ngil" radifli o'nta g'azal mavjudligi aytilgan. Shuningdek, shoir ko'ngil so'zi bilan ma'nodosh bo'lgan dil, qalb, yurak, xotir kabi so'zlarni ham qo'llaganini ta'kidlab, isbot tariqasida baytlar keltirilgan.

Yakuniy qismda Alisher Navoiy she'riyatidagi "ko'ngil" obrazi tahlili bo'yicha xulosalar chiqarilgan.

Adabiyotshunos K.Mullaxo'jayeva 2005-yilda filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun filologiya fanlari doktori N.Komilov ilmiy rahbarligida «Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'at uyg'unligi («Badoe' ul-bidoya» devoni asosida)» mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qildi. Tadqiqotchi ilmiy ishining "Navoiy g'azallarida tabiat tasviri bilan so'fiyona qarashlar ifodasidagi uyg'unlik" deb atalgan uchinchi bobida shoirning oshiqona g'azallari mohiyatini tashkil etadigan so'fiylik qarashlari ifodasida tabiat tasvirining tutgan o'rniga alohida to'xtaladi. Tadqiqotchining kuzatishicha, shoir tabiat mavzusidagi g'azallarida tafri', tashxis, tashbeh, tanosub, talmeh kabi san'atlar faol qo'llanilgan bo'lib, ularda shoirning konseptual qarashlari aks etgan. Shuningdek, mazkur yo'nalishdagi she'rlarda eng ko'p murojaat etilgan subh, mehr (quyosh), bahor, kuz, qish, suv, baliq, hubob (ko'pik), kema singari timsol va tushunchalar katta ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Tadqiqotchi Z.Mamadaliyeva filologiya fanlari doktori, professor N.Komilov rahbarligida 2011-yilda filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun "Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi" mavzusidagi ilmiy ishini yoqladi. Unda "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar, ularning kleib chiqish tarixi, mohiyati, Alisher Navoiyning novatorlik mahorati dastlab ibn Sinoning "Tayr qissasi", so'ng bevosita Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonlari bilan qiyoslash asnosida atroflicha yoritilib, izohlab berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Tasavvuf adabiyotidagi ramziy obrazlar" deb nomlangan bo'lib, uning dastlabki faslida turkiy va forsiy xalqlar epik adabiyotidagi ramziylik xususida so'z boradi. Mazkur faslida ramziylik ildizlari tahlil qilinib, uning kelib chiqishi Qur'oni karimga borib taqalishi ta'kidlanadi va bu fikr muayyan oyatlar bilan asoslanadi. Shuningdek, ushbu qismda ramziy yo'nalishda yaratilgan "Tayr qissasi", "Hayy ibn Yaqzon" hamda "Salomon va Ibsol" asarlari tahlil etilgan. Jaloliddin Rumiyaning "Masnaviyi ma'naviy", Abdurahmon Jomiyning "Salomon va Ibsol" asarlaridagi timsollar zamiridagi ramziy mazmun tadqiq etilgan.

Ikkinchi fasl "Navoiygacha bo'lgan turkiy mumtoz adabiyotda ramziy obrazlar" deb atalib, unda qadimgi turkiy xalqlar adabiy yodgorliklaridagi ramziy timsollar mohiyati va asosi yoritib berilgan. Shuningdek, "O'g'uznoma", "Qutadg'u bilig", "Qisasi Rabg'uziy" kabi mumtoz asarlardagi ramziy timsollar tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlarning badiiy talqini"ga bag'ishlanib, dastlab "Hudhud obrazining talqini va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari" haqida so'z yuritiladi. Dostondagi majoziy obraz hisoblangan Hudhudning adabiyotga olib kirilishi tadqiq etiladi, ushbu masala yuzasidan bildirilgan xilma-xil talqinlar o'zaro qiyoslanadi. Shuningdek, Hudhud timsolida Alisher Navoiy tasavvur qilgan komil inson fazilatlarini, irfoniy mushohadalar ifodasi namoyon bo'lishi ta'kidlanib, Fariddin Attor hamda Alisher Navoiy talqinidagi Hudhud timsolining farqlari ochib berilgan. Bobning ikkinchi qismi "Simurg' obrazi va uning talqinlari" deb atalib, Sharq adabiyotida Simurg' timsoli xilma-xil ma'nolarni anglatishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotchi ushbu timsol vositasida ifodalangan ma'nolarni o'zaro qiyoslab sharhlaydi, tahlil qiladi, Navoiy va Attor taasvirlagan Simurg'ni o'zaro solishtiradi va ushbu timsolda ikki mutafakkirning individual qarashlari, tasavvufga bo'lgan munosabati aks etishini asoslab beradi.

Bobning "Dostondagi boshqa qushlar obrazlari – haqiqat va majoz tadqiqi" deb atalgan faslida Fariddin Attor va Navoiy dostonlaridagi qushlar timsollari tahlil qilinib, ular zamiridagi maqsad va ma'no ko'rsatib beriladi.

"Ramziy obrazlar va orifona talqin" deb nomlangan uchinchi bobda dastlabki fasl "Yetti vodiy obrazi: g'oya va tasvir" masalasiga bag'ishlanadi. Unda "Lison ut-tayr" dostonidagi yetti vodiy atroflicha tahlil

qilinib, ular anglatgan ma'nolarga e'tibor qaratiladi. Bobning ikkinchi fasli "Hikoyatlarda ramziy obrazlar talqini" deb atalib, unda "Lison ut-tayr"da keltirilgan hikoyatlar uch guruhga bo'lib tasniflanadi:

- 1) Hudhud qushlarni Simurg' yo'lga targ'ib qilish paytida aytilgan hikoyatlar;
- 2) tarixiy shaxslar va ular bilan bog'liq ibratli fikrlar aks etgan hikoyatlar;
- 3) muallifning falsafiy-tasavvufiy fikrlarini bayon etish uchun keltirilgan hikoyatlar.

Adabiyotshunos olim Nodir Ramazonov Navoiy ijodiga oid tadqiqotlarini 2015-yilda "Fan" nashriyatida chop etilgan "Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi" monografiyasida jamladi. Ushbu monografiya kirish, uch bob va xulosa, shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dastlabki bob "XIII-XIV asrlarga oid tasavvufiy manbalar hamda Navoiy salaflari ijodi va zamonaviy adabiyotshunoslikda faqr talqini" deb nomlanadi va unda XIII-XIV asrlarga oid manbalar, xususan, "Kashf ul-mahjub", "Al-luma", "SHarhi ta'arruf", "Misboh ul-hidoya va miftoh ul-hidoya" kabi asarlardagi, shu bilan birga, XX asr o'zbek adabiyotshunosligida mavjud bo'lgan faqr va faqir talqiniga doir qarashlar o'rganilgan.

Adabiyotshunos olim N.Ramazonovning ta'kidlashicha, dunyo ganjidan ko'ngil ganji tomon yuz burish – ma'naviy takomil sari tashlangan ilk qadam. Shuningdek, dunyo moliga ega bo'lish havasidan qaytib, ko'ngil asrori, qalb xazinasi ne'matlaridan bahramandlikka intilish ilohiy irfonning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Bunday fikrlarni olg'a surgan olim Navoiy she'riyatida tasvirlangan faqr maslagi irfonning ilk sharti, ma'rifat ostonasidir, degan haqli xulosaga keladi[3].

Tadqiqitchi N.Ramazonov Navoiyning shoh va faqir obrazlari yonma-yon kelgan baytlaridan shoir ushbu ikki obrazni zidlantirish orqali faqr va saltanatning mohiyatini ochib berishi oydinlashishini qayd etadi, aynan ushbu obrazlar she'rda o'zaro munosabatga kirishar ekan, faqr va shohlikning asl mohiyati ochila boradi, unga ko'ra agar podshoh insonlar tomonidan bunyod etilgan saltanat egasi bo'lsa, faqr Olloh saltanatining egasidir; podshoh va faqr obrazlarining o'zaro munosabati XV asr kishilarining qadriyatlarini haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

Olim Alisher Navoiy lirikasida alohida ishlangan obrazlar qatoriga dunyo obrazini ham kiritadi. Shoir insonning ma'naviy kamolotiga mone'lik qiladigan to'siqlar sirasiga "dahri dun"ni, ya'ni dunyoni qo'yadi. Olimning qayd etishicha, shoir faqrlik vositasida komillik sari intilgan kishi dunyoga ko'ngil bermasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Olim fikrlarining isboti sifatida ulug' shoir baytlariga murojaat qiladi: mutafakkir shoirming qanoaticha, donolikning belgisi boylikka mayl ko'rgizishdan voz kechib, faqrni kasb etmoqlikdir:

*Jahonda faqr kasb et, mayl ko'p qilma g'ino sari,
Ki, mundin oz etibdur orzu farzona, andin ko'p. (F.k.)*

Zero, dunyoga ko'ngil berish g'aflatga – mayda-chuyda o'tkinchi tashvishlar bilan o'ralashib qolishga olib keladi. Haqiqiy ma'naviy xazina esa faqr orqali qo'lga kiritiladi. Navoiy bir g'azalida dunyoni arus – yosh, go'zal kelinga o'xshatib shunday, deydi:

*Dunyo zulfini tutgan ne ogah faqrdin,
Ganj istamas ulkim, yilon tutmoq bila xursand erur. (G'.s.)*

Musharrih baytdagi "dunyo arusi" – inson ko'ngli, aqli, shuurini o'ziga tortuvchi, chorlovchi barcha moddiy narsalarning umumlashma timsoli hisoblanishini qayd etadi. Darhaqiqat, dunyoning yosh bir go'zal zulfiga o'xshovchi jozibali ko'rinishi odamni o'ziga tortadi. Baytdagi zulf (o'rilgan soch) esa ilonga qiyoslanmoqda. G'azalda dunyo zulfini tutgan kishi asl ma'naviy ganjdan, ya'ni faqrdan – ogoh emas, balki uni dunyo arusi zulfi gumon qilib, aslida ilon tutish (dunyoga bilan mashg'ullik) bilan ovoradir deyilmoqda, binobarin, dunyo arusi zulfini tutgan (dunyoga dil bergan) inson ilon tutishdek xavfli mashg'ulot bilan ovora kishidir. Haqiqiy ganj – xazina esa borliqning botini, mohiyatida yashirindir. Ammo unga etib borish uchun uning asl maqsad sari borishga to'siq bo'luvchi zohiriy belgi va xususiyatlaridan xoli bo'lish kerak. Xazina bor joyda ilon-ajdaho in qo'rganidek, mohiyati ilohiy irfondan iborat bo'lgan borliq haqiqati ham tashqi to'siqlar bilan ihotalangan. Ushbu to'siqlardan o'tishda faqr asosiy yo'ldir. Demak, faqr asosiy e'tiborni ahamiyatsiz narsalardan mohiyatga tomon tortuvchi vosita, boshqacha aytganda, faqr mohiyatbinlik falsafasi sanaladi[3].

Ikkinchi qismda esa Navoiyga qadar forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan shoirlar – Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Attor, Rumi, Dehlaviy, Jomiy, Yassaviy, Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy asarlaridagi faqr obrazi tadqiq etilgan. Ikkinchi bobda faqir obrazining shoir lirikasida tutgan badiiy-estetik mavqeyi har bir devon misolida ijodkorning ijodiy evolyusiyasi bilan muvofiq tekshirishga harakat qilingan, bundan tashqari, faqir obrazining podsho, zohid va dunyo kabi boshqa obrazlar bilan lirikadagi munosabati ham o'rganilgan.

Uchinchi bobda "Xamsa" qahramonlari va faqr, "Lison ut-tayr"dagi faqr maslagi va faqr obrazi kabi masalalarga oid mulohazalar bayon qilingan.

Adabiyotshunos olim U.Qobilov o'zining "Alisher Navoiy she'riyatida mazmun va manzara uyg'unligi" nomli maqolasida[4] Hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub "Ayt" radifli g'azalini tahlil qilish orqali Sharq she'riyatining mumtoz namunalarida badiiy manzara va lirik ifoda monandlik kasb etishini isbotlashga intiladi. Maqolada gap badiiy manzara va lirik ifoda haqida borsa-da, unda ana shu ikki tushunchani yaxlit holga keltiradigan, ularni o'zaro bog'laydigan vosita vazifasini Nasimi subh – tong shamoli timsoli o'taganligini qayd etadi. Zero, g'azal "nasimi subh" – tong shamoliga murojaat bilan boshlanadi. "Shamol", "bodi sabo", "shabada", "el" timsol-obrazlari mumtoz she'riyatda tez-tez ko'zga tashlanib turishini qayd etarkan, olim subhning bu sinonimik qatorning badiiy talqindagi asosini tashkil etishini, aslida, "subh" tabiatan tongda gullar taratgan xushbo'y va muattar bo'ylarni chor atrofga yetkazish xususiyatiga ega ekanligiga e'tiborni qaratadi[4].

Aynan shu xislati tufayli shamol badiiy talqinda "nomachi qushlar", kabutar, Hudhud, Jabroili amin kabi obrazlar bilan tamsiliy bir xillik hosil qiladi. Bu o'rinda ularning "xabardor etish", "ogoh aylash" vazifalari ular orasidagi ichki o'xshashlikni ta'minlaydi. Misol uchun kabutar – eldan elga, mamlakatdan mamlakatga, do'stdan do'stga, oshiqdan ma'shuqaga xabar olib borsa, Hudhud Bilqis pari haqida Sulaymonga xabar keltiradi. Jabroil esa Haq payg'omini nabiyarga yetkazadi. Badiiy talqinlarda esa ko'p o'rinlarda darakchi vazifasini "nasim" bajaradi.

Ikkinchi tomondan esa o'sha xabar ma'rifiy talqindagi nafas bilan monandlashadi. Bunda uyg'otish, jonbaxshlik, ruhafzolik nazarda tutiladi. Bunda bir soniya bo'lsin birlik shavqi bino bo'ladi. U tasavvuf adabiyotida "vahdat mayi" deb yuritiladi.

XULOSA. O'zbek mumtoz she'riyatidagi obrazlar talqinining o'rganilishi bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- birinchidan, Navoiy she'riy merosidagi muayyan bir timsol tadqiqiga maxsus bag'ishlangan monografik tadqiqotlar nihoyatda kamsonli, mavjudlari ham boshqa bir mavzuni ochib berishga xizmat qilishi maqsadida yo'l-yo'lakay zikr etib kelingan, olimlarimizning ilmiy izlanishlari Navoiy ijodidagi timsollarning ma'lum bir jihatlari tadqiqiga bag'ishlanganligini kuzatamiz;

- ikkinchidan, zamonaviy o'zbek navoiyshunosligida filologiya fanlari nomzodligi uchun Navoiy hayoti va ijodi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Ular orasida ulug' shoir she'riyatida uchraydigan muayyan timsol, uning tarixiy ildizlari, shoir she'riyatida tutgan o'rni va ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari maydonga keldi;

- adabiyotshunos N.G'afforov filologiya fanlari doktori, professor A.Hayitmetov rahbarligida 1999-yilda filologiya fanlari ilmiy darajasini olish uchun "Alisher Navoiy "Xamsa"sida so'fiylar timsoli" mavzusidagi dissertatsiyani yoqladi. Unda Navoiy "Xamsa"sidagi so'fiylar obrazi maxsus, har tomonlama o'rganilgan;

- uchinchidan, adabiyotshunos H.Eshonqulov 1999-yilda filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun filologiya fanlari doktori, professor R.Vohidov rahbarligida "Alisher Navoiy she'riyatida samoviy timsollar ("Badoe' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlari asosida)" mavzusida dissertatsiya yoqladi. Unda Alisher Navoiy she'riyatida tilga olingan quyosh va oy kabi samoviy timsollar anglatgan mazmun-ma'no tadqiq qilingan;

- to'rtinchidan, adabiyotshunos N.Bozorova 2002-yilda filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun filolofiya fanlari doktori, professor I.Haqqulov rahbarligida "Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi ("Badoe' ul-bidoya" asosida)" nomli dissertatsiya yoqladi. Unda Alisher Navoiy she'riyatida ko'ngil obrazi anglatgan ma'nolar "Badoe' ul-bidoya" devoni asosida ko'rsatilib, devondagi she'rlar asosida ko'rsatilib, devondagi she'rlar asosida Alisher Navoiyning ruhoniyat, borliq va odam haqidagi qarashlari tadqiq qilingan;

- beshinchidan, milliy navoiyshunosdigimizda adabiyotshunos K.Mullaxo'jayeva "Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'at uyg'unligi ("Badoe' ul-bidoya" devoni asosida)" (2005) mavzusida, tadqiqotchi Z.Mamadaliyeva "Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi" (2011) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladilar. Adabiyotshunos olim Nodir Ramazonov esa o'z tadqiqotlari xulosasini "Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi" (2015) nomli monografiyasida jamladi;

- oltinchidan, Hazrat Navoiy she'riyatida uchraydigan timsollar yuzasidan to'raligicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi bu boradagi ishlarning naqadar ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, "XXI asr" gazetasi, 2018-yil, 29-dekabr, 52-son, 4 b.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. Избр. Труды. Том 3. –М., 1965. С. 37–38;
3. Ramazonov N. Alisher Navoiy ijodida faqrning badiiy talqiniga doir/Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, 2019, 119-125-betlar.
4. Qobilov U. Alisher Navoiy she'riyatida mazmun va manzara uyg'unligi./ Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, 2019, 99-102-betlar.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 2-jild (XV asrning ikkinchi yarmi). - T.: Fan, 1977.
6. Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. (1-kitob) – T., "Tamaddun", 2018, 166-b.

ANVAR OBIDJONNING YUMORISTIK SHE'RLARIDA AN'ANA VA TAKOMIL**Qobilova Aziza Ahrorovna,***Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**a.a.qobilova@buxdu.uz*

Annotatsiya: O'zbek bolalar she'riyati tarixida yumor yaratish an'analari turli avlod bolalarining xarakter-xususiyatlari, tafakkuri, jamiyat va tabiatga munosabati yanglig' o'zgarib, turlanib, badiiy-estetik vazifasining takomillashib kelganligini anglash mumkin. Aytaylik, uzoq yillar o'zbek bolalar she'riyatida aqlli, mard, jasur, qo'rqmas, adolatparvar, vijdonli, vatanparvar bolalar bilan birga sho'x-shodon, o'yinqaroq, to'polonchi, dangasa, yalqovligi, yolg'onchi, ochofat, hayvonlarga, jonzotlarga ozor beruvchi rahm-shafqatsiz bolalar obrazlari yaratilishida yumorning o'rni va ahamiyati belgilangan bo'lsa, keyinchalik, hayvonot olami, hasharotlar ko'proq yumor obyektiga aylangan. Maqolada o'zbek bolalar she'riyatida yumor yaratishning an'analari va takomili, ahamiyati hamda badiiy-kompozitsion xususiyatlari Anvar Obidjon ijodi misolida ochib berilgan. Shuningdek, kulgi yumorning asosiy quroli sifatida qaralsa ham o'ziga xos tamoyillari oydinlashtirilgan.

Kalit so'zlar: yumor, kulgi, syujet, motiv, obraz, an'ana, tamoyil, poetik, badiiy detal, hajv, satira, obyekt, multiifoda

**ТРАДИЦИИ И СОВЕРШЕНСТВО В ЮМОРИСТИЧЕСКИХ СТИХАХ
АНВАРА ОБИДЖАНА**

Аннотация: В истории узбекской детской поэзии можно понять, что менялись и разнообразились традиции создания юмора, особенности детей разных поколений, их мышление, отношение к обществу и природе, совершенствовалась их художественно-эстетическая функция. Скажем, на протяжении многих лет в узбекской детской поэзии наряду с умными, смелыми, смелыми, бесстрашными, справедливыми, сочувственными, патриотически настроенными детьми укоренились образы радостных, шаловливых, буйных, ленивых, лентяев, лжецов, клеветников, беспощадных детей, обижающих животных. Когда роль и значение юмора были установлены, позже, животный мир, насекомые в большей степени стали объектами юмора. В статье раскрываются традиции и совершенство создания юмора в узбекской детской поэзии, его значение и художественно-композиционные особенности на примере творчества Анвара Обиджона. Также, хотя смех рассматривается как основное оружие юмора, уточняются его конкретные принципы.

Ключевые слова: юмор, смех, сюжет, мотив, образ, традиция, принцип, поэтика, художественная деталь, юмор, сатира, объект, множественное выражение.

ANVAR OBIDJAN'S HUMORISTIC POEMS TRADITION AND IMPROVEMENT

Abstract: In the history of Uzbek children's poetry, it can be understood that the traditions of creating humor, the characteristics of children of different generations, their thinking, attitude to society and nature have changed and diversified, and their artistic and aesthetic function has improved. Let's say that for many years in Uzbek children's poetry, along with intelligent, brave, brave, fearless, fair, conscientious, patriotic children, the images of joyful, playful, riotous, lazy, lazy, liars, slanderers, merciless children who hurt animals and creatures have been created. When the place and importance of humor was established, later, the animal world, insects became more objects of humor. The article reveals the traditions and perfection of humor creation in Uzbek children's poetry, its importance and artistic-compositional features on the example of Anvar Obidjon's work. Also, although laughter is considered as the main weapon of humor, its specific principles are clarified.

Key words: humor, laughter, plot, motive, image, tradition, principle, poetic, artistic detail, humor, satire, object, multiple expression

Kirish. O'zbek bolalar she'riyati bir asrdan ortiqroq tarixida shakl hamda mazmun jihatdan takomillashib, rivojlanib kelmoqda. Uning tabiatida bolalar olamiga xos rang-baranglik, qiziqarlilik, yangilanishlar, janriy hamda badiiy, kompozitsion xususiyatlari taraqqiy etdi. Ayniqsa, o'tgan asr

boshlaridagi, mustabid sho‘ro tuzumi hamda istiqloq davri o‘zbek bolalar she‘riyatidagi badiiy estetik vazifalar turlicha bo‘lgani ma‘lum. Jumladan, yumor bolalar she‘riyatining asosini tashkil etishiga qaramay, mohiyatan serqirraligi kuzatiladi. Shu ma‘noda, Anvar Obidjonning yumor yaratish an‘analari o‘zbek bolalar she‘riyatini ijodiy yangilagan, taraqqiyot bosqichiga ko‘targani bilan ta‘kidga loyiq. A.Obidjon T.Adashboyev, Q.O‘tayeov, R.Tolibov, A.Ko‘chimov, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, D.Rajab, A.Akbar kabi istiqloq davri bolalar shoirlaridan yumoristik she‘rlar yaratishidagi o‘ziga xos poetik kashfiyotlari, badiiy-kompozitsion, obraz va detallarning betakrorligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodi. A.Obidjon ijodiga oid ba‘zi tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da shoirning aynan yumor yaratish mahorati bilan bog‘liq masalalar, uning badiiy-estetik vazifalari, tarixiy-tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari monografik tizimda yaxlit o‘rganilmagan. Ushbu maqolada shoir ijodi tavsiflash, tasniflash, qiyoslash metodlar orqali tahlil etildi.

Muhokama. Adabiyotshunoslikda hajviy asarlar ikkiga – satirik va yumoristik asarlarga ajratib o‘rganilishi, hajviya deyilganda satirik va yumoristik ruhda bitilgan asarlar majmui nazarda tutilishi qayd etilgan. Jumladan, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da satira va yumorning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z borib, satiraning yumordan farqi u o‘z obyektida ayrim nuqsonlar, tuzatsa bo‘ladigan kamchiliklarni emas, balki butunlay tanqid va inkor etiladigan mohiyatni – jamiyat va uning taraqqiyoti uchun jiddiy zarar keltiradigan, ijtimoiy xavfli illatlarni ko‘rsatishi, shunga ko‘ra, satira tuzatishni emas, butunlay yo‘qotish maqsadini qo‘yishi ta‘kidlangan. Yumor esa kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, do‘stona, beg‘araz kulish, kulgililik ochiq-oshqora namoyon bo‘lishi, ammo oshkor kulgi ostida yengil-yelpi hazil, ko‘ngilxushlik maqsadi emas, jiddiylik mavjudligi izohlanadi”

Shu o‘rinda bolalar she‘riyatidagi yumor o‘z tabiatiga, maqsadiga, badiiy estetik vazifasiga egaligini asoslashga to‘g‘ri keladi. Chunki, rus psixologi A.N.Luk yumorning ko‘pincha shafqatsiz masxara deb ta‘riflanishiga e‘tiroz bildirmagani holda hazil tuyg‘usi har qanday ta‘rifdan kengroq ekanligini qo‘shimcha qiladi

M.M.Baxtin, V.Ya.Propp, O.M.Freydenberg kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham hajvning satirik asoslari o‘rganilgan V.Ya.Propp tomonidan komik holat va kulgi muammolari borasida olib borilgan kuzatishlarda yumoristik kulgining ichki tiplari alohida tasniflangan D.P.Nikolayev tadqiqotlarida kulgi satiraning muhim quroli ekanligi atroflicha tadqiq etilgan.

Bolalar adabiyotida poetik tafakkur yangilanishiga oid tadqiqotda esa U.Jo‘raqulovning quyidagi mulohazalari keltirilgan: “Bola kattalar bilan o‘zini qiyoslaganda, o‘zida ularga nisbatan ustunlik sezsa, kula boshlaydi. Masalan, bir odam ko‘chada yiqilib tushsa, bola kuladi. Bunday kulgiga sabab, “u yiqildi, men esa yo‘q” degan avtomatik xulosadan lazzatlanishdir. Agar katta kishi katta kishining ustidan kulsa, unda bolaga xos harakat va holatlarni ko‘rgan bo‘ladi. Kulgi obyektining bolalarcha harakati uni bolalikka qaytaradi. Endi o‘zining bola emasligini anglagan kishi shu haqiqatni anglamagan kishi holatidan zavqlanadi va kuladi. Z.Freyd ushbu holatni yuzaga keltiruvchi uch jihatni alohida ta‘kidlaydi. “Birinchil holatda o‘zga odam menga bola bo‘lib ko‘rinadi, boshqasida u o‘zini boladay tutadi, uchinchisida esa o‘zimda bolaga xos holatni kuzataman. Ko‘rsatib o‘tilgan manbalarning barchasida kulgi yumorning eng asosiy xususiyati ekanligi ayonlashadi. Ammo shu bilan birga ularda kulgining beg‘araz, do‘stona, yengil, zaharxanda, shafqatsiz, mazax, fosh qilish kabi xilma-xil darajalanishi kuzatiladi. Z.Ahmedovanning bolalar she‘riyatida satira va yumorning maydonga kelish omillari yoritilgan tadqiqot ishida masxaralash vositasida kulgi ostiga olish uslubining yetakchilik qilishi ta‘kidlangan.

O‘zbek bolalar she‘riyati tarixida ham yumor yaratish an‘alari baayni turli avlod bolalarining xarakter-xususiyatlari, tafakkuri, jamiyat va tabiatga munosabati yanglig‘ o‘zgarib, turlanib, badiiy-estetik vazifasining takomillashib kelganligini anglash mumkin. Aytaylik, uzoq yillar o‘zbek bolalar she‘riyatida aqlli, mard, jasur, qo‘rqmas, adolatparvar, vijdonli, vatanparvar bolalar bilan birga sho‘x-shodon, o‘yinqaroq, to‘polonchi, dangasa, yalqovligi, yolg‘onchi, ochofat, hayvonlarga, jonzotlarga ozor beruvchi rahm shafqatsiz bolalar obrazlari yaratilishida yumorning o‘rni va ahamiyati belgilangan bo‘lsa, keyinchalik, hayvonot olami, hasharotlar ko‘proq yumor obyektiga aylangan.

A.Obidjon she‘rlari avvalo shu jihatlarga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Shoir she‘rlarining aksariyati shu ma‘noda ham kattalar-u bolalarga birdek qiziqarli. Syujetning qiziqarligini, komikligini hayvonlar va hasharotlar, predmetlar, tabiatdagi o‘simlik-u jonzotlarning xatti-harakati, “donoligi”, “zakiyligi” kulgi uyg‘otsa, uning mazmuniga singdirilgan hayotiy haqiqatlar kattalarning kulgisiga sabab bo‘ladi. A.Obidjonning shu yo‘nalishdagi she‘riy to‘plamlari o‘tgan asrning 80-yillaridan e‘lon qilina boshlagan. Jumladan. “Masxaraboz bola” deb nomlangan she‘rlar va ertaklar to‘plami bir nechta ichki turkumlarga bo‘lingan. “Osmondan tushgan sozanda”, “Bulbulning cho‘pchaklari”, “Kumush uy”, “Gurungdagi gaplar”, “G‘alati maktublar”, “Ajoyibxona”, “Shirin so‘ylar jajjivoylar” turkumidagi she‘rlar bolalar she‘riyatida

yumor yaratilishining o'ziga xos uslubi, mahorati mavjudligini asoslay oladi. To'plamdan joy olgan har bir she'rda kulgi mavjud. Ya'ni kulgining beg'araz, zaharxanda, samimiy va tabiiysi ham. Aytish joizki, tabiiy va samimiy kulgi ko'proq bolalar she'riyatida uchraydi. Zotan, A.Obidjonning "Ajoyibxona" turkumidagi she'rlarida samimiy va tabiiy kulgini yuzaga keltiruvchi omillarni kuzatish mumkin. "Guldor pufakcha" she'ri fikrimizni shu jihatdan asoslaydi. She'rning dastlabki satrlarida Ninachining guldor pufakchani topib olib, undan shinam uy qurishi, ichi yorug'ligi, tomidan chakka o'tmasligiyoq labimizda tabassum paydo qiladi. Endi unga turli hasharotlarning munosabati esa bolalarga zavq bag'ishlashining sababi- Chigirtkaning "Chir-r-roylik-ku ja!", Ho'kizning "Mo'-o'-o'jiza, qarang!", Eshakning hangu mang bo'lib "E-ha, e-ha!" deyishi mos va xos tarzda ifodalanganidadir. Shuningdek, she'rda Baqaning ko'zi kuyib, "Vaq-tim sal chatoq, Qur-r-volardim men ham uy bundan durusroq", kalondimog' xo'rozning "Qupquruq-ku bu..", Echkining "E-e.., Be-ye" deya tarifga so'z topolmagani kabilar nafaqat shu jonzoatlarning tabiiy ovozi ifodasi, balki bolalar tabiatiga xos qizg'anish, qiziqish, tomoshatalabligi aks etgani jihatidan samimiy kulgi uyg'otadi. Nihoyat she'r bolalarning o'yiniga o'xshash yakun topgani kulgilidir:

Qarg'a dedi:
Qar-r-r...
Qar-r-shi
Bo'lmasang agar
Kengaytirib ber-r-rayin,
Uyingni jigar.

So'ng pufladi pufakni
Qarg'avoy
"Qag'-qag'..."
Uy tarvuzdek bo'lgan chog',
Portlab ketdi- "Paq!"

She'rda boshdan-oyoq mana shunday samimiylik ruhi ustuvor. Garchi guldor pufakli uy oxirida vayron bo'lgan bo'lsa ham hech kimning g'ashiga tegmaydi, jahli chiqmaydi. Barchasida tabiiylik, beg'arazlik zohir. Zotan bolalarning ko'p o'yinlari ham shunday bexosdan buzilsa, qaysidir sho'xligi, bir oz noshudligi, yoxud qizg'anchiq-kuyanchiqi sabab buzilsa-da, ular bir-biridan arazlab, xafa bo'lmaydilar. Aksincha, yanada qiziqroq yangi bir o'yin boshlaydilar. Yuqoridagi she'rda ham qarg'a ataylab uyni buzmaydi, balki uyni ko'rmoqchi, kirmoqchi bo'lib keluvchilar ko'payganidan, uni kattaroq qilish istagida pufakni shishiradi. Ana shu xolis niyat uchun o'quvchi faqat "ana xolos", deb kulib yuboradi. Kimnidir ayblash, muhokama qilishga ehtiyoj sezmaydi.

Ikkinchi jihatdan she'r "Teremok" ("Uycha") deb nomlangan rus xalq ertagini esga solishi bilan an'anaviy bo'lsa, poetik ifodaning, badiiy detal- guldor pufak topilmasining hamda unga hayvonlarning sig'masligi haqidagi syujetning yangilanishi bilan jozibadorlik kasb etadi.

"Yumor" inglizcha so'z bo'lib, "xushmuomala kulgi" degan ma'noni anglatadi, deb e'tirof etadi adabiyotshunoslar. Rus tilshunosi S.I.Ojegovning izohlashicha esa yumor bir necha ma'nolarni ifodalaydi. Bular: 1. Kulgili holda ko'rish va ko'rsata olish, komik tushunish orqali biror bir narsaga munosabat bildirish. 2. Biror narsani komik holatda tavirlash san'ati. 3. Kulgi qo'zg'ovchi hazil-mutoyibaga asoslangan nutq".

Darhaqiqat, A.Obidjonning bolalar uchun yozilgan she'rlaridagi yumor ana shunday sof kulgiga asoslangan. Shoirning "Hammomdagi mojaro" she'ri ham o'quvchiga ana shunday zavq bag'ishlay oladi. Bunda ham o'rmon va dala hayvonlarining fe'l-atvori, xususiyatlari Filning kuzak pallasida qurgan hammomi voqeasida ochib beriladi. Bu hammomga Timsoh suv isitish bo'yicha bosh bo'lsa, oq Mushuk pattachi, qora It farrosh bo'lib ishga yollanadi. Hayvonlarning yuvingani hammomga birin-ketin kirgani tasvirlanadi: bevosh sichqon o'zini panaga olib, vannaga bitta chipta so'rasa, yosh Xachir "Tfu! Bugun go'ng tashib, Bo'pketdim yag'ir", Bo'ri ko'zi qildirab: "Yuvingani keldimi, Bironta Qo'zi" deya hammomga kirgach, haqiqiy tomosha boshlanadi:

Gavjum bo'ldi yuvinish-
Xonasi rosa,
Qani endi hammayam
Qilsa murosa.

Ayiq ezib Yumronni,

Chinqiratgan on.
Quva ketdi Baqani,
Jomda Suvilon.

Shu tariqa, Ho‘kiz ishqagichini qidirib baqirsa, To‘ng‘iz Echkinging lungisini yirtadi; dingquloq Quyoning sovunini Karkidon yeb qo‘ysa, Eshak Pashshani haydaydi; Ot G‘ozni turtasa, joy talashgan Tulki esa Xo‘rozni quvlaydi; Maymun Burunduq qitiqlab bezor qilgach, u yig‘lab tashqariga yo‘l oladi... So‘ngra, kiyinish xonasida bu mojaro davom etadi. Alal oqibat,

Birdan kimdir baqirdi,
“Muttaham Chivin!”
Kiyib qochgan emish u
Zebraning shimini

She‘rdagi yumor – samimiy kulgi avvalo hayvonlar uchun hammom qurilishidir. Bolalar bunga ishonishadi ham. Qolaversa, Fil, Timsohning bu hammom asoschilari ekani o‘quvchini ajablantirmaydi, ularning xartumi bilan suv tashishi, eng ko‘p suvni o‘zida jamlay olishi bu haqiqatni oydinlashtiradi. Qolaversa, hammomdagi mojaroning kichkintoylar kulgisiga chinakam sabab bo‘la olishi tabiiy.. Hayvonlarning to‘polonchiligi, bir-biriga xalaqit berishi, hatto kiyimlarning almashinib qolishi aynan ular tabiatiga xos bo‘lgani uchun ham zavqovardir. Chivinning Zebra shimini kiyib ketishidagi mubolag‘a esa baayni quvnoq yumor ifodasi. Shoir voqeadagi nomutanosiblik asosida qah-qaha kulgini keltirib chiqargan.

A.Obidjonning bu she‘rini o‘qish jarayonida kayfiyat yaxshilanadi, ko‘ngil huzur qiladi. Aytmoqchimizki, bu sof ruhiyatga, ko‘ngilga bog‘liq hodisa. Ulardan ichki ma‘no qidirishdan ko‘ra, o‘quvchi ruhiyatini tozartirish ma‘nan yuksaltiradi. Shu sababli yumor san‘atning kulgiga asoslangan turi ekanligi va u fikrni komiklik va hazil bilan hech kimning shaxsiyatiga va ko‘ngliga tegmaydigan hazil orqali kulgili voqelik tasvirini yaratishi jihatdan ham tarbiyaviy ahamiyat kasb eta oladi.

“Shirin so‘ylar jajjivoylar” turkumidagi she‘rlar esa aynin ikkidan besh yoshgacha bo‘lgan kichkintoylar olamining badiiy ifodasi ekanligi bilan e‘tiborni tortadi. Ma‘lumki, rus adabiyotshunosligida K.Chukovskiy shu yoshdagi bolalarning tasavvuri va til xususiyatlariga oid alohida tadqiqot yaratgan. Ta‘bir joiz bo‘lsa, A.Obidjonning mazkur turkumdagi to‘rt satrli she‘rlarini aynan shunday xususiyatni o‘zida jamlovchi yumoristik ifodasi deyish mumkin. ya‘ni har bir she‘rda shu yoshdagi jajjilarning u yoki bu fe‘l-atvori mayin tabassum ila chizib beriladi: – Qo‘lingdagi

Mag‘iz qancha?
– Senga bitta
Menga ancha. (“Aniq hisob”)

–Konfeti bor...
– Ta‘mi qalay?
Ko‘z yumib tur,
Bitta yalay... (“Ko‘rmagin ham...”)

–Bo‘lsang agar
Sen botir,
Mendan oldin
Soch oldir. (“Sartaroshxonada”)

Ke oshnajan,
Qo‘limdan tort.
–Avval loyga
Durustroq bot. (“Yordam yordamdek bo‘lsin”)

Ko‘rinadiki, jajji she‘rlarda jajji bolalarning o‘rni kelsa donoligi, soddaligi, mug‘ombirligi, qo‘rqoqligi, yoxud, do‘stlik va botirlikni qanday talqin qilishi komik yo‘sinda ochib berilgan. Ya‘ni ba‘zan oiladagi, atrofdagi muhit ta‘siridami kichkintoylar ham ba‘zan bilib-bilmay kattalarga taqlid qiladilar: ayyorlikni, soxta do‘stlikni, o‘zini foydasiga hisoblashni namoyon qiladilar. Shoir aynan shunday bolalar xarakterini yengil kulgi ostida fosh qilmoqda. Yoki, aksincha, bolalardagi chapani, soddalikni yumor obyektini qilib oladi:

– Aholining qalini
Qaysi joyda To‘lanboy?

– U menimcha domlajon,
O‘n beshinchi tramvay. (“Mahalliy geografiya”)

O‘zi to‘rt misra, asosan sakkiz va o‘n so‘zdan iborat bu kabi jajji ijod namunalarning har biri mustaqil syujet, sarlavhaga egaligi jihatdan ham she‘r deyishga loyiq, albatta! A.Obidjon bunday namunalarni baayni 3-4 yoshli kichkintoylar bilan qilinadigan dialogik suhbatlar tarzida aks ettirgan. Qolaversa, ularning yod olishi, tushunishi, savod chiqarishiga mos va xosdir. Ya‘ni, shoir nafaqat she‘r mazmunidagi soddalik va komiklik orqali, balki uning kompozitsion xususiyatida ham multiifoda - adreslilik mavjud. Shuning o‘zi ham ijodkorning yumor yaratish mahoratini namoyon qiladi. Ya‘ni, predmet, narsalarni kichraytirib tasvirlashdan tashqari, kichik satrlar, she‘riy shakllarda ham yumor yarata olish o‘ziga xos iste‘dod namunasidir.

Darhaqiqat, A.Obidjon serqirra shoir, yozuvchi, bolalar dramaturgi ham. U ijodning barcha turida ayniqsa bolalar uchun boy arsenalga ega asarlar yarata oldi. Jumladan, bolalar she‘riyatining poetik mazmuni, badiiy-kompozitsion xususiyatlarini yangilashda shoirning alohida o‘rni bor. Yumor yaratishdagi o‘ziga xos mahorati-da rang-barang. Uning ramziy ma‘no tashuvchi, katta dardlarni komik obrazlar orqali ifodalovchi she‘rlari ham juda katta turkumni tashkil qiladi. Majoziy-allegorik obrazlar vositasida jamiyatdagi, ijtimoiy tuzumdagi illatlar fosh qilinadi. Ammo bolalarning beg‘ubor olami nazarda tutilsa, yumorning samimiyligiga ehtiyoj kattaligi anglashiladi. Nega inson yoshi ulg‘aygani sari ruhiyatini tiniqtirishi, dam olishi, kayfiyatini ko‘tarish uchun ko‘pincha bolalikni xotirlaydi? Sababi, aynan bolalikdagi jo‘shqinlik, sho‘xlik, dunyo tashvishlaridan uzoqlik, xayolot va ishonchning mavjudligi bir umr ohanoabodek o‘ziga chorlayverishidir. Demak, bolalar she‘riyatidagi yumor ham shu ma‘noda katta yoshdagi o‘quvchini ham bolalikka qaytarishi shubhasiz.

Xulosa. Aytish mumkinki, bugungi global jamiyatimizdagi ommaviy axborot vositalari, jumladan, zamonaviy televideniyeining ko‘ngilochar, rekreativ funksiyasi misolida fikrimizni oydinlashtirish mumkin. Rekreatsiya (lotin tilidan olingan bo‘lib “recreatio” - tiklash) – “dam olish, ko‘ngil ochish, inson ichki kuchlarini tiklash kabi ma‘nolarni bildiradi”. Sohaga oid ilmiy adabiyotlarda televizion jurnalistikaning rekreativ vazifasi alohida yo‘nalish sifatida rivojlanib bormoqda, zero “aholining dam olishga, ijtimoiy hayotga ijobiy ta‘sir etishi odamlardagi har xil stress holatlarni pasaytirishga xizmat qilishi haqida so‘z boradi. Binobarin, sof yumoristik asarlar ham katta-yu kichikka avvalo dam olish, har xil ruhiy iztiroblardan xalos bo‘lish orqali pozitiv munosabatlarni ortishiga, albatta, muhim rol o‘ynaydi. Quvnoq yumor shu ma‘noda bolalar adabiyotining qoni va joni deyish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. *Explanatory English dictionary Merriam Webster [Электронный ресурс]: Режим доступа: <http://slovar-vocab.com/english/merriam-webster-dictionary.html>.*
2. *Верджинская И.В. Понятие «юмор» в лингвокультурологическом аспекте // Наука и современность. - 2012. - № 19. - С. 105-108.*
3. *А.Обиджон. Масхарабоз бола. Тошкент, 1986 5. Жамилова, Башират. Трактовка и формы выражения экологического воспитания в произведениях для детей. Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума Том. 2 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37532655&selid=37532696>*
4. *Jamilova B.S. Basics of Uzbek Children's Reading. TEST Engineering & Management// <http://www.testmagzine.biz/index.php/testmagzine>*
5. *Jamilova B. Description of the spirit of teenagers in Uzbek children's prose // Middle European Scientific Bulletin. – 2020. – Т. 1. – №. 7. – С. 20-27.*
6. *Nizomiddinova Nafisa Khamroeva "Compliment as one of the forms of Phatic Communication." Middle European Scientific Bulletin 10.1 (2021).*
7. *Nizomova S. S. Images In Modern Uzbek Poetry //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 754-758.*
8. *Olimova D. Z (2020) The effectiveness of implementation of ICT in learning process . European Scholar Journal (ESJ) Vol.1 No. 4. Pp. 9-11*
9. *Nizomiddinova N. H. et al. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1437-1441.*

O'ZBEK ADABIYOTIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR OBRAZI TALQINLARI

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Qarshi filiali dotsenti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

zebona.sevinch@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo xaritasini o'zgartirib yuborgan afsonavaiy shaxslardan biri sohibqiron Amir Temur haqida bitilgan tarixiy va badiiy asarlar haqida so'z yuritildi. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida Sohibqiron shaxsini badiiy obraz sifatida talqin etgan asarlar ilmiy asosda o'rganildi. Shuningdek, yozuvchi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" epopiyasi bosh qahramoni Amir Temurning bizgacha mavjud bo'lgan tarixdagi ilm va adabiyot ahli tomidan berilgan talqinlar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *epopeya, drammatizm, Soqiynoma, "Majolis un-nafois", Alisher Navoiy, Temurnoma".*

ИНТЕРПРЕТАЦИИ ОБРАЗА АМИР ТИМУРА И ТИМУРИДОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация: В этой статье написано об исторических и художественных произведениях, которые были написаны об одной из легендарных личностей, изменивших карту мира, Сахибкиране Амуре Тимуре. В узбекской классической и современной литературе изучаются произведения, трактующие личность поэта как художественный образ на научной основе. Также анализу подлежат интерпретации, данные главным героем эпоса "Великое царство" писателя Мухаммеда Али, Амиром Тимуром, с позиции представителей науки и литературы в истории, которая существовала до нас.

Ключевые слова: *эпопея, классическая литература, драматизм, Сокийнома, "Мажолис ун-нафоис", Алишер Навои, "Тимурнаме".*

INTERPRETATIONS OF THE IMAGE OF AMIR TEMUR AND THE TEMURI IN UZBEK LITERATURE

Abstract: In this article written about historical and artistic works, which were written about one of the legendary figures who changed the map of the world, Sahibkiron Amir Temur. Furthermore, the works were studied that interpret the Personality of the poet as an artistic image on a scientific basis in Uzbek classical and modern literature. Also, the interpretations given by the main character of the epic "The Great Reign" of the writer Muhammad Ali, Amir Temur, from the roof of the people of Science and literature in the history that has existed before us, are subject to analysis.

Keywords: *epopia, classical literature, dramatism, Sokiynoma, "Majolis un-nafois", Alisher Navoi, "Temurnoma".*

Kirish. Mashhur tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati badiiy adabiyotga ko'chishi tabiiy. Negaki ularning shaxsiyati boy, hayoti ziddiyatlarga to'la, drammatizm kuchli, baxt va baxtsizlik qorishiq, maqsad yuksak, harakat favqulodda kuchli va hayratlanarli. Dunyo xaritasini o'zgartirib yuborgan sohibqiron Amir Temur ham ana shunday afsonavaiy shaxslardan biri.

Tadqiqot metodologiyasi. So'z, modomiki, badiiy adabiyot haqida borar ekan, badiiy adabiyot Amir Temurning davlat siyosati tufayli turkiy tilli adabiyot rivojlana boshlaganligini qayd etish lozim.

Tadqiqot obyekti. Mazkur tadqiqot uchun asosiy obyektlar bu o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida yaratilgan Amir Temur haqidagi asarlardir.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolada tahlillar qiyosiy-tipologik, tarixiy, germeneytik metodlar asosida amalga oshirilgan.

Tahlil va munozaralar. Temur o'zining qisqa hayoti davomida bir necha umrlar qila olmaydigan ishlarni boshqardi. Bu ishda qurug'i bilan barobar ho'li ham yongani, ayrim adolatsizlikka yo'l qo'yilgani ham tabiiy. Biroq Temur ishlarining yakuni –ulug'. U Turon saltanatini yaratdi. Tariqday sochilgan tarqoq

millat va xalqlarni birlashtirdi. Ovro'po tili bilan aytganda, "Renessans" deb ataladigan mislsiz madaniyat konini barpo qildi[1;124].

To'xtamishxon buyrug'iga ko'ra Oltin O'rdaga olib ketilgan Kamol Xo'jandiy hayotida Amir Temurning roli katta, u 1395-yilda To'xtamishxon yengilgach, o'z vatani Tabrizga qaytishiga imkon beradi. Bu haqda fors adabiyoti darg'alaridan biri Kamol Xo'jandiy shunday yozadi:

Kamol on damki, xohi did bo yoron karim xudo,

Bigo': – In davlat az yumni shahi Sohibqiron didam[2;271].

Shoirning Mironshoh bilan yozishmalar olib borganligi ham manbalarda uchraydi.

Amir Temur Sherozni fath etganida Hofiz Sheroziy bilan bo'lgan uchrashuvida aytilgan "Agar on turki Sherozii... "g'azali el orasida mashhur, bu voqea tafsiloti ham keng tarqalgan".

Mutafakkir va davlat arbobi A. Navoiy "Hayrat ul abror" dostonida "To'rt ulus xoni Ko'ragon", "Jahon xoni Temur Ko'ragon", "Farhod va Shirin" dostonida "Temurxon", "Muhokamat ul lug'atayn"da "Temur Ko'ragon", "Munshaot" va "Nasoyim ul muhabbat"da "Temurbek" nomlari va unvonlari bilan ataydi.

Hazrat Navoiy Amir Temurning badiiy so'zga, nasr va nazmga ishtiyoqmandligi, juda ko'p she'r yod bilishini qayd etib, "Amir Temur she'rda juda katta ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ma'no, nafosatni ko'rgan, sezgan va undan butun umri davomida foydalangan, uning zavqi bilan yashagan. Amir Temur hayotining eng qiyin damlarida she'r unga murakkab masalalarni oson yechishga yordam bergan"[3;182]. Ishora qilinayotgan voqea Mironshohning uch nadimi bilan maishat va ichkilikka berilishi bilan bog'liq. O'limga hukm qilingan Xoja Abdulqodir qo'lga tushganida Qur'on o'qib, sohibqironning qahridan qutulib qoladi, hatto Amir Temurning marhamatiga noil bo'ladi. Navoiy bu voqeani butun murakkabligi va dramatzimi bilan bayon qilar ekan, Amir Temurning qahri va mehri yonma-yonligini ishonarli tasvirlagan. Ulug' shoirning Amir Temur tomonidan aytilgan misra haqidagi fikri diqqatga sazovor: "Idrok va fahm ahli bilurlarkim, yillar balki asrlarda mudoq latif so'z voqe bo'lmas"[4;169].

Hazrat Navoiy Amir Temurda mavjud fazilatlarini Husayn Boyqaroda ko'radi: "To olam ahli bilgaylarkim,, Sulton Sohibqirongakim, majolisda paydar-pay xo'b abyot va yaxshi so'zlar darmahal voqe' bo'lur, – dag'i mavrusiydurkim, nisbati ul jaddi buzrukvor Amir (Temur)g'a tuzaturkim, ul birining makoni ravzai jinon va biri bu jahon mulkida jovidon bo'lsun!"[5;169]

Navoiy hayoti va faoliyati temuriylar bilan chambarchas bog'liq, bu haqda Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Habib us-siyar"asarlarida atroflicha ma'lumotlar berilgan. Umarshayx Mirzo bilan bog'liq ko'kaldoshlik va o'rtadagi yaqinlik xususida "Badoyi' ul-bidoya"ning "Debocha"sida o'qiyimiz:

Otam bu ostonaning xokbezi,

Onam ham bu saro bo'ston kanizi[6;473].

Soqiynoma (lug'aviy ma'nosi suv ulashuvchi, ruhiy ozuqa beruvchi, xat)– lirikaning hajm jiqatidan katta, o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega, bir necha banddan tashkil topgan janri. Masnaviy shaklida qofiyalanadi va qat'iy vaznda, ya'ni mutaqorib bahrida yoziladi, hamda har bir band soqiyga murojaat bilan boshlanadi. A.Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan "Soqiyo, tut qadahi shohona..." misrasi bilan boshlanuvchi soqiynomasi 32 banddan iborat.

Shoir sulton Husayn Boyqaroni ogohlikka da'vat etar ekan, o'zi aytmoqchi bo'lgan asosiy fikrdan oldin tarixdan qator misollar keltiradi. Dunyo o'tkinchi, umr va boylik esa bevafo, yaratilgan inson zoti borki, yo'qlikka mahkumligini ta'kidlab, Kayumars, Hushang, Jamshid, Faridun, Iskandar, Ashkoniy, Rustam, Som, Yazdijurd Bahrom, Chingizxon, O'qtoy singari olamni zir titratgan zotlar qaro yer bag'riga yo'l olishdi. Navoiy fikrni ehtiyotkorlik bilan o'z g'oyaviy maqsadi tomon buradi va sultonning bobosi Amir Temurni eslatadi.

Qani Temur –shahi islompanoh

Ki, jahon oldi, chekib xayli sipoh.

Jaddu abo sanga avlodi qani,

Oqa -ini sanga ahfodi qani [7;473].

Navoiy shu orqali Husayn Boyqaroga Yaratganni yoddan chiqarimaslikka, adolatli va insofli bo'lishga undaydi. Ulug' shoir o'zining yaqin do'sti bo'lgan podshohning xuddi bobosi singari el-ulus uchun g'amxo'r va fidoyi bo'lishini istaydi va bunga astoydil intiladi. Sohibqiron Amir Temurning eslatilishi bejiz emas, albatta. Husayn Boyqaro qalbida o'z bobosiga nisbatan chuqur ehtirom va hurmat, ixlos va muhabbat borligini shoir yaxshi biladi.

Hazrat Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasining yettinchi va sakkizinchi majlislari bevosita Amir Temur va temuriylarga bag'ishlangan bo'lib, bu bejiz emas. Buyuk mutafakkir butun hayoti ushbu sulola

vakillari bilan bevosita bog'liq. Navoiyning Amir Temurga va temuriylar xonadoniga bo'lgan hurmati nihoyatda cheksiz.

“Muluk shajaralarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, hoqoni jahongir sohibqiron, ya'ni Temur Ko'ragon” haqida yettinchi majlisning boshlanishida: “agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqeda o'qubdirlarkim, aningdek, bir bayt o'qigani ming yaxshi bayt aytqoncha bor”[8;168].

Ma'lumki, hazrat Navoiy nihoyatda to'g'riso'z, yolg'onni juda yomon ko'radigan “mijozi nozuk” ijodkor bo'lgan. Uning Amir Temur haqidagi fikrlari ham haqiqatga mos bo'lib, jahongirning mardligi, tantiligi va shuning barobarida shariatga xilof, odob-axloqqa zid amallarga qarshi keskin chora ko'rganligi, gunohkorlarni qilmishiga yarasha jazoga tortgani ma'lum. Bu yo'lda u hech kimni, hatto o'z farzandlarini ayab o'tirmagan. Mironshoh Tabrizda hukmronlik qilgan paytida ixtiyori o'zida edi va u mayxo'rlikka beriladi, hatto boshqalarning qizi, keliniga ham daxl qilishgacha borib yetadi. Uning mayxo'rlikka berilganini eshitgan Amir Temur uni bu yo'lga boshlagan uch nadimini zudlik bilan huzuriga keltirishlarini buyuradi. Aybdorlarni qatl ettiradi, ammo ulardan biri Xoja Abduqodir qochib ketadi va o'zini devonalikka solib, ko'cha -ko'yda izg'ib yuradi. Oradan vaqt o'tib, Iroqqa yurish paytida qo'lga tushgan Xoja Abduqodir tiz cho'kib, baland ovozda Qur'oni karimni chiroyli qiroat qila boshlaydi. Shunda Amir Temur atrofida qilarga qarata “Abdol zi biym chang ba mushaf zad” degan misrani yod aytadi.

Mazkur voqea keltirilgan ruboiy to'g'risida “Nasoyim ul muhabbat”da batafsil bayon qilingan.

Havro ba nazorai nioram saf zad,
Rizvon ba ajab bimondu kaf bar kaf zad,
Yak xoli siyah bar on ruxon mutraf zad,
Abdol zi biym chang bar Mushaf zad

Ma'nosi:

Hurlar nigorimni ko'rish uchun saf tortdilar,
Rizvon taajjublanib, qarsak chalib yubordi.
U qoraxol yuzlarga parda tortdi,
Abdol qo'rqqanidan “Qur'on”ga chang soldi[9;268].

Xoja Abduqodir shu tufayli muqarrar o'lim jazosidan qutilib qoladi.

Navoiy buni “Ul hazratning g'azabi lutfqa mubaddal bo'ldi”, deya izohlaydi. Bu voqea xuddi shu mazmunda Ibn Arabshohning “Ajoyib-al maqdur fi tarixi Tiymur”asarida va hazrat Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida ham keltirilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati, Berdaq nomidagi Qoqaralqog'iston Respublikasi Davlat Mukofoti sovrindori, o'zining o'ndan ortiq she'riy kitoblari, “Mashrab”, “Gumbazdagi nur” dostonlari, qator esselari va badiiy tarjimalari, “Boqiy dunyo”, “Sarbadorlar” romanlari bilan bizga tanish Muhammad Ali Ahmedovning “Ulug' salatanat” epopeyasida yozuvchi ushbu voqeani Mironshohning shaxsiyatini ochib berishda juda o'rinni keltirgan[10;].

She'riyatimiz boshidagi toj bo'lgan “Xamsa” adabiyotimizning ko'rki va faxri. U inson ruhini yuksaklikka ko'taradigan, aql-tafakkur dunyosini yanada boyitadigan, olam va odamning mohiyatini anglashda dasturilamal bo'ladigan, insonni ko'hna tarix va o'z o'tmishiga, buguniga, kelajagiga teran nazar tashlashga majbur qiladigan ma'rifiy-irfoniy manba. “Xamsa”da keltirilgan rivoyat, afsona, turli davrlarda bo'lib o'tgan tarixiy voqea-hodisalar va yashagan mashhur tarixiy shaxslarga oid ma'lumotlar kitobxonni o'zligini tanish, hayotda yaxshi nom qoldirish uchun nimalarga amal qilish kerakligini anglashida muhim ahamiyat kasb etadigan ma'naviy xazina.

Ilk doston “Hayrat ul abror”ning sakkizinchi maqolotida vafodagi haqida so'z yuritiladi. “Ikki vafoli yor” hikoyatida Hindni fath etgan sohibqiron bilan bog'liq bir voqea keltirilgan, unda o'limga hukm qilingan ikki sevishgan jallodga avval meni o'ldir deb o'limni talashadilar. Ular shu tariqa sevgilisining bir lahza bo'lsa-da ko'proq yashashini istashadi. Bu xabarni eshitgan Amir Temur ularning sadoqat, mehr, vafodorligiga qoyil qolib, ham ikki sevishganga, ham ulusga omonlik beradi[11;135].

“Saddi Iskandariy” dostonida shu hikoyatning biroz boshqacha talqini berilgan. Dostonning yigima to'rtinchi bobida muxolofat mazammati xususida fikr yuritilib, saltanat egalari o'rtasidagi o'zaro nifoq, kelishmovchilik mamlakatga vayronagarchikka, fuqarolarni balolarga giriftor etilishi bayon qilingan:

Bu go'yo jahon ichra to'fon erur,
Ki andin jahon ahli vayron erur.
Ne to'fon, balo bahri chayqalg'oni,
Jahon ahli suv ostida qolg'oni...
Ne to'fon, bedodu seloi g'am,

Erur onchakim dahr elig‘a alam[12;136].

Hazrat Navoiy shundan so‘ng Chingizxon va Xorazmshoh o‘rtasidagi jang haqida to‘xtaladi, g‘olib chiqqan Chingizxon aholini qatli om qilishni buyuradi. Dushmanlar qo‘liga tushgan ikki bechora rafiq: “Ki avval mening boshima tig‘ sur, Chu men o‘ldum ul dam aning bo‘ynin ur!”,- yalinadi. Shu hodisa yuz berayotgan paytda Chingizxonning tushiga bir-biriga vafodor ikki habib kirib, xonga murojaat qiladi: “Senga kiynavor bo‘lsa Xorazmshoh, Ul ishtin jahon ahlina ne gunoh?” Uyqudan uyg‘ongan shoh o‘zi va Xorazmshoh orasidagi nizo tufayli begunoh kishilarning qoni to‘kilayotgani haqida o‘ylaydi va elga omonlik beradi. Navoiy Amir Temurni maqtaydi, ammo Chingizxonni e‘tirof etsa-da, u haqida biror yaxshi fikr bildirmaydi, jim qolishni ma‘qul topadi. Buning sababi Chingizxon qo‘l ostidagi mo‘g‘ul lashkarlarining shafqatsizligi, zulmkorligi bilan bog‘liqligida bo‘lsa kerak. Amir Temur obrazining vafo, Chingizxonni ixtilof to‘g‘risidagi hikoyat uchun tanlanishida ham shunga tayanilgan.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi bosh qahramonning yig‘ma obraz ekanligiga asoslanib, adabiyotshunos G‘.Murodov buni quyidagicha izohlaydi: “Ma‘lumki, Chingizxon Aleksandr Makedonskiy, Sezar, Napoleon kabi harbiy salohiyati zo‘r, katta janglarda zafar qozonishga o‘rgangan ulkan sarkarda edi. Shuning uchun Alisher Navoiy Chingizxon shaxsi haqida gap ketganda ma‘lum ma‘nodagi ehtiromni saqlaydi, atoqli fotihni “qahramon” deb ataydi. Shu bilan birga, mo‘g‘ul qo‘shinlariga xos bo‘lgan omonsizlik va bag‘ritoshlik tufayli shoir Chingizxon urushlari haqida biror-bir ijobiy fikr aytishdan ham saqlanadi. Binobarin, vafo haqida gap ketganda Amir Temur, ixtilof xususida mulohazalar asnosida Chingizxon haqidagi rivoyatning berilishi bejiz emas”[13;10].

Muhokama. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” dostonida keltirilgan hikoyatlarning birida ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun jiddu jahd qilish lozimligi, sabr, matonat, jasorat va jur‘at bilan eng qiyin muammoni ham bartaraf etish mumkinligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Hikoyaning qisqacha mazmuniga ko‘ra, Amir Temur janglarning birida yaralanadi, bir qo‘li va oyog‘i majolsiz, harakatlantirilmaydi. U kimdir kelib yordam berishini kutib turganida, bo‘ksasi ezilgan, oyog‘i yo‘q chumolining yuqoriga tirmashayotganini ko‘rib qoladi. Chumoli har safar pastga qular, lekin baribir qayta-qayta tepaga intilardi, va nihoyat maqsadiga erishadi. Bundan bag‘oyat ta’sirlangan Amir Temur qiynalib bo‘lsa-da odamlar bor joyga yo‘l oladi. Oradan yillar o‘tib jahongirga aylanadi. Haydar Xorazmiy hikoyatni Amir Temurni madh etish va tinchlik o‘rnatganini olqishlash bilan yakunlaydi:

Tutti jahon mulkatini yakqalam,

Urdu yetti kishvar ichinda alam.

Tindi aning davrida ro‘yi zamin,

Bo‘ldi bir elu bir ulus Rumu Chin.

Xoja Ismatullo Buxoriy Amir Temurning vafoti munosabati bilan turkiy tilda marsiya yozganligi to‘g‘risida Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida ma‘lumot berilgan.

Buz chodiring, falakkim, Sulton o‘ldi g‘oyib,

Tun ichra erdi chun mohi tobon bo‘ldi g‘oyib.

Yoruq jahon quyoshi, islom elini boshi,

Din erdi ko‘p taloshi, dayyon o‘ldi g‘oyib

No‘shgiravondek odil, ham olim erdi, fozil.,

Har ishga aqli komil, farzon o‘ldi g‘oyib....[14;327]

Shoir Amir Temurni “g‘ayratda misli arslon, bahra nahangu sa‘bon, shu‘jobon” deb sifatlaydi va ideal podshoh darajasiga ko‘taradi.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida Lutfiyning Amir Temur haqida doston yozganligi va unda Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga asoslanganligini qayd etadi. Ammo, bu asar hozirga qadar topilganicha yo‘q.

Hirot adabiy muhitidagi shoirlardan biri Abdulloh Hotifiy fors tilida “Xamsa” yaratishga azm qiladi. “Layli va Majnun”, “Shirin va Xisrav”, “Haft manzar” yozadi. Bu davrda Jomiy va Navoiy ham “Xamsa” yozayotgan edi. “Majolis un-nafois” tazkirasida Hotifiyning “She‘ri el orasida bag‘oyat mashhur”ligi, ayniqsa, jang manzaralarini tasvirlashda o‘ziga xosligi, yuksak mahoratga ega ekanligi qayd etilgan.

Hotifiy xamsachilik an‘anasiga ko‘ra Iskandar haqida yozilishi kerak bo‘lgan dostonga biroz boshqacha yo‘l tutadi, buning sababini esa quyidagicha izog‘laydi: “Men ro‘zg‘or sahifasida Iskandardan qolgan birorta yodgorlikni ko‘rmadim. Do‘stlarim menga Iskandar haqida afsona so‘zlagandan ko‘ra, haqiqiy g‘alabalar haqidagi “Zafarnoma”ni nazm ipiga tizishni maslahat berishdi”. Xullas, u Iskandar haqida yozishdan ko‘ra Temur sohibqiron to‘g‘risida doston bitishni ma‘qul ko‘radi.

Shoir “Shirin va Xisrav” dostonini A.Navoiyga, “Temurnoma”ni Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlaganidan ko‘rish mumkinki, u hazrat Navoiyni ham shoir sifatida, ham hazrat Jomiyning muhibi

sifatida yaqindan bilgan. Chunki Hotifiy Abdurahmon Jomiyning jiyani edi, qolaversa, Navoiydek bag'rikeng zot "Xamsa" yozishga kuch topa olgan zamondoshini tanimasligi mumkin emas.

Birlamchi manbalarga tayanib yozilgan, qariyb o'n ikki ming misradan iborat mazkur doston nafaqat badiiy asar sifatida, balki muhim tarixiy manba sifatida ham qimmatli va muhim ahamiyatga ega.

Dostonda sohibqironning avlodlari turkiy ekanligi ta'kidlangan. Shoirning bu masalaga e'tibor qaratishi ayrim manbalarda sohibqironning mo'g'ullarga tiqishtirilishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Amir Temur va Amir Husayn o'rtasidagi kelishmovchilik, jangda Amir Husaynning yengilishi va Amir Temurning taxtga o'tirishi, adolatli hukmdor sifatida davlatni boshqarishi tasvirlangan. Ayniqsa, sohibqironning harbiy yurishlari, jang lavhalariga keng o'rin ajratilgan. Amir Temurning Xorazmga qilgan yurishlari, valiahd Jahongir Mirzoning Xorazm malikasiga uylanishi, Xuroson, Eronning fath etilishi, Dashti Qipchoqqa qilingan yurish va To'xtamishxon bilan to'qnashuvlar, turk sultoni Boyazid Yildirim bilan bo'lgan muhoraba va uning asir olinishi singari voqealar jangnoma dostonlarga xos jo'shqin, shiddatkor, yurakni to'lqinlantiradigan ohanglarda bayon qilingan.

Dostonda tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning o'zaro uyg'unlik kasb etishi tufayli voqelik kitobxon ko'z o'ngida kechayotgandek tuyuladi, ishonarli va samimiy, ishtiyoq va ilhom bilan yozilgan doston o'quvchi qalbini to'lqinlantiradi. Amir Temurning har qanday muammoni tinchlik yo'li bilan harakat qilishi To'xtamishxon va Boyazid Yildirim bilan bo'lgan munosabatlarda aksini topgan. Sohibqironning ularni adlu insofqa chaqirib, o'zaro kelishuv-sulhga undab maktub yozishi orqali Amir Temurning dono, zakiy, tinchlikparvar, el-u yurt osoyishtaligini birinchi o'ringa qo'yadigan hukmdor ekanligi ko'rsatilgan. Asirga tushgan Boyazidga shohona izzat-ikrom ko'rsatilishida esa Sohibqiron Amir Temurga xos bag'rikenglik, oqillik, uzoqni ko'zlab ish yuritish, siyosiy vaziyatni chuqur tushunadigan mulohazakorlik kabi oliyjanob xislatlar namoyon bo'ladi. Doston Amir Temurning vafoti berilgan bobdan keyingi xotima bilan yakunlanadi. Xotimada shoir Firdavsiy eron shohlari, xamsanavis shoirlar Iskandar Zulqarnayn haqida yozishgan bo'lsa, o'zining podshohlar ichida eng ulug'i to'g'risida doston bitganidan faxrlanadi, o'zidan iftixor qiladi.

Hofizi Abru, Shahobuddin Abdullox ibn Lutfilloh ibn Abdurrashid al-Havofiy (1361/62, Hirot - 1430, Zanjon) — tarixchi va geograf. Amir Temur va Shohruh saroylarida tarixnavis bo'lgan. Tarixiy va tarixiy-geografik asarlar («Zayli Zafarnomai Shomiy», «Zayli Jomi' ut-tavorix», «Tarixi Hofizi Abru», «Majmua at-tavorixi sultoiyya», «Zubdat ut-tavorixi Boysunquriy») muallifi. «Zayli Zafarnomai Shomiy» asari Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»siga ilova bo'lib, asardagi tarixiy voqealar bayonini 1405-yilgacha davom ettirgan. 1423-27-yillarda yozilgan «Majmua» («To'plam») asari Shohruh saltanati tarixini 1417-yilgi voqealar bilan tugatadi [15:382].

Husayn Jovid (taxallusi; asl nomi Husayn Rasizoda) (1884.24.10, Naxichevan-1944) – ozarbayjon shoiri, dramaturg. Ozarbayjon romantizmining yirik vakili va asoschilaridan biri. Istanbul universitetida o'qigan (1905—09). «O'tgan kunlar» (1913), «Bahor shabnamlari» (1917) she'riy to'plamlari va «Shaydo» dramasi (1917)da xalqning adolatsizlik, zulmga qarshi isyoni aks etgan. «Ona» (1910), «Maral» (1912), «Shayx San'on» (1912-1914) dramalarida va «Iblis» tragediyasi (1918)da gumanizm va insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan. «Payg'ambar» (1922), «To'pol Temur» (1926), «Knyaz» (1929), «Siyovush» (1933), «Xayyom» (1936). «Iblisning intiqomi» (1936) kabi tarixiy va falsafiy dramalar yozgan. «Maral», «Iblis», «Shayx San'on», «To'pol Temur» 20-yillarda o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Yozuvchi Maqsud Qoriyevning ijodida tarixiy o'tmish mavzui us-tuvorlik qiladi: «Spitamen», (1985), «Ibn Sino» (1995), «G'aznaviylar» kabi tarixiy romanlar; «Ibn Sinoning bolaligi» (2002) qissasi, «Yulduzlarda edi xayoli», «Osiyo go'zali», «Toj mahal» va Amir Temur haqidagi hikoyalarni yozganligi ma'lum.

Xulosa. Umuman olganda, Amir Temurning vafotidan keyin u haqida nafaqat badiiy asar, balki opera, miniatura, portret, haykal, ilmiy tadqiqot yaratishda yangi bosqich boshlandi. Hozirgi kunga qadar bu ulug' zot haqida adabiyot va san'at sohasida yangi asarlar yaratilmoqda, ilmiy-tarixiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Sho'ro davri o'zbek adabiyotida Fitrat, Qodiriy, M.Shayxzoda, O.Yoqubov, P.Qodirov va boshqa yozuvchilar ijodida Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog'liq lavhalar mavjud. Demak, Amir Temur siymosi barcha davrlar o'zbek adabiyotida ijodkorlar uchun erk, ozodlik, adolat, kuch-qudrat, millat timsoli bo'lib kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Qo'shjonv M.Meli S. Abdulla Oripov. T.: Ma'naviyat, 2000. 124-b.*
2. *Kamol Xo'jandiy. Devon. T.:1962. 271-b.*

LITERARY CRITICISM

3. *Amir Temur jahon tarixida*. T.: Sharq NMAK, 2006. 182-b.
4. *Navoiy A. Asarlar. 12-jild*. T.:1966. 168-169-b.
5. *Boburnoma*. T.:1960. 169-b.
6. *Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami Favoyid ul-kibar*. T.: Fan, 1990.472-b.
7. *Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami Favoyid ul-kibar*. T.: Fan, 1990.473-b.
8. *Navoiy A. asarlar. 15 tomlik. 12-tom*. T.: 1966, 168-b.
9. *Alishr Navoiy. To'la asarlar to'pami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul muhabbat*. T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2011. 267-268-b. Majolis.
10. *Ali, Muhammad. «Ulug' saltanat»*. T.: 4-kitob.
11. *Navoiy A. Saddi Iskandariy. Toshkent.*: 1991, 135b.
12. *Navoiy A. Saddi Iskandariy*. T.: 1991, 136-b.
13. *Murodov G'. Amir Temur abadiyati.*. T.: Fan. 1994. 10-b.
14. *Temurnoma. Toshkent, Cho'lpon*, 1990. 327-b.
15. *O'z ME. 11-tom*. 382-b.

YO 'L XRONOTOPINING BADIY POETIKASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yunusova Ganjina Rustamovna,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchi, doktorant

g.r.yunusova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy adabiy tanqidning dolzarb muammolaridan biri, xronotop shakllarining mohiyati, nazariy asoslari, janr evolyutsiyasining syujetga ta'siri va aloqasi, adabiy kompozitsiya arxitekturasiga yo'l xronotopining ta'sir yo'nalishlari o'rganiladi. Maqolada yozuvchining badiiy-go'yaviy maqsadini tasvirlashda yo'l xronotopining o'rni, syujetni yo'naltirishdagi ahamiyati tadqiq etiladi. Yo'l xronotopi ijodkor uslubining o'ziga xos poetik jihatlarini belgilab berib, asarning mazmun va shaklini ochib berishdan tashqari, adibning badiiy-go'yaviy ideologiyasini, milliy fikrlash tarzini ham yo'naltiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Badiiy makon va zamon kategoriyalarini birlashtirib, janr va syujetning ichki izchilligini takomillashtiradi.

Kalit so'zlar: xronotop, yo'l xronotopi, badiiy asar semantik arxitekonikasi, folklorda yo'l xronotopi, badiiy asar kompozitsiyasi, xronotop ichki elementlari.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ПОЭТИКА И ОСОБЕННОСТИ ДОРОЖНОГО ХРОНОТОПА

Аннотация. В статье исследуется одна из актуальных проблем современного литературоведения, сущность, теоретические основы форм хронотопа, влияние и связь жанровой эволюции на сюжет, архитектуру литературной композиции. В статье рассматривается роль дорожного хронотопа в описании художественно-мировоззренческой цели писателя, а также роль дорожного хронотопа в режиссуре сюжета.

Ключевые слова: хронотоп, дорожный хронотоп, смысловая архитектура художественного произведения, дорожный хронотоп в фольклоре, композиция художественного произведения, внутренние элементы хронотопа.

POETICS AND SPECIFIC FEATURES OF THE ROAD CHRONOTOPE

Abstract. The article investigates one of the topical problems of modern literary criticism, the essence, theoretical foundations of the forms of the chronotope, the influence and connection of genre evolution on the plot, the architecture of a literary composition. The article deals with the role of the road chronotope in describing the writer's artistic-ideological goal, and the role of the road chronotope in directing the plot.

Keywords: the chronotope, the road chronotope, semantic architecture of the literary work, the road chronotope in folklore, composition of the literary work, internal elements of the chronotope.

Kirish. Yo'l xronotopi "xronotop" umumiy hodisasining muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Yunoncha "chronos" (zamon) va "topos" (makon) so'zlarini biriktirish orqali hosil qilingan mazkur atama oldindan aniq va tabiiy fanlar sohasida ilk bora Enshteyn tomonidan istifoda etilgan. Ma'lumki, xronotop atamasi ilk bora jahon nazariy adabiyotshunosligida avangard bo'lib kelayotgan rus mutafakkiri M.M. Baxtin tomonidan kashf etilgan. Adabiyotshunoslikning badiiy adabiyotda va unda harakatlanuvchi inson fenomeniga tomon maksimal darajada yaqinlashuvi M.Baxtinning xronotop nazariyasi bois amalga oshdi desak, sira ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz. [7,1]

M.Baxtin induvidi va badiiy adabiyotga ta'siri buyuk mutafakkir olimlar Aristotel, Shekspir, Gyote, Dostayevskiy kabilardan aslo qolishmaydi. Badiiy adabiyot naqadar keng ko'lamdor hodisa bo'lmasin, unda yangi qonuniyatlarni yaratish mushkul sanaladi. Baxtin tomonidan kashf etilgan bu go'yalar insoniyat badiiy tafakkuri, badiiy adabiyot manbalari, muayyan adabiy matnlar tadqiqi asosida dunyoga kelgan. Shu bois biz olimning ijodiy induvidualligini, yuksak iste'dodi, fenomenal tadqiqotchilik imloniyatlarini e'tirof etgan holda "Baxtin tasodif emas edi, uning shakllanishida tarixiy davr, ilmiy -adabiy muhit, o'zgacha mavjud nazariy bazaning ulkan ahamiyati bor" degan xulosani ilgari surish huquqini beradi [7,2]

M.Baxtin o'tgan asrning 30-yillarida xronotop nazariyasini adabiyotshunoslikka tanishtirar ekan, xronotopning badiiy asar janri, syujet chizgisi, kompozitsiyasi, asarning yaxlit arxitekonikasiga, badiiy matn semiotikasi, timsollar poetikasiga bevosita ta'sir o'tkazib, badiiy zamon va makon, fazo va vaqt

ko'rsatkichlari uyg'un aks ettirilishini tadqiq qilgan. Boshqacha qilib aytganda, xronotop janr va syujetni tashkil etib, badiiy asarning ichki izchilligini takomillashtiradi.

Asosiy qism. Xronotopning asosiy xususiyatlari badiiy asarda olam va odam munosabatlarini tasvirlash, asar qahramonining ichki kechinmalari, shodlik va iztiroblari, ichki dunyosiga oid bo'lgan ruhiyat sahnalarini yoritish, ijodkorning badiiy-g'oyaviy maqsadini namoyon etish, asar mazmun va shaklini ochishda bevosita ishtirok etishidir. Badiiy xronotop qat'iy tarzda janriy mohiyatga ega. Janr va janrga xos ko'rsatkichlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati zamonda ko'rinadi. Xronotop shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini ham belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma'no kasb etadi. [1,51]

Badiiy asarga xos poetik unsurlar muhokama qilinar ekan uning asosiy negizi syujet ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Biror bir syujet elementi (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim va shu kabilar) yo'qki, xronotopsiz ma'no- mohiyat kasb etsin. Chunki Baxtinning fikriga ko'ra, xronotop zamon va makonning yagona moddiylashtiruvchisi sifatida bir butun roman timsolidagi aniqlashtiruvchi markaz hisoblanadi [3,454]. Shu boisdan xronotopning badiiy asardagi yetakchi vazifasi janr, syujet, badiiy timsol, asar stili va tilini aniqlash, muallif va o'quvchi o'rtasidagi ichki kechinmalarni birlashtiruvchi ko'priklarni bo'lish kabilardan iborat.

Olimning fikricha, badiiy xronotopda fazo va zamon belgilarining mazmunli va konkret bir butunlikda uyg'unlashuvi mavjud. Bu yerda vaqt quyuqlashadi, tig'izlashadi, badiiy nigohga aylanadi; makon esa vaqt, syujet va tarix harakatlari doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlarini makonda namoyon bo'lsa, makon zamonda o'lchanadi va anglanadi. Badiiy xronotop tabiati mana shunday qorishiq alomatlar oqimida namoyon bo'ladi. [2,399]

M.Baxtin xronotop tushunchasini shakllantirar ekan ulkan qamrovli romanlarda xronotopning mohiyati va ta'sir doirasini tadqiq qildi. Shu izlanishlar asosida M.Baxtin romanning olti turini va shu olti turga xos xronotop shakllarini "Romanda zamon va xronotop shakllari" (1937-1938) sarlavhasi ostidagi tadqiqotida belgilab berdi. Ilmiy-nazariy asarning "Xulosa" qismi romanning olti turi, ya'ni yunon romanlaridan Rablegacha, Rabledan XIX asrga qadar yozilgan romanlar va ular o'rtasidagi poetik uzviylikni belgilash, shu tadqiq asosida olti turni birlashtirish va ulardagi xronotop shakllarini aniqlashdek ulkan imkoniyatni beradi. Shu faktorlarni inobatga olgan holda tadqiqotning nafaqat xronotop poetikasi va shakllarini yoritishda, balki romanchilik nazariyasi va nazariy adabiyotshunoslikning dialemtik masalalarini targ'ib qilishda ham asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

M.Baxtinning "Romanda zamon va xronotop shakllari" (1937-1938) nomli tadqiqotini o'zbek tiliga o'zbek filolog olimi Uzoq Jo'raqulov tarjima qilgan va uning fikri muhimligining quyidagi sabablari mavjud: birinchidan tadqiqot roman janrini tarixiy poetika nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi, ikkinchidan insoniyat yaratilganidan beri bir lahza bo'lsin to'xtamagan zamon va makon harakati hayotning badiylashtirilgan modelini ishlab chiqishga da'vo qiladigan badiiy adabiyotning ham eng muhim sharti ekanini nazariy jihatdan isbot etgan [6,499].

Xronotopning ichki elementlari haqida bahs yuritadigan bo'lsak xronotop zamon va makon birliklaridan tashkil topgan. Badiiy zamon- badiiy asarda tasvirlangan vaqt demakdir. Badiiy asarda xronika bir-biridan oldin yoki ketma-ketlikda sodir bo'lib badiiy zamoni, vaqtni tashkil etadi. Shu boisi o'quvchi zamon haqida eslatib o'tilmasada, asardagi badiiy zamonning mohiyatini his qiladi. Badiiy zamonning statik-dinamik; real-noreal; o'tmish-hozirgi-kelajak kabi variatsiyalari badiiy adabiyotda kuzatiladi. Badiiy zamon birligi nafaqat xronotopning, balki badiiy janrlarning yetakchi kategoriyasi bo'lib xizmat qiladi. Ijodkor o'z ijodida badiiy zamoni bir kun, bir kecha, bir oy, yil yoki asrlar misolida keltirishi mumkin. Misol tariqasida Ch. Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani voqealari bir kun, "Qiyomat "romanining birinchi va ikkinchi qismi bir sutka asosida qurilgan.

Badiiy makon xronotopning keyingi elementi bo'lib asarda badiiy zamon bilan chambarchas bog'langan holatda keltiriladi. Xronotop hodisasida badiiy zamon va makon bir-biri bilan mantiqiy uyg'un holatda shakllanadi. Makon real hayotiy mazmun bilan konkretlashadi qahramon va uning taqdiriga jiddiy tarzda bog'lanadi. Asarning butun kompozitsiyasi shu voqea asosida quriladi, asardagi syujet chizgisi epik makonda yuzaga kelib, ma'lum zamon ichida kechadi, rivojlanadi, yechimini topadi. "Boshqacha qilib aytganda, makon konsepsiyasi zamon konsepsiyasi bilan o'zaro yaxlitlikni tashkil qiladi" [5,5]

Badiiy makonning ham badiiy zamon kabi yopiq (cheklangan)- ochiq (sarhadsiz); statik-dinamik; real-noreal (fantastik); tanish (protagonist buyerda tug'ilib o'sgan yoki o'zini o'z uyidagidek his qiladi)- begona (begona joy, begona yurt, chet el) turlari mavjud. Badiiy makonning eng ko'p tarqalgan xronotop shakli bu "yo'l" dir. Yo'l xronotopida makon-zamon uyg'unligi mukammal tarzda aniq va yorqin ochiladi. Adabiyotda yo'l xronotopining alohida o'rni bor. Yo'l motiviga doir variatsiyalarga ega bo'lgan asarlar kamdan-kam

uchraydi, aksincha yo‘l xronotopi, yo‘ldagi uchrashuvlar, yo‘l sarguzashtlari asosiga qurilgan asarlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Yo‘l motivi semantik jihatdan serqirrali va noaniqdir. Yo‘l tasvirlangan makon orqali badiiy asarda ijodkor qahramonning ichki ruhiyat yo‘lini, individual rivojlanish yo‘lini, butun millat yoki mamlakat yo‘lining milliy g‘oyasini aks ettirishi mumkin.

Har bir ijodkor adib zamon va makonni o‘z tasavvuri asosida idrok etadi, o‘zining ichki ruhiyati yoki dunyoqarashidan kelib chiqqan holda chizgilar beradi. Shu sababdan badiiy asar xronotopi biron bir boshqa badiiy makon va zamonga o‘xshamagan holatda betakrorlik sifatiga ega bo‘ladi.

Baxtin romandagi xronotoplarni “asosiy” (antik yunon romanlaridagi xronotoplar; maishiy-avantiyur romandagi xronotoplar; antik biografiya va avtobiografiyalardagi; ritsarlik asarlardagi; folklor hamda rableyona (Rable asarlaridagi- idellik) xronotoplar) va kichik (yordamchi) singari toifalaydi. O‘z navbatida bu xronotop shakllari bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib badiiy asarda bir-birini to‘ldirish, taqqoslash, o‘zgartirish, bog‘lash, mushtaraklik qirralarini ochish kabi jarrayonlarda namoyon bo‘ladi.

Xronotopning e‘tiborga molik jihatlaridan yana biri folklor va afsonalardan meros bo‘lib qolgan an’anaviylik tabiatidir. Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, dunyo manzaralari badiiy adabiyot talqinida uy (yopiq makon tasviri), ostona, deraza, eshik (ikki makon orasidagi chegara), yo‘l kabi xronotoplar orqali modellashtirilgan. Bu chizgilardan foydalanish zamonaviy adabiyotga ham begona emas. Bizning fikrimizcha, quyida ko‘rsatilgan xronotoplardan “yo‘l” xronotopi badiiy ijodda keng tarqalgan, ko‘p funksiyali, badiiy makonlarning hech birida qayd etilmaydigan fazoviy cheksizlik va sirlilik xususiyatlariga ega bo‘lib aksariyat badiiy asar syujet chizgilrida namoyon bo‘ladi. Yo‘l xronotopining badiiy adabiyotdagi o‘rni beqiyos bo‘lib, ko‘plab asarlar to‘g‘ridan- to‘g‘ri yo‘l xronotopi va yo‘l motivlari asosida qurilgan. Buning asosiy sabablaridan biri yo‘l xronotopi keng fazoviy hajmga ega bo‘lib, makon va zamon birligini nihoyatda aniq va yorqin talqin etadi.

M.Baxtin “Romanda zamon va xronotop shakllari” (1937-1938) deb nomlanuvchi nazariy asarida romanlar tahlili asnosida yo‘l xronotopining badiiy asardagi o‘rni va syujetga ta‘sirini tadqiq etadi. Misol sifatida sarguzashtli-avantiyur romanlar sxemasini oladigan bo‘lsak, syujet tarkibiy elementlari orasida oshiqning qochqini, ularning sayohati, do‘stlar yoki dushmanlar bilan kutilmagan uchrashuvlari kabi motivlar bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l xronotopi bilan aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Bu turdagi romanlarda yo‘l juda sirli va to‘satdan paydo bo‘lish, o‘z yo‘nalishini o‘zgartirish, hayratlantirish kabi xususiyatlarni namoyon etadi.

Qadimgi yunon romanlaridagi yo‘l xronotopining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri fazo-vaqt ko‘rsatkichlarining abstrakt- texnik tabiatidir. Bunday sxemadagi romanlarda yo‘l mavhum, personajlarga yot bo‘lgan hududlarda, dunyolarda kesishadi, syujet harakati juda keng jug‘rofiy makonda, uch-besh mamlakatlarda rivojlanadi. Zamonaviy romanlarda esa qahramon sayohatga boradi va qator sinovlardan o‘tadi, turli xavf-xatarlarga duchor bo‘ladi, uning yo‘lida tasodifga, taqdirga joy bor. Maishiy- avantiyur tipidagi romanlarning yunon romanlar sarasidan farqi makon va zamon yanada muhim va aniq yoritilib, yo‘l xronotopi real hayot manzaralari bilan to‘ldiriladi. Buning yordamida asarda hayot manzaralarini keng ko‘lamda yoritish mumkin bo‘ladi. Qahramon va uning hayotidagi asosiy burulish nuqtalari hali ham kundalik hayotdan tashqarida qolib, yo‘l bilan aloqador bo‘ladi. M.M.Baxtinning fikriga ko‘ra, hayot yo‘lda va uning yon tomonlarida joylashgan. Qahramonlar hayot yo‘li g‘ayrioddiy, maishiy emas, ichki soha bu yo‘lning bosqichlaridan biri bo‘lishi mumkin. Yo‘l xronotopining asosiy maqsadi bu turdagi romanlarda ma‘lum bir silsila asosida namoyon bo‘ladi: ayb-qasos-qutqarish.

Romanning uchinchi turi - avtobiografiya yoki biografiyada yo‘l - “hayot yo‘li” ma‘nosida ko‘rib chiqiladi. Bunda biz yo‘l xronotopining badiiy-estetik mazmuni va syujetdagi funksiyasi har bir yozuvchining badiiy ruhiy kechinmalari, badiiy qarashlari, muayyan davrning an’anaviy tasviri bilan bog‘liqligini inobatga olishimiz darkor. Yo‘l xronotopi qahramon ichki evolyutsiyasining o‘ziga xos masshtabda ya‘ni ma‘lum bir fazoviy trayektoriya xarakterining (hayot yo‘li) ahloqiy ekvivalent holatiga ega bo‘lishi mumkin. [4,6-7]

Insonning umr so‘qmog‘i (hayotining muhim burilish nuqtalari) va uning real yo‘l-makon bo‘ylab kechirgan darbadar safari aro mushtaraklik ko‘rinadi. Bu o‘rinda “hayot yo‘li” metaforasi amal qiladi. Ushbu yo‘l tug‘ilib o‘sgan, qadrdon mamlakat bo‘ylab o‘tadi. Unda hech qanday yot-begona, g‘ayritabiiy narsalar bo‘lmaydi. Hayot yo‘li metaforasining amal qilishiga doir variatsiyalar asar syujetining shakllanishiga poydevor bo‘ladi.

M.M.Baxtinning “Romanda zamon va xronotop shakllari” asarini tadqiq qilar ekanmiz, olimning yo‘l xronotopining folkloridagi o‘rnini qayd etishi e‘tiborimizni tortadi. Yo‘l motivining turli variatsiyalari folklorning barcha turlarida o‘z aksini topgan. Bundan tashqari folkloridagi yo‘l oddiy yo‘l bo‘libgina qolmay, har bir personaj uchun “hayot yo‘li”ning muhim qismi bo‘lib gavdalanadi. Istisnosiz aytish

mumkinki, folklordagi yo‘l hech qachon shunchaki yo‘l bo‘lmaydi, balki har doim yo bir butun hayot yo‘lini, yoki hayot yo‘lining muayyan qismini ifodalab keladi. Undagi yo‘l tanlash – hayot yo‘lini tanlashdir. Misol tariqasida chorrahalarini oladigan bo‘lsak, bu motiv folklor qahramoni uchun hayotdagi burulish nuqtasi hisoblanib, haqiqiy yo‘lning yo‘nalishini tanlashda, insonning kelajagini hal qiluvchi belgi sifatida tasvirlanadi. Folklorda boshqa yo‘l komponentlari ham muhim hisoblanib hayot bosqichlarini tavsiflovchi yo‘lning boshlanishi va oxiri, uchrashuvlar, to‘siqlar, yo‘l belgilari, taqdir belgilari kabi elementlar badiiy parcha syujet chizgilarining qay yo‘lida shakllanishini belgilab beradi. Tug‘ilgan uydan yo‘lga chiqish va yana vatanga qaytish, odatda umrning yoshga oid bosqichlarini (yo‘lga chiqqan o‘spirinning erkak bo‘lib qaytishi); yo‘lda uchragan alomatlar esa taqdir alomatlarini bildiradi va h.k. Shuning uchun romandagi yo‘l xronotopi o‘ta aniq, chegaralangan folklor motivlarini o‘ziga singdiradi. Yo‘l xronotopiga xos bunday aniqlik o‘zida hayot kengliklarini yoyishga imkon beradi. Shunga qaramasdan bunday hayot yo‘lining o‘zidan emas, ta’bir joiz bo‘lsa, uning chetidan, yonginasidan joy oladi [3, 399]. Bosh qahramonning o‘zi, uning hayotidagi muhim burilish nuqtalari – bu hayotning ichida bo‘lmaydi. Qahramon faqat uni kuzatadi, ba’zi hollarda esa begona kuch sifatida unga bostirib kiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xronotop shakllari, xususan yo‘l xronotopining badiiy asar kompozitsiyasida syujetni shakllantirishda, obrazning xarakterini tashkil etishda, hikoya qilish vazifalarini bajarishida o‘rni beqiyosdir. Xronotop shakllari orqali asarning arxitektonikasiga, badiiy matn semiotikasiga ta’sirini, asardagi zamon va makon shakllarining o‘zaro bog‘lanishini tadqiq qildik. Bundan tashqari yo‘l xronotopining romandagi metaforik ko‘rinishlarini tadqiq qildik.

ADABIYOTLAR:

1. Бахор. Б.Т. *Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida.* – *Scientific - methodological electronic journal Foreign languages in Uzbekistan*, 2022, №1(42), bb. -146-168, <https://doi.org/10.36078/1649688242>
2. Бахтин М. *Вопросы литературы и эстетики.* – М.: *Вопросы литературы и эстетики*, 1975, стр.399
3. Бахтин М. *Эпос и роман (О методологии исследования романа) (ссылка-перевод: Узок Журакулов) В кн. Вопросы литературы и эстетики.* – М.: *Вопросы литературы и эстетики*, 1975, стр. 454-455
4. Меркулова И.И. *Хронотоп дороги в русской прозе 1830-1840-х годов.* - *Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук.* Саранск 2007, стр.6-7.
5. Муминова А.А., Ибрагимова Н.Т. *Badiiy asarda makon va zamon tahlili. Innovative achievements in science* 2022. Челябинский государственный институт культуры. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6339397>
6. Темирбулат А. Б. *Категории хронотопа и темпорального ритма литературе. Монография.* - *Казахстан, Алматы*, 2009. – стр.- 499.
7. Jo‘raqulov U. *Mixail Baxtin kashfiyotlari.* URL: <https://ziyo.uz> (09.07.2019)
8. Saidjanovna U. D., Rustamovna Y. G. *The analyses of chronotope of the road in Jhon Steinbeck’s novel “The grapes of wrath” International Journal of Research and Development (IJRD).* – 2022. – Т. 7. – №. 9. – С. 46-48 <http://www.eprajournals.net/index.php/IJRD/article/view/877>
9. Yunusova Ganjina Rustamovna. (2023). *The role of the road chronotope on the plot and composition of the literary work. International Journal of Literature and Languages*, 3(04), 57–62. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-11>

ТАРЖИМА ЖАРАЁНИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ

Касимова Раъно Раҳматуллоевна,

Бухоро давлат университети

Инглиз адабиётишунослиги кафедраси доценти,

филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

r.r.kasimova@buxdu.uz

Аннотация. Мақола дескриптив таржимашуносликнинг учта йўналишидан бири бўлмиш таржима жараёни тадқиқига бағишланган бўлиб, унда мазкур йўналишнинг келиб чиқиш асослари, танқидий ва таҳлилий фикр-мулоҳазалар ёритиб берилган. Шунингдек, таржима жараёни тадқиқи таржимон ментал ҳолатлари, хатти-ҳаракатларини тушуниш, қарор қабул қилиш ва муаммоларни бартараф этиш билан боғлиқ масалаларни қамраб олиши, ўзига хос кўникмаларнинг ривожлантирилишини талаб этувчи мураккаб фаолият эканлиги хусусида фикр юритилган.

Калим сўзлар: дескриптив таржимашунослик, таржима матни таҳлили, таржима жараёни таҳлили, таржимонлик вазифалари таҳлили, фикрни эркин баён этиш протоколлари.

ИЗУЧЕНИЕ ПЕРЕВОДЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. Статья посвящена изучению переводческого процесса, являющегося одним из трёх направлений дескриптивного переводоведения, в котором освещаются истоки этого направления, негативные и позитивные мнения. Также считается, что изучение процесса перевода охватывает вопросы, связанные с пониманием психических состояний переводчика, поведения, принятия решений и решения проблем, и что это сложная деятельность, требующая развития определённых навыков.

Ключевые слова: дескриптивное переводоведение, анализ текста перевода, анализ процесса перевода, анализ переводческих задач, протоколы свободного выражения мнения.

TRANSLATION PROCESS RESEARCH

Abstract. The article is devoted to the study of translation process, which is one of the three directions of descriptive translation studies, in which the origins of this direction, critical and interpretative views are highlighted. Also, it is thought that the study of the translation process covers issues related to the comprehension of the translator's mental states, behavior, decision-making and problem solving, and that it is a complex activity that requires the development of specific skills.

Keywords: descriptive translation studies, analysis of the translation text, analysis of the translation process, analysis of translation tasks, thinking aloud protocols (free expression of opinion).

Кириш. Таржима жараёнининг тадқиқи (кейинги ўринларда ТЖТ (Translation Process Research – TPR)) Ж.Холмс таъкидлаган дескриптив ёхуд тасвирий таржимашунослик соҳасидаги “таржима матни таҳлили” (product oriented), “таржима жараёни таҳлили” (process oriented) ва “таржима бажарадиган вазифалар таҳлили” (function oriented) [1;34] йўналишларидан бири бўлиб, таржима жараёнида таржимон хатти-ҳаракатларини тушуниш, қарор қабул қилиш ва муаммоларни бартараф этиш мақсадида фойдаланиладиган ўзига хос кўникмаларни талаб этувчи мураккаб фаолият ҳисобланади. ТЖТга йўналтирилган бундай тадқиқотларда, асосан, таржимоннинг ментал ҳолатлари махсус ўрганилган.

ТЖТ ўтган асрнинг 80-йилларида кенг тарқалиб, таржимашунослар олимлар фикрни эркин баён этиш протоколлари (кейинги ўринларда ФЭБЭП (Think Aloud Protocols – TAPs)), бошқача айтганда, таржимонларнинг оғзаки ҳисоботларини йиғиб, улардан фойдаланишни бошлашган. А.Феррера, Ж.Швитер ва Д.Жил таъкидлашчи, *The use of TAPs was “the first highly visible contribution of psychology to research into written translation”* [21;5], ФЭБЭПдан фойдаланиш психологиянинг ёзма таржима тадқиқи соҳасидаги илк аҳамиятга молик улушидир. Бундай протоколлардан Ҳ.П.Крингс ва В.Лоршерлар таржима жараёнидаги муаммоли вазиятларни ўрганишда фойдаланишган. Бироқ Ф.Алвис ва Ҳ.Албирлар фикрига кўра, ФЭБЭПлар экспериментал лойиҳаларнинг

тизимлаштирилмагани, аниқ мақсад қўйилмагани, кам сонли кейс-стадилар қўлланилгани боис кескин танқид остига олинган. 1990 йилларда компьютер дастурлари, видеоёзувлар, кузатув мосламалари каби комплекс маълумотларни йиғиш воситаларининг ривожланиши жараёнга йўналтирилган изланишлар кўламнинг кенгайиши, тадқиқот усуллари диверсификациялашга, янада аниқ маълумотларни тўплашга кенг йўл очиб берган.

Кўплаб таржимашунос олимлар ТЖТ хусусида ўз фикр-мулоҳазаларини билдиришган. Жумладан, С.Хабшер-Девидсон фикрича, *“Traditions from cognitive, experimental, and individual difference psychology have thus begun to permeate the field of TPR and had an impact on its development, enabling researchers to study the translator’s ‘black box’ from a variety of new perspectives”*[19;30], психология когнитив, экспериментал, индивидуал жиҳатлар орқали ТЖТнинг таркибий қисмига айланиб, унинг ривожланишига таъсир кўрсатган, тадқиқотчиларга таржимоннинг “қора кутиси”, яъни онгида кечаётган ўй-фикрларни турли хил янги нуқтаи назардан ўрганишга имкон яратган.

Ш.Сафаровнинг “Таржимашуносликнинг когнитив асослари” номли монографиясида Д.Киралининг *“Таржима ижтимоий ва когнитив фаолият, таржимон учта ўзаро боғлиқ вазиятли контекстларнинг иштирокчиси, контекстларнинг биринчиси АТи, иккинчиси ТТи контекстлари бўлса, учинчиси ТФ (таржима фаолият)и кечадиган алоҳида контекстлигини, охириги дастлабки икки контекст оралигидан жой олишини, уни, ботиний ментал характерга эгаллиги туфайли, бевосита кузатиб бўлмастлигини, таржима жараёнининг когнитив (психолингвистик) талқинида эса, таржимоннинг онги ахборотни яратувчи тизим қолидида қаралиб, таржима ‘лисоний ва нолисоний ахборотдан фойдаланган ҳолда назоратли ҳамда беихтиёр бажариладиган ҳаракатлар ҳамда ҳосиласи”*[1;80] деган фикрлари иқтибос келтирилиб, таржима когнитив жараён маҳсули бўлгани сабаб, таржима муаммоларининг ечимини излашда унинг кечимини таъминлайдиган ментал ҳодисалар таҳлили муҳим роль ўйнайди, дея муносабат билдирилади.

Демак, тадқиқ этилган назарий манбалар ва олимларнинг фикрига таянган ҳолда шуни айтиш мумкинки, таржима жараёни бир тилда яратилган асарни шунчаки иккинчи тилга кодлаштириш ёки алмаштириш бўлибгина қолмай, инсон тасаввур ва тушунчалари билан бевосита боғлиқ. Таржима жараёнида мутаржим бошидан ўтказган кечинмалар эса фақат унинг ўзигагина аён.

Асосий қисм. Йиллар давомида ТЖТ билан боғлиқ креативлик, таржимонлик компетенцияси, қатъиятлилиқ даражаси, таваккалчилик, тажриба, вақт танқислиги, метафора таржимаси юзасидан амалга оширилган изланишлар, бугунги кунга келиб, ташқи омилларнинг рухий жараёнларга таъсирини ички омиллар билан бирга ўрганишни тақозо этмоқда. Таржиманинг мустақил фаолият сифатида бундай кўриниш касб этиши тадқиқотларда янги тенденцияларни юзага келтиради. Ижтимоий-сиёсий муҳит, ҳамкасблар билан ўзаро муносабатлар бир томондан, таржима жараёнида юзага келадиган ҳиссиётлар, туйғулар сингари хусусиятларга, иккинчи томондан, таржимонлар психологиясини ўрганиш учун янги методологиялардан фойдаланишга бўлган қизиқишлар натижаси сифатида намоён бўлади.

Таржима жараёнида бир хил амалиёт бажарилса ҳам, ҳар бир таржимон психологик, ижтимоий, маданий ва биографик жиҳатдан ўзига хос услубга эга бўлади. Шунинг учун, таржимоннинг хулқ-атвори, китобхонга таъсири ёки мотивацияси жиҳатидан фарқланишини англаш мақсадида шахсий ва дифференциал психологияга мурожаат қилинади. Мутаржим характерини ўрганиш орқали унинг ўзига хос хусусияти, тажрибаси, ўзгаларга муносабати англашилади. Шунингдек, таржимон фаолиятини ўрганишга қаратилган ҳар қандай тадқиқотда ижодкор индивидуал хусусиятларининг таржимага таъсири кузатилади. Бундай вазиятларда таржимон ҳақидаги маълумотларни ўрганиш масалага ойдинлик киритиши мумкин.

Умуман олганда, ТЖТнинг ривожланиши, таржимон индивидуал хусусиятларини ўрганиш, таржимашуносликда эътибордан четда қолган масалаларни кенгроқ ёритишга имкон яратади. Психологик нуқтаи назардан интерпретаторлар шахсий хусусиятларини ўрганиш бўйича бир неча тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, 1974 йилларда Ж.Шайн “Эдуарднинг шахсий хусусиятлар жадвали”(кейинги ўринларда ЭШХЖ (the Edwards Personal Preference Schedule – EPPS)да кўрсатилган 15 мезон асосида сурдо-интерпретаторлар фаолиятини ўрганиб, уларни эътиборталаб, хатога йўл қўйишдан кўркмайдиган мустақил ва қатъиятли инсонлар, деган хулосага келади[16; 40].

Фикримизни Вашингтон университети профессори, психолог Аллен Л.Эдуард томонидан ишлаб чиқилган ЭШХЖ жадвалидаги 15 мезонга қаратиб, улардаги жиҳатларни таҳлил қилсак:

LITERARY CRITICISM

№	Мезонлар	Изоҳлар
1.	Муваффақият	Вазифаларни яхши бажариш зарурати
2.	Хушмуомалалик	Одатларга риоя қилиш ва бошқаларга ҳурмат кўрсатиш зарурати
3.	Тартиб	Яхши режалаштириш ва тартиблилик зарурати
4.	Намоён қилиш	Гуруҳ/жамоа диққат марказида бўлиш зарурати
5.	Эркинлик	Масъулият ва мажбуриятлардан холи бўлиш зарурати
6.	Аффиляция/ Муносабат	Дўстлик ва муносабатларни шакллантириш зарурати
7.	Интрацепция	Бошқаларнинг хатти-ҳаракати ва ҳис-туйғуларини таҳлили қилиш зарурати
8.	Кўллаб-қувватлаш	Кўллаб-қувватланиш ва эътибор қаратилиш зарурати
9.	Доминантлик	Лидерлик қилиш ва таъсир ўтказиш зарурати
10.	Деградация	Айбдорлик ҳиссини туйиш ва хатоларни тан олиш зарурати
11.	Ғамхўрлик	Бошқаларга ёрдам бериш зарурати
12.	Ўзгариш	Одатий тажрибалардан чекиниб, янги тажрибаларни излаш зарурати
13.	Қатъиятлилиқ	Топшириқларни бажариш зарурати
14.	Муносабат	Қарама-қарши жинс вакиллари билан муносабат
15.	Агрессивлик	Ўз фикрини билдириш ва бошқаларни танқид қилиш зарурати

Жадвалда келтирилган шахсий хусусиятларнинг 15 мезонидан атига 3 таси, яъни 4-, 5- ва 13- мезонлари сурдо-интерпретаторлар шахсиятида намоён бўлган.

1980 йилларда ҳам шахс хусусиятларини тадқиқ қилиш айнан мана шу йўналишда етакчилик қилган. Сурдо таржимонлик йўналишида тайёрланаётган талабалар шахсияти Ш.Вилкокс тадқиқотида “Катта бешлик” психометрик усуллари асосланган Майерс-Бригс тип индикаторлари (кейинги ўринларда МБТИ (Myers-Briggs Type Indicator (MBTI)) орқали тадқиқ этилган. Шунингдек, интерпретатор ва таржимонлар хусусиятларини қиёсий аспектда ўрганишга кенг аҳамият қаратилган.

Ж.Хендерсон 1984 йилда 65 нафар профессионал таржимон, 35 нафар конференция интерпретатори, 46 нафар талаба орасида Кэйтел яратган шахсиятнинг 16 омили сўровномаси (Sixteen Personality Factor Questionnaire (“the 16PF”)) ни ўтказиб, интроверт таржимонлар ва экстровеит интерпретаторлар фикрлари / стереотиплари унинг маълумотларига мос келмаслигини, шунингдек, таржимонларнинг ҳиссиётларга берилувчанлиги, интерпретаторларнинг эса ҳиссий барқарорлигини аниқлаган [10; 240].

Н.Шведа-Николсон 2005 йилда стажёр интерпретаторлар шахсий хусусиятлари бўйича икки тадқиқотни амалга оширган ва МБТИнинг мулоҳаза юритувчи (Thinking types) лар типига кирувчи аёл таржимонлар сони анча юқори эканлигини асослаган. Шунингдек, ҳиссиётчан типлар умумий тенденцияларга зид тоифа, лекин шахсиз ва мантиқий таҳлилни афзал кўриш таржимонлик касби учун мақбуллигини таъкидлашади [17;109], деб айтади.

Сўнгги йилларда таржимон шахсиятига оид тадқиқотлар таржимон шахсий хусусиятларини, айниқса, талқин қилиш маҳоратини ўрганишга қаратилган[15;53-69]. А.Заннирато “идеал” таржимонни аниқлашда унинг шахсиятидан фойдаланиш мумкин бўлмаса-да, сўнгги йилларда бу соҳада, яъни таржимон шахсиятини ўрганишга қаратилган тадқиқотларга қизиқиш кучайганини тан олган [23;107-127]. К.Бонтемпо ва Ж.Непиер шахсият когнитив қобилият билан бирга талқин қилинса, таржимон муваффақиятини аниқлаш мумкинлигини таъкидлашган [5;36]. Улар ўз тадқиқотлари билан таржимон муваффақиятида шахсият муҳим аҳамият касб этиши, шундай шахсий хусусиятлар ва ҳиссий қобилиятлар мавжудки, уларни фақат малакали таржимонларгина ажрата олишини, ўзини ҳурмат қилиш ва невротизм, шунингдек, тажриба ошқоралиги ва виждонлилиқ таржимон компетенциясининг муҳим кўрсаткичлари ҳисобланишини кўрсатиб беришган. Ж.Л.Маккартни тажрибали таржимонлар қатъиятлилиги ва ишончлилиги билан ажралиб туришини аниқлаган [13;30]. А.Хилд эса сўзловчининг вербал хатти-ҳаракати синхрон таржимонлар эмоционал ҳолатига таъсир кўрсатиши ва улар ҳиссиётларини жиловлаб олишига тўғри келишини таъкидлаган. Олиманинг тадқиқоти мазкур соҳадаги қизиқарли ва жуда керакли ривожланиш ҳисобланади, чунки конференция таржимони, одатда, профессионал контекстда жуда катта эҳтимоллик билан шахсий ва ҳиссий иштирок тушунчаларини кўриб чиқади [11;128-149].

Охирги пайтларда шахсиятнинг эмпатия, стрессни бошқариш ва ҳиссий барқарорлик [14; 27-49] каби жиҳатларига эътибор қаратилмоқда. О.Ферманек таржимонлар тажрибасидан келиб чиқиб, бир тилдан иккинчи тилга ўзгартириш (code-switching), ўзлаштириш (borrowing) ва таржима қилиш (translating) таржимоннинг лингвистик фаолиятига таъсир ўтказишини ўрганган ҳамда таржимонларнинг терминология, ифода воситалари ва бошқа аспектларни қўллашига таъсир этадиган ўз лингвистик-эмоционал заҳираси мавжудлигини таъкидлаган. Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда ҳиссиётлар муайян бир контекстни талқин қилишда муҳим аҳамият касб этади, деган хулосага келиш мумкин.

Таржимон шахсиятига илмий қизиқиш йиллар давомида чекланган бўлиб, бу соҳадаги дастлабки тадқиқотлар ТЖТи билан боғлиқлигини даъво ҳам қилмаган. Бугунги кунда эса ТЖТ орқали таржимон шахсиятини атрофлича ўрганишга қизиқиш тобора ортиб бормоқда ва бу ўз навбатида, таржимон шахсиятини янада чуқурроқ тадқиқ этишга имкон яратади.

С.Ҳабшер-Девидсон 2002-2007 йилларда МБТИ ва бошқа методологияларни қўллаб, 20 нафар таржимон шахсияти ва шахсиятнинг бадиий таржимага боғлиқлиги борасида изланишлар олиб борган. Ҳиссиёт ва интуициянинг бадиий таржима жараёнига ва ёш таржимонларнинг таржимонлик фаолиятига ижобий таъсир кўрсатгани, ТЖТида таржимон профилини тавсифлаш, индивидуал хусусиятлар ва таржимонлик қобилияти борасида маълум бир хулосаларга келиш заруратини пайдо қилгани, кундан кунга кўпайиб бораётган профессионал таржима компетенциялари рўйхати, жумладан, National Occupational Standards for Translation – Таржима бўйича миллий касбий стандартлар шахсий хусусиятлар тавсифини ҳам қамраб олгани ва бу профессионал таржима учун долзарблиги хусусида мулоҳазалар юритган.

Умуман олганда, таржимада шахсий жиҳатларни С.Ҳабшер-Девидсон, Э.Спренгер, К.Рейс, Л.Паул, Б.Виат каби олимлар тадқиқотларида кузатиш мумкин. С.Ҳабшер-Девидсон сўнгги йилларда аффектив омиллар таржима жараёни таҳлилларининг объектига айланди, деб таъкидласа, Э.Спренгер таржима танқиди типологияси устида илмий изланишларни амалга оширган. К.Рейс таржимонни назарий, иқтисодий, эстетик, ижтимоий, агрессив ва диний хусусиятларга эга шахс сифатида тасвирлаган. Таржимонлар хусусиятини назарий жиҳатдан тадқиқ этган Т.Барбони шахс хусусияти унинг муайян иш турига мос келишини таъминлайди [19;30], деб айтган. Шунингдек, Л.Паул ва Б.Виат мавжуд тадқиқотларга асосланиб, таржимонларнинг ҳаққонийлик ва очиқлик хусусиятлари ва таржима самарадорлиги ўртасидаги боғлиқликни ўрганишган. Таржима жараёни таҳлил этилган бундай тадқиқотларда ҳиссиёт муҳим роль ўйнаши ҳам таъкидланган. Бироқ таржимон психологияси, унинг таржима жараёни ва таржима матнига таъсири таржимашуносликда деярли ўрганилмаган.

Р.Яшкеллайн таржимадаги аффектив жараёнларни текшириб, таржимонлик иши ҳиссий ва шахсий омиллар билан ўзаро фарқланишини, фидойилик ва ғайратлилики каби ижобий ҳис-туйғулар таржима сифатини яхшилашга ҳисса қўшиши мумкинлигини таъкидлаган ҳамда маҳоратли таржимон АТ муаллифи ва ТТ китобхони ўртасида ўзаро муносабат ярата олади [12;224], деган хулосага келган. Г.Хансен таржимоннинг муайян бир қарорга келишида унинг ҳиссиётлари ва тажрибалари таржимага таъсир этади, таржима қилиш ва матнни сўзлар орқали ифодалашда тасвирлар, ҳиссиётлар ва олдинги тажрибалар онгсиз равишда фаоллашиб, муҳим қарорларга ўз таъсирини ўтказишини [9;516] таъкидлайди.

Б.Диву матн устида ишлашда идрок ва ҳиссиётнинг ўзаро муносабатини ўрганган ҳамда таржима қилинаётган АТ матни таржимонга турлича таъсир ўтказиши мумкинлигини уқтирган. Унинг фикрича, салбий ҳиссиётлар онгсиз равишда бир зумда ривожланиб, когнитив қобилиятни пасайтириши, аксинча, ижобий ҳис-туйғулар диққатни жалб этиб, когнитив жараённи тезлаштириши ва креативликни ошириши мумкин [7;37].

С.Ҳабшер-Девидсон таржимашунослик соҳасида ҳиссиётларни инобатга олиш лозимлигини айтиб, таржимага мажбурият билан ёндашиш креативлик ва услубни ривожлантирса, ташвишланиш таржимада терминологиянинг аниқлиги ва изчиллигини оширади, деб таъкидлаган. Когнитив психологияда инсониятнинг шунчаки когнитив тизимдангина иборат эмаслиги, ҳиссиётлар ҳам унинг бир қисми эканлиги айтилади. Шунингдек, ҳиссиётлар когнитив психология ва когнитив таржимашунослик соҳаларининг ажралмас қисми бўлиб, улар алоҳида тадқиқот мавзуси бўлиши мумкин.

Кўриниб турибдики, сўнгги йилларда дескриптив таржимашуносликнинг таржима жараёни таҳлиliga боғлиқ бўлими тадқиқотчилар диққат-эътиборини тортиб келмоқда. Бунда, асосан, таржимонлик ишининг турли жиҳатлари, яъни АТини тушуниш, расмийлаштириш ёки ҳужжатлаштириш қобилияти, таржимадан қониқиш, ТТ китобхонига йўналтирилганлиги ва унга

таъсири масалалари инобатга олинади. Таржимон ҳиссиётлари АТ матнининг идрок этилиши, ТТ матнининг яратилиши ҳамда ТТ матнининг қабул қилинишига таъсир этади. Таржима стратегиялари ҳам реципиентга турли хил ҳиссий таъсир кўрсатиши мумкин.

Бугунги кундаги маданиятлараро мулоқотда ўз фикрини, ҳиссиётларини бошқа бир кишига етказиш муҳим бўлса, таржимон учун фикрини баён этиш маҳорат ҳисобланади. Таржимада тўғри қабул қилиш қисман бўлса-да, ҳиссиётларга боғлиқ бўлиб, мутаржим миясига компьютер сифатида қарашдан кўра таржимоннинг идрок этиш хусусиятларига аҳамият қаратиш лозим.

Ҳиссиётлар бадиий таржимада янада аниқ кўриниши мумкин, чунки бунда таржима жараёнининг таъсири ва роли ўрганилади. Бадиий таржима маданиятлар ва тиллараро нозик ҳиссий муносабатлар ўрнатишда кўприк вазифасини ўтайди. Ж.Андерсон [2;172] таъкидлаганидек, таржиманинг бошқа турларига, жумладан, техник таржимага нисбатан бадиий таржимада АТ матнини ўқиб, идрок этиш ва қарор қабул қилишга кўпроқ аҳамият қаратилади.

М.Ф.Моррис таржимонни *“a skilful agent who pulls the strings of the text and the emotional chords of the readers in order to create a connection between the audience and the (invisible) author”*[7;73], китобхон ва муаллиф ўртасида алоқа ўрнатиш учун матн сатрлари ва ўқувчининг ҳиссий торларини тортадиган малакали агент, деб таърифлайди. Демак, таржимон ТТни таржима тили китобхонига етказиб берибгина қўймай, унинг таъсирини, идрок этиш масалаларини ҳам инобатга олиши керак.

Ш.Сафаровнинг монографиясида “Робин Сеттон, таржиманинг прагматик меъёрлари ҳақида гапираётиб, турли манбалар билан боғлиқ когнитив структуралар “эски ва янги ахборотнинг қоришуви ҳосиласи” эканлигини ва бу ҳосила, маҳсулот эндиликда ҳеч жиҳатдан “аслият нутқига” эмас, балки “мўлжалдаги нутққа” (target speech) тегишли бўлишини қайд этади”, деган фикрлар келтирилиб, менимча, ушбу фикр таржима фаолиятига умумий маънода оиддир, деган хулоса қилинган [1;88].

Таржимашунос В.Вилс таржимани билимга асосланган фаолият тури эканлигини, билимнинг жамланиши схемалилигини, тўпланган билим таржима амалиётида энг мақбул вариантни танлаш учун имконият яратишини, танлов жараёни муаммолар ечимини излаш фаолияти билан боғлиқлигини, муаммо ечимини топиш узоқ ва яқин хотирага мурожаат қилишга ундашини айтиб, ечимни топиш жараёни, муаммоларни ажратиш, муаммолар тавсифи, керакли маълумотни излаш ва жалб қилиш, муаммони ечиш стратегиясини белгилаш, ечимни танлаш, ечимни баҳолаш сингари босқичлардан иборатлигини санаб ўтади.

Ҳар бир мутаржим ўзининг дунёқараши ва тафаккурига асосланиб, қарор қабул қилади. В.Вилс ва Ш.Сафаровларнинг назарий қарашларига таянган ҳолда маънони тушуниш ва қайта ифодалашнинг когнитив босқичлари мавжудлигини, ахборотни хотирада сақлашнинг муҳимлигини, жараённинг лисоний ва нолисоний элементлар яқдиллигида таъминланадиган динамик табиатини, жараённинг ночизиқ йўналишда кечишини, унинг матннинг бир текис тараққиётига бўйинсунмаслигини, автоматик ва оқилона, назоратли ва назоратсиз ҳаракатларнинг фаоллашувини, таржима беихтиёр ва назоратли бажариладиган ҳаракатлар замирида яратиладиган ахборот манбаларини танлашини, жараённинг махсус стратегиялар асосида, муаммолар ечимини излаш ва қарор қилиш ҳаракатлари фаоллигида кечишини [1;90] таржима жарёни когнитив тамойилларини татбиқ этишдаги аҳамиятли хусусиятлар, деб ҳисоблаймиз.

Хулоса. Умуман олганда, таҳлилга тортилган назарий манбалар асосида шуни таъкидлаш мумкинки, таржима жараёни таржимон хатти-ҳаракатларини тушуниш, қарор қабул қилиш ва муаммоларни бартараф этиш мақсадида фойдаланиладиган ўзига хос кўникмаларни талаб этувчи мураккаб фаолиятдир. ТЖТига йўналтирилган бундай тадқиқотларда, асосан, таржимоннинг ментал ҳолатлари махсус ўрганилган. ТЖТ ўтган XX асрнинг 80-йилларида такомиллаша бошланиб, ФЭБЭПлар психологиянинг ёзма таржима тадқиқи соҳасидаги илк уринишларни намоён этган. Таржимон психологиясига оид тадқиқотларнинг айримларида таржимон шахсияти, баъзиларида эса таржимон ҳиссиётлари ва таржима жараёни когнитив тамойиллари тадқиқ қилинган. Таржима жараёни орқали бир хил фаолият назарда тутилса-да, ҳар бир мутаржим психологик, ижтимоий, маданий ва биографик жиҳатдан ўзига хос услубга эга. Таржимон хулқ-атвори, реципиентга мотивация беришини англаш мақсадида шахсий ва дифференциал психологияга мурожаат этилган. Мутаржим характери ўрганиш орқали унинг ўзига хос хусусияти, тажрибаси, ўзгаларга муносабати англашилади. Таржимон фаолиятини ўрганишга қаратилган ҳар қандай тадқиқотда ижодкор индивидуал хусусиятларининг таржимага таъсири кузатилади. Бундай вазиятларда таржимон ҳақидаги маълумотларни ўрганиш масалага оидлик киритади. Шахсий хусусиятлар 15 мезони, шахсиятни

кўрсатувчи “катта бешлик” тип индикаторлари, шахсиятнинг 16 омили қиёсланиши натижасида таржимон шахсиятида ўзини намоён қилиш, эркинлик, қатъиятлилиқ хусусиятлари умумийлик касб этиб, таржима жараёнида устунлик қилган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. Монография.– Тошкент: “Наврўз”нашриёти, 2019. – 300 б.
2. Anderson J. *The Double Agent: Aspects of Literary Translator Affect as Revealed in Fictional Work by Translators*. *Linguistica Antverpiensa* № 4, 2005. – pp.171-182.
3. Bontempo K., Jemina N. *Evaluating Emotional Stability as a Predictor of Interpreter Competence and Aptitude for Interpreting*. *Interpreting* № 13(1), 2011. – pp. 85-105.
4. Bontempo K., Karen M. *In our Hands: Educating Healthcare Interpreters*, edited by Laurie S. and Karen M. – Washington DC: Gallaudet University Press, 2012. – pp. 105–130.
5. Bontempo K., Jemina N., Laurence H., Vicki B. *Does Personality Matter? An International Study of Sign Language Interpreter Disposition*. *Translation & Interpreting* №6 (1), 2014. – pp. 23-46.
6. Davou B. *Interaction of Emotion and Cognition in the Processing of Textual Material*. *Meta: Translator’s Journal* №52 (1), 2007. – pp. 37-47.
7. Feltrin-Morris M. *“The Art Concealed”*. *Translation and Literary Studies: Homage to Marilyn Gaddis Rose*, edited by M.Feltrin-Morris, D.Folaron, M.C.Guzman. – Manchester and Kinderhook: St. Jerome Publishing, 2012. – pp. 69-76.
8. Furmanek O. *Emotions and Language Choices in Multilingual Discourse*. – Krakow: Księgarnia Akademicka, 2005. – P.59.
9. Hansen G. *Experience and Emotion in Empirical Translation Research with Think-Aloud and Retrospection*. *Meta: Translators’ Journal* № 50(2), 2005. – pp. 511-521.
10. Henderson J. *Personality and the Linguist: a Comparison of the Personality Profiles of Professional Translators and Conference Interpreters*. Dissertation. – University of Bradford, 1984. – 240 p.
11. Hild A. *The Role of Self-Regulatory Processes in the Development of Interpreting Expertise*. In *Special Issue of Translation and Interpreting Studies* № 9(1), 2014. – pp. 128–149.
12. Jaaskelainen R. *Tapping the Process: An Explorative Study of the Cognitive and Affective Factors Involved in Translating*, 1999. – pp.191-198.
13. McCartney J.L. *Is Grit the ‘X-factor’ for Interpreters Leaving the Profession*. *Translation & Interpreting* №8(1), 2016. – pp. 30.
14. Merlini R. *‘Empathy’: A ‘Zone of Uncertainty’ in Mediated Healthcare Practice*. *The Journal of Intercultural Mediation and Communication* №8, 2015. – pp. 27-49.
15. Rosiers A., June E., Daniel B. *A Story of Attitudes and Aptitudes? Investigating Individual Difference Variables within the Context of Interpreting*. *Interpreting* №13(1), 2011. – pp. 53-69.
16. Schein J.D. *Personality Characteristics Associated with Interpreter Proficiency*. *Journal of the American Deafness and Rehabilitation Association* №7(3), 1974. – pp. 33 - 43.
17. Schweda-Nicholson N. *“Personality Characteristics of Interpreter Trainees: The Myers-Briggs Type Indicator (MBTI)”*. *The Interpreters’ Newsletter* №13, 2005a. – pp. 109-142.
18. Schweda-Nicholson N. *What Makes a Good Interpreter? A Study of Interpreter Trainees’ Personality Traits*. №7(2), 2005 b. – pp.61-100. <https://www.sis.gov.uk/language-specialist.html>
19. Séverine Hubscher-Davidson. *Translation and Emotion / A Psychological Perspective*. Taylor & Francis, 2018. – 235 p.
20. Sherry Sh., Timarova S, Salaets H. *“Measurement of Cognitive and Personality Traits in Determining Aptitude of Spoken and Signed Language Interpreting Students”*. – University of North Florida: Conference of Interpreter Trainers, 2008.
21. *“The Position of Psycholinguistic and Cognitive Science in Translation and Interpreting: An Introduction”*. In *Psycholinguistic and Cognitive Inquiries into Translation and Interpreting*. Edited by Ferreira A., W. Schwieter J., Gile D. – Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins, 2015. – pp.3-16.
22. Wilcox Sh. *The Myers-Briggs Type Indicator: Personality Types of Sign Language Students*. *Journal of Interpretation* №1(1), 1981. – 39-50.
23. Zannirato A. *The Quest for ‘Perfection’ Multidisciplinary Reflections on Aptitude and Affect in Interpreter Selection and Training*. *The Interpreter and Translator Trainer* № 7(1), 2013. – pp.107-127.

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA TASHXIS SAN'ATINING QO'LLANILISHI

Komiljonova Komila G'ofur qizi,
Urganch davlat universiteti talabasi
[*komiljonova1505@gmail.com*](mailto:komiljonova1505@gmail.com)

Annotatsiya. *She'riy san'atlar haqidagi nazariyalar bundan bir necha asrlar oldin paydo bo'lgan. Dastlab arab va fors olimlari, keyinchalik esa turkiy olimlar ularni o'rganganlar. Ushbu san'atlar ikki turga bo'linadi: so'zning ma'nosi bilan bog'liq she'riy san'atlar (ma'naviy) va so'zning shakli bilan bog'liq she'riy san'atlar (lafziy). Ayrim olimlar ham ma'noni, ham shaklni o'z ichiga oluvchi uchinchi tur ham borligini aytganlar. Ushbu maqolada so'z ma'nosi bilan bog'liq tashxis san'ati va uning paydo bo'lishi haqida nazariyalar keltirilgan va bu san'at Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni» asosida o'rganilgan. Devondan misollar olingan va tahlil qilingan. Tashxis san'atining fikrni ifodalashdagi o'rni ham izohlangan.*

Kalit so'zlar: *tashxis, bayt, mumtoz adabiyot, ijodiy an'ana, klassika, majoz, timsol, obraz, yangilik, holat.*

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВА ДИАГНОСТИКИ В ЛИРИКЕ ЭРКИНА ВАХИДОВА

Аннотация. *Теории о поэтическом искусстве появились несколько столетий назад. Сначала их изучали арабские и персидские учёные, а затем и турецкие учёные. Эти искусства делятся на два типа: поэтические искусства, связанные со значением слова и поэтические искусства, связанные с формой слова. Некоторые учёные говорят, что существует третий тип, который включает в себя как значение, так и форму. В данной статье представлены теории об искусстве персонификации и его происхождении. И это искусство изучалось на основе «Девона юности» Эркина Вахидова. В статье анализируются примеры, взятые из Девона. Также объясняется роль персонификации в выражении мысли.*

Ключевые слова: *персонификация, стих, классическая литература, творческая традиция, классика, метафора, символ, персонаж, новаторство, ситуация.*

THE APPLICATION OF THE ART OF DIAGNOSTIC IN THE LYRICS OF ERKIN VAHIDOV

Abstract. *Theories about poetic art appeared several centuries ago. First they were studied by Arab and Persian scientists, and then by Turkish scientists. These arts are divided into two types: poetic arts related to the meaning of the word and poetic arts related to the form of the word. Some scientists say that there is a third type, which includes both meaning and form. This article presents theories about the art of personification and its origin. And this art was studied on the basis of «Devon of Youth» by Erkin Vakhidov. Examples from «Devon» are taken and analyzed. The role of personification in the expression of meaning is also explained.*

Keywords: *personification, verse, classic literature, creative tradition, classics, metaphor, symbol, tazmin, innovation, condition.*

Kirish. *Azaldan she'r ilmida badiiyat masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ilmi bade'ning nazariy asoslari arab, keyinchalik fors olimlari tomonidan qurilgan bo'lsa-da, turkiy adabiyotda ham keng tarqalgan hisoblanadi. She'riy san'atlar dastlab ikki turga: lafziy va ma'naviyga bo'lingan. So'ngra ular orasidan uchinchi tur sifatida lafziyi-ma'naviy, ya'ni mushtarak san'atlar ajralib chiqqan. Jumladan, ma'naviy san'atlar so'zning ma'nosi va g'oyasiga asoslanuvchi tazod, iyhom, tadrij, tashxis kabilarni o'z ichiga oladi. Ular orasidan aynan tashxis san'ati «hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'ati» bo'lib, [4,38] dastlab alohida she'riy san'at sifatida qaralmagan, balki majozning tarkibiy qismi deb hisoblangan. Bu to'g'rida adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqov shunday fikr bildirgan edi: «Bunday tasvir tasodifiy bo'lmay, tasvir obykti bo'lmish hayvon, o'simlik yoki ashyoning biror belgisi bilan inson xususiyati yoxud fe'l-atvori o'rtasidagi qandaydir ramziy o'xshashlikka asoslanadi. Masalan, yog'in bulutning yig'isiga, momaqaldiroq osmonning oh-u nolasiga nisbat berilar ekan, ularning zamirida tashbihiy-*

istoraviy aloqa yotadi»[3,239]. Tashxis va istioraning o'zaro bog'liqligi haqida fikrlar asrlar davomida ham bor bo'lgan. Xususan, fors adabiyotshunosi Atoulloh Husayniy o'zining «Badoye us-sanoye» asarida istioraga ta'rif berar ekan, quyidagicha izohni ham keltirib o'tgan: «Aqlig' jondorlardin o'zga tilsiz hayvonlar, o'simliklar, jismlarga xitob va alarning orasidagi tig'-u qalam, kun-u tun, sham-u gul munozaralari yanglig' shoirlar yaratgan munozaralar ham istiora qabilidindur»[2,220]. Ya'ni shoirlar yaratgan munozaralar, ulardagi jonli va jonsiz mavjudotlar suhbatlari, harakat va holatlari ham istioraga misol qilinishi mumkin ekan. Ammo bugungi kun adabiyot nazariyasi jihatidan tashxis alohida she'riy san'atdir. Bunga adabiyotshunos Anvar Hojiahmedovning o'z ilmiy ishlarida bu san'atga alohida o'rin berib, tahlil qilganini dalil sifatida keltirishimiz mumkin.

Tashxis san'ati nafaqat Lutfiy, Navoiy, Furqat kabi shoirlar ijodida, balki keyingi davr ijodkorlari lirikasida ham faol qo'llanilgan. XX asrga nazar tashlaydigan bo'lsak, yuz yillikning ikkinchi yarmida mumtoz aruz vaznida ijod qilgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon va Matnazar Abdulhakimlar ham o'z g'azallari bilan bu san'atga yangicha ruh bag'ishladilar, desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni»da tashxisning betakror namunalarini uchratish mumkin.

Asosiy qism. Erkin Vohidov aruz vaznida ijod qilar ekan, adabiyotimizning necha yillik tarixi davomida an'anaga aylangan tasvir, obraz va uslublardan mohirona foydalangan. Tashxis san'atining ming yillik tarixga ega xalq og'zaki ijodiga borib taqalishini hisobga oladigan bo'lsak, oradan o'tgan vaqt mobaynida bu san'at yanada original ko'rinishlar kasb etib boraverdi. Tabiiyki, o'z davrining eng yaxshi ijodkorlaridan deb tan olingan shoirning devonida ham bu san'atning mohirona istifodasiga guvoh bo'lamiz. Xususan, shoir g'azallarida gul, g'uncha bilan bog'liq tasvirlar va shu orqali shaxslantirishlar ko'p uchraydi. Masalan:

*Tun bilan yig'labdi bulbul g'uncha hajri dog'ida,
Ko'z yoshi shabnam bo'lib qolmish aning yaprog'ida.*[1,62]

Gul va bulbul obrazlari mumtoz adabiyotimizda oshiq va ma'shuqa timsoli sifatida qo'llanilib keladi. Lekin baytga diqqat qaratadigan bo'lsak, bu ikki obrazlarning vositasida nafaqat tashxis, balki husni ta'lil san'atini ham ko'rishimiz mumkin. Bulbulning tun bilan yig'lashi, ko'zyosh to'kishini insonga xos holatning qushga ko'chishi orqali shaxslantirishga asos bo'lgan bo'lsa, shabnamning aslida tabiat mo'jizasi yordamida hosil bo'lgan suv tomchisi emas, bulbulning ko'zyoshlari deya ta'riflanishi husni ta'lil-chiroyli dalillash san'atini hosil qilgan. G'azalning yana bir baytida ham tashxisning takrorlanmas ko'rinishlarini ko'rish mumkin:

*Asta barg ostida tinglab yotgan ermish sho'x sabo
G'uncha bulbuldan muhabbat darsin olgan chog'ida.*[1,62]

Baytda tasvirlanishicha, g'uncha bulbuldan muhabbat darsini olayotgan bir paytda sabo buni barg ostida tinglab yotgan emish. Haqiqatan, g'unchaning dars olishi, ya'ni bulbulning unga dars berishi va saboning barg tagida poylab-tinglab yotishi boshqa shoirlar ijodida uchramaydi. Shu bilan birga, tasvir ham shu qadar jonliki, beixtiyor o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanadi. Shunga o'xshash yana bir holatni «G'uncha» g'azalida ham ilg'ash qiyin emas:

*Barg ostidan muloyim boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan, bag'ring nechun tuguncha?* [1,63]

G'unchaning muloyim boqishi, sir saqlashi tashxis san'atiga asos bo'ladi va g'azal mazmuniga e'tibor bersak, g'uncha yosh o'smir qiz timsoli ekani ma'lum bo'ladi. Demak, uning iboli va uyatchan ekanligining sababi ham oydinlashadi. Shoirning «Sarv» radifli g'azalida ham ko'plab jonlantirishlarni uchratish mumkin. Sarv daraxtining tikligi va yorning qomati parallel tasvirlanar ekan, aynan shu daraxtning holati tashxisga asos bo'ladi:

*Kecha oydin, mavjli dengiz, kuy to'qir bedor sarv,
Oy kelib sarv uzra qo'ndi, bo'ldi oyruxsor sarv.* [1,69]

Yoki:

*Bo'y cho'zib har yon qaraydur, bundaman deb ayt, sanam,
Qomatingni bir ko'rarga kechadin xummor sarv.* [1,70]

G'azalxon tasavvurida baytlarni o'qishi bilan beixtiyor oydin kecha, mavj urib turgan dengiz bilan birga bedor sarvning kuy to'qiyotgani namoyon bo'ladi. Oy chiqib, sarvning ustida turishi esa zimdan oy yuzli yorga o'xshatiladi. Keyingi baytdagi sarvning yorga xummor bo'lib, bo'y cho'zib qarashi ham tashxis namunasi hisoblanadi. Erkin Vohidovning mahorati shundaki, u yorini shunchaki ta'riflab qo'ya qolmaydi, balki yorining qomatiga o'xshash sarv daraxtini obraz sifatida kiritib, uni shaxslantirish yordamida badiiy ta'sir kuchini ham oshiradi. Shuningdek, shoirning «Ko'zing» radifli g'azalida bir tasvirga duch kelamiz:

*Turfa bu jodularingga termulib lolmen bu kun,
Ko'zlarim hayronlig'iga nega hayrondur ko'zing? [1,72]*

Insonlarning hayron bo'lishi va, umuman, turli his-tuyg'u va holatlarni boshdan kechirishi tabiiy hol, lekin bu tasvirda yorning ko'zlari ham, oshiqning ko'zlari ham lol-hayron bo'lib turibdi. G'azalning boshidanoq shoir ko'z obrazini yetakchi o'ringa qo'yadi va unga yorga murojaatning asosiy vositasi sifatida qaraydi. G'azal davomida ham shunday holat ifodasi muallifning mumtoz adabiyotning yor uzvlariga murojaat qilish an'anasini yangicha usulda mohirona istifoda eta olganini bildiradi. Erkin Vohidovning yana bir g'azali «Do'stlarimga» deya nomlanadi va u shoirning Nasiba va Anvar ismli do'stlarining to'yiga bag'ishlab yozilgan. Unda qahramonlarning shodlik va quvonchiga hatto tabiat ham jo'r bo'layotganday tasvirlanadi:

*Falak yulduzdan o't yoqmish bukun to'yning qozoniga,
Somon yo'lin shakar aylab, cho'michdek tutdi Hulkarni.*

*Bu oqshom ne uchun raqs etmasin sayyoralar xandon,
Muzayyan bir uzukka qo'ndirib pokiza gavharni. [1,77]*

Tasvirga diqqat qilsak, unda falak xursandligidan yulduz orqali to'y qozoniga o't yoqadi, muzayyan bir uzukka gavhar qo'yilgani, ya'ni kelin va kuyovning bir-biriga mosligi tufayli sayyoralar xandon raqsga tushadi. Falak va sayyoralarning holati tashxis san'atiga asos bo'lgan, deyish mumkin. Chunki o't yopqish ham, raqs tushish ham insoniy harakat-hoatlardir. Erkin Vohidovning navbatdagi g'azali boshdan oyoq shaxslantirishga asoslangan. Bu safar muallif obraz sifatida «xayol»ni tanlaydi. G'azal matla'sidan tortib oxirigacha turli harakat va holatlarni xayol bajarishi tashxisning mukammal namunasi bo'la oladi. Quyidagi baytlarda buning isbotini ko'ramiz:

*Kechalar kipriklarimda tarki xob aylar xayol,
O'z hayotimdan o'zimga sarhisob aylar xayol.*

*Qissa aytur moziydingoh, ertadan afsona goh,
Goh savol aylar ko'ngilga, goh javob aylar xayol. [1,82]*

Inson xayol surib, turli fikrlarni o'ylar, muhokama qilar ekan, uyqu qoshishi mumkin. Bunda xayol bir vosita hisoblanadi. Lekin shoir xayolni vosita emas, obraz qilar ekan, unga turli xatti-harakatlarni bajartiradi, lirik qahramonning kipriklarida uyqusini qochirguvchi, hayotni sarhisob qilib, goh o'tmishdan, goh kelajakdan qissa aytguvchi, ko'ngil va balki vijdonni ham savol-javob qilguvchi alohida tushuncha sifatida tasvirlaydi, uning darajasini esa o'z ijodiy mahorati bilan yanada oshiradi.

Erkin Vohidovning devonidagi tashxislarni tahlil qilish mobaynida yana bir g'azal e'tiborimizni tortdi. Ushbu g'azal shoirning o'quvchilariga yaxshigina tanish va «Uzum» deb nomlanadi. Nomidan ham ma'lumki, g'azal o'zbek xalqining sevimli mevalaridan biri uzumga bag'ishlangan va uning vositasida yana lirik qahramon yoriga murojaat qilgan. G'azalda ko'plab shaxslantirishlarning guvohi bo'lamiz. Yanada aniqroq tasavvur qilish uchun g'azal matnini keltirib o'tishni lozim deb topdik:

Uzum
*Termular shabnamli yaproq ostidan pinhon uzum,
Lablaringga yetmoq istab tong sahar giryon uzum.*

*Oftob mashshotasi tok sochini nurdan tarab,
Zangining bo'yniga osmish shodayi marjon uzum.*

*Toqi ishqom misli osmon, har taraf yulduz sochur.
Voh ajab, bu ne sinoat, yer uzum, osmon uzum.*

*Tark etib, ko'shkin savatga qo'ydi bosh, izlab seni
Charx urib bozor ichida bo'ldi sargardon uzum.*

*Kimki oshiqlikni da'vo aylasa, shuldir jazo,
Oqibat xum ichra bo'ldi mahkumi zindon uzum.*

*Xum ichida necha yil xun bo'lmoq erkan qismati,
Lablaringga yetdi oxir bir piyola qon uzum.*

*Bir qadah gulgun sharob tutdim senga, bir xo'plading,
Toleyimdan voladurman, baxtidan hayron uzum.*

*Ey dilorom, senga Erkin tutdi maydek she'rini,
Dil xumida necha yil qon bo'ldi bu devon-uzum.[1,86]*

G'azal o'zining mukammalligi bilan mumtoz adabiyotimizdagi hech bir shu janrdagi asardan qolishmaydi. Erkin Vohidov o'z badiiy mahoratini shu g'azal vositasida ko'rsatib bergan, deyishimiz ham mumkin. G'azal 8 baytdan iborat bo'lib, an'anaviy ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Unda asosiy uchta obraz: lirik qahramon, yor, uzum ishtirok etgan. Matla'dayoq tabiat manzarasi tashxis yordamida ifodalangan, ya'ni shabnam tushgan yaproq tagidan uzum tong-sahardan yorning lablariga yetish uchun termulib, giryon bo'lib turganmish. Uzum yaprog'iga shabnam tushishi, uzumlar tabiat mo'jizasi bilan yaproq tagida yetilishi, ana shu yaproq uni qushlardan pana qilib turishi haqiqat. Ammo g'azaldagi uzum yorning lablariga yetishni-yor uni tanovul qilishini istab yaproq tagidan termuladi. Ana shu holat xuddi oshiqning o'z ma'shuqasiga erishmoq yo'lidagi intizorligiga o'xshaydi va shu jihatdan tashxisni hosil qiladi. Keyingi bayt esa undan ham chiroyli, biroq undagi ayrim so'zlar kitobxonga notanish bo'lishi mumkin: mashshota-qiz va kelinlarning sochlariga oro beruvchi, pardozchi[6,377], mumtoz adabiyotdagi an'anaviy timsollardan biri, obraz sifatida ham qo'llanilgan. Asosan, yorning go'zalligini ta'riflashda vosita vazifasini bajargan. Zang-tokning ko'pyillik yo'g'on tanasi. Endi bayt mazmuniga qaytsak: oftob pardozchilik qilib o'z nurlari bilan tok sochini tarabdi va zangining bo'yniga uzumni marjon shodasi kabi taqibdi. Baytdagi tashxislar oftobning soch tarashi, uzumni marjon kabi tok bo'yniga taqishi bo'lsa, undagi o'xshatishlar ham juda original. Xususan, oftobni mashshota sifatida tasvirlash unchalik ham an'anaviy tasvir emas, uzumning zangning bo'yniga ilingan marjonga o'xshashi esa boshqacha go'zallik va iste'dod ifodasi desak, yanglishmaymiz. Uchinchi bayt ham o'xshatish bilan boshlanadi: osmon xuddi ishqomning toqiga o'xshaydi, uning har tomon yulduz sochishi ishqomdagi uzumlarga o'xshaydi, shu tufayli shoir «yer uzum-osmon uzum» deya parallel o'xshatish keltiradi. Keyingi bayt tashxisning yana bir namunasi o'zida tashiydi: uzum ko'shkini tark etib, savatga boshini qo'yib, bozorda sargardon bo'lib yorni izlagan emish. Uzum yetilgach, bog'bonlar uni uzib, savatga joylab, bozorga keltirib sotishadi. Ziyrak shoir shu holatdan ham o'zgacha ifoda yarata oldi. G'azal davomida muallifning uzumni keltirishdan niyati oydinlashadi: oshiqlikni da'vo qilganlar uzum kabi xum ichida zindonband bo'lishadi. Demak, uzum bir oshiq timsoli ekan. Voqealar rivoji zindonbandlik bilan yakunlanmaydi. Oshiq uzum xumning ichida necha yil xun bo'lib(mayga aylanib), oxiri yorning lablariga piyolada yetib boradi. Uning bir piyola qon bo'lib borishi yillar davomida ishqqa sabr qilib kutib, hijronda bag'ri qonga aylanganini bildiradi. Oshiqlikning barcha xususiyatlari uzumga o'tgach, tashxis san'ati hosil bo'ladi. G'azalning so'nggi baytlarida voqeaga lirik qahramonning o'zi ham aralashadi: o'sha piyoladagi mayni yorga tutar ekan, o'zi taqdiridan vola(hayratda qolgan[6,149]), uzum esa baxtidan hayron bo'ladi. Maqta'da shoir yorga murojaat qilar ekan, o'z devonini uzumga o'xshatadi. Shoirning oshiqlik iztiroblari ifodasi bo'lmish devon xuddi uzum, undagi she'r esa maydir. G'azal o'xshatish va shaxslantirish asosiga qurilib, ma'naviy va badiiy jihatdan o'z takomiliga yetgan.

Shunga o'xshash g'azallarni Erkin Vohidov devonida ko'plab uchramiz. Misol sifatida uning «Sevgi», «Yana qalamga», «Tong g'azali», «Ko'zgu», «Quyosh», «Taroq» g'azallarini keltirish mumkin. Xususan, «Taroq» g'azali o'zida an'anaviy timsol va obrazlarning noan'anaviy ifodasini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Uning matniga diqqat qaratsak:

Taroq

*Sochlaring yodida tunlar ko'ksini dog'lar taroq,
Kecha yig'lab, tongda bir bor ko'nglini chog'lar taroq.*

*Zulfigga yetdi-yu tongda bo'ldi chehrang oshig'i,
Hasratini ko'zguga aytib o'zni qiynog'lar taroq.*

*Ul taroq ermas sochingda, balki yoshli kiprigim,
Yo'qsa, ne boiski, zulfig shuncha ardog'lar taroq.*

*Rashk etib badkor taroqqa gohi ko'nglim g'ash bo'lur,
Jonga payvand sochlaringni nega tirnog'lar taroq?*

*Koshki bo'lsaydim tarog'ing, tog' bo'lur erdi ko'ngil,
Chunki oftob sochlariga, ne ajab, tog'lar taroq.[1,112]*

Yuqorida keltirilgan mashshota obrazi kabi taroq obrazi ham mumtoz adabiyotimizning an'anaviy obrazlaridan hisoblanadi. Go'zallik ta'riflanar ekan, atir-upa, ko'zgu, surma, xina va taroq kabilarning ham tilga olinishi noodatiy hol emas. Lekin Erkin Vohidov an'anaviy go'zallik tasvirida o'zgacha yo'lni tanladi, taroqni alohida mavqega ko'tardi. Matla'dayoq tashxisning bir necha namunasini ko'ramiz: taroq yorning sochlarini eslab, tunda ko'ksini dog'laydi, kechasi bilan yig'lab, tongda bir bora-yor sochini taraganida ko'nglini chog'laydi. Asli bu harakatlar insonga xos, ammo shoir nazdida hatto taroq ham yor go'zalligiga oshiq. Yorning zulfiga yetgan taroq endi uning chehrasiga oshiq bo'ladi, hasratini esa ko'zguga aytib beradi. Bu tasvir orqali shoir tashxisni uzviy davom ettirgan. Lirik qahramon esa taroqdan yorini rashk qilar ekan, bir tomondan o'sha taroqning o'rnida bo'lishni xohlaydi. Zotan, shunday bo'lganida ko'ngli tog' bo'lar edi. Chunki tog'lar ham oftobning sochlariga taroq bo'ladi. Muallif g'azalning yakuniy qismida ham badiiyat va ma'noni nazardan chetda qoldirmaydi: yorning yuzini oftobga, o'zini esa unga taroq bo'ladigan tog'ga o'xshatadi.

Xulosa. Erkin Vohidov mumtoz adabiyot bilimdoni sifatida ko'plab an'analarni davom ettirdi, o'zining ilmi bade', ilmi qofiya va ilmi aruz bobidagi mahorati ko'zgusi sifatida «Yoshlik devoni»ni avlodlarga meros qilib qoldirdi. Yuqorida tahlilga tortilgan misollardan ham uning naqadar mahoratli shoir ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qolaversa, u shunchaki taqlid yo'lini tanlamadi, tashxis san'ati misolida ko'rganimizdek, an'anaviy obrazlar yordamida novator uslub yaratdi. Shoirning har bir satri adabiyotimiz xazinasida gavhar bo'lib qolishiga shubha yo'q.

ADABIYOTLAR:

1. Vohidov E. *Tanlangan asarlar.* – Toshkent: Sharq, 2018.
2. Husayniy A. *Badoye us-sano'ye.* – Toshkent: G'afur G'ulom, 1981.
3. Is'hoqov Y. *So'z san'ati so'zligi.* – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
4. Hojiahmedov A. *Mumtoz badiiyat malohati.* – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Boboyev To'xta She'r ilmi ta'limi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
6. Shamsiyev Porso, Ibrohimov S. *Navoiy asarlari lug'ati.* – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.

*Muxammadova Maxbuba Mo'minovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
mahbuba93muhammadova@mail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hasanxoja Nisoriyning Muhammad Shayboniyxon haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Shayboniy qalamiga mansub nazm namunalari yaxlit tarzda g'oyaviy-badiiy tahlil qilingan. Shoh-shoir ijodining mavzu, g'oya, mazmun, badiiy obraz poetikasi nuqtayi nazaridan o'ziga xosliklari oydinlashtirilgan. Qolaversa, Muhammad Shayboniyxonning g'azal, tuyuq, ta'rixnavislikdagi mahorati teran yoritilgan.

Maqolada Muhammad Shayboniyxonning islom qonunshunosligi ilmidan yetarli xabardor bo'lganligi, qur'on va sunnat hukmlariga tayangan holda jamiyat a'zolarining huquq va burchlari, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar majmuiga oid nizomu tartiblarni shariyati islomiya ahkamlari doirasida chuqur anglab, tarhi toza baytlar bitgani ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Muzakkiri ahbob, Muhammad Shayboniyxon, Naqshbandiya, ta'rix, tuyuq, g'azal, tasavvuf.

МУХАММАД ШЕЙБАНИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ НИСАРИ

Аннотация. В этой статье выражаются взгляды Хасанходжи Нисари на творчество Мухаммада Шейбани-хана. Образцы стихов, написанных Шейбани, всесторонне проанализированы в идейном и художественном отношении. Выяснены особенности творчества поэта с точки зрения темы, идеи, содержания, поэтики художественного образа. В статье подробно рассматриваются навыки Мухаммада Шейбани-хана в газели, поэзии и историографии.

В статье показано, что Мухаммад Шейбани-хан был достаточно хорошо знаком с наукой исламского правоведения, опирался на предписания Корана и Сунны, имел глубокое понимание юридических процедур, связанных с комплексом личных и общественных отношений, права и обязанности членов общества, в рамках исламских правил шариата, и писал чистые стихи.

Ключевые слова: Музаккири ахбаб, Мухаммад Шейбани-хан, Накибандия, таърих, туюк, газель, мистика.

MUHAMMAD SHEYBANI IN THE INTERPRETATION OF NISARI

Abstract. This article expresses Hasankhoja Nisari's views on Muhammad Shaibani Khan. Samples of poems written by Shaybani have been comprehensively analyzed ideologically and artistically. The peculiarities of the poet's work in terms of theme, idea, content, poetics of the artistic image have been clarified. Muhammad Shaybani Khan's skill in ghazal, poetry, and historiography is covered in depth in the article.

The article shows that Muhammad Shaibani Khan was sufficiently aware of the science of Islamic jurisprudence, based on the rulings of the Qur'an and the Sunnah, he had a deep understanding of the legal procedures related to the set of personal and social relations, the rights and duties of the members of society, within the framework of the Sharia Islamic rules, and showed that he had finished verses with clean lines. Given

Keywords: Muzakkiri ahbab, Muhammad Shaibani Khan, Naqshbandiya, history, tuyuk, ghazal, mysticism.

Kirish. "Muzakkiri ahbob"ning "Foniy davlatdan mangulik mulkiga safar qilgan Chingiziy sultonlar jamoasi zikrida" sarlavhasi ostidagi maqolasi birinchi ruknining birinchi fasli Shayboniyxonga bag'ishlangan fiqra bilan boshlanadi. Maqolada Shayboniy qalamiga mansub bir ta'rix, bir tuyuq va bir tarixiy g'azal matnidan ikki bayt keltirilgan. Boshqa manbalardan farqli ravishda, Hasanxoja Nisoriy tazkira matnida Muhammad Shayboniyning Hirot shayx ul islomi va qozisi Ixtiyorga yo'llagan g'azalidan iqtibos keltirish hamda turkiy til grammatikasiga oid kitob yozib, Qozi Ixtiyorga yuborishi haqidagi tarixiy ma'lumotni qayd etish bilan Temur va temuriylardan keyingi yangi sulolaning asoschisi nafaqat o'z davrining e'tiborli

hukmdori, balki o'z ona tilining ahamiyatini chuqur idrok eta olgan va uning nufuzini keng yoyishga intilgan madaniyat arbobi ekanligini ham teran dalillagan.

Tadqiqot obyekti. Mazkur tadqiqot uchun asosiy obyekt Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asaridir.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolada tahlillar qiyosiy-tipologik, tarixiy, germevntik metodlar asosida amalga oshirilgan.

“Shahid bo'lgan baxtli xoqon Abulfath Muhammad Shayboniyxon ibn Shoh Budog' sulton bin Abulxayrxonning – go'ri nurga to'lsin - muqaddas yodi” sarlavhasi ostidagi dastlabki jumlar Muhammad Shayboniyxonning Hazrat Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqatiga ixlosu e'tiqodini yoritishga yo'naltirilgan. Modomiki, gap tariqat va uning peshvosiga xonning e'tiqodi haqida ekan, tazkiranavis o'z so'zlarini zehnu zakovat, fazlu farosatda mumtoz, Haq asroriga oshno, ruhiy kamolotga erishgan, insonlar o'qishi va eshitishini chin ko'ngildan istaydi va ma'no ahliga “qalbi pok ahli safolar”, “topqirlikda mohir zukkolar”, “quyosh yog'duli yorqin ko'ngillilar” sifatlashlari bilan murojaat qiladi: “Qalbi pok ahli safolar va topqirlikda mohir zukkolarining quyosh yog'duli yorqin ko'ngillaridan yashirin qolmasinkim, Bayt:

Xoqoni sa'idu xon bin xon,

Dar gardishi tosi charxi gardon”. [1;17]

“Dunyoga hirs qo'yan kishining ko'ziga dunyodagi har bir yoqimli narsa uning nafsi, uning hirs uchun yaratilgandek ko'rinadi. Dunyo esa uning hirsini qo'zgatish uchun yasanib tovlanishda davom etaveradi. Oqibat, u insonni yeldirib-yugurtirib ado qiladi. Xoliq bandanigina unuttirib, nafsu havoning quliga aylantiradi”. [2;204.] Faqat tariqatga sidqiy ixlosgina insonni bunday halokatli ofatdan asrab qoladi. “Muzakkiri ahbob” muallifi ayni haqiqatni ilmiy va badiiy ifoda uyg'unligida mohirona aks ettirgan: “Baxtli xoqon va xon o'g'li xon, bu aylanuvchi falak gardishida–dunyoning yaltiroq bezaku naqshlari va hayot-mamot tashvishlaridan ko'z ka'bataynini yiroq tutib, balki yolg'onchi taqdir naqshu nigor bandidan o'zni xalos etib va dilni Naqshbandga bog'lab, suv va tuproq naqshi mushohadasidan jonu dil sirini anglab, bu shatranj maydonida murod naqshi (o'yini)ga talabgor bo'lib, xuddi maqoldagidek borliqdan yo'qlikka ko'chguncha dovur Naqshband nomi bilan mashhur oliy hazrat, qudsiy manzilat xoja Bahol-ul-haq val-haqiqata vad-dunyo vad-dinning sharif ma'naviyatlari maqomiga yuz tutib...”. [1;17] “Ko'z ka'batayni”, “naqshu nigor bandi”, “suv va tuproq naqshi mushohadasi”, “jonu dil siri”, “shatranj maydoni”, “murod naqshi” istioralari yagona mantiq rishtasiga marjondek tortilib, fikrning g'oyaviy-badiiy quvvatini behad yuqori darajaga ko'targan. Bu hayoti dunyoda insonning hirsini qo'zgab, o'ziga mahliyo etadigan yaltiroq bezaku naqshlar ming-minglab topiladiki, inson o'sha naqshlardan ko'zlarini asrab (“ko'z ka'bataynini yiroq tutib”), ro'yo-yolg'on dunyo go'zalliklari naqshu nigori bandidan o'zini qutqara olsa, dilni Naqshbandga bog'lay oladi. Ko'zni yashnatadigan naqshlardan xalos bo'lmay turib, o'zlikdan chiqib bo'lmaydi, o'zlikdan kechmay turib, Naqshbandga dilni bog'lab bo'lmaydi. Tazkirada keltirilgan matndagi “suv va tuproq naqshi mushohadasidan jonu dil sirini anglab” istioraviy ifodasi yanada teran ma'noga ega. Adabiy manbalarda suv - soflik va saxovat, tuproq - sabr, chidam, kamtarinlik, hamida axloq ramzi sifatida talqin qilinadi. “Jonu dil sirini anglash” insonning o'zligini anglashi demakdir. Tazkiranavis talqinicha, “suv va tuproq naqshi mushohadasi” inson qalbini nafsoniy dunyoga bog'lanib qolishdan, dunyoparastlik illatidan tozalaydi. Ko'ngilni nur kabi yoritib, uni ma'rifatga, insoniylik sirlarini kashf etishga chorlaydi. Dunyoning yaltiroq naqshu nigorlari bandidan qutulish sari qadam tashlagan inson Hazrat Bahouddin Naqshbandning ostonasiga niyozmandlik bilan yuzlanib, shu “maqsud qiblasi va murod ka'basi”ni (Navoiy) o'zi bilan Haq o'rtasida vosita bilsa, ulug' Xoja himmatidan yuksak martabalarga erishadi, tilaklari ijobat bo'ladi. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, Muhammad Shayboniyxon Hazrat Bahouddin Naqshbandga xuddi shunday e'tiqodda bo'lgan: “...o'zining kishi hayratini oshiruvchi har bir ishida ul oliyshon ostonga niyozmandlik bilan boqib, ul muqaddas joyni vosita bilib, izzatli Xazrat ulug' nomidan yuqori darajot va yaxshi hojotlar tilaganlar”. [1;17] Ilmiy nasrda “naqsh” so'zini bir necha o'rinda o'ziga xos jiloda bejirim takrorlab, matnda ifodalanayotgan ma'noning muhimligini o'quvchiga shu so'z orqali anglatgan Hasanxoja Nisoriy “Muallifdan” sarlavhasi ostida “naqsh” kalimasini iltizom qilib, o'z ijodidan bir g'azal keltiradi. Nisoriy qalamiga mansub o'sha asar quyidagi matla' bilan ochiladi:

Ey, ka'batayni dida bar har naqsh karda band,

Az bandi naqsh bigzaru dil neh ba Naqshband. [1;17]

Besh baytdan iborat g'azal matla'sidan maqta'iga qadar yuqorida ilmiy nasrda bayon etilgan muallif fikrlarining sharhiga xizmat qiladi.

Hasanxoja Nisoriy ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Shayboniyxon siyosiy voqealarga aralashguniga qadar Amir Abdulali hukmronligi zamonida Buxoroda yashagan. Ayrim kishilar alg'ov-dalg'ovga sabab bo'ladigan xatti-harakat bilan uni Buxorodan chiqib ketishiga majbur qila boshlaganlar. Shunda Muhammad

Shayboniy panoh izlab o'z yashash manzilini Hazrat Bahouddin Naqshbandning mozori yaqiniga ko'chiradi. Va Bahouddin Naqshbandning nabiralari-Nizomiddinxoja Mir Muhammad Naqshband xizmatiga kiradi. Ma'lum muddat Allohga chin ko'ngildan ibodat qilib, xolis bandalik xizmatini ado etgan, tabarruk ostonada tavof va xizmat sharafiga muyassar bo'lgan Muhammad Shayboniy ketishga ijizat so'raydi. Xoja Mir Muhammad ruxsat bermaydilar, shundan keyin u yana bir necha muddat Hazrat Bahouddin Naqshband mozori boshida istiqomat qilib, toat-ibodatga mashg'ul bo'ladi.

Hasanxoja Nisoriy Muhammad Shayboniyning adabiyotga, olimu fozillarga yuksak e'tiqod va hurmatda bo'lgan, noyob va serqirra iste'dod sohibi sifatida talqin qiladi va uning ijodidan bir ta'rix va bir tuyuqni namuna sifatida keltiradi.

“Muzakkiri ahhob”da Muhammad Shayboniy ijodidan namuna sifatida keltirilgan ta'rixda tasavvufning mashhur shayxlaridan biri, kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubroning vafoti sanasi yoritilgan. Muhammad Shayboniy ta'rix-she'rdagi “shahidlar shohi” (“shahi shuhado”) ifodasi orqali 1221-yilda mo'g'il bosqinchilariga qarshi kurashda halok bo'lgan vatanparvar tariqat piringning siymosini va vafoti sanasini birgina baytda san'atkorona aks ettirgan:

Oning ta'rixidir shahi shuhado,

Yana bir alif birla bo'lur ado. [1;17]

Ko'pgina darslik, monografiya va maqolalarda tadqiqotchilar Muhammad Shayboniyning badiiy ijodiga munosabati haqida mulohaza yuritarkanlar, “Muzakkiri ahhob” ma'lumotlariga tayangan holda yuqorida eslatilgan ta'rix-she'rni hamda “yobular” so'zining urug' va ot turi ma'nolaridan mohirlik bilan foydalanib yaratilgan tajnisli tuyuqni misol sifatida keltiradilar.

Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Imomiddin Nasimiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy kabi turkiyo'y, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy singari zabardast fors-tojik shoirlari ijodidan ilhomlangan Muhammad Shayboniyning 320 g'azal, 16 ruboiy, 13 tuyuq, 11 to'rtlik, 5 ta'rix va 48 muammo yozganligi Istanbulda, “To'pqopi” saroyi muzeyi xazinasida saqlanayotgan notugal devoni orqali ilm ahliga ma'lum. [3;39-43]

Tabiiyki, “Yaxshi she'rlari bor” deb ta'kidlagan Hasanxoja Nisoriy Muhammad Shayboniy she'riy merosi va uning janrlar tarkibidan yetarli xabardor bo'lgan. Ammo tazkira janri tabiati va talab-tamoyillaridan kelib chiqqan holda uning ijodidagi besh ta'rixdan va o'n uch tuyuqdan bittadan namuna keltirish bilan cheklangan. Ba'zi ishlarda “So'g'd ichinda o'lturubdur yo bular” deb boshlanuvchi she'r haqida “...quyidagi tuyuqni ham Shayboniyga nisbat beradilar” kabi ifodalar uchraydi. [4;18]

Bunday ifodalar Hasanxoja Nisoriy ma'lumotlarini oz bo'lsa-da shubha ostiga qoldiradi. “Muzakkiri ahhob” Shayboniy va shayboniylar tarixi, siyosiy faoliyati va ularning ma'naviyatga munosabati haqida ma'lumot beruvchi eng ishonchli manba bo'lib, tazkiradagi dalillarga turlicha munosabatda bo'lish ilmiy adolat mezonlariga rost kelmaydi. Munozara yuritilayotgan masala xususida Hasanxoja Nisoriy yozadi: “Bu tuyuqni ham manzur bo'larlik aytgan:

So'g'd ichinda o'ltururlar yobular,

Yobularning mingan oti yobular.

Yobularning ilgidan el tinmadi.

Yo bular bo'lsin bu yerda yo bular.” [1;20]

“Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida har bir zamon ijodkorlari o'z davri dunyoqarashi, voqelikni idrok qilish, tushunish salohiyati, ta'bi, didi, ma'naviy ravnaqi ehtiyojlaridan kelib chiqib turli adabiy janrlarda badiiy mushohada yuritgan... Shu ma'noda adabiy janrlarning shakllanishi va taraqqiyoti ijod jarayonining xos qonuniyatlari bilan birga tarixiy hayot, ijodkor yashayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelik va ilohiy-irfoniy g'oyalari zaminida tug'ilgan teran tafakkur takmili bilan aloqadordir”. [2;68] Tuyuq- mumtoz adabiyotning eng murakkab janrlaridan biri. U ijodkordan keng muhokama yuritishni, chuqur nazariy bilimni talab qiladi. To'rt misradan iborat ixcham matnga muhim bir g'oyani singdirish, bir so'zni uch o'rinda uch xil ma'noda qo'llash, shu bilan birga vazn, qofiya va badiiyat talablariga to'la amal qilish uchun shoirida katta iste'dod bo'lishi zarur.

Hasanxoja Nisoriy shoir va olim sifatida ayni haqiqatni teran anglagan.

O'quvchida Muhammad Shayboniyning shoirlik iste'dodi, tuyuqnavislik mahorati haqida yorqin tasavvur hosil bo'lishi uchun janrning arab lisonida bitilgan bir namunasini keltirgan:

Fi zoviatil – hajr anisiy – u'diy,

Val muhabbata favqa nar qalbi u'diy.

Monautu maqosidi va lo mau'diy,

Yo afiyati ajaztu u'diy-u'diy. [1;21]

Arabiy matn mazmuni “Muzakkiri ahbob” tarjimoni Ismoil Bekjon tomonidan o‘zbek tilida quyidagicha ifodalangan:

Ayriliq burchagiga chekingan ey yorim, qayt,
Muhabbatdan yurakka tushmoqda cho‘g‘ uddan.
Na maqsadim hosil, na va‘dangga vafo bu payt,
Huzuringga yetmoqdan ojizman, qil madad, kel-qayt. [1;21]

Tajnis moddasi “u‘diy” kalimasining ma‘nolarini olim quyidagicha sharhlaydi: “Bu arabcha tuyuqning birinchi satridagi “u‘diy” “qayt”, ikkinchisida “o‘tin, ud daraxti”, uchinchisida “va‘da”, oxirida esa “kel – qayt” ma‘nolarini bildiradi”. [1;21] Arab tilida bitilgan tuyuq muallifini “Muzakkiri ahbob” muallifi aniq aytmagan. Hasanxoja Nisoriy “Chunonchi, buyuklardan biri aytmişlar” deyish bilan cheklangan. Qiyos va Muhammad Shayboniyning shoirlik salohiyati haqida tasavvur paydo qilish uchun keltirilgan arab tilidagi tuyuqning Sayfiddin Boxarziy qalamiga mansubligi iste‘dodli olim va mohir tarjimon Ismoil Bekjon tomonidan aniqlangan.

Muhammad Shayboniy ijodining janr nuqtayi nazardan o‘zigagina xos yetakchi tamoyillaridan birini yorqinroq sathda ko‘rsatish uchun Sayfiddin Boxarziy ma‘naviy merosiga nazar tashlagan. Murshidi komilning arab tilida bitilgan tuyuqlaridan birini tazkirada keltirgan.

Hazrat Alisher Navoiyning “Xazoyinul-maoniy” devoniga 13 ta tuyuq kiritilgan bo‘lib, fard, qit‘a, ruboiy kabi kichik she‘riy janrdagi asarlariga nisbatan kam hisoblanadi.[5;385] O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida ulug‘ Navoiydan keyin eng katta ma‘naviy meros qoldirgan Muhammadrizo Ogahiyning “Ta‘vizul - oshiqin” devonida Sharq mumtoz adabiyotining o‘n to‘qqiz janridagi asarlar jamlangan.“Ta‘vizul - oshiqin” tarkibida 10 ta tuyuq bor. [6;12]

Ijodkor tuyuq yaratishda tajnisning turli ko‘rinishlaridan so‘zlarning shaklan bir xilligi va yaqinligiga ko‘ra foydalanar ekan, badiiy tasvir vositalarini muhim g‘oya, chuqur hayotiy va insoniy mohiyatni ifoda etish maqsadiga bo‘ysundiradi. Bu esa o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. Chunki tuyuq janrining bosh qonuniyati qofiyaning tajnisi bo‘lishi har qanday iste‘dodli shoirning o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Shuning uchun janr qonuniyatlariga to‘la amal qilgan holda ham mazmun, ham badiiyat jihatdan mukammal tuyuq yaratish shoirdan katta mahorat talab qiladi. Muhammad Shayboniy devonida 13 tuyuqning mavjudligi uning o‘ziga xos iste‘dod sohibi ekanligidan darak beradi. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”da boshqa she‘riy janrdagi asarlaridan emas, tuyuqlaridan, bir namuna keltirish bilan Muhammad Shayboniyning o‘zbek mumtoz she‘riyatidagi tajribasi va o‘ziga xos iste‘dodini ilmiy jihatdan nozik asoslagan.

“Muzakkiri ahbob”da Muhammad Shayboniyning bir g‘azalidan ham ikki bayt namuna keltirilgan. Tadqiqotchilar nazaridan soqit qolib kelayotgan ushbu ma‘lumot muhim ilmiy qimmatga ega. Shuning uchun ham biz bu xususida kengroq to‘xtalishni ma‘qul ko‘rdik. G‘azalning yozilish tarixi haqida “Muzakkiri ahbob”da qaydlar mavjud: “Deydilarki, xon, Hazora qal‘asi fathiga otlanganda bir g‘azal bitib, Hiri shayxul-islomi va qozisi Ixtiyorga yuboribdi. Mana bu bir necha bayt o‘sha g‘azaldan bitilayotur”. [1;21] Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Hazara nomi bilan yuritilgan tuman Buxoro yaqinida joylashgan bo‘lib, Shayboniyxon uni 1499-yilda zabt etgan. Demak, Hirot shayxul-islomi va qozisiga yo‘llangan g‘azal shu tarixiy voqea munosabati bilan bitilgan. Axloqiy-ijtimoiy yo‘nalishda yozilgan Muhammad Shayboniy g‘azali keskin tanqidiy ruh bilan yo‘g‘rilgan:

Mandin salom ul shayxu Ixtiyorga,
Na Ixtiyorkim, ul chug‘ul, rishvaxorga. [1;21]

Muhammad Shayboniy ko‘p qirrali va keng qamrovli fiqh ilmidan yaxshi xabardor bo‘lgan. Qur‘on va sunnat hukmlariga tayangan holda jamiyat a‘zolarining huquq va burchlari, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar majmuiga oid nizomu tartiblarni shariyati islomiya ahkamlari doirasida anglamasdan turib yuqoridagi kabi baytni bitish mushkul. Shuningdek, amaldorning aybini yuziga aytish uchun shoirda yuksak insoniy va ijodiy jasorat bo‘lishi zarur. Yetuk davlat arbobi va huquqshunos Muhammad Shayboniy xalq birligi, davlat parchalanmasligining asosi – qonun, qonun binosining tayanchi esa elning yaxshi va yomon ishlari ustidan hukm chiqaruvchi qozi ekanligini teran anglagan. Qozi o‘z g‘arazini ko‘zlash, ikkiyuzlamachilik, shar‘iy hiylalar to‘qish illatlaridan holi bo‘lishi darkor. U hukm vaqtida xolis bo‘lmog‘i, oshna-og‘aynigarchilikka yo‘l qo‘ymasligi, o‘z vazifasini suiste‘mol qilmasligi zarur. Agar qozi pora berib, qozilik lavozimiga erishgan bo‘lsa, pora olib qonunni buzishi aniq.

Muhammad Shayboniyning qozi Ixtiyor faoliyatiga keskin tanqidiy munosabati baytning ikkinchi misrasida ruju‘ san‘atini keltirish bilan ta‘sirchan ifodalangan. Shoh-shoir qozi faoliyatidagi eng xatarli, davlat va jamiyatni muqarrar halokatga olib boradigan illatni favqulodda jasorat bilan fosh qilgan.

Mumtoz adabiyotimizning taniqli namoyandalari bilan qiyoslaganda mohir tuyuqnavis ijodkorlar qatorida turuvchi Muhammad Shayboniyning tajnisli soʻzlardan foydalanish, shakldosh soʻzlar vositasida qofiya yaratib, gʻoyalar mohiyati va timsollar qiyofasini ochish salohiyati tahlil qilinayotgan gʻazalda ham yorqin nazarga tashlanadi:

Tangri inoyati bila qavmi Hazorani,
Andoq qilayki, tajriba boʻlsin hazorgʻa.[1;21]

Baytdagi qofiyadosh “hazora” soʻzlari shaklan toʻla uygʻun boʻlib, ikki xil maʼnoni ifodalaydi: birinchi misrada joy maʼnosini, yaʼni Xazora qalʼasi maʼnosini bildirsa, ikkinchi misrada miqdor sonni ifoda etuvchi “ming” maʼnosini anglatadi. Alloh inoyati va madadi bilan Hazora qalʼasini zabt etib, qalʼa ichida yashayotgan kishilarni shunday zeri dast qilayki, bu ming kishiga yoki ming zafar panohga saboq boʻlsin, - demoqchi boʻladi sarkarda shoir.

“Muzakkiri ahbob” muallifining Hirot qozisiga yoʻllangan gʻazal matnidani soʻng bitgan quyidagi qaydlari nihoyatda yuksak maʼrifiy qiymatga ega: “Qozi Ixtiyor turkiy tilni bilmas ekan, uning uchun turkiy til qonun-qoidalarini kitobini bitib yuboribdi”. [1;21] Ayni muhim tarixiy maʼlumot Muhammad Shayboniy nafaqat oʻz davrining eʼtiborli hukmdori, balki oʻz ona tilining ahamiyatini teran idrok eta olgan va uning nufuzini keng yoyishga intilgan madaniyat arbobi ekanligini koʻrsatadi.

Xulosa. Janr qonuniyatlariga toʻla amal qilgan holda ham mazmun, ham badiiyat jihatdan mukammal tuyuq yaratish shoirdan katta mahorat talab qiladi. Muhammad Shayboniy devonida 13 tuyuqning mavjudligi uning oʻziga xos isteʼdod sohibi ekanligidan darak beradi. “Muzakkiri ahbob” muallifi shoh-shoirning tuyuqlaridan bir namuna keltirish va uni murshidi komil, kubroviya tariqatining XIII asrdagi yirik namoyandasi Sayfiddin Boharziy qalamiga mansub arab lisonida bitilgan janrning nodir bir namunasi bilan qiyoslash orqali Muhammad Shayboniyning oʻzbek mumtoz sheʼriyatidagi tajribasi va oʻziga xos isteʼdodini ilmiy jihatdan nozik asoslagan.

Mumtoz adabiyotimizning taniqli namoyandalari bilan qiyoslaganda mohir tuyuqnavis ijodkorlar qatorida turuvchi Muhammad Shayboniyning tajnisli soʻzlardan foydalanish, shakldosh soʻzlar vositasida qofiya yaratib, gʻoyalar mohiyati va timsollar qiyofasini ochish salohiyati uning gʻazal janrida bitilgan asarlarida ham yorqin nazarga tashlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Хасанхожа Нисорий Музаккири аҳбоб. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1993.*
2. *Ҳайитов Ш. Алишер Навоий насрида комил инсон образи. (Улуғ шоир маноқиблари асосида). Филология фанлари бўйича докторлик (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Фаргона, 2022.*
3. *Ochilov E. Shayboniy ijodida Navoiy anʼanalari.//OʻTA. 2020, №1.*
4. *Қосимов Б. Жумахўжа Н. Ўзбек адабиёти тарихи 10-синф учун дарслик. Тошкент : Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 2001.*
5. *Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1- китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.*
6. *Матяқубова М. Огаҳий ижодида кичик шеърлий жанрлар. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.автореферати. –Тошкент, 2000.*

MUSTAQILLIK DAVRI DRAMALARIDA ALISHER NAVOIY SHAXSIY HAYOTINING TALQINLARI

Ashurova Gulbahor Nurullayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti, f.f.n., dotsent
gulbahora777@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-6079-7814

Annotatsiya: Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida tarixiy shaxslar siymosini yaratishga jiddiy e'tibor qaratildi. Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratishga oid urinishlarning eng katta va salmoqli natijalar keltirganini alohida e'tirof etish lozim. Alisher Navoiyning shaxsiyati, hayot tarzi, axloqi o'z zamonidayoq ham oddiy xalq, ham ijod ahli uchun namuna edi. Zamonamiz ijodkorlari ham Navoiy shaxsi va ijodini xuddi shu tarzda qabul qilishdi. Uning har bir asari va qarashini bugungi kun uchun ma'rifiy boylik, ma'naviy poklik, fikriy yetuklik va badiiy yuksaklikning maktabi, insoniy kamolotning andozasi sifatida ko'rsatishdi. Navoiyni buyuk rahnamo, barkamollik timsoli sifatida talqin etishdi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy siymosi dramalarda uning shaxsiy hayotining talqinlari bilan ifoda etilgani haqidagi mulohazalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik davri, adabiy estetik ideal, o'zbek adabiyoti, dramaturgiya, tarixiylik, obraz, Alisher Navoiy, badiiy talqin, hayot haqiqati, tarixiy obrazlar, to'qima obrazlar, tafakkur, ruhiy olam, tarixiy shaxs, haqqoniylik, yangicha tasvir va talqin.

ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЛИЧНОЙ ЖИЗНИ АЛИШЕРА НАВОИ В ДРАМАХ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. В период независимости серьёзное внимание уделялось созданию исторических персонажей в узбекской драматургии. Следует признать, что попытки создать художественный образ Алишера Навои принесли самые большие и значительные результаты. Личность, образ жизни, нравы Алишера Навои были в своё время образцом, как для простых людей, так и для творческих людей. Точно так же воспринимали личность и творчество Навои творцы нашего времени. Каждое его произведение и взгляд преподносились как школа просветительского богатства, духовной чистоты, интеллектуальной зрелости и художественного мастерства, образец человеческого совершенства на сегодняшний день. Навои трактовался как великий лидер и символ совершенства. В данной статье мнения о характере Алишера Навои в драмах выражаются интерпретациями его личной жизни.

Ключевые слова: период независимости, литературно-эстетический идеал, узбекская литература, драматургия, историчность, образ, Алишер Навои, художественная интерпретация, реальность жизни, исторические образы, текстильные образы, мышление, духовный мир, историческая личность, правдивость, новый образ и интерпретация.

INTERPRETATIONS OF ALISHER NAVOIY'S PERSONAL LIFE IN DRAMAS OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Abstract. During the period of independence, serious attention was paid to the creation of historical characters in Uzbek dramaturgy. It should be acknowledged that the attempts to create the artistic image of Alisher Navoi brought the greatest and most significant results. Alisher Navoi's personality, lifestyle, morals were a model for both ordinary people and creative people in his time. Creators of our time also accepted Navoi's personality and work in the same way. Each of his works and views were presented as a school of educational wealth, spiritual purity, intellectual maturity and artistic excellence, a model of human perfection for today. Navoi was interpreted as a great leader, a symbol of perfection. In this article, the opinions about the character of Alisher Navoi in the dramas are expressed by the interpretations of his personal life.

Key words: *Independence period, literary aesthetic ideal, Uzbek literature, dramaturgy, historicity, image, Alisher Navoi, artistic interpretation, reality of life, historical images, textile images, thinking, spiritual world, historical person, truthfulness, new image and interpretation.*

Kirish. Keyingi yillarda Alisher Navoiy obrazi yaratilayotgan sahna asarlarining muayyan o'xshash jihatlari e'tiborni tortadi. Xususan, Omon Muxtor qalamiga mansub "Amir Alisherning dardi" dramasi markazida Navoiy hayotining dramatik pallalarini, qalb kechinmalaridagi jiddiy evrilishlar tasvirini qamrab oluvchi 1498 – 1500-yillar oralig'idagi voqealar turadi [3]. Yetakchi obraz tevaragida ham qator real tarixiy siymolar: Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Majididdin Muhammad, Xondamir singari davlat arboblari, san'at va ilm ahllari harakat qiladi. Sahna asari chigal dramatik kolliziyalarga boyligi sabab iztirob, kechinmalar tasvirida ham muntazam foje holatlarga mutanosiblik seziladi.

Asosiy qism. "Amir Alisherning dardi" (Ikki parda, o'n ikki holatdan iborat fojia) asarining birinchi pardasidanoq Navoiy holatidan uni qurshab turgan muhit ziddiyatlari, unga yaqin odamlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yuki his qilinadi. Mamlakatning notinch ahvoldan iztirob chekayotgani, el-ulus hayotining ichki nizolar tufayli kundan kun og'irlashib borayotgani; Hirot qirq kundan ortiq qamal holatida bo'lishiga bir qavm, bir ulus, qarindosh-urug', ota-o'g'il o'rtasidagi ziddiyatlar sabab ekanligidan Navoiy afsus-nadomatli holatda tasvirlangan. Dramada tasvirlanishicha, Husayn Boyqaro va Badiuzzamonning ham o'z haqiqatlari bor: "Men nima, bekorga jangga o'tlanibmanmu? Orada muxolifatni boshlag'on menmu? Padari buzrukvor... o'zlari doim badmehrlik ko'rsatmadilarmu?.. Mening jon-jigarim Mo'min Mirzoni zindonga soldi. Mast holda farmonga qo'l qo'yib, u nozik niholni o'ldurdi. Men bunga qandoq chidayman?" [3]

Amir Alisher siymosida shahzodalarning bu kabi g'am-anduhlari aksi, ayni damda do'sti, hukmdor Husayn Boyqaroning iztiroblari izi bo'rtib ko'rinadi. Oxiri yo'q ziddiyatlarni bartaraf etish yukini yolg'iz Navoiy o'z yelkasida ko'taradi; har ikki tarafni insofga chorlaydi. O'z otasidan yetgan zahmatlar, alamlar azobidan Badiuzzamon Mirzo ham, o'g'illarining isyonidan ozorlangan Boyqaro ham faqat Navoiyga ishonadi, faqat Navoiyninggina najot yo'lini topishiga umid qiladi. Kitobxon yoki tomoshabin ayni dramatik lahzalarni ancha jiddiy qabul qiladi. U ham mana shu iztiroblarga to'la hayot bag'riga ko'chib o'tgandek bo'ladi. Ayni paytda u Navoiydek buyuk insonning sabr-u bardoshiga, fikrlash tarziga, aql-u idrokiga qoyil ham qoladi. Mana shunday sahnalar muallifning haqiqiy poetik mahoratini ko'rsatib beradi.

Tarixiy voqealarga asoslangan holda dramaturg Navoiy obrazini yaratar ekan, e'tiborni uning o'z zamonasi uchun nechog'li muhim, zarur, yirik siyosiy arbob bo'lganiga ham qaratadi. Muallif adibni siyosiy diplomatiyani yuksak ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy saviyada birlashtirgan davlat arbobi sifatida ko'rsatishni maqsad qilib olgan. Shunga ko'ra, Navoiy ota va o'g'il o'rtasidagi oxirgi rishtalarni saqlab qolishga astoydil harakat qilayotgan jarayonda ko'rsatiladi. Buning uchun har ikki tomonni islom qadriyatlarini, imon tamoyillari asosida murosaga keltirishda ruhiy ta'sir ko'rsatish san'atini namoyon qiladi: "tirik podshoh – otaga qarshi Siz, aziz shahzoda, butun Xuroson mulkini qo'lga olmoq maqsadi bila harakatda ekaningiz rasman ham, shar'an ham munosib ko'rinmaydir. Sizga, to'ng'uch o'g'ulga, taqlidan ukalaringiz Abulmuhsin Mirzo-yu birodari Muhammad Muhsin Mirzo birlashib, urush va isyon yo'lin tutayotg'onlari tashvishli va o'kinchli. Yangidan fitna-fasod qo'zg'olib, begunoh kimsalar qoni to'kulishidan asranmoq lozim..." [3].

Asarda Navoiyga xos millatsevarlik, yurtparvarlik xislatlari davlat arbobi sifatidagi aql-zakovati bilan uyg'unlikda gavdalantirilgan. Ayni mana shu holat Alisher Navoiyni davrining yirik Shaxsi sifatida namoyon bo'ladi. Obrazga xos ko'lamdorlik Navoiyni o'ta ziddiyatli voqealar ichida tasvirlashni taqozo etadi. Muallif buni amalga oshirish uchun bir qator dramatik holatlarni topa olgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, sahnada harakatlanayotgan ushbu qahramonlarning asosiy qismi tarixiy shaxslar, Alisher Navoiyning zamondoshlari edi. Dramaturg tarixiy shaxslardan tashqari qator to'qima obrazlar ham yaratgan. Nozanin – Navoiyning muhabbati ramzi sifatida tasvirlangan bo'lsa, Shijo'uddin Zunnun – lashkar sarkardasi; Haydarbek – buzg'unchi; Keksa Muarrix, Mavlono Sohibdoro – Navoiyning do'sti, elchilar, muazzin va some'lar, sipohilar va boshqalar bosh qahramon bilan aloqador bo'lgan tasavvurlarga to'ldirish, aniqlash, unga turli tomonlardan yondoshish imkonini beradi.

Muarrix, muazzin va some'lar voqealar rivojini, chigal vaziyatlar dramatismni ta'minlash, keyingi voqealarga "turtki" yoki sharh berish vazifasini ado etadi.

Hirotning qamal holatidagi mushkul vaziyatidan foydalangan bir guruh talonchilar rastalarni, xonadonlarni talab, odamlarga jabr yetkazadilar. O'z jinoyatlarini to'da boshlig'i Haydarbek quyidagicha izohlaydi: "Kimki meni yomon ishlar qilayapti, yomon yo'lga kirgan, deya o'ylasa, adashadi. Men bir

tartibga qarshi isyon ko'tardim. Saltanatni ko'tarib tashlamoqchiman. Ro'yi zaminda o'jiz kishilar emas, faqat teng, ozod, kuchli kishilar yashashga haqli".

Shu tariqa dramaturg Navoiy siymosini uch qutbdan: Navoiy – ulug' davlat arbobi; Navoiy – yurtparvar, elparvar fidoyi inson; Navoiy – buyuk dard egasi sifatida tasvirlagan.

Navoiyning saltanatdagi yurt tinchligi, el osoyishtaligi uchun kurashi Husayn Boyqaro va Badiuzzamon munosabatlari, saroydagi fitnalar gavdalantirilgan voqealar orqali jonlansa, xalqparvar fidoyi inson sifatidagi sa'y-harakatlari buzg'unchi olomonni insof-u diyonatga chorlab, ular sardori Haydarbek bilan yuzma-yuz kelgan chog'da ko'proq namoyon bo'ladi: "Yurtni ichdan buzmoq istag'on, turkiy el-ulus ahil bo'lishi, bir yoqadan bosh chiqarishiga doim rahna solg'on dushmanlar! Sening barcha aytg'oning ham ularning so'zi... Sening mulking – odamlarga nafrat, mening mulkim – muhabbat!" [3] sifatida namoyon bo'lgan, deyish mumkin.

Alisher Navoiy siymosini badiiy tahlil qilishimizda bu shaxsdagi buyuk dard, shoirona qalb tasviri asosiy urg'u oladi. Shunga ko'ra, Nozanin obrazi Navoiy qalbini, dard-u izzitroblari mohiyatini anglash vositasi. U Navoiy yaratgan paripaykar, yor, gul, ishq timsoli. Ayni damda ulug' shoirning ishq dardiga malham, xayoliy parisi. Navoiy yurak sirlarini xayolan unga to'kib soladi, u bilan suhbatlashganda ko'nglida osudalik, ruhida zavqni tuyadi, dardini ungagina so'zlaydi: "Umrimda oyoq ostida loydek xorlanib-toptalishlarni ham, loydan yasalg'on ko'zdek qo'llarda ko'tarib alqashlarni ham ko'rdum. Meni nigun holatda yerga kirib ketishdan, farahli-ko'rkam holatda o'zimni osmon deb o'ylashdan So'z, Nazm, Adabiyot asradi. Umrim so'ngigacha men shu Qora Mehnatga va Senga fidomen, pariruxsor!" [3].

Nozaninning Navoiyga savol (ritorik savol desak ham bo'ladi) bilan murojaati, ayni paytda Navoiy ma'naviyatining yana bir qatlamini yoritishi bilan e'tiborli: "Nozanin: ... Nahotki, sizning mehnatga berilib izzitrob chekkaningiz shu telba olomonga kerak bo'lsa? Nahotki, azaldan nokomil hayot alal-oqibat izga tushadi, xatolardan, gunoh qilishdan umrida hayiqmagan odamlar o'zgaradi, inson tuzaladi, deb o'ylasangiz? Yerdagi haqiqat hukm surishi, Adolat qaror topishi uchun biron o'lguncha kuyib-yonishi – nahotki shart deb bilsangiz? Bunga ishonsangiz?" [3].

Navoiyning hajga borish ishtiyoqi aks etgan lavhalar ko'plab asarlarda aks etgan. Jumladan, mazkur dramada ham shu mavzu qalamga olingan. Muallif buni ham Alisher Navoiy va Nozanin dialogi vositasida ko'rsatishga jazm etgan.

Dramaning "Amir Alisherning dardi" deb nomlanishi ham, bizningcha, ayni ishq dardiga ishora. Ulug' so'z sultoni Amir Alisher hazratlari qalbini zabt etgan buyuk muhabbat dardi uning hayoti, kurash-intilishlari mazmun-mohiyatini tashkil etadiki, dramaturg asarda ishq va yurt, ulus dardini ko'ngliga sig'dira olgan buyuk inson siymosini gavdalantira olgan.

Drama so'ngida Navoiyning cheksiz sahro tomon ketishi, unga ergashganlarga qarata aytgan izzitroblari so'zlari voqealar dramaturgiyasining kulminatsiyasini tashkil etadi. "Ergashganlar" epizodik umumlashma obraz – yurt, xalq timsoli sifatida jonlanadi. Ularning o'tinchi, arz-u dodini tinglamaslikning iloji yo'q. Bu gal ham hazrat yiqqanini yurtga topshirib, umid bilan boqqan insonlar g'am-tashvishini zimmasiga oladi, el yukini ko'taradi. Bu holatni dramaturg endi Navoiyning monologi sifatida aks ettiradi: "... Yillar uzlatga chekindim. Ammo hayot g'avg'osi va savdosi menga biron payt osoyish bermadi, intilg'onim bilan, Ka'baga yetib borolmayapman. Ro'yi berayotgan ahvol, odamlarning bir-birini anglamasligi, bir-biri bilan kelisholmasligi, johilligi, xudbinligi meni o'rtab yuborayapti. Men Yer yuzida irqi, millati, diniga qaramay, Tangri taolaga itoatda bo'lg'on insonlar ahil, erkinlikda, hur yashashini orzu qildim! Ammo insonlar aksar isyonda bo'ldilar... do'stlik qilishni istamadilar. Xudoga, bir-biriga bo'yinsunmadilar... Men sizlarga doim yordam berishni istayman. Taassuflar bo'lsunkim, yordam berolmayapman... Yo parvardigor! Mening qavmimga va barchaga dunyoda tinch-osoyishta, baxt-saodatli yashashni buyurgin!" [3].

Nutqda tabiiylik va samimiylik yetishmayotgandek tuyuladi. Bu iltijomi, buyruqmi? Aslida, o'tinch ohanglari asnosida mazkur nutq parchasida yaratgandan bu bandalarga imkon berilishi haqida gap borsa ma'qul bo'lmasmidi?! So'nggi vido kitobxonni mana shunday o'ylarga toldiradi.

Alisher Navoiy jahon adabiyoti va san'atining ulkan so'z san'atkorlaridan biridir. Ulug' shoir, ustoz mutafakkir hamda insoniyat baxt-saodati, xalq osoyishtaligi, yurt obodligi, ilm-fan ravnaqi, adabiyot-san'at taraqqiyoti, madaniy hayot gullab-yashnashi uchun butun ongli faoliyatini baxshida etgan. Binobarin, Alisher Navoiy donishmand jamoat arbobi ham edi. Shuning uchun uning shaxsiyati va ijodiy merosi barcha davr kishilari qalbidagi hayrat tuyg'ularini uyg'otib kelmoqda.

Bu o'rinda Navoiy faoliyati va merosining o'rganilish tarixi xususida mufassal so'zlash imkonsiz¹. Ammo, muammoni oydinlashtirishda xalq og'zaki ijodida yaratilgan "Navoiy va yigit", "Navoiy va qirq vazir", "Navoiy va Guli", "Mirali va Sulton Suyun" ("Mir Alisher va Sulton Husayn") turkumidagi afsona, ertak, latifa va hikoyalarning muhim o'rni borligini ta'kidlash lozim. Ayonki, ijodkor xalq o'z tushunchasidagi shoir obrazini yaratgan mazkur badiiy asarlarda tarixiy faktlar aynan bayon qilinmagan. Ammo mazkur asarlarda bu ulug' inson shaxsiyati va ijodiga bo'lgan muhabbat va ardoq aks etgan. Uning tabiatiga xos donishmandlik, vafo-sadoqat, saxovat, olijanoblik fazilatlarini ulug'langan. Ayrim ertaklarda Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari bog'bon qizi Guli obrazi bilan bog'liq tarzda talqin qilingan. Mazkur xalq asarlarining tili esa nihoyatda sodda va ravon.

Ammo zamonaviy dramatik asarlar tili haqida har doim ham bunday deb bo'lmaydi. Dramatik asar, birinchi navbatda, sahnaga mo'ljallangan. Shunday ekan, bunda harakat, so'z, uning ifodasi alohida e'tiborni talab qiladi. Ushbu jarayonda qahramon nutqining alohida o'rni bor. Shu jihatdan dramatik asarlarda quyidagi holatlar qayd etiladi:

1. Qahramon nutqiga alohida e'tibor bilan yondashilgan asarlar.

2. Qahramon nutqining "sahnaviy hayot" mazmun-mohiyati, ayni holati bilan uyg'unligining e'tibordan chetda qolishi.

Albatta, asosiy holatlarda birinchi turkumning yetakchi mavqeda turganini e'tirof etish lozim. Shunga qaramay, mustaqillik davrida Alisher Navoiy siymosi aks etgan sahna asarlarida mualliflarning ushbu mavzu va muammolarga yaqinlik darajasi, ularning umumiy ijodiy natijalari hamda badiiy mahorat darajasida hal qiluvchi rol ado etadi.

"Amir Alisherning dardi" pyesasidagi Badiuzzamon nutqida "Men bunga qandoq chidayman?" degan savol mavjud. Ushbu jumladagi "qandoq" so'zi tarixiy kolorit nuqtayi nazaridan qahramon nutqiga yopishmay turadi. O'rni kelganda aytish kerakki, ushbu so'z Navoiy asarlarida umuman qo'llanilmagan.

Sahnalar almashinuvida Alisher Navoiy siymosining yangi qirralarini ochishda yoki muayyan holat va xususiyatni alohida ta'kidlashga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Masalan, Nozaninning sahnadagi ishtiroki bir necha vazifalarga bo'ysundirilgan. Ularni shunday guruhlashtirish mumkin:

1. Tarixda xotin-qizlar tutgan mavqeni ko'rsatish orqali mazkur holatni badiiy asoslash.

2. Alisher Navoiy hayotining o'quvchiga yanada qiziqarliroq bo'lgan jihatlariga badiiy tasvir berish.

3. Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy hamda maishiy hayotidagi lahzalar talqiniga samimiylik singdirish.

Akademik M.Qo'shjonov o'z paytida L.Batning "Hayot bo'stoni" hikoyasi tahlili munosabati bilan "Yozuvchi asar davomida Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarini ta'kidlab boradi. U shoirni biror muhim voqea yoki biror muhim shaxs bilan to'qnashtiradi. Shu munosabat bilan Alisher Navoiyda ma'lum bir falsafiy fikr paydo bo'ladi va shu planda u mulohaza yuritadi. Yozuvchi ana shu mulohazalarni ifodalaydi"[8], - deb yozgan edi. Ayni usulni mustaqillik davrida yaratilgan epik asarlarda, shuningdek, dramalarda ham kuzatish mumkin.

Navoiy siymosining dramaturgiya sohasidagi ifodasi yaxshi an'analarga boy. Ularda tarixiy manbalarga, xalq og'zaki ijodida yaratilgan turli janr va mavzulardagi asarlarga tayanish asosiy o'rin tutgan.

Xususan, Oybekning "Navoiy va Guli" asari, Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy" dramalarida o'sha manbalarga ergashish hollari ko'zga tashlanadi. Keyinchalik O.Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" roman-dilogiyasi, N.Karimovning "Guli va Navoiy" musiqali dramasi, o'tgan asrning 90-yillarida Alisher Navoiy "Xamsa"si ohanglarida bitilgan Sh.Rizayevning "Ma'naviyat manzillari: pyesalar va maqolalar" (2008) kitobiga kirgan "Iskandar" nomli ikki parda, sakkiz ko'rinishli dramada ham bunday intilishlar bo'y ko'rsatadi [6].

O.Muxtor, N.Karimov va Sh.Rizayevlar o'z oldiga Oybek, Uyg'un, Izzat Sultonlar qalamiga mansub doston-u dramalardan "o'tkazib nimadir deyish, ifodalash" vazifasini qo'yishmagan. Agar diqqat qilinsa, Oybek "Guli va Navoiy"da xalq afsonalariga tayangani, Uyg'un va Izzat Sulton dramasi bunga qo'shimcha tarzda Navoiy obraziga ko'chgan aksariyat sifatlar shoirning o'z asarlaridan olingani ayon bo'ladi. Binobarin, agar bu asarlar qiyosga tortilsa, qahramonlar tiynati ifodasida muayyan nuqtalarda mualliflar qarashlari birligi yuzaga chiqadi. Binobarin, so'z yuritmoqchi bo'lganimiz N.Karimov qalamiga mansub dramada ham folklor motivlariga ergashish ko'zga tashlanishi mutlaqo tasodifiy emas. Chunki

¹Qimmatli faktik ma'lumotlar beruvchi birlamchi manbalar sirasiga kiruvchi Navoiyning o'z asarlari; Jomiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Bobur, Vosifiy; Lutfiy, Alibek Ozar, Som Mirzo, Rizoqulixon Hidoyat, Hiraviy, Mirzo Haydar, Abdulmo'minxon va boshqalarning bitiklarini; navoiyshunoslik yutuqlarini eslash mavzudan chalg'ituvchi uzundan-uzoq sanoqni yuzaga keltirgan bo'lar edi. (G. A.).

qadim davrlardan bizgacha yetib kelgan o'zbek ertagi bizni Alisherning oilaviy hayoti bilan aloqador bo'lgan hodisalarning sir-u asroridan voqif etganday bo'ladi. Qolaversa, muallifning salafarlari an'anasiga ergashishi ham adabiyot tarixida uchraydi.

Masalaning mantiqiy asoslaridan biri shundaki, bizning ishonish va ishonmasligimizdan qat'iy nazar, o'sha ertakda ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy va uning dil malhami bo'lmish Guli siymosi yaratilgan va hamon xalq og'zaki ijodida va badiiy adabiyot qahramoni sifatida yashab kelmoqda. Agar shoir o'tmishida hassos qalbida ishq olovi yonmaganida, ehtimol Shirin-u Laylilar obrazi ham bu qadar tiniq ranglarda yaratilmagan bo'lardi. Chunki ishq-muhabbat, vafo-sadoqat, fidokorlik o'zining barcha ranglari bilan Navoiy qalbi otash haroratidan taft olgan. Drama muallifi asar finalida aytganiday:

Ertak tinglab erishamiz biz kamolotga,
Zero, undan esib turar o'tmish nafasi.
Yashay bersin avlodlardan o'tib avlodga
Guli bilan Alisherning foje qissasi [2].

Inson taqdirining foje bu qissasi turli davrlarda adabiyot va dramaturg erki, ijodiy-estetik ideali nuqtayi nazaridan turli xilda talqin qilingan. Masalan, o'z davrining farzandlari bo'lgan Uyg'un va Izzat Sulton dramasida xarakterlararo munosabatlardan sinfiy va ijtimoiy konflikt izlashga urinishlar ko'zga tashlanadi. Muhimi shundaki, tarixiy shaxslarga yondashuvdagi bu kabi biryoqlamalik hollari mustaqillikning erkin va plyuralistik tafakkuri ustuvor bo'lgan davrida asta-sekinlik bilan bo'lsa-da bartaraf bo'lib bormoqda.

Naim Karimov xalq og'zaki ijodi asosida yozgan "Guli va Navoiy" musiqali dramasida ayni holatni kuzatish mumkin. Drama uch parda va o'n bir ko'rinishdan iborat. Asarning bosh qahramonlari: Alisher Navoiy va uning sevgilisi Guli. Drama voqealarida shoirming do'sti Husayn Boyqaro, ustoz Jomiy, ukasi Darveshali, vazir Majididdin, mashhur rassom Behzod, Gulining dugonalari: Sarvinoz, Gulnoz, Feruza, Shahnoza, Anora, Sitora, otasi Solih bog'bon, shuningdek, Bobo, Haramog'a kabi qahramonlar ishtirok etishadi. Muallif dramada o'rni bilan Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro (Husayniy) g'azallaridan barakali foydalangan. Shubhasiz, barcha obrazlarga mufassal to'xtalish ishimiz maqsadiga kirmasligini nazarda tutib, asosan, Navoiy siymosining poetik talqini masalasiga to'xtalamiz.

Asar muqaddimasida Navoiyning umri poyoni va shunga monand tabiatning mahzun manzaralari, ya'ni kuz fasli va quyosh botishi tasvirlanadi. Xazon fasli – qishning darakhchisi. Dunyo charxi shu taxlit davom etishi, umrning oqar daryoday shiddat bilan kechishi-yu dunyoning bevafoqligi, ya'ni bog' yaratgan ham, davron surgan ham qazo kuni yorug' olamni tark etishi muqarrar ekanligi haqidagi haqiqat dramada quyidagi ifodada aks etgan:

"Qag'-qag'" deya kelar qarg'alar,
Ammo ketar ne-ne darg'alar [2].

Navoiyning umr poyonida amalni g'anim va qalamni do'st bilgani haqiqatdir. Yuqoridagi misralar buni kech ilg'aganiga iqror bo'layotgan shoir ko'nglidagi armonlar ifodasidir. Bizningcha, shoir ko'ngli umrini butkul ijodga baxshida etolmaganidan ozurda. Chunki uning nigohi makon va zamon chegaralaridan o'tib, kelajakka tikilgan. Shoir ona tilida bitilgan va forsiyda yozganlaridan bahra olib, hukm chiqaruvchi donishmand kitobxon didiga ishongan holda, turkiy tildagi asarlari har ikkala til sohiblariga manzur bo'lishidan masrurlik tuygan holda: "... umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay" [5], – deya istiqbolga umid nazari bilan boqqan edi.

Muallif Gulining hayotdan erta ketishi, Alisherning oila baxtidan mahrum o'tgan umrini nadomatlari bilan bog'lab talqin etadi. Muallif bu fikr tasdig'ini shoir dostonlarining Shirin-Farhod, Layli-Majnun, Dilorom-Bahrom, Mehr-Suhayl singari juftliklari poetik talqinlaridan qidiradi. Mardona hayotida yor yo'lida bo'zlab, sevgi faslida mangukka qolib ketgan Farhod, Layli ishqida o'rtangan Majnun, muhabbat bog'ining podshohi Bahrom, mehrga tashna Suhayl kabi obrazlar ishq tasviri, Navoiyning estetik ideali, shaxsiyati, ruhiyati, taxayyulining mahsuli emasmi?! Navoiy o'zi yaratgan qahramonlar: Shirin, Layli, Dilorom va Mehrdagi ishqni Gulidan qiyos olmaganmikin?

Navoiyning ishq orqali haqiqat va haqqa yetganligi haqidagi fikrlar navoiyshunoslarimiz tomonidan aytilgan. Shunday ekan, uning Guliga va Gulining Alisherga bo'lgan muhabbati miqyosi Navoiy asari qahramonlarining tuyg'ularidan bir necha baravar yuksak bo'lgani shubhasiz. Adabiyotshunos N.Karimovning Guli va Navoiy haqidagi bu dramani yozishga turtki bergan sabab ham ayni shu tuyg'ularni yoritish bo'lgan, deb aytish mumkin.

Dramaturg Navoiyni ulusning tinchligi va farovonligi yo'lida Sharafuddin singari tadbirkor beklarga tayanuvchi fidoyi jamoat arbobi sifatida ham tasvirlaydi. Ayrim o'rinlarda Alisher – kamtarin inson, onaizor

ruhi pokiga sadoqatli farzand, ustoz Jomiy qoshida musallam shogird qiyofalarida namoyon bo'ladi. Muhimi shundaki, muallif talqinida Navoiy odamlarni faqat iqtisodiy imkoni nuqtayi nazaridan saroy ayonlari va fuqaroga ajratadi. Aslida esa, insonni tabaqasiga ko'ra emas, balki ko'nglidagi yaxshi-yu yomon sifatlariga ko'ra farqlaydi. Ayni shu jihati bilan musiqali dramadagi bu obraz sho'ro davrining sinfiylikka asoslanuvchi talqinlaridan jiddiy farqlanadi.

Muallif ushbu holatlarda mutafakkir adibning o'z asari – “Mahbub ul-qulub”ga murojaat etgani ham ibratlidir. Ko'chirma asarning 78-tanbehidan ayrim o'zgartirishlar bilan olingan [4]. Alisherning Guli bilan bo'lgan muloqot asnosida aytgan so'zlariga diqqat qilaylik: “Yaxshi inson – yirtiq to'ni, yirtiq ko'yagi bilan ham go'zal. Gulning to'ni qirq yamoq bo'lsa ham, husn-u ifori inson zotini maftun etmasmi? Zuhul baland osmonda turgani bilan Sharq quyoshi bo'lolmas, dev jannat liboslarini kiygani bilan pari bo'lolmas” [2, 72 b.].

Dramada Alisherning bog'bon xonadoniga sovchi sifatida borishi, bir qarashda, dramatismni yuqori darajaga ko'taradi. To'g'ri, dramada Sul-ton Husayning Alisher va Guli muhabbatidan bexabarligiga urg'u berishga harakat qilingan. Shunga qaramasdan, baribir, bu ziddiyatda biroz sun'iylik ko'zga tashlanadi. Eng kamida hayotiy bir mantiq – o'zbek xonadoniga uylanmagan bo'z yigitning sovchi bo'lib borishi o'zini oqlamaydi.

Dramaturg Navoiyning do'sti va mamlakat hukmdori farmonini ado etish uchun Solih bog'bon xonadoniga sovchi bo'lib boradigan yigit qalbini sadpora qilgan favqulodda vaziyatlarda ham taqdirga rizo bir mo'min sifatidagi ruhiy dramasi ish-onarli tasvirlashga erishgan. Faqir kishining yelkasidagi zalvorli yuk, uning mahzun holatidagi ruhiy zilzilalar kitobxon tuyg'ularini muvozanatdan chiqarishga qodirligi bilan ham estetik qimmat kasb etadi. Hukmdorning iltimos-u xohish-irodasi farmon maqomiga ega ekanini yaxshi anglagan Alishergina emas, Guli va Solih bog'bonlar ham tizginsiz iztirob og'ushida, nochor ahvolda qolishadi. Ammo, qizig'i shundaki, ulug'vor inson Navoiy Sul-ton Husaynni olijanob va ma'rifatli inson, yuragi ishq dardidan bahramand oshiq deb biladi hamda undan nafratlanmaydi. Darhaqiqat, shoh Gulini saroyga cho'ri va kanizak emas, balki malika bo'lish uchun chorlaydi.

Ikki marta rad javobini olgach esa majburan olib keltiradi. Biroq mamlakat hukmdori inson ko'ngliga hukm o'tkaza olmaydi. Ya'ni, sadoqat-u vafoda tengsiz, “qaysar qiz”ni bo'yin egdirishga ojizlik qiladi. Shoh ham o'z ozurda holiga malham, ko'ngliga taskin axtaruvchi bir banda o'laroq behad qiynaladi. Shunga qaramasdan, “kelin”ning iltimosi bilan nikoh kechasini qirq kun keyinga suradi. Demak, musiqali dramaning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri: ayol (keng ma'noda inson) dilini anglamoq azaliy jumboq ekani tahlili va poetik tadqiqida namoyon bo'lishidir. Ya'ni, Guli qoshida ilojsiz qolgan shoh obrazining ishonchli yaratilishi ham asarning o'qimishli chiqishini ta'minlagan asosiy omillar sirasiga kiradi.

Muhabbat dardida o'rtanib belidan quvvat, oyog'idan darmon, ko'zidan nur ketib qirq kunlab yotib qolgan Navoiy qay bir jihatlari bilan ertag-u dostonlarning qahramonlariga o'xshab ketadi. Ayni paytda, noziktab bu insonning shunday ahvolga tushishi realligi bilan ham bizni ishontira oladi. Uning do'stlik hurmati uchun pinhon tutilgan “sir”ining oshkor bo'lishi xarakterlar dramatismning kulminatsion nuqtasi bo'lsa ajab emas. Zotan, shoirning bu izhori dili shohni ham ikki o't o'rtasiga tashlaydi. Ayni shu nuqtada Sul-ton Husayn do'stlik va ishq iskanjasida qolib sarosar kezadi, o'rtanadi.

Musiqali drama finalida “bevafo shoiri” qo'lida omonatini topshirgan Guli pokiza muhabbati-yu sadoqati, uning vafotidan birday o'rtangan ikki do'st ruhiyatidagi bo'ronlarga xos mungni faqat “Ne navo soz aylagay” ashulasigagina sig'dirish mumkin edi. Biroq N.Karimov dramani mahzun kayfiyat ritmi bilan tugatishni istamaydi. Shuning uchun ham, asardagi mungli kuy sekin-asta hayotbaxsh ohanglar bilan boyib boradi. Bu esa ulug' shoir ardoqli xotirasining zamonlar osha yashovchanligiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Alisher Navoiyning badiiy va ilmiy ijoddagi olamshumul muvaffaqiyatlaridan so'zlaganda, uning mazkur xizmatlarini olimlar, ilm ahli allaqachon e'tirof etganini, bu hodisaning Alisher Navoiy zamonidayoq ko'plab kitoblarda qayd etilganini esga olish joiz. Navoiyshunos olimlar ushbu faktni u yoki bu tarzda tilga olishgan. Jumladan, akademik V. Abdullayev juda to'g'ri ta'kidlaganidek, Navoiyni, avvalo “ko'pchiligini o'zbeklar tashkil qilgan Movarounnahr aholisining buyuk shoiri deb, so'ngra, shuning bilan birga o'z xalqiga qilgan ulug'vor xizmatlari tufayli barcha taraqqiyparvar xalqlar shoiri deb tushunish lozim” [1, 101-b.].

Ayniqsa “firdavs monand” Samarqand yosh shoirning nainki fikr, tuyg'u, mushohada hayoti, balki ijodiy salohiyatining mukammallashuvida ham alohida ta'sir o'tkazgan edi. Chunki Navoiy Samarqandga kelganida, ilm-fan, adabiyot, maorif va madaniyati tanazzulga yo'liqqan Hirotdagidan ko'ra boshqacha holat – olimlar, shoirlarning Ulug'bek an'analarini jonlantirish yo'lidagi harakatlarining guvohi bo'lgan edi [1, 64 b.]. Murakkab bir davr, ziddiyatli zamon voqea-hodisalariga to'g'ri nazar tashlashda ham, ilm va ma'rifat kuch-quvvatiga ishonchning o'sishi hamda adabiyotning jahoniy yuksakliklarga olib chiqish sir-asrorini

yanada teran o'zlashtirishda ham Samarqand ilmiy-adabiy va madaniy muhiti Navoiyga yaqindan yordam ko'rsatgan edi.

Samarqanddan ustoz Sayid Hasan Ardasheriga yozilgan she'riy maktub Navoiyning kelajakda umumbashariy mavzu va g'oyalarni badiiy talqin etishga qodir, o'z qadri va imkonini xatosiz anglagan chinakam haqgo'y san'atkor o'laroq shakllanganidan guvohlik beradi. Shuningdek, Navoiy ijod olamining boyishi va mohiyat e'tibori bilan kengayib borishini Movarounnahr aholisi hayoti, shahar va tabiat manzaralari, olim, shoir, hunarmandlarining axloqi, faoliyatlarining tasvirlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Amir Temurning jahongirliги, Ulug'bekning ma'rifatparvarligi va Xoja Ahrori Valining kashf-u karomatlariga eshik ochgan Samarqandda o'tgan hayot, ilm va irfon darg'alaridan olingan tahsil, madaniy-ma'rifiy muloqotlar Navoiyni ilm-u donish, odil siyosat, iqtisodiy ma'murchilikka asoslangan buyuk davlatchilik tajribalari xususida o'ylashga ham yo'llab turganki, o'sha fikr-mulohaza va xulosalarning ma'lum bir qismi keyinchalik daho shoirning asarlari, xususan, "Xamsa" dostonlaridan o'rin olganiga shubha yo'q. Xullas, Samarqand o'zining "salobatli tarixi, qizg'in iqtisodiy va madaniy hayoti bilan ham Alisher zehnda chuqur va yoqimli xotiralar qoldirgan" [7]. Ko'p yaxshi-yomon, nurli va nursiz voqeahodisotlarni ko'rib, boshdan kechirgan Samarqandda yaratish iztirobi va ehtirosi kuchli ijodkorni tarixiy mushohadaga ilhomlantirib, ko'ngilda muzaffar moziy sog'inchini uyg'otuvchi sirli ruh, samoviy shukuh mavjuddirki, Navoiyning ko'hna Samarqandda ma'nan yayrab, qalbini ilmiy-ijodiy niyatlar bilan quvvatlantirib yashaganligining asosiy sabablaridan biri ham ana shu.

Xulosa. Mustaqillik davri ijodkorlaroldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Ulardan biri milliy ruh va qadriyatlarga asosiy e'tiborni qaratib, ularni o'z asarlarida badiiy gavdalandirish edi. Bu esa milliy o'zlikni qayta anglash hamda ma'naviyatimiz asoslarini jiddiy o'rganishni taqozo etdi. Mazkur milliy ehtiyoj va ruhiy tashnalik tufayli Alisher Navoiy ijodi mustaqillik davri shoirlari uchun e'tiqod, o'qib o'rganish manbayiga aylangan.

2. Alisher Navoiyning shaxsiyati, hayot tarzi, axloqi o'z zamonidayoq ham oddiy xalq, ham ijod ahli uchun namuna edi. Zamonamiz ijodkorlari ham Navoiy shaxsi va ijodini xuddi shu tarzda qabul qilishdi. Uning har bir asari va qarashini bugungi kun uchun ma'rifiy boylik, ma'naviy poklik, fikriy yetuklik va badiiy yuksaklikning maktabi, insoniy kamolotning andozasi sifatida ko'rsatishdi. Navoiyni buyuk rahnamo, barkamollik timsoli sifatida talqin etishdi.

3. Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy sharoit taqozosi tufayli o'tmish mavzusi ustuvor mavqe qozondi. Bu yo'nalishda tarixdagi buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari hamda ijodkor shaxslar asosiy tasvir obyektiga aylandi. Ular orasida eng katta salmoqni Alisher Navoiyga bag'ishlangan asarlar tashkil etadi. Ijodkorlar Navoiy obrazini yaratishda prototip, badiiy to'qima va estetik idealni sintezlashga harakat qilishdi. Tarixiy fakt va badiiy talqin masalasida tarixiy haqiqatga xos umumiy mantiqni buzmaslik, imkon qadar asl haqiqatlarga yaqinlashish tendensiyasi kuzatildi. Tarixiy shaxs obrazini yaratishdagi asosiy mezonlarga rioya etishga intilishgan.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев В. *Навоий Самарқандда*. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 101.
2. Каримов Н. *Гули ва Навоий. Мусиқали драма*. // *Шарқ юлдузи*, 2013 йил, 6-сон. – Б. 83.
3. Мухтор Омон. *Амир Алишернинг дарди*. – // *Ёшлик*, 2011, № 2. – Б. 16-31.
4. *Навоий Алишер. МАТ. Ўйгирма томлик. Ўн беинчи том*. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 106.
5. *Навоий Алишер. МАТ. Муҳокаматул-луғатайн*. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 27.
6. Ризаев Шухрат. *Маънавият манзиллари: Пьесалар ва мақолалар*. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги наириёт- матбаа ижодий уйи, 2008. – Б. 4-33.
7. Султон И. *Навоийнинг қалб дафтари*. – Тошкент, 1969. – Б. 160.
8. Қўшжонов М. *Инсон сабоқлари*. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – Б. 103.

**TARIXIY ROMANDA AYOLLAR RUHIYATI TASVIRI
(Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani misolida)**

Mirsharipova Shahzoda Shavkat qizi
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tili va
adabiyoti kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi
sh.sh.mirsharipova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada tarixiy romanda ayollar timsolining badiiy talqin etilishi va ayollar ruhiyati tasviri haqida so‘z boragan. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani misolida ijodkorning tarixiy davrni badiiy talqin etishdagi mahorati va ijtimoiy-siyosiy muhitda ayollarning o‘rni, ularning dunyoqarashi, o‘y-fikrlari, ruhiyat olamining badiiy tasvir etilishi haqida fikr yuritilgan. Ishda, asosan, romanda badiiy talqin etilgan Gavharshod begim timsolining murakkab bir tarixiy sharoitda davlat siyosatida tutgan o‘rni, ijtimoiy-siyosiy muammolarga yechim topish jarayonidagi zukkoligi, vorislari orasida tinchlik o‘rnatish yo‘lida chekkan azob-uqubatlari, umuman, bunda ayolning o‘y-kechinmalari, ichki dunyosi, botiniy olamida namoyon bo‘lgan o‘zgarishlar tasviri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, badiiy talqin, ayollar obrazi, psixologizm, Gavharshod begim obrazi, tarixiy davr, temuriylar davri tarixi talqini.

**ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ В ИСТОРИЧЕСКОМ РОМАНЕ
(На примере романа Пиримкула Кадырова «Ona lochin vidosi»)**

Аннотация: В статье говорится о художественной интерпретации образа женщины в историческом романе и изображении женской психики. На примере романа Пиримкула Кадырова «Она лочин видоси» рассмотрено мастерство автора в художественной интерпретации исторического периода и роли женщины в общественно-политической среде, её мировосприятия, мыслях, художественном изображении духовного мира. Роль Гавхаршад бегим в сложной исторической ситуации в государственной политике, её изобретательность в процессе поиска решения социальных и политических проблем, страдания, которые она претерпела ради установления мира между наследниками, в целом были описаны в этом образе на основе изменений, проявляющихся в его переживаниях, его внутреннем мире, его психике.

Ключевые слова: исторический роман, художественная интерпретация, образ женщины, психологизм, образ Гавхаршад бегим, исторический период, интерпретация истории тимуридского периода.

**REFLECTION OF FEMALE PSYCHOLOGY IN THE HISTORICAL NOVEL
(In the example of Pirimkul Kadyrov's novel "Ona lochin vidosi ")**

Abstract: The article talks about the artistic interpretation of the image of women in the historical novel and the depiction of women's psyche. On the example of Pirimkul Kadirov's novel "Ona lochin vidosi", the author's skill in artistic interpretation of the historical period and the role of women in the socio-political environment, their worldview, thoughts, and the artistic depiction of the spiritual world were discussed. The role of Begim Gavharshad in the complex historical situation in the state policy, her ingenuity in the process of finding a solution to social and political problems, the sufferings in order to establish peace among her heirs, in general, the image of the changes manifested in her experiences, her inner world, and her psyche is studied in the article.

Key words: historical novel, artistic interpretation, image of women, psychologism, image of Gavharshad Begum, historical period, interpretation of the history of the Timurid period.

Kirish. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida yurtimiz tarixi badiiy aks ettirilgan tarixiy romanlarda ayollar obraziga alohida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davri tarixi badiiy talqin etilgan romanlarda o‘sha davr ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutgan ayollarning badiiy timsoli yaratilgan bir qator romanlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, Muhammad Alining “Ulug‘ salatanat”, Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim”, To‘lqin Hayitning “Vafo malikasi” kabi romanlari shular jumlasidandir. Bular

orasida tarixiy romanlar ustasi bo'lgan iste'dodli o'zbek yozuvchisi Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romani alohida ajralib turadi.

Romanda temuriylar davri tarixiga oid siyosiy-ijtimoiy masalalar tasviri berilgan bo'lsa-da, asosiy qahramon qilib Temuriylar saltanatiga mansub bo'lgan malikalardan biri – Gavharshodbegim tanlab olingan. Asardagi barcha voqea-hodisalar Gavharshodbegim shaxsi atrofida ro'y berib, ularning markazida ushbu tarixiy shaxs turadi. Mana shunday ziddiyatli, toj-u taxt uchun kurashlar yuz berayotgan tarixiy bir vaziyatlarda Gavharshod begim obrazining ichki olami, ruhiy kechinmalari, qalb iztiroblari yozuvchi Pirmqul Qodirov tomonidan o'ziga xos mahorat bilan talqin etilgan.

Amir Temur yurishlarida, tabiiyki, uning o'g'illari, yoshi yetgan nevaralari ham ishtirok etardi. Bunday urushlar qanchadan-qancha odamlarning, hattoki, shahzodalarning o'limiga ham sabab bo'lganligini ko'rgan Gavharshod begim shunday yurishlar vaqtida umr yo'ldoshi – Shohruh Mirzo hamda farzandi Ulug'bek Mirzoldan xavotir olib, iztirob chekadi. Asarda uning ruhiy kechinmalari shunday tasvirlanadi: "Gavharshod begim qaynotasi uchun ham, eri uchun ham kuyinar, ayniqsa, Xitoy yurishiga bobosi bilan birga ketayotgan o'n bir yashar o'g'li Ulug'bekning taqdiridan iztirob chekardi"[6.9]. Ushbu parchada urush notinchliklaridan, uning keltirishi mumkin bo'lgan talafotlaridan aziyat chekkan, ammo shunday bo'lsa-da, bu urushlarning oldini olishga jur'ati yetmagan ayol qalbining og'riqlari o'z aksini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Temuriylar davlati siyosatiga ko'ra shahzodalar ulg'aygach, ularga muayyan bir hududni idora qilish topshirilgan bo'lib, shahzodalar shu joylarni boshqarish uchun o'z volidalaridan uzoqda, tayinlangan hududda istiqomat qilishlari shart bo'lgan. Mana shunday vaziyatlarda o'g'li Ulug'bek Mirzoni yonida bo'lishini istagan, farzandining diydoriga to'yish umidida bo'lgan onayizorning qalb iztiroblari yozuvchi tomonidan teran talqin etilgan: "Ulug'bek bu ta'qib-u tahlikalardan qiynalib, ozib ketganini ko'rgan Gavharshod begim o'g'lini bag'riga bosib yig'lab yubordi:

– Endi o'g'limiz yonimizda bo'lsin, hazratim, xudo xayringizni bersin, Ulug'bekni Turonga boshqa yubormang – deb Shohruhga iltijo qildi"[6.18].

Yuqoridagi parchada onaizorning farzand sog'inchidan chekkan iztiroblari yaqqol namoyon etilgan. Bunda Gavharshodbegim malika, mamlakatning ijtimoiy masalalarida mas'ul shaxs sifatida emas, balki oddiy inson, farzandi uchun kuyunchak ona sifatida gavdalantirilgan.

Tarixda padarkush deya nom qoldirgan Abdulatif Mirzo taxtga da'vogarlik yo'lida hech qanday yovuzlig-u buzg'unchilikdan qaytmas edi. Bu borada u yaqinlariga ham ozir berishdan tap tortmagan. Asarda uning hattoki ulug' momosi Gavharshodbegimga ham ozor berishdan qaytmaganligi aks ettirilgan. Natijada esa jigargo'shasining qilmishlaridan aziyat chekkan yoshi ulug' ayolning ruhiy qiynoqlari tasviri berilganki, ruhiyat tasviri asar voqealarining ishonarlilik darajasini ta'minlagan: "Hibsda ezilgan, zaxda bel og'rig'idan bukchaygan Gavharshodbegimni ikki yonidan suyab, darvozaxona oldiga olib keldilar. Begim fonus yorug'ida qo'li bog'langan, shohona kiyimlar loyga belanib, ayanchli ahvolga tushgan nevarasi Abdulatifni ko'rdi-yu yig'lab yubordi: – Noinsof nevaramga yaxshilik qilsam-u, shunday yomonlik ko'rdsam-a,.. Mana, qasos qaytibdur... Lekin bu qasosdan mening dilim vayron. Bolamning bolasini shu ahvolda ko'rish menga azob"[6.75].

Shuncha qiynoqlarni boshiga solgan bo'lsa ham o'z nevarasiga yomonlik tilashga ko'ngli yo'l bermaydigan bu farishtadek ayolning ushbu vaziyatda tashqi holatiga mos ravishda ichki ruhiy holatlari ham ta'sirli tarzda badiiy tasvir etilgan.

Asarda davlat ishlari, siyosiy vaziyatlar majburiyatidan onayi zorning o'z farzandidan uzoqda yashashi, bundan bechora mushtiparning dil iztiroblari tasviriga keng o'rin ajratilgan: "Gavharshodbegim ko'zlariga quyilib kelgan yoshdan maktubning oxirini o'qiy olmadi. Ipak ro'molchasini olib, ko'z yoshini artar ekan, yuzlari ham ho'l bo'lganini sezdi. "Oh, mehri daryo o'g'lim Tarag'ayjon, – deb pichirladi. Koshki qanotim bo'lsa-yu, huzuringizga uchib borsaydim"[6.88]. Bunda sog'inch hissini qalbidan kechirayotgan onaning iztiroblari ko'z yosh to'kish va o'z-o'zi bilan so'zlashish holatida zohir bo'ladi. Qalbidagi sog'inch-iztiroblarini farzandining o'ziga yuzma-yuz turib aytishning chorasini topa olmagan mushtipar ona dil izhorlarini qog'ozga to'kish maqsadida o'g'liga xat yozib, o'z sog'inchini namoyon etish holatlari kitobxonni qalban Gavharshodbegim obraziga yaqinlashtiradi. Mushtipar ayolning chorasizligi o'quvchini ham iztirobga soladi, bizningcha. "Ko'zimming oq-u qorasi. O'g'lim Mag'usiddin Muhammad Tarag'ay, – deb yozar ekan, ko'zlari yana beixtiyor yoshlandi. Men sizni ko'rib, bag'rimga bosib jon bersam rozi edim. Maktubingizni o'qiganimda yuzim necha bor ko'z yoshlarimga yuvindi"[6.89].

Sog'inch iztiroblarida yurgan bechora ona uchun farzandi uzoqda bo'lsa ham uning tirikligi bir umid bag'ishlab kelar edi. Ayovsiz taqdir Gavharshodbegimni mana shu umiddan ham mahrum qildi: "Hirot bog'larida gilos va olchalar oppoq bo'lib gullagan. Bog' oralab o'tgan Gavharshod begim esa o'g'li Ulug'bekka aza tutib, qora libos kiygan"[6.135]. Asarning ushbu o'rnida ijodkor qahramon ruhiy holati bilan

tabiat tasvirini qarama-qarshi holatda tasvirlaydi. Tabiat tasviridagi uygʻonish, koʻtarinkilik holati Gavharshodbegim obrazidagi azadorlik holati bilan zidlantirilgan holatda talqin etilgan. Tiriklik dunyosining ana shunday ajoyibotlarini, yaxshilik va yomonlik, hayot va oʻlimning hamisha yonma-yon turishini yozuvchi ruhiyat va tabiat tasvirini parallel qoʻyish orqali asoslamoqchi boʻlgan.

Chindan ham “Nazarimizda, mavjud holat koʻrinishlari-yu imo-ishoralarni, kechinmalarni toʻgʻri tanlab ishlatish badiiylikning zarur shartlaridan biridir”[1.368]. Zamon podshosi hisoblangan Ulugʻbek Mirzoning toʻsatdan oʻlim topishi hamma uchun hayratlanarli edi. Oʻgʻlidan ayrilganining oʻzi Gavharshodbegim uchun oʻnglanilmas zarba boʻlsa, uning kimdir tomonidan oʻldirilishi esa chidab boʻlmas alam edi. Bu judolikdan ezilib yurgan Gavharshodbegim qalbini ham shu savol tirnayotgan edi: “Gavharshod begim necha kundan beri dilini oʻrtab yurgan mavhum savollarga hozir javob olishi mumkinligini sezdi. Hayajondan nafasi titrab, Bobo Husaynni ichkarigi xonaga taklif etdi. Koʻz yoshlarini koʻk ipak roʻmolchasi bilan apil-tapil artdi. Soʻzlang bolam, menga farzanddek azizsiz...”[6.130]. Bunda Gavharshodbegimning hayajonlangani, iztirobda ekanligi va haqiqatni aniqlash yoʻlidagi harakati tasvirini yuzaga chiqarish maqsadida yozuvchi uning tashqi olamida zohir boʻlgan ruhiyatini ifodalashga harakat qilganligi koʻrinadi. Shu boisdan yozuvchi uning “hayajondan nafasi titrashi”, koʻz yoshlarini koʻk ipak roʻmolchasi bilan apil-tapil artishi” tasvirini keltirish orqali uning oʻgʻli oʻlimi bilan bogʻliq tafsilotlar haqida tezroq maʼlumot olishga intilganligini namoyon etadi.

Inson uchun eng ogʻir judolik oʻz qonidan, jonidan boʻlgan jigarbandi –farzandidan ayrilishdir. Ota-ona oʻlimi – meros. Ammo farzandidan juda boʻlish insonning qaddini bukib qoʻyadi. Mana shunday ogʻir judolikni boshidan oʻtkazayotgan mushtipar ona siymosi asarda yozuvchining mahorati oʻlaroq maromiga yetkazib tasvirlanilgan: “E, voh, shahid ketgan oʻgʻlim Taragʻayjon, –deb yum-yum yigʻladi. Ketish navbati meniki edi-ku. “Oʻgʻlim izimda qolsin” deb, joynamoz ustida oʻtirib, parvardigordan iltijolar qilgan emasdim?”[6.138]. Farzand dogʻida yonib kul boʻlayotgan onayi zorning ruhiy holati, qalb iztiroblari shu darajada taʼsirli tasvirlanganiki, asarni oʻqigan oʻquvchi qalban unga hamdard boʻlgisi keladi.

Uzoq vaqt farzandining diydorini koʻrmay, sogʻinch azoblarida yashagan Gavharshod begimning oʻgʻlini quchoqlash oʻrniga uning marmardan qilingan sovuq qabrini quchoqlab chekkan iztiroblari, xuddi shu jarayonda ayolning ruhiy holati ijodkor tomonidan mahorat bilan badiiy talqin etilgan: “Samarqandga, Amir Temur maqbarasiga yetib borganlarida Gavharshod begim Ulugʻbek qabrini xuddi beshik kabi quchoqlab, yelkalari silkina-silkina uzoq yigʻladi”[6.161].

Tahlil va natijalar. Asarda keltirilgan temuriy malikalardan biri – Ulugʻbek Mirzoning suyuqli xotini Husn Nigor xonimdir. Ushbu ayol ikki tomonlama ham Amir Temur sulolasiga aloqador boʻlib, Xalil Sultonning qizi boʻlgan. Oʻz otasining kushandasi – padarkush Abdulatifning validasi boʻlgan bu ayolning Ulugʻbekning oʻlimida oʻzini aybdor deb his qilishi, shuningdek, ikki oʻt orasida chekkan azoblari asarda oʻzining goʻzal badiiy ifodasini topgan: “Ulugʻbek Mirzoday unitilmas siymo bilan birga oʻtkazgan masʼud damlarini eslaganda, uning koʻzlariga yosh quyilib keldi. Qabrning sovuq marmariga yuzini qoʻyib shivirladi: “Barcha gunohlarim uchun afu soʻraymen, parvardigor meni farzand dogʻidan asrasin” deb koʻzda yosh bilan iltijo qildi”[6.145].

Ulugʻbek Mirzodek suyuqli insonidan ayrilgan Husn Nigor xonim ikki oʻt orasida yonar edi. Oʻz jufti halolidan ayrilish bir azob boʻlsa, u insonning qotili oʻz farzandi ekanligi ming azoblar bilan qalbini tirnayotgan edi.

Oʻz otasining qotili boʻlgan farzandiga qanday muomala qilishni ham bilmay lol qolgan mushtipar ayolning his-tuygʻulari quyidagicha tasvir etiladi: “Aytilgan gap – otilgan oʻq, qaytib kelmaydi. Axir otangiz taxtni oʻz ixtiyorlari bilan sizga topshirib, mardlik qilgan edilar-ku? Bunga javoban uning joniga qasd qilish... Qanday dahshat”[6.145].

Oʻz farzandining qotil ekanligini bilish, yana oʻz otasining qotili ekanligidan xabar topishi Husn Nigor xonimning kechirgan butun umrini mazmunsiz qilib, sarobga aylantirib qoʻygan edi. Uning farzandiga bergan tarbiyasi bugun kelib qotillikka aylangani ayol xayollarini toʻzgʻitib, uni ruhan choʻktirib qoʻydi.

Inson zotining joniga qasd qilish, hech ikkilanmasdan qilichdan oʻtkazishni va hattoki bunga odatiy holga aylantirib ulgurgan Abdulatifga nisbatan Husn Nigor xonim qalbida nafrat va qoʻrquv hislari uygʻona boshlagan edi. “Husn Nigor xonimni ham titroq bosdi: – Yo alhazar. Siz... mening oʻgʻlim... bosh kesdingiz? Oʻz ilkingiz bilan odam oʻldirdingiz?”[6.147]. Romanda oʻz jigarbandining vafosiz toj-u taxt uchun shu darajada razil insonga aylanib qolganligidan hayrat va hayajonga tushgan Husn Nigor xonimning ruhiy kechinmalari uning hayratga toʻla soʻzlari va titroq holatini kechirishi tasviri orqali ifoda etilgan.

Ammo Husn Nigor xonim nima boʻlganda ham – mushtipar ona. Ayol oʻgʻlining shunday qabih ishlarga qoʻl urganini bilsa ham uning qilmishlaridan pushaymon boʻlayotganini koʻrib, chidab turolmaydi. Taxtparastlik tufayli amalga oshirgan razil ishlaridan pushaymon chekayotgan oʻgʻlining dard-u alamlarini

o'ziga oladi. Hamma Abdulatifga padarkush deya nafrat nigohlari bilan qarayotgan bir vaqtda Husn Nigor xonim o'z o'g'liga darddosh bo'ladi: "Inondim, shoh o'g'lim. O'zingizni bosing. Dushmaningiz ko'p, ehtiyot bo'ling. Xudo sizni panohida asrasin. Mushfiq ona o'g'lining gunohini go'yo o'ziga oldi. Abdulatif unga ichini bo'shatib, xiyla yengil tortdi"[6. 150].

Barcha yaqin insonlaridan ayrilgan Husn Nigor xonim yakka-yu yagona o'g'lidan ham ajralib qolishdan qo'rqar edi. Shu bois ham o'z otasining qotili bo'lgan o'g'lini kechiradi. Yozuvchining talqiniga ko'ra butun dunyo unga qarshi turgan vaqtda onalik mehri tufayli Husn Nigor xonim Abdulatif tomonida turadi.

Ayovsiz taqdir bu mushtipar ayolga boshiga ham xuddi o'z qaynonasi Gavharshod begim qismatini solgan edi. Turmush o'rtog'idan ayrilib, hali yaralari unutilmasdan yagona farzandi Abdulatifdan ham ayrilishi Husn Nigor xonim uchun o'nnglanmas zarba bo'ldi: "Husn Nigor xonim kasalmand bo'lib, hassaga suyanib qolgan edi. U darvoza oldiga yetib kelguncha Abdulatifning besh o'g'li birin-ketin yugurib chiqishdi. Bir yilda sochlari oppoq oqarib ketgan Husn Nigor xonim Mahdi Ulyo qaynonasining oyog'i ostiga o'zini tashlab, uvvos solib yig'ladi"[6.162].

Yuqoridagi parchada ikki taqdirdosh ayol – qaynona va kelinning taqdir zarbalariga dosh berolmay bir-birlariga suyanchiq bo'lishlari, mana shu pallada ayol ruhiyatidagi kechinmalar, ruhiy qiynoqlar, hayotdan umidsizlik holatlari tasviri berilgan. Ijodkor ayollar huzuriga yosh bolalarni peshvoz chiqarib, ularga hayotda yashash uchun umid uchqunlarini uyg'otishga intiladi. Bu mushtipar ayollarning yagona suyanchig'i o'z farzandlaridan qolgan avlodlar – nevaralari edi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, ayol qalbi, uning dunyoqarashi, ruhiy ahvoli juda murakkab masaladir. Yozuvchi Pirimqul Qodirov tarixiy shaxs bo'lgan ayollarning badiiy timsolini yaratish orqali o'tmish manzarasini har tomonlama teran aks ettirishga erishgan. Chunki har qanday davr ijtimoiy muhitini ham ayollarning ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Shu ma'noda, ayollarning jamiyatdagi o'rni va insoniy fazilatlarini talqini yozuvchining diqqat-e'tiborida turgan muhim jihat sifatida ko'zga tashlanadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda oilaviy, shaxsiy munosabatlarni bir o'zanda tutib turish mas'uliyatini yelkasiga olgan saroy ayollari ruhiyati tasviriga alohida ahamiyat qaratish orqali yozuvchi bir tomondan ularning inson sifatidagi badiiy olamini yoritish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatidagi mohiyatini ochishga erishgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд.* – Тошкент: Фан, 1991. – 384 б.
2. *Давронова Ш. Г. Абдулла Қодирий анъаналари ва истиқлол даври ўзбек романчилиги //международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.*
3. *Davronova S. Tarihi romanda mutasavvif bilgin simasi //dil ve edebiyat araştırmaları i. – C. 108.*
4. *Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи.* – Тошкент: Fan va texnologiya, 2006. – 164 б.
5. *Каримов Х. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари.* – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – 124 б.
6. *Qodirov P. Ona lochin vidosi.* – Toshkent: Adabiyot uchqunlari. – 305 b.

HUVAYDONING POETIK MAHORATI**Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna,***Toshkent irrigatsiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**dilfuza8110@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada Huvaydo ijodining o'ziga xos xususiyatlari, shoirning badiiy mahorati, she'rlarida ifodalangan o'ziga xosliklar va shoir asarlariga Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor kabi ijodkorlarning ta'siri haqida yoritilgan. Huvaydo she'rlari ushbu ijodkorlar she'riyatini orqali qiyoslanib, tahlil qilingan. Shoir she'riyatida, ayniqsa, Mashrabona ruh ustuvor. Uning ko'plab g'azallari qofiya va radif uchun tanlangan so'zlar jihatidan ham, mazmun, g'oya va falsafiy dunyoqarash jihatidan ham Mashrab asarlariga juda yaqin. Devon mutolaasida Huvaydo g'azal, mustazod, ruboiy, chiston-g'azal kabi she'r turlari, masnaviy singari epik nazm namunalarning mumtoz ustasi sifatida namoyon bo'lishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, didaktik obraz, payg'ambarlar obrazi, badiiy san'atlar, Qur'oni karim, ilm, ma'rifat, komil inson.

ПОЭТИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО ХУВАЙДО

Аннотация. В статье описываются особенности творчества Хувайдо, художественное мастерство поэта, особенности, выраженные в его стихах, влияние на творчество поэта таких авторов, как Навои, Машираб, суфий Оллоёр. Стихи Хувайдо сравниваются и анализируются сквозь призму поэзии этих поэтов. В поэзии поэта особенно преобладает дух Машираба. Многие его газели очень близки произведениям Машираба как по слову, выбранному для рифмы и корня, так и по содержанию, идеям и философскому мировоззрению. В прочтении Девона считалось, что Хувайдо появился как классический мастер таких типов поэзии, как газель мустазад, рубаи, чистан-газель, и примеров эпической поэзии, таких как маснави.

Ключевые слова: дидактика, дидактический образ, образ пророков, изобразительное искусство, Священный Коран, наука, просвещение, совершенный человек.

THE POETIC SKILL OF HUWAIDO

Abstract. The article describes the specific features of Huvaido's work, the poet's artistic skills, the peculiarities expressed in his poems, and the influence of artists such as Navoi, Mashrab, Sufi Olloyor on the poet's works. Huvaydo's poems are compared and analyzed through the poetry of these artists. In the poet's poetry, especially Mashrabona spirit prevails. Many of his ghazals are very close to Mashrab's works in terms of the words chosen for the rhyme and radif, as well as in terms of content, ideas, and philosophical outlook. In Devon's reading, it was thought that Huvaydo appeared as a classic master of poetry types such as ghazal, mustazod, rubai, chistan-ghazal, and examples of epic poetry such as masnavi.

Keywords: didactics, didactic image, image of prophets, fine arts, Holy Qur'an, science, enlightenment, perfect human being.

Kirish. XVII asrda Turkistonda boshlangan siyosiy parokandalik Qo'qon xonligining Buxoro amirligidan ajralib chiqishi, turli sulola va urug'lar o'rtasidagi urushlar, tinimsiz ziddiyatlar o'sha davr jamiyat hayotini izdan chiqardi. Hatijada ilm-fan bilan bog'liq jarayonlar sekinlashdi. Huvaydo shaxsi va dunyoqarashining shakllanishida shubhasiz, jamiyat duch kelgan muammolar, imon-e'tiqodning susayishi, kishilarning mol-u dunyoga hirs qo'yishi, ma'naviy-axloqiy tanazzul kuchli ta'sir ko'rsatdi. Huvaydo ijodiy merosini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, shoir tasavvufiy she'riyatning Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy, Mashrab, So'fi Olloyor singari mashhur namoyondalar ijodini puxta o'zlashtirgan.

Huvaydoning ijodi har jihatdan rang-barang va takrorlanmasdir. Shoir ijodiy merosi keng ko‘lamlikni, uni bir qarashda anglab olish mushkul. Shoir „Devon“idan g‘azal, mustazod, muxammas, murabba‘, ruboiy kabilar o‘rin olgan.

“Huvaydo she‘riyatning Sharqda an‘ana holiga kirib qolgan deyarli hamma asosiy shakllarida ijod etdi: g‘azal, masnaviy, ruboiy va hokazo. Huvaydoning qator asarlarining tili juda sodda, mazmundordir, iboralari va fikrlari o‘ynoqi hamda jo‘shqindir”[13].

“Huvaydoning asrdoshlaridan Mujrimdan tortib, keyingi asr qalamkashlari Maxmur, Gulxaniy, Ogahiy, Muqimiy va Furqatlargacha uning ijodiy boyliklaridan, ijobiy tendensiyalaridan bahramand bo‘ldilar, uning muhim fikrlarini targ‘ib etdilar, she‘rlariga naziralar bog‘ladilar”. [13]

Mark Twain writes (using the language of Satan) that one of the last good achievements of science is the discovery of hidden killers such as parasites. The favorite prey of this parasite is the bare-footed poor; the parasite hides in hot sands in hot regions and finds its way to unprotected feet. The name of the parasite is hookworm. It was invented by a doctor two or three years ago; the doctor had been studying the victims of this parasite for many years. The hookworm parasite had been doing its ugly deeds since Shem set foot on Mount Ararat, but no one had the slightest suspicion that it was a terrible disease. Those suffering from this disease were simply called lazy, so they looked down on them and laughed instead of pitying them. Hookworm is especially the most vile and dishonest discovery, it has existed unopposed for centuries and afflicted people. But now that doctor and his assistants will eradicate this disease forever. Yes, of course, God is behind this parasite; he has been preparing to destroy it for six thousand years, but he cannot come to a decision. (strong sarcasm here!). He also had the idea of destroying the parasite, he almost did it, he was late, and Dr. Charles Wardell Stiles found the solution before him. But in any case, the Creator had the opportunity to write this glorious discovery in his name. When such things happen, he is never late...

All this is said by Satan whom God has driven to Earth. And the writer makes additional interventions: "... It is going to cost a million dollars. He was probably just in the act of contributing that sum when a man pushed in ahead of him - as usual. Mr. Rockefeller. He furnishes the million, but the credit will go elsewhere -- as usual. This morning's journal tells us something about the hookworm's operations: "The hookworm parasites often so lower the vitality of those who are affected as to retard their physical and mental development, render them more susceptible to other diseases, make labor less efficient, and in the sections where the malady is most prevalent greatly increase the death rate from consumption, pneumonia, typhoid fever, and malaria. It has been shown that the lowered vitality of multitudes, long attributed to malaria and climate and seriously affecting economic development, is due in some districts to this parasite. The disease is by no means confined to any one class; it takes its toll of suffering and death from the highly intelligent and well-to-do as well as from the less fortunate." [4].

Interestingly, Satan concludes by saying that "despite the disease's pervasive and terrible character, we may look to the future with optimism. The disease is simple to recognize, and it is also quite simple to cure; successful therapy may be achieved with routine sanitary procedures. With God's assistance, this can be avoided.

Conclusion. Overall, by taking a sarcastic approach to the claims of Christians, Mark Twain uses two complementary methods: he contrasts the superstition with the Book he considers holy, the Bible, and at the same time equates him with Satan, whom he considers an evil force. The writer constantly reminds us (of course, through the image of Satan in the work!) that the individual and the universe are categories of different weights. In addition to the ridiculous and formless comparison of man with small and huge things, the author also elevates individual life and exaggerates it too much. Thus, unlike the authors before and after him, Mark Twain used a new, original, and extremely interesting artistic principle with the image of Satan in "Letters from the Earth", and for the first time in the history of literature, satirized Satanism with its representative. In many cases, the character of Satan is remembered for his positive judgments and opinions, he takes an uncompromising position against religious doctrines and superstitions, and in some cases, he encourages religious enlightenment, reveals the power of cognition and logic, and shows the ways to lead people from darkness to light.

REFERENCES:

1. *Letters from the Earth: Uncensored Writings* .17 February 2004. Harper Perennial modern classics
2. Mark Twain. *Autobiographical dictation 13 September 1907*. Published in *Autobiography of Mark Twain, Vol. 3* (University of California Press, 2015)
3. "Letters from the Earth" was written after the deaths of Twain's Suzy (1896) and his wife Olivia (1904). Available in PDF, and Kindle ebook.
4. <https://www.britannica.com/topic/Letters-from-the-Earth>
5. <https://faculty.mtsac.edu/jmcfaul/Letters%20From%20The%20Earth.pdf>

THE SECRET OF YESENIN'S WITCHING COLOR

Khudaiberdieva Dilfuza Mukhtarovna,
Doctor of Philosophy (Ph.D.), teacher,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
hudayberdiyevadilfuza3@gmail.com

Abstract: *Yesenin's poetry is multicolored, but not just endowed with colors, but organically merged with musicality and color with the inner world of the poet and the surrounding space in which he lives and creates. Yesenin's symbolism of flowers is more stable, and some color epithets become permanent symbols (at first - raspberry and pink, later - gold, white, yellow, red). This article discusses about Yesenin's color painting of poems, in essence, the fundamental colors of the image of the Savior in the forces, which appears in the eyes of the poet precisely at the border of the transition from the earthly world to the heavenly world.*

Keywords: *interact, influence, artistic world, blue of heaven, connection, universal temple, temple of nature, human soul, perception, mythopoetic image*

СЕКРЕТ КОЛДОВСКОГО ЦВЕТА ЕСЕНИНА

Аннотация: *Поэзия Есенина многоцветна, но не просто наделена красками, а органично слита музыкальностью и цветом с внутренним миром поэта и окружающим пространством, в котором он живет и творит. Есенинская символика цветов более устойчива, а некоторые цветковые эпитеты становятся постоянными символами (сначала - малиновый и розовый, позже - золотой, белый, желтый, красный). В данной статье речь идет о цветовой росписи стихов Есенина, по существу, об основных красках образа Спасителя в силах, который предстает в глазах поэта именно на границе перехода из мира земного в мир небесный.*

Ключевые слова: *взаимодействие, влияние, художественный мир, синева небесная, связь, вселенский храм, храм природы, человеческая душа, восприятие, мифопоэтический образ.*

YESENINNING SEHRGARLIK RANGI SIRI

Annotatsiya: *Yesenin she'riyati rang-barang, lekin nafaqat ranglar bilan tasvirlangan, balki shoirning ichki dunyosi va u yashayotgan, yaratadigan muhit bilan musiqiylik va rang bilan organik ravishda birlashtirilgan. Yesenin gullar ramziyligi yanada barqaror bo'lib, ba'zi rangli epitettar doimiy belgilarga aylanadi (dastlab - malina va pushti, keyin - oltin, oq, sariq, qizil). Ushbu maqolada Yesenin she'rlarining rang-barang bo'yoqlari, mohiyatiga ko'ra, shoirning ko'zlarida yerdan samoviy dunyoga o'tish chegarasida paydo bo'ladigan kuchlardagi Qutqaruvchi obrazining asosiy ranglari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *o'zaro ta'sir, badiiy dunyo, osmon, aloqa, universal ibodatxona, tabiat ibodatxonasi, inson ruhi, idrok, mifopoetik tasvir.*

Introduction. As a national people's poet, Sergei Yesenin absorbed into his poetic system a favorite color scale from time immemorial. Yesenin's color painting of early poems, in essence, exactly reproduces the location of the color on the Russian icon, and the flame pouring "into the abyss of vision", like "scarlet darkness in the heavenly black" - the fundamental color of the image of the Savior in the forces, which appears in the eyes of the poet precisely at the border of the transition from the earthly world to the heavenly world. And the icon itself in his poems becomes a true window into another world, and opened by his word, it transforms the local world as well. The blue spilled in Yesenin's poetry really resembles ancient Russian fresco painting. It was not for nothing that his contemporaries said about the famous Dionysius that he "writes like smoke" [1, 543].

Others, especially blue and blue, are used both literally and figuratively: blue Russia and blue expanse, blue evening and blue happiness. Yesenin's raspberry field, expanse, quinoa do not correspond to visual representations, but they convey admiration for the beauty of their native land in this definition, both the highest praise and the highest measure of love are combined. In the same way, the "pink sky" is perceived not as a sky illuminated by the sunset, but as a symbol of something ideal, unrealizable, which can only be interpreted as "pigeon clouds".

With someone's affectionate spring

I was sad in the blue haze
About the beautiful, but unearthly,
Undiscovered land.

Methods. The early poetry of S. Yesenin, still very calm and serene, is dominated by blue and green tones, interspersed with white "bird cherry snow". Russia itself, majestic and unhurried, stepped onto the pages of Yesenin's lyrics. She is still sleeping, serene, illuminated by the golden rays of the moon.

I won't be back soon!
For a long time to sing and ring the blizzard,
Guards blue Russia,
Old maple on one leg.

At times, the poet is filled with a "flood" of memories, in his lyrics green-blue colors and their tenderness overwhelm his poems. He immensely loves his "wretched" Rus', he does not need another land, but as a true artist and patriot, he wants changes for the better. Progress cannot be stopped, no matter what it brings with it. The poet sadly looks at the irrevocably leaving antiquity, familiar, serenely dormant, but already dying under the pressure of progress.

Have you seen
How it runs through the steppes
Hiding in lake mists,
Snoring iron nostril.
On the paws of a cast-iron train?
And behind him
On the big grass
As at a feast of desperate races,
Thin legs, throwing to the head,
Is the red-maned foal galloping?
Dear, dear, funny fool
Well, where is he, where is he going?
Doesn't he know that living horses
Did the steel cavalry win?

As a folk poet, Yesenin was close to the gamut of colors traditionally used in folklore and ancient Russian painting. Blue and blue-drenched Ryazan landscapes that began to prevail in his poetic creations: "The valleys turned blue in the transparent cold", "The blueness of the contemptible thick". The blue color and its shades were not an ordinary palette for Yesenin, as they expressed something divine, unsaid, romantic: "Unspeakable, blue, tender ...". The poet even associated Russia itself with the color blue, saying that there is "something blue" in this word. Although in another poem, Yesenin "dressed" Russia in scarlet clothes and a green shawl.

Contrasting colors create the inner tension of the narrative, psychologism is present in every couplet. Surprisingly accurately and dramatically, the poet conveys the melancholy that sounds in the Russian folk song, its lyrical beauty. Green and blue are the traditional colors of Russia in Yesenin's poetic world. The author often combines them, giving them as shades of one another. Brought up in an Orthodox family from childhood, Yesenin could not help but know that the blue color is the patronage of the Virgin Mary, the intercessor of Rus', and the color of purity, purity. This is how he sees his homeland - sublime and beautiful.

Behind the dark strand of cosses,
In unshakable blue
Curly lamb - month
Walking in the blue grass.

Yesenin is akin to the boundless expanses of Russia, he thinks on a cosmic scale, including earth and sky in his poems. The spirit captures from the images with which the poet thinks, from the epithets with which he rewards everything that exists. The author's favorite technique is personification. He refers to trees and grasses, rivers and lakes, steppes and fields as close friends, including them in his confidential conversation. Hence the special affinity of the poet with the surrounding world, a complete merging with nature, to which the author constantly strives. If there is no this harmony, the poet experiences melancholy, sadness, discomfort. His friend - nature sensitively reacts to the state of the author, or vice versa. Yesenin perfectly sees the mood of the world around him, he knows how to sensitively convey it in colors.

The connection between the earthly and the heavenly is not just one of the poetic devices, but the most important feature of Yesenin's philosophy, his ideas about the world and man. According to the precise

observation of T. Savchenko, in the works of Yesenin, the earthly and heavenly spheres interact, influence each other and even merge! That is why the sky in the artistic world of the poet is "blue grass", "blue bullets", and the water on earth is the blue of heaven that has fallen into the river.

This poetically expressed connection of earth and sky creates the image of a single universal temple - the temple of nature, the human soul, the beautiful temple of the universe. In the perception of the poet, this mythopoetic image acquires a pronounced national flavor, appears in the form of the World Tree, the roots of which are the earth, and the top is the sky. "Everything from the tree is the religion of the thought of our people," Sergei Yesenin would later write in the philosophical and aesthetic treatise "Keys of Mary" [2, 23].

And the peasant hut is the personification of the "World Tree". This is especially evident in the poem "The road thought about the red evening ...".

The road thought about the red evening,
Bushes of mountain ash are foggier than depth.
Hut - old woman jawed threshold,
Chews the odorous crumb of silence.

The poet recreates a holistic multi-valued artistic image, in the structure of which the hut is animated, merges with a person. A colorful and polyphonic world... Everything lives, moves, breathes. Moreover, this movement is transmitted through a change in color and sound. First - "red evening", sunset. Gradually, the haze thickens, and now, against the background of darkness, illuminated by the reflections of the fire from the stove, pictures of life inside the hut appear: "through the blue glass of a yellow-haired youth // He shines his eyes on the checkbox game", "sparkles according to the story // Green ash from the pink stove". The combination of blue and yellow, green and pink fabulously transforms an ordinary peasant hut and emotionally prepares the lines that contain the motive of mystery:

There is no one, and the thin-lipped wind
About someone whispers, who disappeared into the night.
Someone's heels no longer crush the groves
Chipped leaf and gold grass...

By the end of the poem, the color disappears, "the gloom is getting thicker", and against its background the road seems white. As darkness falls, the sound grows and becomes more and more distinguishable: the wind "whispers", "a viscous sigh, diving with a skinny ringing, // Kisses the beak of a ruffled owl", "barley straw gently groans". And all together (color, sound, image) convey the theme of separation and bring into the poem a mood of sadness, regret about the past, about the passing life. This mood is enhanced by sound recording. But what is interesting - sadness, some kind of bright sadness, and not hopeless darkness, is felt when reading. At the same time, peace, tenderness, some kind of peace emanates from the poem. How does the change in color and sound affect Yesenin's poems?

The blue haze fell in love with Yesenin very much, became his leading colorful tonality. An analysis of the prevalence of colorful and color epithets and definitions expressed by adjectives showed that the most common epithet was "blue". Yesenin filled his Ryazan landscapes with blueness, as if consciously striving to ensure that by this luminous, sometimes true, mother-of-pearl, sometimes deep, to black blue, from afar, without even looking at the details, especially the drawing, they recognized his hand.

Results. Yesenin creates the impression of blue persistently and consistently:

"In the transparent cold, the valleys turned blue"
"Summer Evening Blue"
"The dove of the contemptible thick"
"Blue Blizzard"
"Go you Russia, my dear,
Huts - in the robes of the image ...
See no end and end
Only the blue sucks the eyes"

Emphasizing the overlap of visual, color epithets between the poetry of Sergei Yesenin and The Tale of Igor's Campaign, one can note the special, biased use of the epithet "blue" in the Old Russian poem: "Blue Lightning", "Blue Wine", "Blue Needle", etc.

When the poet wants to show that two forces are fighting for the human soul: black, diabolical, and blue, divine, he with brilliant courage puts both of these colors on the human face with two strokes:

Much evil with joy in murderers,
Their hearts are simple
But grimace in blackened faces

Blue mouths.

Blackened faces - and blue mouths in them - this is it, the battlefield of God and the devil! This image will sparkle again in 10 years in *The Black Man*. The poet ventured to show the highest degree of blasphemy, which the "Black Man" dares to do, deliberately and cynically trampling on his blue divine hypostasis ...

The use of the contrast of white and black was very characteristic of ancient Russian literature, where white was used to denote all kinds of deeds and motives, and black to show evil forces. Such color symbolization was common in Ancient Rus'. Yesenin absorbed this tradition into his poetry. This is most clearly demonstrated in the poem "The Black Man", where all the terrible, merciless, evil attitude towards the spiritual world of a person, his experiences is personified in a black, diabolical likeness of a person. The poet painted the moon over the roof, the smooth surface of the river in white, and Yesenin's moonbeam - like a "snow-white feather".

White and black colors symbolized maturity for the poet, which he compared with the autumn of the year. This is a beautiful and bright time, but it is sad, as it is followed by winter-old age with contrasting white and black tones. Yesenin rarely writes in white, but always in white. The poet likes to follow how the color changes, flows, flows, moves, depending on the nature of the lighting. The surface of the water is used as a palette, where by combining the reflections you can get the desired color.

Discussion. Nevertheless, it should be noted that in the poems of 1910-1913 this epithet is very rare. It began to be widely used in poetry from the second half of the 10s and then firmly held until the end of the creative activity of Sergei Yesenin [3, 65].

The reality of events sobered the poet, showed different aspects of life. Serenity was replaced by maturity, experience and the first bitter disappointments. From now on, his poems will be dominated by red-burgundy hues, colors filled with golden rain of sunlight or autumn leaf fall: "The moon is under the roof, like a golden hillock" "I dreamed of rivers of golden valleys" "Where the bast mats are golden in a row" "Twilight licks the gold of the sun" "Coniferous gilding" "Golden greenery" s". But every time the motif of the "lost soul" sounds in the early, still cheerful and light verses, a bitter yellow color explodes:

Spring and sun on the meadow
entwined yellow road
And the one whose name I keep
I will be driven from the threshold.
The Yellow Road is a road to nowhere.

Compare, for example, two "dawns" in Yesenin's poems: "the scarlet light of dawn wove out on the lake" and "the red dawn lit up in the dark blue sky" - a bright, fresh image of a scarlet fabric woven by sunlight, and a familiar, commonplace metaphor.

Interestingly, Yesenin handles gold and silver. Gold-silver serves as a frame, a salary in the poem "The Herd". The green picture - horses against the background of green hills - is inserted into the gold one; and blue - the same horses overturned into the "blue bay" in a silver "frame". "In the hills of green herds of horses

The poet likes to follow how the color changes, flows, streams, moves, depending on the nature of the lighting. He uses the surface of the water as a palette, where, by combining the reflections, you can get the desired color. In the poem "In the land where the yellow nettle" overturns the yellow nettle and the blue "thick forest" into the lake and receives the "green of the lakes". The colors in the poems fall either thickly or slightly muffled: "Swamps and swamps, blue boards of heaven"

In his work, Sergei Yesenin demonstrates a different, new attitude to color and even a different way of "dyeing". In the poem "Smoke high water ..." the first thing that catches your eye: there is not a single clear contour. The outlines of haystacks are so unclear that they can be mistaken for the silhouettes of little churches. Blurring the line, Yesenin highlights the details he needs with color: vague yellowness or yellow reins of the month, red haystacks that have turned brown over the winter. The general tone of the plan is yellow. Yesenin plays on textured shades of color. The landscape is resolved in two colors: the yellow mass of the river and the blue distance of the grove. But the presence of black, thick and bright is felt. The color plot moves from light to darkness [4, 78]:

1 stanza - bright yellow
2 stanza - red
3rd stanza - black
4 stanza - dark blue

Conclusion. So, after the first two light stanzas, it falls into the (3rd and 4th) darkness of the spring night, the bird frightens. There are many earthy, natural, natural colors in Yesenin's color alphabet. Even when detached from the subject, the color image does not lose objectivity: the hair is not just yellow, but light, the blush is not pink, but berry-colored, the gray hair in the father's beard is "apple" in color [5, 154].

In conclusion, Yesenin will forever remain an elegant feast of color that saturates the heart and makes life brighter and eyes wider. A sensitive combination of man and nature is impossible not to notice in his works. Looking at them, you disappear, drown in the arms of mother nature. And somehow by chance comes to mind - the second Yesenin. Petrov-Vodkin fought for a return to the classic tricolor - "red - blue - yellow". Yesenin very subtly perceived the "color characteristics of nature." There is no monotony in the verses. They, like paintings, are filled with either bright scarlet, or burgundy, or the light of the morning sun, or shades of dried grass.

REFERENCES:

1. Belskaya A. "Song word". 2018. -p.543.
2. Brothers Kunyaev "Life of Yesenin". Moscow, 2018. -p.23.
3. Marchenko A. "Yesenin's poetic world." Moscow, 2009. -p.65.
4. Prokushev Yu. "Sergey Yesenin. Image, poems, era. Moscow: ed. "New Russia", 2019. -p.78.
5. Shcheglov M. Yesenin in our days. No. 3, 2009. -p.154.

«ХАМСАТУЛ-МУТАХАЙИРИН» ҲАМДУ НАЪТЛАРИДА ИНСОН КАМОЛОТИ
МАСАЛАСИ

Ҳайитов Шавкат Аҳмадович,
Бухоро давлат университети
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори,
филология фанлари доктори
s.a.hayitov@buxdu.uz
shavkat61hayitov@gmail.com
ORCID 0000-0002-4290-6017

Аннотация. Мақолада Ҳазрат Алишер Навоий «Хамсатул-мутаҳаййирин» асарининг ҳамд ва наът қисми чуқур гоёвий-бадиий таҳлил қилинган. Маноқиб жанрида битилган насрий асарда муқаддиманинг мундарижасига уйғунлиги, ҳамду наътда комил инсон талқини исломий-ирфоний манбалар асосида ёритилган.

Калит сўзлар: Алишер Навоий, «Хамсатул-мутаҳаййирин», Нуриддин Абдурахмон Жомий, ҳамд, наът, жазба, тавҳид, оят, ҳадис, олим, эънотли қофия, тавозуъ, сидқ, ҳаё, карим, карам, карам кони, илмлар махзани, ҳилм, Расулulloҳ (с.а.в.), Зайд ибн Саъна, Абу Бакр, Умар, таҳаммул, сабр, далиллаш, санъати, бадиий асар, гоё, талмеҳ, таносиб, такрор.

ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВА ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ
«ХАМСАТУЛ-МУТАХАЙИРИН»

Аннотация. В статье глубоко идейно и художественно анализируется хвалебная и натальная часть произведения Хазрата Алишера Навои «Хамсатул-мутахаирин». В прозаическом произведении, написанном в жанре манокиб, выделены гармония введения с содержанием, трактовка совершенного человека на основе исламских мистических источников.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Хамсатул-мутахаирин», Нуриддин Абдурахман Джами, восхваление, нат, джазба, таухид, аят, хадис, учёный, монотонная рифма, таузу, сидқ, скромность, кярим, карам, карам кони, илмлар махзани, хильм, Расулulloҳ (мир ему), Зайд ибн Сана, Абу Бакр, Умар, терпимость терпение, доказательство, искусство, художественное произведение, идея, талмеҳ, пропорция, повторение.

THE PROBLEM OF HUMAN PERFECTION IN A WORK
«KHAMSATUL-MUTAKHAYIRIN»

Abstract. In the article, the praise part of Hazrat Alisher Navoi's work «Khamsatul mutahayirin» is deeply ideologically and artistically analyzed. In the prose work written in the Manoqib genre, the harmony of the introduction with the content, the interpretation of the perfect human being is highlighted based on Islamic mystical sources.

Keywords: Alisher Navoi, «Khamsatul-mutahayirin», Nuriddin Abdurrahman Jami, praise nat, jazba, tawhid, verse, hadith, scientist, unique rhyme, tawzu, sidq, modesty, karim, karam, karam koni, imlar makhzani, hilm, Rasululloh (s.a.v), Zayd ibn Sana, Abu Bakr Umar, tolerance, patience, evidence, art, artistic, work, idea, talmeh, proportion, repetition.

Қириш. Навоийшуносликда «Хамсатул-мутаҳаййирин»га доир бир қатор тадқиқотлар бажарилган [4;5;6;7;12;14, 5-12, 15, 374-384].

Асарнинг 1964 йилги нашри «Жомий ва Навоий» тўпламидан ўрин олган. Мазкур нашр таниқли матншунос олим П.Шамсиев томонидан амалга оширилган. «Хамсатул-мутаҳаййирин»нинг 1967 йилги оммавий матни ҳам филология фанлари доктори П.Шамсиев томонидан тайёрланган. Алишер Навоий йигирма томлик Мукамал асарлар тўпламининг ўн бешинчи жилди «Хамсатул-мутаҳаййирин» билан бошланади. Уни П.Шамсиев матни асосида олима С.Ғаниева нашрга тайёрлаган. Алишер Навоий сайланмасининг ўн тўртинчи жилдидан (1967) тушириб қолдирилган «Хамсатул-мутаҳаййирин»нинг «Ҳамду наът» қисми мукамал нашрда мавжуд. Асардан айрим парчалар 1989 йилда профессор Ш.Шомухамедов сўзбошиси билан чоп этилган «Жомий ва Навоий»

тўпламида ҳам берилган. «Хамсатул-мутаҳаййирин» Тожикистонда икки марта (1961, 1989) босилиб чиққан.

Илмий тадқиқот ишларига келганда, йирик матншунос олим П.Шамсиевнинг хизматларини алоҳида таъкидлаш жоиз. Профессор Р.Воҳидов ёзади: «Порсоҳон Шамсиев асар матнини салкам йигирма саҳифалик [МАТ, 14-жилд, 238-259-бетлар] шарҳу изоҳлар, тағлама таржималар, сўз ва бирикмалар, бадий санъатларга берилган батафсил талқинлар билан таъмин этган. Етук олим заковати билан амалга оширилган бундай машаққатли ижодий ишнинг натижалари «Хамсатул-мутаҳаййирин» ҳақида яратилган каттагина илмий тадқиқот билан тенг туради, десак хато бўлмайди» [5,8].

Истеъдодли олима С.Ғаниеванинг 1964 йилда чоп этилган «Жомий ва Навоий» тўпламига П.Шамсиев билан ҳамкорликда ёзган сўзбошиси, хусусан, «Ўзбек адабиёти тарихи» беш жилдигининг иккинчи тоmidан ўрин олган мақоласида «Хамсатул-мутаҳаййирин»нинг яратилиш тарихи, тузилиши, бадий-адабий аҳамияти ҳақида муҳим мулоҳазалар ўртага ташланган.

Н.Маллаев, А.Ҳайитметов каби атоқли олимларнинг Алишер Навоий ижодининг турли муаммоларига бағишланган тадқиқотларида асарнинг ўзбек адабиёти тарихида тутган ўрни, ахлоқий-бадий қиммати тўғрисида кенг фикр юритилган.

Шунингдек, тожик олимлари – А.Афсаҳзод, А.Маниёзов, С.Воҳидовнинг ишларида «Хамсатул-мутаҳаййирин» махсус тадқиқот манбаи сифатида таҳлилга тортилган. Мазкур тадқиқотларнинг фазилатлари, сифат-савияси, айрим қусурлари ҳақида Р.Воҳидовнинг юқорида ишора қилинган китобларида атрофлича фикр юритилган. Асарнинг тожикча таржималари хусусида доцент М.Қосимова ва проф. Р.Воҳидов томонидан амалга оширилган ишлар эътиборга молик.

Кейинги йилларда «Хамсатул-мутаҳаййирин»га бағишлаб яратилган илмий ишлар орасида филология фанлари доктори Р.Воҳидовнинг «Навоийнинг икки дурдонаси» китоби қиёсий-илмий теранлиги билан диққатни ўзига жалб қилади. Рисола қуйидаги илмий янгиликларга эга:

– Муаллиф «Хамсатул-мутаҳаййирин» маълумотларига таянган ҳолда чуқур илмий таҳлиллар ва тарихий далиллар шохидлигида Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоийларнинг илк учрашуви масаласида устоз Садриддин Айний ўртага қўйган рақамларнинг ҳақиқат эканлигини, яъни бу тарихий воқеа 1459-1460 йилларда юз берганини исботлаган.

– Асардаги мавзулар мафкуравий чекланишларсиз, умуминсоний режада ўрганилган.

– «Хамсатул-мутаҳаййирин»нинг тожикча таржималари илмий-чоғиштирма услубда нозик тадқиқ этилган. Рисоланинг «Қардошлик кўнгиллараро кўприқдир» фаслидаги талқинлар, назарий мушоҳадалар келгусида асарнинг тожик тилидаги мукамал наشريни яратишда мустаҳкам пойдевор вазифасини ўтайди.

Юқорида назардан ўтказилган ишлар асосида хулоса қилиш мумкинки, «Хамсатул-мутаҳаййирин»да комил инсон тимсоли ҳозирга қадар махсус тадқиқот учун асос бўлган эмас. Асардаги ҳикоятлар, икки улуғ мутафаккир орасидаги мактублар А.Ҳайитметов, Р.Воҳидов, А.Афсаҳзод, С.Ғаниева ва бошқа олимларнинг мақола ҳамда рисолаларида таҳлилга тортилган. Аммо биз мавжуд ишлардаги ютуқларни давом эттириш билан бирга асар мазмунини янги йўналишда ўрганишга ҳаракат қилдик. Атоқли олимларимизнинг қатъий хулосаларига кўра, Алишер Навоийнинг асарларида ғоявий мутаносиблик уларнинг муқаддима қисмидан ибтидо топади. Улуғ адиб ҳар бир асарининг муқаддимаси шу асарнинг мундарижасига тўла мувофиқ келади. Масалага айни нуқтаи назардан қарасак, «Хамсатул-мутаҳаййирин» «Муқаддима»сининг туғроси («ҳамду наът») Истиклол шарофати билан Алишер Навоий Мукамал асарлари тўпламидагина нашр юзини кўрди. Шундай экан, уни асар мундарижаси билан боғлаб ўрганиш зарурати ўз-ўзидан юзага чиқади.

Тадқиқот методи. «Хамсатул-мутаҳаййирин» «Муқаддима»сидаги ишоралар, нозик қайдлардан аён бўладики, Абдурахмон Жомий туғма **жазба** теккан, зоҳирий сабаби номаълум восита билан Ҳаққа унсият касб этиб, ундан кейин сулуққа кириб, камолга етган нажиб инсон. Унинг «назм аҳлининг муктадо ва имоми» мақомига кўтарилиши ҳам аслида ўша улуғ Ҳарамга куллий маҳрамлик, **тавҳид** ҳосиласидир. Кўринадики, масаланинг бу жиҳати ҳам «Хамсатул-мутаҳаййирин»ни яна бир қарра назардан ўтказиш заруратини ўртага қўяётир.

Муҳокама. Анъанага мувофиқ Алишер Навоийнинг улуғ шоир, қомусий олим, муршиди комил Нуриддин Абдурахмон Жомий хотирасига бағишлаб яратилган «Хамсатул-мутаҳаййирин» асари ҳам ҳамду наътга доир мисралар билан очилади:

Ул **Олими аллом**ға юз ҳамду сано –
Ким, Одам ила тузди чу бу дайри фано.
Илмиға милк сурмоди бир харф яно,

Жуз нукта «субхонака ло илма лано».

Юз наът ангаким, хулқи карим ўлди фани,

Яъники, **карам** кони расули мадани.

Мундоқ деди илм аҳлини айларға ғани:

«**Ман акрома олиман фақад акрамани**» [11,7].

Алишер Навоийнинг «Муншаот», «Махбул-қуллуб» каби насрий асарлари, «Хамса» таркибидаги дostonлари ҳажман каттагина ҳамду наътга доир бадиий парчалар билан таъминлангани ҳолда, «Хамсатул-мутаҳаййирин» муқаддимасида Аллоҳ ва унинг охири Расули мадҳига икки рубоий бағишланган. Маноқиб жанрида битилган ҳамда мақсад-вазифасига кўра «Хамсатул-мутаҳаййирин» билан бир хил йўналишда бўлган «Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер» ва «Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад» асарларида эса ҳамду наът муқаддимавий жумлаларга сингдириб юборилган.

Назаримизда, «Хамсатул-мутаҳаййирин»даги шаклан ихчам, аммо мазмунан теран ҳамду наът вазифасидаги сатрлар расман **ҳар учала** насрий асарга ҳам дахлдор бўлиб, уларни ғоявий жиҳатдан бирлаштириб, мантиқан яхлитлик касб этади. Абдурахмон Жомий, Саййид Ҳасан Ардашер, Паҳлавон Муҳаммад шахсияти, сийрати, ҳолотидаги тасвирга олинган асосий хусусиятлар – олий даражадаги хулқ-атвор, юксак маърифатли тарихий шахсларнинг нурли қиёфаси комил инсон образининг бадиий талқини жараёнида очилади.

Илми, илоҳий сифатларни эгаллаган, маънавий дунёси бой комил инсон тарбиясини назарда тутгани ва асар асосида шундай **комилу олим** шахс тимсоли турганлиги «Хамсатул-мутаҳаййирин»нинг дастлабки сатридан аён бўлади. Жанр табиати ва бадиий ғоя талаб-тақозосидан келиб чиққан муаллиф Ҳақнинг чексиз исм ва сифатларидан «**Олим**»га эътиборни тортиш, Аллоҳнинг ҳар жиҳатдан мукамаллигига биргина далил келтириш билан чекланади:

Ул **Олими аллом**ға юз ҳамду сано –

Ким, Одам ила тузди чу бу дайри фано.

Ҳазрат Навоий талқинича, энг нуктадон **олим**, энг зўр **олим** – Аллоҳ. У ёлғиз ўзигагина хос илмий қудратга эга. Ана шу илмий қувват туфайли Парвардигор бутун оламни йўқдан бор қилди. Ер ва осмонни ўз измига солди. Инсонни яратди. Одам Ато ва унинг фарзандлари билан бу дунёни безади.

Инсонни жисмонан гўзал, бекаму кўст яратган Аллоҳ унга ақлу заковат, ҳис-туйғу, нутқ, тафаккур ва бошқа жуда кўп қобилиятларни берди. Аллоҳнинг қудрати билан инсоният табиатдаги ўзга жонзотлардан ажралиб туради ва уларнинг устидан ўз ҳукмини ўтказди. Алишер Навоий ишора қиладики, Аллоҳ «**Олим**»лик сифати билан Одамни яратиб, бу фоний дунёга инсон туфайли тартиб берган, барча нарсани унинг ҳаёти учун қулай ва фойдали қилиб мослаган экан, инсоннинг **дунё асрорини ўрганишга бўлган интилиши** Аллоҳ халифасининг асосий хусусиятларидан бири бўлмоғи зарур. У **илму маърифат, тафаккур** орқали ўзлигини англаб, Аллоҳ яратган жонзотлар ичра ягоналигини билиб, **комил инсон** бўлиб етишиш учун ўз нафси ислоҳига киришмоғи даркор. Айни фикр навбатдаги икки мисрада илоҳий далил келтириш билан янада қатъий тус олади:

Илмиға милк сурмоди бир ҳарф яно,

Жуз нукта «субхонака ло илма лано».

Аллоҳ мадҳида битилган ушбу сатрлар манбаи Куръони мажид «Бақара» сурасининг 30-33-ояти карималаридир.

Мазкур ояти карималарда баён қилинишича, Ҳақ субхонаху ва таоло Одамни яратгач, уни ўзининг ер юзидаги ўринбосари – халифаси бўлишдек олий мақомга лойиқ кўради. Инсонни ўраб турган бутун борликдаги нарсаларнинг исмларини унга ўргатади. Жисмлик хусусиятига эга бўлган ашёларни фаҳмлаш учун нутқий рамзларни ишлатиш салоҳиятини инсонга ато этади. Ана шу тайёргарликдан сўнг Одам «Ер юзида фасод, бузгунчилик қиладиган, қон тўқадиган кимса», – дея унинг халифа бўлишига тўсқинлик қилган фаришталарга юзма-юз қилинади ҳамда фаришталардан инсонни ўраб турган нарсаларнинг исмларини айтиб бериш талаб қилинади. Фаришталар бу талаб қаршисида лол қоладилар ва ўз ожизликларини тан оладилар: «(Улар) дедилар: «**Зоти покнинг ҳаққи, бизда Ўзинг билдирганингдан ўзга илм йўқдир**. Албатта, Сен Доно ва Ҳақимдирсан». (Аллоҳ) айтди: «Эй, Одам, уларга (мазкур нарсаларни) номлари билан айтиб бер». Уларга номларини айтиб берганида, (У) деди: «Мен осмонлар ва Ер сирларини, сизлар ошкор қиладиган ва яшириб юрган нарсаларингизни билурман, демаганмидим?!» [17,6].

Куръони мажид сураларига тегишли ояти карималарни ўз жумлалари бағрида айнан келтириш Алишер Навоий бадиий услубида кўп кузатилади. Талмеҳ санъатининг бу нозик кўриниши

«Хамсатул-мутаҳаййирин» деб очасидан келтирилган байтда ҳам қўлланилган. Асарнинг тўрт мисрадан иборат «Ҳамд» қисми юқорида кўчирилган «Бақара» сураси, 32-ояти каримасининг ажратиб кўрсатилган қисмини аслиятда келтириш билан хотима топган. Улуғ мутафаккир Илохий китобнинг мазкур оятдан манокӣб мантиғи, ўз ғоявий-бадий мақсадига мос ҳолда фойдаланган. Тўртинчи мисрада келтирилган ояти кариманинг зарур қисми фикр ва бадий тасвир изчиллигига мувофиқ тушгани ҳолда, шеърдаги қофиялар билан ҳам узукка кўз қўйгандек мос келган: «**сано**»-«**фано**»-«**яно**»-«**лано**». Илохий каломнинг сиру сеҳру садоси бежирим сақланган ҳамда таронаи рубоийда қофиянинг **эънотли** тури амал қилган.

«Ҳамд»дан асл мақсад Аллоҳни мадҳ этиш бўлса-да, «Маҳбубул-қулуб»да:

Киши чин сўз деса зебо дурур,

Неча мухтасар бўлса, авло дурур [8,125] –,

деган ва бутун ҳаёти, фаолияти давомида бу талабга қатъий амал қилган Алишер Навоий байтда талмеҳ санъати воситасида **олим** ҳамда **комил инсон** сиймосига дахлдор энг муҳим ахлокий масалаларга эътиборни тортади:

1. Қодирул-қудрат Одамини ўзининг ер юзида халифаси бўлишини ихтиёр этган экан, инсон шундай улуғ ишончга гард қўндирмаслиги, Худо берган истеъдодини эзгу ишлар қилишга сарфлаши лозим. Ер юзида фитна-фасод, бузғунчилик қилиш, қон тўкишдан ҳазар қилмоғи даркор. Халифалик-кўп қиррали ва кенг қамровли юксак **мақом** бўлиб, инсон бу мавқега Аллоҳ ҳукмлари – одабийлик шартларини бенуксон бажариш, имон ва эътиқод йўлида собит туриш, **тўғрилиқ**, ҳалоллик, қатъият, чидам ва **сабр**ни ўз руҳига сингдириш, ҳаёт дастурига айлантириш билан етади.

2. **Илмга** интилиш – инсоннинг Аллоҳ таоло берган табиий туйғуси. Шу туйғу инъом этган неъмат – илм-маърифат туфайли инсон фаришталардан устун келди. Фаришталар айта олмаган нарсаларнинг номини айтиб, халифалик тахтига эришди. Одам жисми озиксиз тирик тура билмаганидек, руҳияти ҳам ирфоний эҳтиёжларсиз яшай олмаслик измига тушмагунича, инсон камол топмайди. Илмга таянмаган киши озод ва эркин бўлмайди, фақат илм-маърифатгина инсонни руҳоний хуррият ва комиллик мақомига кўтаради.

3. «**Субҳонака ло илма лано**», яъни «Эй пок Парвардигор, бизда сен билдиргандан бошқа илм йўқ». Фаришталарнинг ушбу мардлиги, **тавозуъ** ва **камтаринлиги**, **сидқи**, ростлиги тўғрилиги Одам фарзандлари учун ҳам ибрат. Зеро, билмаганини тан олиш фазилат. Улуғ мутафаккир талқинича, билмаган нарсани биламан деб айтиш, ўзи юрмаган йўлга элни бошқариш, манманлик, ўзига бино қўйиш, худбинлик касофатидир. Фақат Аллоҳ илми чексиз, Угина ҳамма нарсани билади. Инсон эса қанчалик олим бўлмасин, унинг илми чекланган, у Аллоҳ ирода этган нарсаларнигина билади.

Улуғ Навоий манокӣблари қаҳрамонлари – Нуриддин Абдурахмон Жомий, Саййид Ҳасан Ардашер, Паҳлавон Муҳаммад илмий мунозараларда юксак одоб намунасини кўрсатганлар. Ўзлари пухта хабардор бўлган масалалар мунозара учун мавзу бўлганида ҳам вазминлик билан ўзгалар фикрини тинглаб, «теша келиб кундага теккандан» кейингина беҳад мулойимлик, **тавозуъ ва ҳаё** билан ўз сўзларини айтишга журъат этганлар. Улуғ мутафаккир «орифи маоний» Саййид Ҳасан Ардашер таърифида ёзади: «**Ҳаё ва адаб** жиҳатидан, ҳам бировга илзому хижолат етмасун деб, кўп сўз айтмас эрмишлар, балки кўп мажолисда такаллум ҳам қилмас эрмишлар» [11,90]. Мазкур иқтибосда олим ахлоқининг икки жиҳати ўзининг нозик ифодасини топган: 1. Илмий мунозараларда ғоят юксак **одоб ва андиша** билан фикр юритиш; Ўз шахсиятига бино қўйишдан сақланиш; Ўз илмининг «поя ва микдорини асраш» (Навоий) баробарида **ўзгалар** (бошқа **олимлар**)ни камситмаслик. 2. Анжуманда **илм аҳли**нинг хато фикрларини ҳам **сабр-тоқат** билан тинглай олиш.

«Хамсатул-мутаҳаййирин»нинг «Ҳамд» қисми асар мундарижасига тўла уйғун бўлиб, юқорида Аллоҳ мадҳида битилган тўрт сатр мисолида айримлари илганган ва кўп гўзал маъноларини биз қамраб улгурмаган **олим** ва **комил инсонга** хос хусусиятлар асарнинг асосий қисмида улуғ аллома, муршиди комилнинг сийрати, таржимаи ҳолига оид лавҳаларни ёритиш асосида санъаткорона далилланган. Жумладан, йигитлик фаслининг аввалида Жом вилоятдан Ҳиротга кўчиб келиб таҳсилга машғул бўлган Абдурахмон Жомийнинг оз фурсатда Тангри инояти билан шаҳарнинг энг истеъдодли **олимларидан** ҳам устунликка эришганлигини Навоий қуйидагича тасвирлайди:

Ҳар кимга етар мавҳибати субҳоний,

Ким, айлағай они **олими раббоний**.

Билмоққа улум истилоҳин жоний,

Оз вақт фалак муштағал айлар они [11,11].

«Хамсатул-мутаҳаййирин» рухий-маънавий камолот тимсоли, аллома инсон Абдурахмон Жомийнинг «**фархунда ахволи ва сифатлари**»ни элга ибрат ва намуна қилиб кўрсатиш, «**замон ахлига нафъи куллий андин етиш**» ишини мақсад қилиб яратилган асар. Манокӣб жанрининг ушбу хос хусусияти асарнинг «Наът» қисмини ёзишда ҳам муаллиф назарида турган. Алишер Навоий сарвари олам Расулulloҳ (с.а.в.) **комилликнинг олий тимсоли, гўзал ахлоқ соҳиб**и эканлигига фикрни жалб қилади:

Юз наът ангаким, **хулқи карим** ўлди фани,
Яъники, **карам кони** расули мадани.

«Карим» – Аллоҳнинг сифати, хайр-эхсон этгучи зот демақдир. Алишер Навоий Ҳабибуллоҳ (с.а.в.)нинг хулқини шундай улуғ сифат билан кўшиб таърифлайди. Бунда улуғ мутафаккир фикрлари муаллақ турмай, Қуръони карим «Қалам» сурасининг 4-оятӣ каримаси ҳамда «Ахзоб» сурасининг 21-оятӣ каримасидан нур олган. Алишер Навоий «Садди Искандарий» достонининг меърож тасвирига бағишланган IV бобида эса Расулulloҳ «**илмлар махзани**», – дея тавсифланади [9,27]. Ислomга оид манбаларда маълумот берилишича, пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломнинг завжаи муҳтарамалари Ойиша онамиздан у кишининг хулқлари ҳақида сўрашганда, «Хулқлари Қуръон эди», – деб жавоб берган эканлар.

«Хамсатул-мутаҳаййирин» матнидан кўчирилган иккинчи мисрада Расулulloҳ (с.а.в.) «**карам кони**», – дея тавсифланади. Алишер Навоий «**карим**» сўзи билан маънолари уйғун бўлган «**карам**» ахлоқий сифатини «Маҳбубул-қулуб»да куйидагича шарҳлаган: «**Карам** бир жафокашнинг шиддати юкин кўтармақдур ва ани ул суубатдин ўткармақдур. Бировнинг меҳнати хори ҳамлин қабул қилмоқ ва ул тикон нўгидин гулдек очилмоқ ва ул **қилгонни тилга келтурмамоқ ва оғизга олмамоқ ва ул кишига миннат қўймамоқ ва анинг юзига солмамоқ**» [10,81]. Ожизу нотавонлардан марҳаматини аямаслик, мазлумларга беминнат ёрдам бериш хислати Расулulloҳ (с.а.в.) табиатларида пайғамбар бўлишларидан илгари ҳам кузатилган. Қурайш қабиласи бошлиқларидан Абдуллоҳ ибн Жудъоннинг уйида хайрия уюшмаси тузилади. Бўлажак пайғамбар ҳам амакилари билан бирга шу жамоага аъзо бўладилар. Уюшманинг вазифаси ерлик аҳоли ёки мусофирлардан бирор киши Маккада жабр кўрса, уни зулмдан қутқазиб, адолатни қарор топтириш бўлган. Расули Акрам пайғамбарлик шарафига эришгач ҳам шу ташкилотни кўмсаб, бундай уюшма энг қимматбаҳо нарсадан ҳам баҳоси улуғроқ, агар ҳозир ҳам биров мени шундай иттифоққа даъват этса, ҳеч иккиланмай қабул қилар эдим, деганлар [18,11]. «**Карам**» шарҳига бағишланган танбеҳ матнидаги «**хори ҳамл**» (тиканли юк), «**тикан нўги**» (тикан учи, тикан учининг санчилиши) истиоравий бирикмалар бўлиб, улар ўз асл маъносидан ташқари кўчма маънога ҳам эга. Бировнинг тиконли юқини кўтармоқ ва тикон санчилишидан гулдек очилмоқ – **ёмонлик қилган кишига яхшилик қилмоқ, зулм қилган кишини кечирмоқ, ғазаб сочган кишидан жаҳли чикмаслик, ўч олмаслик, аксинча унга марҳамат кўрсатишдирки**, Ҳаққа етган, ориф инсонлар шундай хислатлар билан зийнатлангандирлар. Бу сифатлар Расулulloҳ (с.а.в.) ҳаётининг ҳар лаҳзасида зухур этиб турганлигига манбаларда юзлаб далиллар келтирилган. Бу ўринда ўша ҳаётӣ лавҳалардан бирини назардан ўтказиш билан чекланамиз. Яҳудийларнинг машҳур алломаларидан Зайд ибн Саъна Расулulloҳ (с.а.в.) билан яқин алоқа боғлайди ва пайғамбарни имтиҳон қилиш учун кулай вазият кутади. Бир куни Расулulloҳ (с.а.в.) хузурларига бир киши келиб очарчиликда қолган қавмини ночор аҳволдан қутқазиш учун ёрдам сўрайди. Пайғамбар алайҳиссалом ўша фурсатнинг ўзида муҳтожлар ҳожатини раво қилиш имкони йўқ эканлигига иқрор бўладилар. Бу ҳолатни зимдан кузатиб турган Зайд ибн Саъна пайғамбарга мурожаат қилади: «... ё Муҳаммад, сиз агар фалон кишининг боғидан бу қадар хурмони муайян вақтда менга бера олсангиз, мен сизга ҳозирдан ўшал миқдор хурмонинг пулини аввалдан берурман...». Боғнинг номини олмай тайин қилиш шартӣ билан Расулulloҳ (с.а.в.) бу муомалага кўнадилар. Хурмонинг қиймати – 80 мисқол нақд тилло олиниб, муҳтож қавмга тарқатиш учун уларнинг вақилига берилади ... Белгиланган муҳлат – хурмони Расулulloҳдан олиш муддати яқинлашади. Зайд ибн Саъна Расули Акрамдай ислom давлати олий ҳукмдорининг кўйлагидан дағаллик билан тортиб Абу Бакр, Умар каби улкан саҳобалар, жамоа олдида у кишига кўпол сўзлар айта бошлайди. Ва ҳатто Расулulloҳ ота-боболарини бировнинг ҳақини олиб бермасликдек нопоклик, қаллобликда айблайди. Ҳазрати Умар бундай адолатсизликдан дарғазаб бўлиб, яҳудийга: «Агар мен Расулulloҳ (с.а.в.)дан кўрқмасам, валлоҳи бошингни узиб ташлар эдим», – дейди. Шу қадар маломату мазамматларга бардош бериб, ҳеч бир жаҳллари чикмасдан Зайд ибн Саънага табассум ила қараб турган Расулulloҳ буюрадилар: «Энди эй Умар, бу одамни олиб бор, ҳаққи нақадар бўлса, топшир. Ва йигирма соъ озор берганлигинг учун ортиқ бергин». Фармон бажарилади. Ҳазрати Умар билан ўзи орасида кечган кейинги мулоқотдан Зайд ибн Саъна куйидагича хабар

беради: «... кейин мен дедим: ё Умар, сиз мени танирсизми? Ҳазрати Умар дедилар: мен сени танимасман. Дедим: Зайд ибн Саънадурман. Ҳазрати Умар дедилар: шул номда яҳудларнинг бир катта алломаси бор, деб эшитур эрдим, ўшал одам сендурсанми? Мен дедим: ўшал одам мендурман. Кейин ҳазрат Умар дедилар: сен агар ўшал буюк аллома бўлсанг, нечун жаноби Расулulloх (с.а.в.)га шундоқ густохлик қилдинг. Мен дедим: нубувват аломатларининг ҳаммасини жанобда мавжуд топдим. Магар **икки аломатни** тополганим йўқ эрди... Энди ҳар иккисини ҳам имтихон қилдим. Жанобда мукамал бор экан. Бири **ҳилмларининг** ғазаблариға ғолиб келиши. Иккинчиси, нодоннинг жаҳолатидан **тахаммулларининг** (чидам, **сабр**, тоқат – Ш.Х) зиёда бўлиши. Бугунги муомала буни исбот қилди... Ва дерманки, менинг ярим молим уммати Муҳаммадияға садақадур» [13,233-236]. Ҳазрати Ҳасан ибн Али розияллаху анҳумодан ривоят қилинди: «Қўполликларини кўтарар эдилар. Сўзида ва саволида бўлган оғир азиятларға **сабр** қилар эдилар...» [13,239].

«Карам» сўзи «собирлик, кечиримлилик, яхшилик, олижаноблик, марҳамат» хислатлари маъноларини ифода этиш билан бирга «эҳсон» ахлоқий сифатини ҳам ўз ичига олади. Навоийнинг «Маҳбубул-қулуб»даги талқинига кўра, яхшиликларнинг жами – «эҳсон» мазмунини беради. Барча маъкул сифатлар, солиҳ амаллар, маънавий гўзалликлар «эҳсон»да воқеадир, унда жамлангандир. Шунинг учун ҳам: «Карам башар таъбида ноёб ва нобуддир. Карам сифоти акрам ул-акрамин ишидур, соҳиб карам киши Ҳакнинг бу навъ сифатиға мутобеъ кишидур» [10,86]. Ҳазрат Навоий айтмоқчиларки, соҳиби карам – Расули Акрам (с.а.в.) Ҳакнинг ана шу сифатиға эргашган, барча **гўзал ахлоқий сифатларни** ўз руҳига сингдирган, қалби карам хазинасига («карам кони»), илмлар маҳзаниға айланган энг мукамал инсон эдилар. Куръондаги олий хулқлар билан зийнатланган, Ҳакнинг карам сифати соҳиби Муҳаммад Мустафо (с.а.в.) **ахлоқи барча мўъминлар учун ибратдир**.

Ул зотнинг хулқлари, айтган сўзлари, йўл-йўриқлари ва кўрсатмалари, маслак ва ҳақиқатларига пайравлик қилувчи ва уларни эл орасида ёйувчи, энг аввало, пайғамбар меросхўрлари – **олимлардир**. Шунинг учун ҳам Расулulloх (с.а.в.):

Мундоқ деди **илм аҳлини** айларға ғани:

«**Ман акрома олимани фақад акрамани**».

Хулоса. «Наът» ниҳоясида Алишер Навоий талмехнинг юқорида эслатилган (бадий матн ичида Куръони мажид оятлари ва ҳадислардан намуна келтириш) усулини қўллаиди ва ўз сўзлари хулосасини **ҳадиси шарифни аслият**да келтириш билан ифода этади.

«Кимки **олимни** ҳурмат қилса, мени ҳурмат қилган бўлади» ҳадиси орқали **олимнинг** Расулulloх (с.а.в.) наздида тутган ўрни жуда баланд эканлиги таъкидланади. Шундай экан, ҳар қандай жамиятда илмнинг қадри юқори, олимнинг мақоми юксак бўлмоғи лозим.

«Ҳамд» ва «Наът»даги ҳажмий мослик ва ихчамлик, далиллаш санъати (Аллоҳнинг «**олим**»лик сифати **оят**, илмнинг мавқеи **ҳадис** келтириш билан асосланган) ва талмехни қўллашдаги таносиб, маъновий яқин ёки бир-бирини такозо қилувчи сўзлар («олим», «аллом», «илм», «ҳарф», «нукта»; «карим», «карам», «акрам»)нинг матн ичида келиши, тавсифда айрим сўзларнинг бежирим такрори («юз ҳамд», «юз наът») муаллиф айтмоқчи бўлган фикрни юксак бадий шаклда ўқувчига етиб боришини таъминлайди ҳамда асар ғоясининг тўғри идрок этилишиға олиб келади.

АДАБИЁТЛАР:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони // www.lex.uz.*

2. *Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ безавол яшайди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ижодкорлар билан учрашувидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2019, 9 февраль.*

3. *Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент: O'zbekiston, 2021. – 463 б.*

4. *Воҳидов Р. XV асрнинг иккинчи ярми XVI асрнинг бошларида ўзбек ва тожик шеърляти /Адабий алоқа ва ўзаро таъсир масалалари/. – Тошкент: Фан, 1983. – 141 б.*

5. *Воҳидов Р. Шарқнинг буюк алломаси. – Тошкент: Фан, 1989; Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. – Тошкент: Фан, 1989. – 72 б.*

6. *Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси.–Тошкент: Фан, 1992. – 134 б.*

7. *Воҳидов С. Равобити адаби халқҳои тожик ва ўзбек дар асри XV дар асоси «Хамсатул-мутаҳаййирин»и Алишер Навоий. Душанбе: Ирфон, 1974. – 132 саҳ.*

8. محبوب القلوب علي شير النواني. *Сводный текст.* – М. – Л. Изд. АН СССР. 1948. – 174 стр.
9. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 11-жилд. – Тошкент: Фан, 1993 – 640 б.
10. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998. – 304 б.
11. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – 236 б.
12. Олимов Ф. Алишер Навоийнинг «Хамсатул-мутаҳаййирин» асари бадиияти. Филол.ф.б.фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – 52 б.
13. Термизий, Абу Исо Муҳаммад. Шамоили Муҳаммадия. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 107 б.
14. Шамсиев П. Улуг дўстлик лавҳаларидан. – Жомий ва Навоий. – Тошкент: Фан, 1966. – 5-12 б.
15. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик, 2-том. – Тошкент: Фан, 1977. – 447 б.
16. القرآن الكريم. – المدينة المنورة : مكتبة خادم الحرمين الشريفين . ١٤٠٥ . – ٦٠٤ ص
17. Қуръони Карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. – 624 б.
18. Хузарий М.. Нурул-яқин. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 287 б.



Navoiy gulshani

SUNBULUNG OSHUFTAYU SAVDOYI O'LMISH MEN KEBI...

Safarova Hilola Oxunjonovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.n.

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

Islom Karimov.

Alisher Navoiy bugun o'zbek xalqi uchun milliy iftixor va madaniy-ma'rifiy kamolot timsoliga aylangan. Shu bois, xalqimiz buyuk shoir merosidan bahramand bo'lib, uning ijodini o'rganib, e'zozlaydi. Shoirning g'azallari badiiyligi bilan kishini o'ziga maftun etadi. Biz mazkur maqolamizda mana shunday g'azallaridan biriga doir fikr-mulozalarimizni Siz bilan o'rtoqlashishni niyat qildik. "Moviyi behol ko'nglak, vah, ne farruxfol ekin" misrasi bilan boshlanuvchi mazkur g'azal "Navodir ush-shabob" devonining 478-tartib raqamida berilgan. G'azal matni quyidagicha:

Moviyi behol ko'nglak, vah, ne farruxfol ekin
Kim, taningg'a surtulur bu vajhdin behol ekin.

Sunbulung oshuftayu savdoyi o'lmish men kebi,
Chun meningdek bosh ayog'ingg'a qo'yar pomol ekin.

Mushki zulfung atridur shamshod boshi uzra sham,
Qadding ostida xami shamshod tarfi dol ekin.

Donaye tushmish iki tovus aro ulkim dedim,
Vo'smalik¹ ikki qoshingning o'rtasida xol ekin.

Kaffadur garduni xam hajrim yukini cheksalar,
Arz jirmi ul tarozu ichra bir misqol ekin.

Ulki ma'nidin xabar topti yana dam urmadi,
Anglamon ahli jadal ichra ne qilu qol ekin.

Suvratin Layliyu Majnunning dedi ko'rgach xirad
Kim, Navoiy birla yori shaklidan timsol ekin.

Ulug' shoirning g'azallarida yor-ma'shuqa eng ko'p qo'llangan obrazlardan biri. Alisher Navoiy ma'shuqaning go'zal tasvirini yuqori pardalarda vasf qiladi. Shoir nazdida ma'shuqa go'zallik timsoli. Shuning uchun uning go'zalligini ohorli tasvirlarda, o'ziga xos tashbehu mubolag'alarda badiiy talqin etadi. Biz tahlilga tortgan g'azalda ham ma'shuqa bo'yi, sochi, zulfi bilan bog'liq tasvirlar keltirilgan. Shoir bu tasvirlar orqali lirik qahramon-oshiqning ruhiy holati va kayfiyatini, unga bo'lgan sadoqatini ko'rsatib o'tadi.

¹ Vo'smalik – usmalik.

Gʻazal 7 bayt 14 misradan iborat. Unda “**farruxfol**”, “**behol**”, “**pomol**”, “**dol**”, “**xol**”, “**misqol**”, “**qol**”, “**timsol**” soʻzlari oʻzaro qoʻfiyalangan boʻlib, “ekin” soʻzi radif boʻlib kelmoqda. “Ekin” soʻzi ekan maʼnosida kelgan va radif sifatida misralarda ifodalanayotgan yetakchi fikrni taʼkidlash, oʻquvchi eʼtiborini asosiy gʻoyaga jalb etib shoir gʻoyaviy niyatini oʻquvchi qalbida toʻlaroq, chuqurroq yetkazishga xizmat qiladi. Gʻazal maʼnosiga koʻra oshiqona, tuzilishiga koʻra yakpora gʻazallar sirasiga kiradi. Gʻazalni yaxshiroq tushunish uchun undagi qiyin soʻzlarning maʼnosiga eʼtiborni qaratamiz: **farruxfol** – xushtoleʼ, baxtiyor, kelajagi porloq; **vajh** – 1) yuz, bet, chehra; 2) vaj, sabab, bahona, yoʻl; **behol** – hushsiz, holsiz; **sumbul** - 1) bir turli xushboʻy qora rangli oʻsimlik; 2) sevgilining sochi; **oshufta** – parishon, tarqoq, toʻzgʻigan; 2) maftun, oshiq, shaydo; **pomol** – oyoq ostida qolgan, ezilgan; **mushk** – 1) qora tusli va xush isli narsa; 2) sochning qoraligi va hidi; **shamshod** – sarvga oʻxshagan xushqomat va chiroyli daraxt; **dona** – dona, urugʻ; **dol**- 1) arab alifbesidagi “D” harfining nomi; 2) egilgan, bukuk; sevgilining zulfi, gajagi; **kaffa** – tarozi pallasi; **gardun** – falak, osmon, koʻk; **dam urmadi**- nafas chiqarmadi, gapirmadi; **xam** – egilgan, bukilgan; **hajr** – ayriliq; **xirad** – aql, fikr, zehn, hush; **arz** – bayon, maʼlumot; zorlanish, yolvorish; **jirmi** – jussa, gavda, bir narsaning borligʻi; **misqol** – eski ogʻirlik oʻlchovi boʻlib, bir qadoqning 84dan bir qismi (taxminan 4,1gr.); **jadal** – tortishish, munozara, janjal; tirishish; **qol** – shovqin-suron.

Moviya behol koʻnglak, vah, ne farruxfol ekin
Kim, taningʻa surtulur bu vajhdin behol ekin.

Alisher Navoiy oshiqning yorga boʻlgan sevgisini maʼshuqaning kiygan koʻylagining rangi va holati bilan koʻrsatib berishga harakat qilgan. Moviy - koʻk koʻzni yashnatadigan, quvontiradigan rang hisoblanadi. Bunday rangdagi koʻylak kishi diqqatini oʻziga tez qaratadi. Navoiy nazarida mana shunday moviy rangdagi koʻylak holsiz goʻzal egnida turibdi. Buning sababi esa uning maʼshuqa tanasiga munosib koʻrilganligidadir. Xursand va shod boʻlgan koʻylakning baxtiyorligi ayni damda uni behol va hushsiz holatga solgan. Albatta, shoir bu mubolagʻaviy tasvirlardan koʻzlagan maqsadi nafaqat maʼshuqaning goʻzalligini tasvirlash, balki oshiqning qalb tugʻyonlariga sabab boʻlgan omillar, uning ruhiy holatini kitobxonga yetkazishni koʻzda tutadi. Baytda koʻylakning baxtiyorligi va beholligi, behushligi tashhis sanʼatini hosil qilgan. Yana baytda “behol” soʻzi har ikkila misra oʻrtasida takrorlanib qaytarish sanʼati – radd-ul-hashv ilal hashv sanʼatini ham yuzaga keltirgan.

Sunbulung oshuftayu savdoyi oʻlmish men kebi,
Chun meningdek bosh ayogʻingʻa qoʻyar pomol ekin.

Soch - goʻzallik timsoli. Ikkinchi baytda oshiqning maʼshuqa ishqida “oshuftayu savdoyi” boʻlishi sochning holati bilan qiyoslanadi. Soch ham oshiq kabi devonayi parishon boʻlgan. Sening ishqing kuyida men qanchalik ezilib ketgan boʻlsam, sochlaring ham oyogʻing ostida qolib ketgan. Oshiq yorning sochini yoyilganligi, parishonligini oʻziga qiyos qiladi. Yaʼni yorning sochi oshiqning nazdida yorga maftunligidan telba boʻlgan va “oyoq ostida qolgan”. Baytda “oyoq ostida qolmoq” iborasi orqali oshiqning maʼshuqa nazariga tushmaganligiga ishora qilgan. Baytda oʻxshatish va husni-taʼlil sanʼatidan mohirona foydalanilgan.

Mushki zulfung atridur shamshod boshi uzra sham,
Qadding ostida xami shamshod tarfi dol ekin.

Keyingi misrada yorning zulfi, qaddi haqida gap ketadi. Qora zulfingning muattar hidi, tarovati xushqomat va chiroyli qadding ustidagi shamga oʻxshaydi. Sening tik qomating oldida shamshodning tikligi xuddi “dol” ning egilgani kabidir. Zulfnig mushkka, qomadning shamshodga oʻxshatilishi orqali tashbeh sanʼati va qiyoslash natijasida “dol” ga oʻxshatilishi kitobat sanʼatini keltirib chiqargan. Mumtoz adabiyotida arab alifbosi harflari shakllaridan lirik va epik timsollar chizishda keng foydalanilgan. Bu baytda “dol” egilgan, bukilgan qomatga qiyos qilingan. Misralardagi “shamshod” soʻzlari radd-ul-hashv ilal hashv sanʼatini keltirib chiqargan.

Donaye tushmish iki tovu aro ulkim dedim,
Voʻsmalik ikki qoshingning oʻrtasida xol ekin.

Alisher Navoiy yuqoridagi misrada yorning qoshlarini ta'rifini beradi. Ikki tovus o'rtasida bir dona tushubdi deb o'ylasam, bu sening ikki qoshing o'rtasidagi xoling ekan. Ikki qosh ikki tovusga, xol esa don - urug'ga qiyoslanib, o'xshatish san'ati hosil qilingan.

Kaffadur garduni xam hajrim yukini cheksalar,
Arz² jirmi ul tarozu ichra bir misqol ekin.

Oshiqning yor hajridagi yuki og'irligidan osmonning tarozisini pallasi egilgandir. Tarozi pallasi shunchalik katta va kengki, yerdagi narsalar unda misqol kabi ko'rinmay qoladi. Ushbu baytda shoir mubolag'a san'atidan mohirona foydalangan.

Ulki ma'nidin xabar topti yana dam urmadi,
Anglamon ahli jadal ichra ne qilu qol ekin.

Oshiqning ishqdan sarmastlik holatidan yor xabardor bo'ldi, lekin indamadi. Chunki yor o'zining mag'rurligi, be'etiborligi bilan doimo g'olibdir. Oshiq esa mag'lub. Baytda ahli jadal-g'olib, qol – mag'lub so'zlari tazod san'atini hosil qilgan.

Suvratin Layliyu Majnunning dedi ko'rgach xirad
Kim, Navoiy birla yori shaklidan timsol ekin.

Baytda ma'shuqa Layliga, oshiq Majnunga qiyoslangan. Majnunning ishq kuyidagi devonaligini ko'rgan aql Navoiy va yorini ishq ahliga timsol ekanligini his etadi. Baytda lirik qahramonlar "Layli va Majnun" asaridagi qahramonlarga qiyoslanishi talmeh san'atini hosil qilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiyning har bir g'azali yuksak mahorat natijasi va har birida betakror joziba o'z ifodasini topgan. Shoir ma'shuqaning go'zalligini tasvirlash orqali hayotsevarlik g'oyalari ilgari suradi, ishqni ulug'laydi, oshiqlikni oliy maqom sifatida vasf qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. To'rtinchi tom. Toshkent. "Fan" nashriyoti. 1989. 526 b.*
2. *Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989. 784 b.*

² Arz-bayon, ma'lumot.

UO‘K: 070:323(09)(470)(575.1)

JADID MATBUOTINING “TURKISTON MUXTORIYATI” TUZISH G‘OYALARINING RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Elmurodov Akbar Muhammadievich,

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi
elmurodov_akbar@mail.ru*

Annotatsiya: *Jadidchilik – ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma‘rifiy harakatdir. O‘zbek matbuoti tarixi jadidchilik harakati va jadid ziyolilari nomi bilan tabiiy ravishda bog‘lanadi. Mazkur maqolada “Turkiston muxtoriyati” tuzish g‘oyalari rivojlanishida jadid matbuotining roli ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik mafkurasi, jadidchilik harakati, Turkiston muxtoriyati, o‘zbek matbuoti tarixi, jadid matbuoti, istiqloq g‘oyalari, milliy manfaat, axborot, ma‘naviy-axloqiy qarashlar.*

THE ROLE OF THE JADID PRESS IN THE DEVELOPMENT OF THE IDEA OF ESTABLISHING «TURKISTAN AUTONOMY»

Abstract: *The history of the Uzbek press naturally connects with the name of the jadidist movement and the Jadid intellectuals. Jadidism is a socio-political, literary-educational movement, much deeper, complex, contradictory, at the same time full of news, noble aspirations, practical activities. In this article, from a scientific and practical point of view, the role of the modern press in the development of the ideas of establishing the "autonomy of Turkestan" is analyzed.*

Keywords: *ideology of independence, jadidism movement, history of Uzbek press, jadid press, ideas of Independence, National Interest, information, spiritual and moral views*

РОЛЬ ДЖАДИДСКОЙ ПРЕССЫ В РАЗВИТИИ ИДЕИ СОЗДАНИЯ «ТУРКЕСТАНСКОЙ АВТОНОМИИ»

Аннотация: *История узбекской прессы естественным образом связана с именем джадидистского движения и джадидской интеллигенции. Джадидизм - общественно-политическое, литературно-просветительское движение, гораздо более глубокое, сложное, противоречивое, в то же время полное новостей, благородных устремлений, практической деятельности. В данной статье с научной и практической точки зрения анализируется роль современной прессы в развитии идеи установления «автономии Туркестана».*

Ключевые слова: *идеология независимости, движение джадидизма, история узбекской прессы, джадидская пресса, идеи независимости, национальные интересы, информация, духовно-нравственные взгляды.*

Kirish. Bundan taxminan yuz yildan ortiqroq muqaddam Turkistonda jadidlar milliy manfaat uchun kurash g‘oya va mafkurasini ishlab chiqdilar. 1917-yilning fevral oyidan boshlab Rossiyaning mustamlaka o‘lkalarida, shu jumladan, Turkiston o‘lkasida ham “muxtoriyat” g‘oyasi paydo bo‘ldi. Bu iboraning yuzaga kelishini o‘sha davrdagi milliy matbuot materiallarida “Hurriyat”ning e‘lon qilinishiga bog‘lab ko‘rsatila boshlandi. “Hurriyat”ning e‘lon qilinishi deb, milliy matbuot materiallarida [1,3] hamda milliy ziyolilarning maqolalarida [2,15] “Fevral inqilobi” va u kiritgan o‘zgarishlar nazarda tutilgan.

Hurriyat milliy o‘lkalar xalqlarining ko‘zini ochadi. Ilgari rus hukumatiga bosh egish va unga o‘z qismatini topshirib qo‘yishdan boshqa chorasi qolmagan xalqlar, endi o‘zlariga muxtoriyat olishga qaror qildilar.

Turkiston, Rossiya va Kavkaz musulmonlari o‘rtasida muxtoriyat to‘g‘risida turli xil fikrlar, yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi. Masalan, Rossiya musulmonlariga milliy-madaniy muxtoriyat va‘da etilgan bo‘lsa, Turkiston musulmonlariga milliy-territorial avtonomiya to‘g‘ri kelishi to‘g‘risida munozaralar

bo'ldi. Shu munosabat bilan "Turkiston musulmonlari Rossiyadan to'liq holda mustaqillik talab qilishadimi yoki yo'q" – degan savolga javob berishga to'g'ri keladi.

Bu savollarga javob olish uchun o'sha davrdagi milliy matbuot sahifalaridan joy olgan Turkiston musulmonlarining qurultoylari. Milliy demokratik ziyolilarining maqolalariga murojaat qilamiz.

Asosiy qism. "Turkiston jadidlarining oliy maqsadlari – xalqni, jamiyatni istiqloq va taraqqiyot sari yetaklash bo'lgani holda, unga yetishishning turli yo'llarini tanlaganliklari uchun ham ularni turli guruhlariga ajratish mumkin. Masalan, ulardan biri Rusiya tarkibidagi Muxtor o'lka sifatida qolish (Muxtoriyat) g'oyasini ilgari sursa, yana birovi mutlaqo mustaqil davlat tuzish tarafdori edi. Bundan tashqari, ma'rifatparvarlar ushbu "Muxtoriyat" so'zini turfa xil tushunganlar va talqin qilganlar. Ayrimlar uni "federatsiya" deb tushunishgan, boshqalari esa "avtonomiya" deb bilishardi. Ammo "Kengash", "Hurriyat" va "Najot" kabi o'sha davrning vaqtli matbuotlarida chop etilgan maqolalardan bilish mumkinki, "Muxtoriyat" so'zi shunchalik keng ma'noni qamrab olganki, unda ham federatsiya, ham avtonomiya, ham milliy-demokratik davlatni tashkil etish masalalari kiritilgan"[3,22].

Turkistonda muxtoriyat g'oyasi birinchi bo'lib Turkiston musulmonlarining I qurultoyida ko'tarildi. Uning yuzaga kelishi Turkistonda taraqqiyparvar demokratik ziyolilarning tashabbusi va ayni paytda Toshkent "Sho'roi Islomiyat" jamiyatining faoliyati bilan bog'liqdir. Bu borada tatar ziyolilaridan Nushirvan Yovushev maqolasida Turkistonning muxtoriyat olishi to'g'risidagi fikrlari juda qimmatlidir. U shunday yozadi: "Rossiyada 30 million turk-tatar xalqlari bor. Ular madaniy jihatdan bir-biriga juda yaqin. Turkiston esa turklarning asl vatanidir. Shu sababli Turkistonga avtonomiya berilgan taqdirda rossiyadagi boshqa turklar Turkistonli qardoshlariga yordamlashadilar"[4,17]. Maqolada muallif turli qarshi kuchlarni ham fosh qiladi. U: "Muxtoriyatni qo'lga kiritgandan keyin, uni boshqarish masalasi ham yuzaga keladi. Buning uchun moddiy va ma'naviy kuch kerak bo'ladi. Ba'zi birovlar xalq nochor deb bunga qarshi turibdilar. To'g'ri hozir ayrim etishmovchiliklar bor. Lekin yosh taraqqiyparvarlar bilan ishga kirishilsa keng yo'llar ochiladi. Shundan keyin tez orada mamlakatni boshqara oladigan darajaga etamiz", degan fikr bilan Turkistonning muxtoriyat olish tarafdori bo'ladi [4,20].

Islom Shoahmedov tomonidan Turkiston musulmonlarining II qurultoyida muhokama qilish uchun tayyorlangan "Turkiston federatsiya" loyihasining ham yuqoridagi savolga javob berish uchun katta ahamiyati bor. Loyiha "Ulug' Turkiston" gazetasining 1917-yil 7-10-sentyabr sonlarida nashr qilingan. Loyiha qurultoy ishida oltinchi masala bo'lib muhokamaga qo'yildi va ushbu qonun Turkistonning hamma viloyatlariga yuborilib Turkiston aholisini u bilan tanishtirib, shundan keyingina umum Turkiston musulmonlarining qurultoyda tasdiqlash kerakligi haqida qaror qabul qilindi.

"Ulamo" jamiyati tomonidan 17-20-sentyabr kunlari bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining III qurultoyi ham katta ahamiyatga ega. "Ulamo" jamiyati ham mazkur qurultoyda "federativ-demokratik respublika" nomi ostida davlat e'lon qilish haqida qaror qabul qildi. Shu qarorga binoan Turkiston o'zining mustaqil milliy armiya va militsiyasini tuzish nazarda tutilgan edi [5,3].

Ikki musulmon qurultoylarining qarorlarini taqqoslaganda, ularning muxtoriyatga bo'lgan munosabatlari bir-biriga yaqinligini ko'ramiz. Turkiston musulmonlarining IV qurultoyida ham muhim qarorlar qabul qilindi. Bu haqda "Ulug' Turkiston" gazetasining 8 dekabr kungi sonida quyidagicha xabar beriladi: 25-30-noyabr kunlari bo'lib o'tgan IV qurultoy Turkiston milliy muxtoriyatini e'lon qildi. Biroq pochta va telegraf ishlamaganligi sababli ko'pchilik qurultoyga taklif etila olmadi. Ko'p jamiyat vakillari qurultoyda qatnashmagan bo'lsada, maktub jo'natib qurultoy qarorlariga qo'shilajaklarini bildirdilar. Qurultoyda asosan Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Zakazpiy viloyatlaridan 250 vakil ishtirok etdi.

Qurultoy to'liq demokratik tarzda o'tib, xalq majlisi a'zolarining uchdan bir qismi yevropaliklarga tegdi. Ular quyidagi jamiyatlardan kelgan vakillar edilar: "Temir yo'l ittifoqi", "Pochta-telegraf ittifoqi", "Sotsial revolyusionerlar", "Sotsial-demokratlar", "Dehqonlar sho'rosi", "Soldat va ishchilar sho'rosi", polyaklar, ukrainlar, juhudlar, mahalliy yahudiylar, doshnoqlar, savdo-sanoat a'zolari, koperativlar ittifoqi, hukumat muassasalari, kazak askarlar jamoat vakillari [6, 11].

"Ulug' Turkiston" gazetasining 1917-yil 8,13-dekabr, "El bayrog'i" gazetasining 1917-yil 9-dekabr kungi sonlarida qurultoy tomonidan saylangan Turkiston Muvaqqat Xalq Sho'rosi va hukumat a'zolarining ro'yxati berilgan.

Xalq majlisiga 54 o'rin belgilandi. Musulmon jamiyatlari tomonidan saylangan 32 a'zo quyidagilar edilar: Ubaydulla Xo'jayev, Mustafo Cho'qay, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sadriddinxon Sharifxo'jayev, Qo'ng'irxo'ja Xo'jaqulov, Ismatulla Ubaydullin, Saidnosir Mirjalilov, Sherali Lapin, Said Ja'farboy Saidov, Islom Shoahmedov, Abdurahmonbek O'razaev, Hidoyatbek Yurali Agaev, Nosirxonto'ra Komilxonto'raev,

Mirodil Mirzaahmedov, Toshxo'ja Ashurxo'jaev, Abdulqodirbek Qo'shbekov, Obidjon Mahmudov, Jamshidboy Qorabekov, Gersfeld Salomon Abramovich, Abdusamad Abdusalomov, Abaydulla Darbisalin, Muso Akchurin, Mustafu Mansurov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ibrohim Davlatshin, Muhammadjon Tanishpaev, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboev, Alixonto'ra Shokirxonto'raev, Sobirjon Yusupov, Komil Rahmonberdiyev, Odiljon Umarov.

Qurultoyning 27 noyabr kungi majlisida ijroiya qo'mita tuzib, unga yaqin orada Turkistonning o'z Ta'sis majlisini chaqirish vazifasi topshirildi. Muxtoriyatning asosiy yo'nalishlari va uning qonunlari Turkiston musulmonlari tomonidan chaqirilishi ko'zda tutilayotgan Ta'sis majlisida hal bo'lishi kerak edi[6,12].

O'sha kunlarda Turkistonning turli shaharlarida Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan turli yig'ilishlar yanada keng avj olganligi to'g'risidagi xabarlar matbuot sahifalarida ko'proq ko'zga tashlanadi.

Toshkentdagi namoyishni "Ulug' Turkiston" gazetasi quyidagicha sharhlaydi: "Toshkent shahrida 6 dekabr kuni Jome masjidida muxtoriyat e'lon qilinganligi va Toshkent shahar dumasining bolsheviklar tomonidan tarqatilganligi hamda shaharda bolsheviklar tintuv boshlaganligi munosabati bilan katta namoyish o'tkazildi. Namoyishda shaharning ulamolari, mulkdorlar, kambag'allar va ishchilardan iborat 60 ming kishi qatnashdi. Bu yig'inda Saidg'ani Maxdum domla rais, Munavvar Qori Abdurashidxonov bilan Sherali Lapin unga yordamchi, Pirmuhammad Olim esa sarkotib etib saylandi. "Ulamo" jamiyat a'zolaridan Saidg'ani Mahdum, Miyon Buzruk, Sherali Lapin, so'ngar Munavvar Qori, Mulla Odil va Nizomxo'ja, shuningdek yana bir necha kishilar bolsheviklar tarafidan uyushtirilayotgan tintuv va bosqinchilik musulmonlarga g'oyat musibatlar keltirilayotganligini ma'lum qiladilar. Shuningdek, soldat va ishchilar soveti musulmon mardikor va ustalardan 40 kishini zo'rlik bilan o'z tarafiga og'dirib olganliklarini ma'lum qiladilar.

Shundan so'ng namoyishga chiqqan 60 ming kishilik xalq nomidan Turkiston muvaqqat hukumatidan boshqa hech qanday hokimiyatni tan olmasliklari to'g'risida qaror qabul qilindi va bolsheviklarning zo'ravonliklariga qarshi norozilik bildirildi.

Shu kuni Toshkent dumasida ham majlis bo'lib o'tadi. "Ulamo" jamiyatidan tortib sotsial-revolyusionerlarga qadar bir ovozdand muxtoriyat e'lon qilinganligini tabrikladilar va agar ko'mak kerak bo'lsa, albatta ko'mak berishlarini izoh qildilar. Ammo muxtoriyatning e'lon qilinishi masalasida sotsial-revolyusionerlar bmlan sotsial-demokratlar o'rtasida tortishuv bo'ldi.

Sotsial-demokratlar, millatlar muxtoriyat olishiga Oktyabr o'zgarishlari, ya'ni bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan inqilob sabab bo'lganligini aytsalar, sotsial-revolyusionerlar esa bunga sababchi qilib o'zlarini ko'rsatdilar. Ular sotsial-demokratlarning fikriga qarshi "Agar shu gapi rost bo'lsa Toshkent bolsheviklari boshqaruvni tamomila muxtoriyat hukumatiga topshirib, o'zlari bu hokimiyatni tan olsinlar", deydilar.

Milliy matbuot sahifalarida 13-dekabrda Toshkent shahrida yana katta namoyish bo'lishi to'g'risida xabar e'lon qilingan. Bu namoyishda musulmonlar bilan birgalikda yana rus, yahudiy va arman millati vakillari ham qatnashdilar. Namoyishga uezdlardan 100 ming otlq va piyoda aholi keldi. Namoyishchilar eski shaharning Shayxontohur masjidi oldida yig'ildilar. 200 ming nafar aholi qizil, ko'k va yashil rangli yuzga yaqin baroq ko'tarilgan edi. Avval Munavvar Qori aholini ozodlik bayrami bilan tabrikledi. So'ngra Turkiston hukumatining milliy majlisi a'zosi Toshpo'latbek Norbo'tabekov yig'ilgan evropaliklarga ruscha nutq so'zlab, hukumat nomidan tabrik qildi. Ruslar orasidan miting prezidiumiga Shors saylandi. Toshpo'latbek Norbo'tabekov bilan Sadriddinxon Mahdum kotib bo'ldilar. Namoyishga Toshkent "Ulamo" jamiyati a'zolari ham qo'shildilar. Musulmon jamiyatlari bilan bir qatorda boshqa evropa jamiyat a'zolari tomonidan ma'ruzalar o'qilib, ular ham o'zlarini xalq kamisarlari deb atayotgan bolsheviklarning zo'ravonliklaridan shikoyat qildilar va birgalikdagi namoyishni yangi shaharga ko'chirishni iltimos qildilar [7,13].

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlil qilinsa, bir qancha fikrlar oydinlashadi. Bu ma'lumotlarda muxtoriyatni e'lon qilgan Turkiston musulmonlarining IV qurultoyi va uning qonunlarini bolsheviklar avvaliga tan olmagan bo'lsalar ham, biroq keyinchalik yakkalanib qolayotganligini sezib, e'tirof etganliklari to'g'risida milliy matbuotda ma'lumotlar bor.

Bu anjumanda bolsheviklar tomonidan tarqatilgan turli bo'xton va ig'volarga xotima berildi va musulmon hukumati siyosiy doirada ma'naviy jihatdan mustahkamlandi.

Turkiston muxtoriyati hukumatning, umuman musulmonlarning muxtoriyat e'lon qilgandan keyin ro'y bergan sharoitni qiyoslagan holda u qanday mavqega ega bo'lganligini Orif Klevleevning Petrogradga

yuborgan telegrammasidan ham ko‘rish mumkin. Unda shunday satrlar bor: “Turkiston xalqi bir ovozdan Turkiston muxtoriyatini e‘lon qilib, o‘lkaning boshqaruv usulini Turkiston Ta‘sis majlisi tomonidan ishlab chiqishni taklif qildi. Ruslar va yevropaliklar o‘lkaning 2 foizini tashkil qilsada xalq sho‘rosiga saylanganlarning 33 foizini egalladi. Rossiya komissarlari tomonidan Turkiston muxtoriyatini tugatish yo‘lida tadbirlar qilmoqda. Musulmon ishchi va askarlarining I qurultoyi qarorlarini ma‘lum qilib, sizni Rossiya demokratik jumhuriyatining oliy idorasi ekanligingizdan boshqaruvni Toshkentdagi kamissarlar sovetidan Turkiston muxtoriyati hukumatiga topshirishiga buyruq berishingizni iltimos qilaman. Toki orada tortishuv boshlanib, Turkiston mamlakati halokatga duchor bo‘lmasin. Harbiy sho‘ro raisi Orif Klevleev, Qo‘qon 1917-yil 26-dekabr”[8,6].

Milliy demokrat ziyolilarning muxtoriyatga oid maqolalari ham biz uchun qimmatlidir. “Ulug‘ Turkiston” gazetasida Islom Shoahmedovning “Turkiston muxtoriyati va iqtisodiy avtonomiya”[9,11] nomli maqolasi nashr etilgan. Bu maqolada muxtoriyat e‘lon qilingan Turkiston musulmonlarining IV qurultoyidan 10 kun avval muxtoriyat hukumati tuzish uchun Turkistonda hamma sharoit mavjudligi asoslab berilgan.

Abdurauf Fitrat o‘z maqolasida “Biz ellik yildan beri ezildik. Tilimiz, dinimiz, insoniy fazilatlarimiz oyoq osti qilindi. Ongimiz zaharlandi. Lekin biz imonimizni saqladik. Mana muxtoriyat ham e‘lon qilindi. Ammo muxtoriyatni bir qurultoy bilan saqlab bo‘lmaydi. Uni moddiy, ma‘naviy va siyosiy (harbiy) jihatdan qo‘llab turish kerak. Bu albatta o‘zaro ittifoqqa bog‘liqdir”, deydi [11,6]

Ziyolilardan Muxtor Bakirovning “Ulug‘ Turkiston” gazetasida muxtoriyatga oid ikkita maqolasi berilgan. Birinchisi “Turkiston muxtoriyati va turkistonliklar” deb ataladi. [10,4] Unda muallif: “Muxtoriyatni e‘lon qilinishi turkistonliklar oldiga g‘oyat ulug‘ va ma‘suliyatli vazifalarni hal qilishni qo‘ydi. Bular moliyani isloh qilish, qonunlarni tartibga keltirish, er va suv masalalari, diniy, ijtimoiy, maorif masalalarini hal etish, oziq-ovqat nazoratini tashkil qilish, harbiy mahkama va tashkilotlarni hamda muxtoriyat hukumati uchun asosiy qonunni tuzishdir. Qurultoy a‘zolari shu muammolarni anglagan, Turkiston musulmonlarining shijoatlariga ishongan holda ushbu muxtoriyatni e‘lon qildi”, deydi.

Ziyolilardan G‘ulom Zafariy ham “Muxtoriyatni saqlash uchun bizga quvvat lozim, bu quvvat askarlardir”, deydi. [10,5]

Milliy ziyolilarning maqolalari va Turkiston muxtoriyatiga oid boshqa materiallarga asoslangan holda xulosa qilib shuni aytish kerakki, muxtoriyat e‘lon qilinishi bilan barcha musulmonlarni uni saqlash uchun doim shay turishga chaqirgan. Milliy matbuot materiallarining 1917-yil iyul-dekabr oylaridagi voqealari tahlili Turkiston musulmonlarining istiqloqlarga erishish harakatining eng yuksak cho‘qqisi ekanligini ko‘rsatadi. Sentyabr oyidagi ikki musulmon qurultoylarining qarorlari, noyabr oyidagi Turkiston musulmonlarining IV qurultoyi muxtoriyatning e‘lon qilinishi bilan yakunlandi. Unga nisbatan barcha musulmon va siyosiy jamiyatlar o‘z ijobiy munosabatlarini bildirdilar. Avvaliga muxtoriyatni tan olmagan bolsheviklar, aynan shu anjumanda yakkalanib qolganlaridan so‘ng ko‘pchilik fikriga qo‘shilishga majbur bo‘ldilar. Amalda qanday bo‘lmasin bu yangi musulmon hukumatini bo‘g‘ib tashlash harakatida edilar. Shu maqsadda Turkistondagi so‘nggi siyosiy jarayonlar, xususan, Turkiston muxtoriyatining ag‘darib tashlanishi va bolsheviklarning Turkistonda olib borgan bosqinchilik siyosatini ko‘rsatuvchi manbalar bilan tanishib chiqamiz. “Turkiston xalqi musulmon bo‘lgani xolda bolsheviklar qurol kuchi bilan boshqaruvni o‘z qo‘llariga olib hamma ishni soldat va ishchilar qo‘liga topshira boshladilar. Turkistondagi barcha milliy mahkamalarni o‘zgartirdi. Shahar dumasini tugatdi, sud ishlari to‘xtatildi. Bularning o‘rniga oddiy rus soldat va ishchilardan “jamoat hukmi” degan yangi sudlar ixtiro qilindi. Musulmonlarning erlarini qurol kuchi bilan tortib ola boshladilar.

“Soldat va ishchilar bir necha marta qurollanib eski shaharga tushib oziq-ovqat va g‘alla topish uchun tintuv o‘tkazdilar. Yangi shahar (ruslar yashaydigan qismi – A.E.)da o‘zlarining oziq-ovqatlari tugashi bilan eski shahar (musulmonlar yashaydigan qismi – A.E.)ga ko‘z olaytira boshladi. Musulmonlar bu holni adolat yuzasidan bo‘lmayotganligini bildirdilar” [12,4].

Bolsheviklar shavqatsizlik, talonchilik, bosqinchilik qilayotgan bir sharoitda bizning ajdodlarimiz – milliy ziyolilar va boy tabaqa kishilari xalqimizning qirilib ketishining oldini olish maqsadida ana shunday oliyjanoblik ishlarini qilganlar. Turkistonda bo‘layotgan voqealarni boricha yoritib borishga tutingan davriy matbuotda keltiriladigan manbalar shuni yanada yaqqol namoyon etadi. Masalan, “Ulug‘ Turkiston” gazetasida bosilgan “Ovqat masalasi”, “Dahshatli ochlik”, “Ochlik balosi”, “Ochdan o‘lganlar”, “Ochlarga yordam etaylik”, “Ochlar foydasiga”, “Och qolgan ishsizlar diqqatiga”, “Ochlar foydasiga teatr”, “Ochlarga

yordam”, “Ochlarga yordam”, “Ochlarga yordam”, “Va yana jamiyat hayriya”, “Jamiyat hayriya”, “Jamiyat hayriya”, “Ochlarga yordam” kabilar.

Yuqorida keltirilgan maqola va xabarnomalarga suyangan xolda shuni aytish mumkinki, ochlik xavfi paydo bo'layotganligi va uning oldini olish uchun milliy taraqqiyparvar ziyolilar katta amaliy ishlarni amalga oshirgan.

Endi Turkiston muxtoriyatining fojiali qismati bilan bog'liq bo'lgan manbalarga murojaat qilamiz. Bu maqolalar quyidagilardan iborat: “Ulug' Turki ston” gazetasida “Farg'ona viloyati muxosara holidi”, “Turkiston musulmonlarining fojiasi”, “Qo'qondan maktab”, “Qo'qon fojeasi”, “Qo'qon fojealari”, “Qo'qonning halolati” maqolalari, “Hurriyat” gazetasida “Qo'qon fojealari”, “Qo'qonda qozilar s'ezdi”, “Farg'onada Ergash harakati” va h.k.

Ushbu maqolalar bir qancha voqea-hodisalarni oydinlashtirish imkonini beradi. Masalan, bolsheviklar shahar xalqini talaganliklari, shaharni bombordimon qilish oqibatida bir nechta Jome masjid, madrasalar va aholi turar-joylari xaroba xoliga keltirilganligi, shuningdek yana boshqa ma'lumotlarni olish mumkin. Oqibatda musulmonlar ruslarga qarshi g'azavat e'lon qilganliklari ma'lum qilinadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan manbalardan shunday xulosalarga kelish mumkinki, bolsheviklar bosqinchilik orqali hokimiyat tepasiga kelgandan keyin, faoliyatining dastlabki kunidan boshlab o'ta adolatsiz siyosat olib borish bilan birga, bosqinchilik, talonchilik bilan ham shug'ullanishgan. Oqibatda esa xalqning yashash sharoiti kundan kunga og'irlashib, ruslarga nisbatan qahr g'azabi ortib bordi.

Nihoyat, xalqimiz yurtni zolimlar qo'lidan ozod etish uchun yangidan istiqloqlilik harakati kurtak yoza boshladi. Jadidlar yurt mustaqilligiga chorlaydigan maqola va she'rlar bilan xalqni jipslashtirishga va hamjihat bo'lishga chaqirish bir muddat bo'lsada to'xtamadi. 1917-yilda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi milliy davlatchilik uchun bo'lgan harakatni qonuniy jihatdan e'lon qildi. Milliy matbuotda muxtoriyat hukumatini Turkistondagi barcha musulmon siyosiy kuch va evropaliklar e'tirof etganliklari to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Milliy ziyolilar muxtoriyat hukumatini e'lon qilishi musulmonlar to'liq ozod bo'ldi degan gap emas, balki uni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash va bolsheviklarning tajovuzlaridan saqlash kerakligi to'g'risida ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarning guvohlik berishicha Turkiston bolsheviklari to 1917-yilning noyabr oyigacha katta hal qiluvchi kuchga ega bo'lishmagan. Ular faqat kelishuvchilik yo'lini tutishdi.

1917-yil 25-oktyabrda Rossiyadagi davlat to'ntarishidan keyin, bolsheviklar Turkistonda ham maqsadlarini qurol kuchi bilan amalga oshirganligini ko'rish mumkin. Rossiyadagi voqealardan keyin bolsheviklarning harakatlari yanada tezlashdi. Talonchilik, bosqinchilik avj oldi. Turkiston muxtoriyati ag'darib tashlandi. Musulmonlarning turmush darajasi inqirozli holatga kelib qoldi. Xalqning ruslarga nisbatan qahr-g'azabini oshirib yubordi. Agar 1917-1918-yillardagi milliy matbuot materiallari tahlil qilinsa, shu yillardagi Turkistondagi siyosiy jarayonlarni to'liq o'rganish mumkin. Ayniqsa, bolsheviklar tomonidan musulmonlarga qilgan turli xil adolatsizliklar ma'lum bo'ladi. Bu esa ajdodlarimizning bolsheviklarga qarshi istiqloqlilik harakatining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Talabalar jamiyatining yig'ilishi // *Najot*. – 1917. -21 aprel: *Maktab va madrasalar islohi//Ulug' Turkiston gazetasi*. -1917.
2. Zaki Validiy. *Turkistonda ta'limot masalasi // Kengash*. – 1917.19 iyul.
3. *Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash*. – T., Ma'naviyat, 2001. – B. 91.
4. *Turkistonga avtonomiya oluv haqida—Ulug' Turkiston gazetasi*. – 1917. – 5 may.
5. “*Ulamu*” s'ezdining qarorlari// *Ulug' Turkiston gazetasi*. – 1917. – 30 sentyabr
6. *Muxtoriyatli Turkiston muvaqqat xalq sho'rosi//El bayrog'i gazetasi* - 1917. 22 dekabr
7. *Toshkent muxtoriyat namoyishlari//Ulug' Turkiston gazetasi*. -1917. -16 dekabr
8. *Petrogradga yuborilgan telegramma//Ishchilar dunyosi*. -1918. -17 yanvar. -№ 2.
9. *Shoahmedov I. Turkiston muxtoriyati va iqtisodiy avtonomiya//Ulug' Turkiston*. – 1917. -18 noyabr
10. *Turkiston muxtoriyati va turkistonliklar//Ulug' Turkiston*, - 1917. – 20 dekabr
11. *Abdurauf Fitrat. Muxtoriyat.Hurriyat gazetasi*, -1917. 5 dekabr
12. *Eski shaharda tintuv//Ulug' Turkiston*. - 1918. - 4 yanvar

UDC: 327

THEORETICAL APPROACHES TO INTERNATIONAL RELATIONS IN JAPAN

Suyunova Barno Safarali qizi,
Basic doctoral student of Tashkent
State University of Oriental studies
barno.suyunova.95@mail.ru

Abstract: *In this article was studied the reasons why the Asian approach to the theory of international relations is more visible have been studied by political scientists. This work was analyzed by using methods that are systematical, historical, content-analysis and objectivity. In result, it was obtained that Japan had its own approaches to international relations and Japanese scientists created their own theoretical constructions on the basis of concepts brought from abroad. At the initial stage of studying international relations in Japan, it is possible to highlight the importance of social and cultural aspects of international relations, the multi-layered nature of the world order and its role.*

Keywords: *marxism, historicism, positivism, idealists, Kelsenists, cosmopolitans, supporters of Great Asia*

YAPONIYADA XALQARO MUNOSABATLARGA OID NAZARIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqaro munosabatlar nazariyasiga osiyocha yondashuv ko'proq namoyon bo'lishining sabablari siyosatshunoslar tomonidan o'rganilgan. Ushbu ish tizimli, tarixiy, kontent-analizli va obyektivlik usullaridan foydalangan holda tahlil qilindi. Natijada Yaponiyaning xalqaro munosabatlarga o'ziga xos yondashuvlari borligi va yapon olimlari xorijdan keltirilgan tushunchalar asosida o'zlarining nazariyalarini yaratganligi ma'lum bo'ldi. Yaponiyada xalqaro munosabatlarni o'rganishning dastlabki bosqichida xalqaro munosabatlarning ijtimoiy va madaniy jihatlarining ahamiyatini, dunyo tartibining ko'p qatlamliligini va uning rolini ajratib ko'rsatish mumkin.*

Kalit so'zlar: *marksizm, istorizm, pozitivizm, idealistlar, kelsenchilar, kosmopolitlar, Buyuk Osiyo tarafdorlari*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К МЕЖДУНАРОДНЫМ ОТНОШЕНИЯМ В ЯПОНИИ

Аннотация: *В данной статье политологами исследованы причины, по которым азиатский подход к теории международных отношений более нагляден. Эта работа была проанализирована с использованием таких методов, как систематический, исторический, контент-анализ и объективизм. В результате было установлено, что у Японии были свои подходы к международным отношениям, и японские учёные создавали свои теоретические построения на основе заимствованных из-за рубежа концепций. На начальном этапе изучения международных отношений в Японии можно выделить важность социокультурных аспектов международных отношений, многослойность мироустройства и его роль.*

Ключевые слова: *марксизм, историзм, позитивизм, идеалисты, кельсенисты, космополиты, сторонники Великой Азии.*

Introduction. In recent years, it has become a trend to describe international relations theories from the views of Asian scholars. The reasons why the Asian approach to the theory of international relations is more visible have been deeply analyzed by political scientists. The possibility of emergence and development of new theories are explained by Japanese and other foreign scientists. In Asia Japan had its own approaches to international relations on the basis of concepts brought from West.

Methodology.

The methodological basis is the principles of historicism and objectivity, as well as a systematic approach, which consists in the study of theories, opinions and facts not in isolation from each other, but in aggregate and logical relationship. One of the essential components of the theoretical basis of the study were the works of Japanese and foreign researchers devoted to the theory of international relations.

Results and discussion. Political scientist M. Lebedeva explains the possibility of emergence and development of new theories in the context of the evolutionary development of the existing political organization without connecting the emergence and development of alternative theories with the current crisis of the world political organization built on the basis of the Western model. First of all, he cites the rapid economic development of Asia, especially its eastern part, as the reason for the increasing appeal to non-Western theories.

Secondly, it is evident that along with economic development, this region has begun to develop in the field of science, especially social sciences. Such as, Chinese and Indian universities are making great progress in the field of international relations.

Thirdly, the crisis of the western model of world political organization encourages us to look for solutions in other civilization structures [1, c. 251].

Such views are reflected in the appearance of many publications on this issue. In particular, in 2010, a collective monograph was published under the editorship of A. Acharya and B. Buzan, studying the characteristics of approaches to international relations in the East. In Russian academic circles, the issues related to non-Western theories of international relations are covered in the works of T. Alekseyeva, P. Sigankov. Japanese approaches to the theory of international relations are analyzed in the works of S. Chugrov, who notes that the main aspiration in the Japanese academic tradition is to harmonize political realism and relations, giving preference to soft power.

Even at the beginning of the 21st century, Japan was one of the few countries in Asia that did not have a political science department. Although theoretical approaches to international relations in Japan were formed mainly on the basis of Western philosophy, political science and law schools, national characteristics are noticeable in them. In general, specific concepts have appeared in Japan under the influence of Western thinking and on the basis of national traditions. Japanese approaches to international relations developed simultaneously with a conceptual revision of the surrounding world and Japan's place in it, as well as national relations.

A distinctive feature of the Japanese approach to international relations is that it emphasizes economic and cultural aspects and promotes concepts that ensure Japan's global leadership as a non-military state. This aspect reflects the specific characteristics of the Japanese mentality and the specific characteristics of the Japanese political culture.

The theoretical issues of international relations are considered in the works of many Japanese scholars of the modern and pre-war period. Professor T. Inoguchi, a political scientist who classified Japan's international theories, wrote a number of works on this topic.

The post-war evolution of Japan's approach to international relations is deeply analyzed in the works of K. Yamamoto. As can be seen from the works of these authors, Japanese approaches to the theory of international relations in Japan were formed under the influence of Western political thought: Europe before the Second World War, and the USA after 1945.

One of the Japanese scientists, K. Shimizu, singles out the cultural component in Japanese theoretical approaches to international relations.

The origin of the science of international relations in Japan dates back to the end of the 19th century. The Meiji Restoration gave a strong impetus to intellectual research, familiarization with the works of European scientists and the desire to create a powerful state no less than the European powers aroused interest in social sciences from the West. In Japan, the science of international relations was formed as a symbiosis of various disciplines, such as diplomatic history, international law, international economics, regional studies, and political theories.

T. Inoguchi defines four main directions developed within the science of international relations: *staatslehre*, Marxism, historicism and positivism. By *Staatslehre*, Inoguchi means learning how to run a state from a centralized perspective. His influence can be seen in the first political science textbook in Japan prepared by Kiheiji Onozuka at Tokyo Imperial University. By historicity, the scientist explains the methodology by which everything should be studied on the basis of historically verifiable documents and materials. The most studied book in this direction is Tokutomi Soho's work on world history. In the direction of Marxism, a political doctrine is understood that looks at and examines the dialectics of forces and relations that produce events and their political manifestations. One of the most famous works in this tradition is Toyama Shigeki's work on the Meiji Restoration. Positivism refers to the ideological principle that everything should be empirically verified and tested [2, p. 61].

Staatslehre is the study of government affairs. It appeared under the influence of the spread of German science in Japan, because Germany was in many ways a model for creating a sovereign state on the Western model. His traditions greatly influenced the study of military affairs and colonialism. State teaching is characterized by an emphasis on descriptive methods, as well as reliance on documentary sources. Scientists in the field of political theory and international law played an important role in the development of science. The topics of international relations were first discussed in Japan in the pages of the almanac "Journal of International Law and Diplomacy". Marxism, as described by T. Inoguchi, is an intellectual direction that studies phenomena from the perspective of the dialectic of productive forces and production relations and their manifestation in politics. Marxism became widespread after the First World War, especially in the context of the study of socio-economic problems during the emergence of the labor movement [2, p. 53].

When the term shakai kagaku (social science) was first used in Japan in the 1920s, it often referred to Marxism and made social science almost synonymous with Marxism. Marxist influence became more widespread after 1945, and until the 1960s the social sciences—economics, political science, and sociology—were often led by Marxists or Marxist-leaning scholars. International relations were no exception. In the Marxist framework, theories such as the "irreversible second image" and "hegemonic instability" of international relations were put forward. Given the strong state tradition and almost continuous one-party rule since the mid-1950s, it was considered natural or desirable for academics and journalists to form a kind of counter-force critical of government behavior. Some have transformed themselves into postmodernists, radical feminists, and noncommunist radicals in the post-Cold War and post-9/11 era. Nevertheless, Japanese academics could be said to be de facto de-Marxized by the 1970s.

The third tradition, historiography has been very strong, and as a result, the bulk of academic research in international relations has become more like historical studies and therefore has come to be considered a branch of the humanities rather than the social sciences. Unlike the Staatslehre, historians pay little attention to the relevance of politics [2, p. 51].

In the years after the war, the main attention of scientists was focused on the study of the reasons that led Japan to war. This led to the fact that history remained one of the main directions even after the war. In December 1956, the Japan Association for International Relations was founded, mainly engaged in the study of historical issues, which contributed to the gradual disclosure of war documents [3, p. 263].

Positivism is based on the principle that everything should be tested empirically, and it is mainly associated with American political science. At the same time, according to Japanese professor T. Inoguchi, it would be wrong to say that the emergence of positivism in Japan is only the result of the influence of the United States, because works written in the spirit of positivism in Japan itself at the end of the 19th century appeared. An example of this is the book "Appeal to Knowledge" by the Japanese scientist F. Yukichi.

All directions listed by T. Inoguchi developed in parallel, there were no serious disagreements between them, but at the same time they did not strive for convergence and integration. T. Sakai, Professor of the University of Tokyo was engaged in the study of international relations and colonial policy within the framework of pre-war international relations research in Japan, and according to his observations, scholars observed trends based on two ideologies in Japan at the beginning of the 20th century. One of them is the ideology of internationalism, which emphasizes that Japan's attitude to international relations is close to the international system based on the Western understanding of the world as a society of equal members. The second is the ideology of imperialism, according to which Japan, as the leader of Asia, should lead the region towards civilization. As the Japanese scientist Shimizu pointed out, the reconciliation of these two ideologies – internationalism and imperialism – could only be helped by colonial policy based on respect for socio-cultural and historical diversity [4, p. 73].

Another type of research on Japan's theoretical approaches to international relations was proposed by Ritsumeikan University Associate Professor J. Ikeda. According to his views on the concept of "international society", J. Ikeda distinguishes four groups of international scientists: idealists, Kelsenists, cosmopolitans and supporters of Greater Asia.

Tokyo Imperial Institute Professor M. Royama's view of international society was presented through the image of "international politics" in his work "Seijigaku no Ninmu to Taishou" ("The Purpose and Theme of Politics"). If the term "international policy" refers to the political activities aimed at achieving the common goals of the states, then the concept of "foreign policy" is the policy carried out by the state in order to ensure its interests. Royama's view of international politics is rationalist in a sense, rejecting both realist and cosmopolitan thinking. Royama described the International Society as a single "Zentai Shakai"

consisting of two types of "Bubun Shakai (Separate Society)": "Kiso Shakai (Primary Society)" and "Hasei Shakai (Derivative Society)". States belong to "Kiso Shakai" and non-state actors to "Hasei Shakai" [6, p. 12]. Thus, during the reign of the state-based Staatslehre, this scholar recognized the role of non-state actors in international relations.

Kelsenists who study international relations came from the environment of international law, and they built their views on international society through the prism of legal terminology. A. Osawa, Professor of Kyushu Imperial University represented international society as a legal order. Emphasizing that the international order is higher than the national order, he estimated the existence of an international legal constitution that substantiates the legitimacy of this international order. Another Japanese scientist, K. Yokota, denied the idea of state sovereignty and spoke about "world sovereignty" as a single world society. He was one of the staunch supporters of the UN idea and considered the UN Charter to be an international constitution. The most obvious difference from the idealist point of view is that the Kelsenians tried to define international society only in terms of legal language. They used the term "order" instead of the concepts of the League of Nations, ethics and "society", and they tried to construct theories of international society as theories of international order. This tendency was also explored by the Great Asians, but the Kelsenians developed the idea of order more systematically. For the Kelsenians, the problem of order was not limited to the international order, but to the entire legal system. Although the second is theoretical, the first is more practical. In other words, the problem of international society was a good example of applying Kelsen's theory of law.

The third group of scientists – cosmopolitans appeared in the period between the two world wars and expressed their views about the world. Political scientist Kamikawa singles out human society as the subject of international politics. According to him, international politics consists of "Kokusai Kyoudou Kanri" - international relations. For Kamikawa, the scope of international politics as an international society was insufficient; rather, what he thought was a kind of human society, and this was based on his argument about World Unity. For him, world unity had four rules.

First, it was an idea that recognized the "moral ties" between all ethnic groups and states.

Second, he respected Kant's moral philosophy and treated other actors as ends rather than means to further their selfish interests.

Thirdly, he considered the interest of one state to be the interest of the international community.

Finally, he even saw individual morality evolving into world morality or "humanity".

In fact, he used the term "cosmopolitanism". It can be seen that his approach was strongly influenced by Kant.

Tanaka, another cosmopolitical scientist, justified the existence of world society. His argument about the world community is significant in two ways.

First, he emphasized that the world community can be created as a kind of human community. It was based on the German scholar Tyonnie's idea of Gemeinschaft, and Tanaka cited the state as a typical example. He said that as the number of associations (such as churches, unions, companies, etc.) increases, and more associations operate beyond national borders, they create a certain "atmosphere", which in turn is a wider society than states. He argues that "the creation of more international associations can contribute to human solidarity and community." As a professor of economic law, the expansion of the economy was key to world society.

The second is that their understanding of international society already implied a broader sense of society than "international".

Kamikawa used the terms "society" and "human society" interchangeably, while Tanaka used the terms "international society" and "world society" almost equally [6, p. 14-16].

Kelsenists study international relations in the environment of international lawyers, and they built their views on international society through the prism of legal terminology. Professor A. Osawa represented international society as a legal order. Emphasizing that the international order is higher than the national order, he estimated the existence of an international legal constitution that substantiates the legitimacy of this international order. Another Japanese scientist, K. Yokota, denied the idea of state sovereignty and spoke about "world sovereignty" as a single world society. He was one of the staunch supporters of the UN idea and considered the UN Charter to be an international constitution. The most obvious difference from the idealist point of view is that the Kelsenians tried to define international society only in terms of legal language. They used the term "order" instead of the concepts of the League of Nations, ethics and "society",

and they tried to construct theories of international society as theories of international order. This tendency was also explored by the Great Asians, but the Kelsenians developed the idea of order more systematically. For the Kelsenians, the problem of order was not limited to the international order, but to the entire legal system. Although the second is theoretical, the first is more practical. In other words, the problem of international society was a good example of applying Kelsen's theory of law.

Proponents of Greater Asia connected their theoretical constructions with the policy of creating a cooperative prosperity sphere of Greater Asia. Professor K. Yasui examined the international society from the point of view of the legal order, but he did not talk about the universal order, but about the specific order in Europe and Asia. K. Yasui considered that it is possible to talk about the existence of Greater Asian international law, which is a legal system that regulates relations both inside and outside the field. Speaking about the international order, S. Tabata denied its single essence and presented it as a pluralistic structure [6, p. 14-16]. First of all, the joining of the Eastern countries to the international order did not mean the universalization of this order and its extension to non-Western countries. Secondly, he spoke about the emergence of regional blocs. Later, he abandoned a pluralistic approach to the world order in favor of a solidarity-based approach that focused more on human rights.

Conclusion. Thus, even before getting acquainted with American political science, Japan had its own approaches to international relations. Often, their appearance was stimulated by studying the works of European, first of all, German or English authors, but Japanese scientists created their own theoretical constructions on the basis of concepts brought from abroad.

First of all, most of these studies focused on the perception of Japan's identity, its position between the West and the East, and its regional role. At the initial stage of studying international relations in Japan, it is possible to highlight the importance of social and cultural aspects of international relations, the multi-layered nature of the world order and its role.

Secondly, Japan's theoretical approaches to international relations are diverse, including political science, diplomatic history, cultural studies, and political economy. They are based on different methodological traditions that coexist and do not strive for mutual integration, but at the same time are rarely in conflict.

In short, Japan's foreign policy thought developed under the influence of Western theories, but was not completely influenced by them, on the contrary, it was able to revise them and create its own directions based on them. Japan's approaches to international relations developed simultaneously with a conceptual revision of the world around and Japan's place in it, as well as national identity.

REFERENCES:

1. Лебедева Марина Михайловна (2017). *Незападные теории международных отношений: миф или реальность?* //Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Международные отношения, 17 (2), 246-256.
2. Inoguchi T. *Why are there no non-Western theories of international relations? The case of Japan* //Non-western international relations theory. – Routledge, 2009. – С. 61-78.
3. Yamamoto K. *International Relations studies and theories in Japan: a trajectory shaped by war, pacifism, and globalization* //International Relations of the Asia-Pacific. – 2011. – Т. 11. – №. 2. – С. 259-278.
4. Shimizu K. *Is there a Japanese IR* //Seeking an Academic Bridge through Japanese History of International Relations. Research Series. – 2008. – Т. 5. – 90 p.
5. Добринская О.А. *Теоретические подходы к международным отношениям в Японии* //Японские исследования. – 2021. – №. 2. – С. 92-109.
6. Ikeda J. *Japanese vision of international society: a historical exploration* //Is there a Japanese IR. – 2008. – С. 5-28.

УДК:(323.1:321.1(94)(575.1))

ПАРТИЯВИЙ ТИЗИМ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МОҲИАТИ

Қаршиев Нурмуҳаммад Олимжонович,

Ўзбекистон Миллий университети Фуқаролик жамияти ва ҳуқуқ таълими кафедраси ўқитувчиси, с.ф.ф.д. (PhD).

nurmuxammad.qarshiev@bk.ru

Аннотация. Мақолада партиявий тизим тушунчаси унинг моҳияти вужудга келиши, ривожланиши ҳамда замонавий сиёсий фанлардаги ўрни ва аҳамиятига тўхталиб ўтилган. Шунингдек, ривожланган илғор жамиятлар партиявий тизимлари, қайси партиявий тизим замонавий дунёда қулай ва умуман глобаллашув шароитидаги муаммолар нималардан иборат эканлигига эътибор қаратилган.

Калим сўзлар: сиёсий партия, партиявий тизим, кўппартиявийлик, демократия, фуқаролик жамияти, сиёсий тизим, сайлов, сиёсий институт, сиёсий ҳокимият.

ПОНЯТИЕ ПАРТИЙНОЙ СИСТЕМЫ И ЕЁ СУЩНОСТЬ

Аннотация. Статья посвящена понятию партийной системы, её происхождению, развитию, роли и значению в современной политической науке. Также уделяется внимание партийным системам развитых передовых обществ, какая партийная система удобна в современном мире, и какие проблемы стоят перед ними в целом в условиях глобализации.

Ключевые слова: политическая партия, партийная система, многопартийность, демократия, гражданское общество, политическая система, выборы, политический институт, политическая власть.

CONCEPT OF PARTY SYSTEM AND ITS ESSENCE

Abstract. The article focuses on the concept of party system, its origin, development, place and importance in modern political sciences. Also attention is paid to the party systems of developed advanced societies, which party system is convenient in the modern world, and what are the problems facing them in general in the context of globalization.

Key words: political party, party system, multi-party system, democracy, civil society, political system, election, political institution, political power.

Кириш. Сиёсатшуносликда партиявий тизим тушунчаси нисбатан янги бўлиб, асосан у тўғрисидаги назарияларнинг асосий қисми XX асрда вужудга келган. Жаҳонда сиёсий тузумларнинг трансформацияси юз бериши асносида партиявий тизимлар ҳам бир тизим типидан иккинчисига ўтиш жараёни, ўзгариши амалга ошмоқда. Демократия географиясининг кенгайиши, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатлашга бўлган эҳтиёжнинг ортиб бориши кўппартиявийлик тизимига нисбатан заруратни ошироқда. Партиявий тизим замонавий сиёсатшуносликда тизим ичидаги тизим сифатида яъни, сиёсий тизимнинг бир қисми сифатида қаралади. Бугунги кунда эркин фуқаролик жамияти тараққиётини ҳамда демократиянинг асосий кафолатловчиси сифатида партиявий тизимлар ичидаги энг оптимали кўппартиявийлик эканлиги кўпчилик олимлар томонидан эътироф этилиб келинмоқда.

Жамият тараққиётида фуқароларнинг сиёсий иродасини рўёбга чиқаришда уларнинг манфаатларини таъминлашда, ҳар бир аҳоли қатламига, гуруҳларга нисбатан адолатли сиёсат юритишни кафили сифатида партия институтининг нуфузи тобора ошиб бормоқда. Шундан келиб чиқиб, сиёсий партия ва партиявий тизимлар назариясини илғор тажрибалар қолаверса, янгича ёндашувлар асосида ўрганиш аҳамиятлидир.

Асосий қисм. Мамлакатимизда ислохотларнинг янги босқичга кўтарилиб барча соҳаларда жадал ривожланиши сиёсий партиялар фаолиятида ҳам кўзга ташланади. Мустақилликнинг дастлабки йилларида тоталитаризмга асосланган бир партиявийлик тизимининг барҳам топиши ва

демократия тараққийига йўналтирилган кўппартиявийликнинг жорий қилиниши Ўзбекистон партиявий тизими генезисига асос сифатида хизмат қилди. Дастлаб демократиянинг наъмунаси бўлган илғор хорижий тажрибалар иноватга олиниб партиялар фаолиятини тартибга солувчи ҳуқуқий база яратилди. Мазкур ҳуқуқий норматив ҳужжатлар бош қомусимиз ҳисобланган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳамда партиялар фаолиятини тартибга солувчи алоҳида қонунларда аксантирилди. Масалан, Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 74-моддаси кўйидагича: “Сиёсий партиялар турли ижтимоий табақа ва гуруҳларнинг сиёсий иродасини ифодалайдилар ва ўзларининг демократик йўл билан сайлаб қўйилган вакиллари орқали давлат ҳокимиятини тузишда иштирок этадилар. Сиёсий партиялар ўз фаолиятининг молиялаштирилиши манбалари ҳақида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига ёки у ваколат берган органга белгиланган тартибда ошқора ҳисоботлар тақдим этадилар” [1, -Б. 28] деб келтириб ўтилган.

Шунингдек, 1996 йилда қабул қилинган “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг 1 - моддасида сиёсий партия тушунчасига қуйидагича таъриф берилган “Сиёсий партия Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг қарашлар, манфаатлар ва мақсадлар муштараклиги асосида тузилган, давлат ҳокимияти органларини шакллантиришда жамият муайян қисмининг сиёсий иродасини рўёбга чиқаришга интилувчи ҳамда ўз вакиллари орқали давлат ва жамоат ишларини идора этишда қатнашувчи кўнгилли бирлашмасидир”[9]. Шу билан бир қаторда сиёсий партиялар фаолиятини тартибга солувчи 1991 йилда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни, 2004 йилда қабул қилинган “Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни, 2019 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси “Сайлов Кодекси” шулар жумласидандир. Юқорида кўриб ўтган қонунлар, норматив ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилишда дунёнинг энг ривожланган, илғор мамлакатлари тажрибалари чуқур урганилган ҳамда ижобий жиҳатлари мослаб имплементация қилинган.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Партиявий тизим, партия фаолияти сиёсатшуносликда кўп мурожаат қилинадиган долзарб мавзулардан бири ҳисобланади. Партия, партиявий тизимга хос муаммолар сиёсатшунос олимлар томонидан қанчалик чуқур тадқиқ қилинган сари унинг янги хусусиятлари шунчалик очиқ бораверганлигини кузатишимиз мумкин. Партиявий тизимни ғарб олимларидан М.Дюверже, Ж.Сартори, Р.Михельс, П.Мейр, К.Джанда, Т.Парсонс, Д.Истон рус олимларидан М.Острогорский, Б.Исаев, В.Пугачёв, В. Гельман, С.Ланцов ўзбек олимларидан Қ.Назаров, М.Қирғизбоев, А.Бегманов, Х.Одилқориев, Б.Якубов қабилар ўрганишган.

Масалан, Б.Якубов ўз илмий изланишларида “сиёсий партиялар тизимида электоратни қийнаётган муҳим сиёсий, иқтисодий, ижтимоий масалалар юзасидан доимий асосда ўрганишлар олиб боровчи, уларни ҳал қилиш борасида аниқ таклифлар ишлаб чиқувчи “ақл фабрикалари” (“think tanks”)ни шакллантириш[2, -Б. 11] зарур эканлигига тўхталиб ўтган. Олимнинг партиявий тизимга доир муаммоларни тадқиқ қилишда алоҳида институционал марказларга эҳтиёж мавжудлиги борасидаги ёндашуви жамият ривожидан партия, партиявий тизим нақадар муҳим эканлигидан далолат беради. Мазкур ёндашувга қўшилган ҳолда демократия, фуқаролик жамияти ривожлантиришда асосий ролни айнан партия, партиявий тизим ўйнаши, унинг сиёсий тизимга таъсири, давлат бошқарувидаги иштироки, жамият ва давлат ўртасидаги боғловчи кўприк вазифасини бажариши даражалари муҳим омиллардан ҳисобланади.

Маҳаллий олимларимиздан М.Қирғизбоев ўз тадқиқотларида сиёсий партия ва партиявий тизим муаммоларини чуқур таҳлил қилган. У партиявий тизимга қуйидагича таъриф беради “Партиявий тизим тушунчаси бу — муайян сон ва ўлчовлар (сайловчилар ҳажми, ички тизимлар турлари ва бошқа меъёрлар), шунингдек, бир-бири билан ҳамкорлик қила олиш имкониятларига эга бўлган мустақил субъект (партия) лар мажмуасидан иборат сиёсий кенглик демакдир” [8, -Б. 227].

Сиёсатшунос олимларнинг партия ва партиявий тизим тушунчаларига кўплаб таърифлари мавжуд. Ҳар бир олимнинг муаллифлик ёндашувларининг фарқли жиҳатларидан келиб чиқади-ки мазкур тушунчаларга нисбатан ягона умумэтироф этилган таърифлар бирлиги мавжуд эмас. Шунингдек сиёсатшунос олимлар партиявий тизимларнинг хусусиятларини ҳам турлича нуқтаи назарлар асосида таҳлил қилишади.

Партиявий тизим бошқа меъёр ва хусусиятларга қараб ҳам таснифлаштирилади. Вейнер ва Ла

Паломбаралар сиёсий тизим нуктаи назаридан келиб чиқиб, демократик, авторитар ва тоталитар партиялар; ҳукмрон ижтимоий кадрятларга қараб, социалистик ва буржуазия партиялари; давлат ва партиялар ўртасидаги муносабатлар характериға биноан рақобатдош ва норақобатдош партияларни бир-бирларидан фарқланишини асослаб берган[8, -Б. 227].

Умуман олганда XX асрда сиёсий фанларда айнан партия ва партиявий тизим муаммоларига бағишланган алоҳида фан тармоғи сифатида “Парталогия”нинг вужудга келиши мазкур йўналишни комплекс тадқиқ қилиш имкониятини бериб, мазкур соҳада тор ихтисосликдаги мутахасис, олимлар гуруҳини шакллантирди.

Партия ва партиявий тизимни тадқиқ қилган кўзга кўринган хориж олимларидан Р.Михельс, М.Я.Острогорский ишларини эътироф этиш зарур. Жумладан, М.Я.Острогорский ўзининг “Демократия ва сиёсий партиялар” деб номланган асарида Англия ва АҚШ партиявий тизимларини қиёсий таҳлилини амалга оширган.

Шунингдек, Америкалик сиёсатшунос Ж.Сартори ҳам партиявий тизимни типологиясини чуқур тадқиқ қилган. У партияларни институционал ҳамда мафкуравий жиҳатларининг боғлиқликларини таҳлил қилган. Аксарият олимлар партиявий тизимларнинг ҳеч бири идеал эмаслигини ҳар бирининг камчиликлари мавжудлигини, фаравон жамият қуришда қайси партиявий тизим қулай эканлиги атрофида бахслар давом этиб келмоқда. Шунга қарамасдан бугунги кунда сиёсий тузумлар ичида энг оптимали ҳисобланган демократиянинг қафолатловчиси сифатида кўппартиявийлик тизими эътироф этилади.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Тадқиқот методологияси партиявий тизимни ҳамда сиёсий партияларни тадқиқ қилишда одатда институционал ёндошувга методига кўпроқ мурожаат қилинади. Шунингдек, биз тадқиқотимизда тизимли-таркибий, функционал ва бошқа умумий илмий усуллардан, комплекс ёндашув методологияси, тарихийлик ёндашуви методологияларидан фойдаландик.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Сиёсий фанларда маълум бир сиёсий тизим доирасида фаолият юритувчи партияларни бирлаштирувчи тизим сифатида кўриладиган партиявий тизим, унинг моҳиятини атрофлича очиб беришга ҳаракат қиламиз.

Партиявий тизимларнинг шаклланишида жамият ижтимоий тузилишининг характери амалдаги қонунчилик (аввало, сайлов қонунлари), шунингдек, социомаданий аънаналар ҳаммасидан кўра кўпроқ роль ўйнайди. Масалан, салмоқли деҳқонлар қатлами бўлмаган мамлакатларда, қоида тариқасида аграр партиялар вужудга келмайди. Ўрта синфни белгиловчи роль ўйнайдиган мамлакатларда эса устувор партияли тизимлар яратиш учун шарт –шароитлар мавжуд бўлади[3, -Б. 291].

Партиявий тизимни тизим ичидаги тизим яъни, сиёсий тизимнинг таркибий қисми, унинг ичидаги нисбатан кичик тизим сифатида қарашимиз мумкин. Партиявий тизимга нисбатан кўплаб адабиётларда турлича таърифлар мавжуддир.

Мамлакатдаги бир нечта партиялар ўртасидаги рақобат ёки ҳамкорлик кўринишидаги ўзаро муносабат давлат ҳамда жамият ўртасидаги алоқанинг самарали тарзда шаклланишига имкон яратиб партиявий тизимни юзага келтиради[4, -Б. 5].

Партия тизимлари маълум бир сиёсий тизим доирасида фаолият юритувчи партияларни бирлаштиради.

Юқоридаги таърифлардан келиб чиқиб шуни айтишимиз мумкинки, партиявий тизим бир ёки бир нечта партияларнинг маълум бир сиёсий тизим доирасидаги фаолияти мажмуидан иборат. Аммо, шуни ҳам таъкидлаб ўтишимиз лозимки, айрим сиёсий тизимларда партиялар умуман мавжуд бўлмаслиги, фаолият юритмаслиги мумкин. Бундай сиёсий тизимни кўпчилик олимлар партиясиз тизим деб аташади.

Ҳар бир мамлакатдаги сиёсий партиялар бутун сиёсий тизим ичида алоҳида қуйи тизимни ташкил қилади. Бундай қуйи тизим кўпинча ўзига хос тузилма ва фаолият кўрсатиш шакллариға эга бўлган нисбатан мустақил партия тизими сифатида қаралади. Сиёсатшуносликда партиялар типологиясининг кўплаб вариантлари билан бир қаторда партиявий тизимлар типологиясининг ҳам бир қанча вариантлари мавжуд. Кўпинча биз учта асосий турдаги партиявий тизимлар ҳақида гапирамиз: бир партияли, икки партияли ва кўп партияли. Бу ерда мезон шунчаки ҳар бир алоҳида мамлакатда фаолият юритаётган партиялар сонидан иборат [5, -Б. 4-9].

Жаҳонда Германия, Франция, АҚШ, Япония, каби ривожланган мамлакатларнинг партиявий тизимларини, уларнинг босиб ўтган йўлини, сиёсий партияларининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш мамлакатимизда мавжуд партияларнинг фаолиятини самарадорлигини оширишда хулоса ва таклифлар ишлаб чиқишга хизмат қилади.

Сиёсий ҳокимиятни ташкил этиш нуқтаи назаридан партиявий тизимларнинг мавжуд бўлиши айна жамиятнинг кўпчилиқ ҳолларда демократик хусусиятларини ифодалайди ёки унга интилиш мавжудлигини англатади. Аммо, шуни таъкидлаб ўтишимиз мумкин-ки, айрим жамиятларда партиявий тизим мавжуд бўлиши шунчаки расмий аҳамият касб этиши амалда эса партиявий тизимнинг ҳаракатини деярли сезмаслигимиз мумкин. Партиявий тизим мавжуд бўлмаган жамиятларда аксарият ҳолларда ҳокимият халқ иродасини ифодаламайди, у муайян гуруҳ ёки монарх кўлидаги тўпланган ҳокимиятни англатади. Бундай жамиятларда бошқарув ворийсийлик асосида амалга оширилиши, сайловларга деярли эҳтиёжнинг мавжуд эмаслигини кузатиш мумкин.

Юқорида кўриб ўтганимиздек, “партиявий тизимларни турларга бўлишда уларни уч гуруҳга ажратиш кенг тарқалган. Бундай таснифлашга кўра бир партияли, икки партияли ва кўп партияли тизимлар ўзаро фаркланади” [6, -Б. 300]. Аммо, ҳозирда сиёсий фаолиятнинг қамровини ортиши натижасида модификация қилинган икки ярим партияли тизим тушунчаси ҳам сиёсатшунос олимлар томонидан кенг қўлланилиб келинмоқда. Партиявий тизимнинг қайси типга мансуб бўлиши айна жамиятнинг сиёсий онги, сиёсий кадриятлари қолаверса ҳуқуқий саводхонлигига боғлиқдир. Сиёсий тузум демократия қоидалари асосида яшовчи жамиятларнинг аксарияти кўппартиявийликка амал қилади. Кўппартиявийлик жамиятда мавжуд кичик гуруҳлар, ижтимоий қатламларни партия сифатида бирлаштиришга шаклланишига ҳамда ўзаро рақобатлаштиришга, манфаатларини ифодалашига, ҳокимиятга таъсир этишига, уни шакллантиришда асосий институт сифатида иштирок этишига имкон беради. Мазкур жараёнлар етакчи ҳукмрон партияларнинг хушёр тортишига, бошқарувнинг шаффофлиги, ҳукуматнинг алмашувчанлигини, фуқароларнинг сиёсатда фаол иштирокини таъминлайди.

Кўп партиявийлик тизимида ҳеч бир партия сайловчилар мутлақ кўпчилигининг қўллаб-қувватлашига эриша олмайди. Бошқарувнинг парламент шаклида бўлган бу тизимда кўпинча коалицион ҳукумат тузиш тақозо этилади. Бу тизимда бирон-бир партия бутун миллат ёки унинг асосий қисми вакили сифатида сиёсий майдонга чиқа олмайди. Шунинг учун бу турдаги партиялар бошқа партияларнинг қўллаб-қувватлашисиз ҳукуматни шакллантиришга ҳам эриша олмайди. Бундай ҳолатлар баъзан парламент коалициясининг беқарорлигига, ҳукуматни эса турли сиёсий оқимлар манфаатлари ифодачиси бўлишига олиб келади [8, -Б. 224]. Кўппартиявийликнинг жамиятда фаол тартибда амал қилиши ва партиялар ўртасида соғлом оппозициянинг мавжуд бўлиши, сайловлар жараёнида тортишувлар сиёсий маданият асосида ўтиши тизимга нисбатан электоратнинг ишончини янада ортишига олиб келади.

Замонавий дунёда кўппартиявийлик ўзининг географиясини тоборо кенгайтириб, партиявий тизимлар орасидаги энг яхши тизим эканлигини исботлаб келмоқда.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, ҳар қандай халқ ва бошқарув ўртасида мулоқот мавжуд бўлган жамиятда партиявий тизимга эҳтиёж мавжуд бўлади. Унинг ривожланиши бошқарувнинг демократлашувини, унда аҳолининг иштирокини таъминлаш имкониятларининг ортиши билан изоҳлаш мумкин. Партиявий тизимнинг барқарорлиги бир партияли, икки партияли ёки кўп партияли бўладими сон, сифат, мەъёр қоидалари мувозанати билан боғлиқ эканлиги тоборо ўз исботини топиб бормоқда.

Умуман партия, партиявий тизимнинг ривожини мамлакатда амалга ошириладиган демократик ислохотлар хусусан конституциявий ва сайлов тизимидаги ислохотларга чамбарчас боғлиқдир. Мамлакатимизда ҳам 2019 йилда янги “Сайлов кодекси” нинг қабул қилиниши шунингдек, жорий йилда умумхалқ муҳокамасига кўйилиб, яъни референдум йўли билан янги Конституциямизнинг қабул қилинганлиги сиёсий партияларнинг эркин фаолият юритишлари учун кенг имкониятлар яратиб бермоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб куйидаги таклифларни илгари суришимиз мумкин:

Жаҳоннинг ривожланган илғор мамлакатлари партиявий тизимларини янада кенг тадқиқ этиш;

Илғор мамлакатлар партиявий тизимини тадқиқ этиш натижасида олинган хулоса ва таклифларни Ўзбекистон сиёсий партияларида қўллаш амалиётини кучайтириш;

Мазкур йўналишда илм-фан ва амалиёт ўртасидаги интеграциялашувни янада мустаҳкамлаш лозим. [7, -Б. 156].

АДАБИЁТЛАР:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.*
2. Якубов Б. “Ўзбекистонда амалга оширилаётган модернизация жараёнида сиёсий партияларнинг ўрни” сиёсий фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиши учун ёзилган диссертация Тошкент-2022. 240-б.
3. Пугачёв В.П., Соловьёв А.И. “Сиёсатишуносликка кириш”. “Янги аср авлоди” (ўзбекча нашири).2004. 454-бет.
4. Бердиқулов С.Н. Ўзбекистонда кўппартиявийлик миллий моделини ривожлантириши истиқболлари: Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. 2016.108-б.
5. Гельман В.Я. О становлении российской партийной системы// Полис 1997. №3.4-9-с.
6. Ланцов С.А. Политология: Учебное пособие – Спб.: Питер, 2011. – 544 с.
7. Odilqoriev X.T. Siyosatshunoslik. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik (To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr). – Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2009. -352.b.
8. Қирғизбоев, Муқимжон. Сиёсатишунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма/М.Қирғизбоев; Андижон давлат университети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 524 б.
9. “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 26.12.1996 йилдаги 337-І-сон. <https://lex.uz/docs/54191>

БОШҚАРУВНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЭҲТИЁЖ ЭКАНЛИГИ

*Рустамалиев Миржалоул Ҳайрулло ўғли,
Наманган давлат университети тадқиқотчиси
mirjalolrustamaliyev@gmail.com*

Аннотация: Маълумки, жамият бир жойда қотиб турмайди, у ривожланишида, янгиланишида. Бу эса ўз навбатида бошқарувнинг эскирган қолип ва структурасининг барҳам топиши ва янгилари яратилишини тақозо этади. Айрим маконларда анъанавий замонавий тузилмаю услублар бир муддат параллел равишида бир-бирини тўлдириши ҳолатида бўлиши мумкин. Бу одатий ҳол. Мақолада, бошқарувлар иерархияси, давлат бошқаруви, халқаро бошқарув тажрибаси, бошқарувнинг ижтимоий-сиёсий эҳтиёж эканлиги, бошқарув билан боғлиқ ижтимоий конфликтлар, суверен давлатларнинг бошқарув салоҳияти ҳамда фуқаролик жамиятининг шакллари ўрганиб чиқилган.

Калит сўзлар: демилитаризация, денацификация, неонацизм, милитарлашув, либерал демократия, этноцентризм, антропоцентризм, “идеал тип” концепция, имманент, миллениум, бошқарувлар иерархияси, корпоратив манфаат, глобаллашув, гуманитар ҳаракат.

УПРАВЛЕНИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Аннотация: Как известно, общество не застаивается на одном месте, оно находится в развитии, обновлении. Это, в свою очередь, требует ликвидации устаревшей формы и структуры управления и создания новых. В некоторых пространствах традиционная современная структура и стили могут какое-то время находиться в состоянии параллельного дополнения друг друга. И это нормально. В статье исследуются иерархия администраций, государственное управление, международный опыт управления, управление как общественно-политическая необходимость, социальные конфликты, связанные с управлением, управленческий потенциал суверенных государств и формы гражданского общества.

Ключевые слова: демилитаризация, денацификация, неонацизм, милитаризация, либеральная демократия, этноцентризм, антропоцентризм, концепция “идеального типа”, имманентный, миллениум, иерархия управления, корпоративный интерес, глобализация, гуманитарное движение.

GOVERNANCE AS A SOCIO-POLITICAL NEED

Abstract: As you know, society does not stagnate in one place, it is in development, renewal. This, in turn, requires the elimination of the outdated form and management structure and the creation of new ones. In some spaces, traditional modern structures and styles may be in a state of parallel complement each other for some time, and this is normal. In the article, the hierarchy of administrations, state administration, experience of international administration, social and political necessity of administration, social conflicts related to administration, governance potential of sovereign states and forms of civil society are studied.

Keywords: demilitarization, denazification, neo-Nazism, militarization, liberal democracy, ethnocentrism, anthropocentrism, the concept of the “ideal type”, immanent, millennium, management hierarchy, corporate interest, globalization, humanitarian movement.

Кириш. Замонавий жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий барқарорлиги ва ривожланиши шароитида давлат ва жамият бошқарувида кўйилган талаблар тобора ортиб бормолади. Шунинг учун ҳам айна дамга келиб, “Бошқарувнинг ижтимоий-сиёсий эҳтиёж эканлиги”ни ҳар томонлама чуқур англаш зарурати туғилади.

Мақолада, бошқарувлар иерархияси, давлат бошқаруви, халқаро бошқарув тажрибаси, бошқарувнинг ижтимоий-сиёсий эҳтиёж эканлиги, бошқарув билан боғлиқ ижтимоий конфликтлар, суверен давлатларнинг бошқарув салоҳияти ҳамда фуқаролик жамиятининг шакллари ўрганиб чиқилган.

Давлат ва жамиятни бошқаришда доимий ўзгаришларнинг динамикасини ҳисобга олиш ва мамлакатнинг ривожланиш эҳтиёжларига мос ечимларини таклиф қилиш, шунингдек, бошқарув жараёнини такомиллаштириш учун ҳар қандай қулай имкониятлардан фойдаланиш керак. Бошқарув тизимларига талабларнинг тобора ортиб бориши давлатни комплекс тузилган ижтимоий-иқтисодий тизим сифатида коллегиял бошқариш шакллари ўрганиш зарурлигини келтириб чиқаради.

Тадқиқотда бошқарувлар иерархияси пиллапоясининг энг юқори ва шунинг билан бирга кундалик бошқарувни ҳам, у ердаги масъулият юкини ҳам қамраб олувчи, аниқроғи, одамзотни, жамиятни, ҳамжамятти ҳаёт ва фаолиятнинг кўп ҳолларда тасаввур қилиш беҳад мураккаб, ҳар бири алоҳида, бироқ ўзаро органзимик боғлиқлик жиҳати, поғонаси ҳақида сўз юритилади.

Маълумки, жамият бир жойда қотиб турмайди у ривожланишда, янгиланишда. Бу эса ўз навбатида бошқарувнинг эскирган қолип ва структурасининг барҳам топиши ва янгилари яратилишини тақозо этади. Айрим маконларда анъанавий замонавий тузилмаю услублар бир муддат параллел равишда бир-бирини тўлдириш ҳолатида бўлиши мумкин. Бу одатий ҳол.

Тадқиқот методологияси ва эмпирик таҳлил. Бундай нисбатан осойишталик бугун барҳам топди. Башарият ўз ривожини маромида мураккабликка, “қизил чизик”қа келди. Барча ижтимоий ишланмалар, тартибот устунлари яроқсиз, янгиланишга муҳтожлик сезмоқда. “Энди дунёни қайта таъмирлашнинг фойдаси йўқ. Унинг замиридаги кадриятлар, интилишлару мўлжаллар ва манфаатлар, образ ва ориентирларию мақсадлари ва бошқалар фаолиятининг табиий цикли умрини ўтаб бўлди, чилпарчин ҳолатда ботин сари юзланган. Унинг ўрнида бениҳоя катта кучга эга янги маънолар, янги кадриятлар қуввати кўзга ташланмоқда. Яшашнинг янги горизонти кенгаймоқда”[1; с. 27.], – деб метафорик тарзда тавсифлайди таниқли олим Э.Кочетов.

Фикр бир муддат илгарироқ айтилса-да, Ер курраси, инсоният, жаҳон ҳамжамятининг ҳозирги маънавий-руҳий ҳолатини яхши ифода эта олган. Халқаро ҳамжамятти табиий ўзанга тушириш, яъни бошқаришнинг, айрим ўзига етарли полтиялар бундан мустасно, яроқли тизими жорий этилиши у ёқда турсин, ҳали яратилганича йўқ. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти махсус инструментларидан то миллий қонуний меъёрларгача индивид / фуқаролар бош тортишмоқда. Жаҳон ҳамжамяти самара кутган кўплаб глобал тенденциялар / қурилмалар – глобаллашув, гуманитар ҳаракатлар, у ёки бу муҳим халқаро интилишларга йўл бериш, инсониятни ташвишга солиб турган баъзи минтақавий инқирозларнинг заифлашуви, гуманитар айрибошлашувлар бугун қутилган натижа бермаётир.

Юқоридаги “умидбахш” халқаро жараёнлардан айримлари ижтимоий-маънавий интилишлар учун ҳатто тўсиққа айланмоқда. Жумладан, глобаллашув жараёни дастлабки башоратларга кўра, давлатларни, халқларни, умуман олганда яқинлаштириш, планетар гармонияга туртки бўлмоғи назарда тутилган эди. Аммо кутгандай бўлмади, башариятга қутилган самара келтирмади. Катта олимларнинг таҳлили ва тахминига қарайдиган бўлсак, глобаллашув кейинги пайтларда Биринчи, Иккинчи ва Учинчи дунёларнинг ўзаро йироқлашиш, ижтимоий-маданий ривожланиш нуқтаи назаридан улар ўртасида “жарлик”, яъни тенгсизликни кучайтирди[2; с. 9-10]. Нуфузли халқаро илмий анжуманларда қайд этилаётганидек, ушбу негатив ҳолат жараёнларни издан чиқариб, бошқарувдан давлатнинг сиқиб чиқарилишига сабабчи бўлмоқда[3; с. 182].

Муаммо таҳлили давомида ўз-ўзидан социумни бошқарув, айниқса, давлат бошқаруви, давлат ҳокимияти томонидан бошқарилиш нима, унинг структураси нималардан иборат, қабилдаги турли саволлар юзага қалқиб чиқадики, демакки унга у ёки бу даражада аниқлик киритилиши зарур бўлади. Яна бошқа томони шундаки, бу амалиёт тадқиқотимиз предметини кенгрок, содда ва тушунарли ёритишга асқотади, деган фикрдамиз.

Бир қарашда бошқарув, бошқарилиш тушунчасига кундалик ҳаётда ҳар доим мурожаат қилинади. Натижада бу мураккаб тушунчанинг юзадаги хоссалари инобатга олиниб, унинг жиддий, шунинг билан биргалликда мураккаб ички механизми, унинг стратегик мақсадларга бориб тақалиши билан боғлиқ жиҳатлари тафаккуримиздан йироқда қолиб бораверади. Мисол учун, “оилани бошқариш”, “кундалик юмушларни бошқариш”, “ўз-ўзини бошқариш”, у ёки бу ижтимоий юмушларни бошқариш, “кичик бир жамоани бошқариш” ва бошқалар. Бу унчалик катта салоҳият, интеллектни талаб этмайди. Зеро, функционал жиҳатдан уларнинг таъсир доираси, бугуни ва эртаси аниқ. Қолаверса, бажарувчилар, масъуллар аниқ ва улар ўртасида мавжуд кўрсатма бўйича фаолият йўналиши тақсимланиб қўйилган. Уларни умумлаштириб “кундалик бошқарув” тушунчаси билан ифодаласа бўлади.

Тадқиқотда бошқарувлар иерархияси пиллапоясининг энг юқори ва шунинг билан бирга кундалик бошқарувни ҳам, у ердаги масъулият юкини ҳам камраб олувчи, аниқроғи, одамзотни, жамиятни, ҳамжамиятни ҳаёт ва фаолиятнинг кўп ҳолларда тасаввур қилиш беҳад мураккаб, ҳар бири алоҳида, бироқ ўзаро органзимик боғлиқлик жиҳати, поғонаси ҳақида сўз юритилади.

Кўриниб турганидек, бошқарувнинг бу жиҳати жараённинг фокуси, қуввати нуқтаи назаридан ижтимоийликнинг барча катта ва кичик “майдонлари”га бевосита таъсир кучига эга императив. Агарки биз бошқарувнинг бу кенг қамровли йўналишини инсоният бардавомлигининг ўрнини алмаштириб бўлмайдиган “ўқ томири” билан қиёсласак муболаға бўлмаса керак. Бу омил шундайки, усиз социум ҳам, давлат ва жамият ҳам, қолаверса, инсоният ҳам том маънода мақсадсиз бир жонзот. Хуллас, сўз давлат томонидан жамиятнинг бошқарилиши, яъни давлат бошқаруви хусусида юритилмоқда. Демак, у қандай механизм, у азалий ва абадийми, не сабабдан бу фундаментал муаммо бугунга келиб интеллектуал ва сиёсий элита диққат марказидан жой олди.

Илмий манбаларга асосланган ҳолда, қолаверса, умуман бошқарувга нисбатан мавжуд таърифу умумлашмаларни бир-бири билан таққослаш орқали ушбу фундаментал политологик тушунчалар ёки категорияга оид қуйида ўз шахсий фикримизни қуйида ҳавола қилсак. Илмий жамоатчилик доирасида: “давлат – бу ҳокимият ташкил этилиши ва тақсимланишига доир турли турли хил институтлар, қоида-ю кўрсатмалар ва амалий фаолиятларнинг маълум бир комбинацияси”[4; с. 8], деган қисқа таъриф бўйича умумий қандайдир келишув мавжуд. Давлат, бошқарув хусусида таърифу тавсифлар сон-саноксиз. Тарихчилар ўз фикрини берса, ҳуқуқшунослар ва политологлар ҳам улардан қолишмайди. Ҳар бир таъриф, ёндашувда фан тармоқлари методологияси, йўналиши, функцияси; тадқиқот дискурси ва қолаверса, муаллифнинг миллий-маданий устуворлиги ҳамда мотивацияси, ҳатто тадқиқотга буюртма берган муассасанинг мўлжаллари яққол сезилиб туради. Таъриф ва ёндашувларнинг турли-туманлиги, баъзида бири бирига монанд эмаслиги ва охир-оқибат ноаниқликлар сони ошиб бораётганлигининг туб сабаби, турткилари айнан шу реалликда, деб биламиз. Шу боиски, давлатнинг жамият бошқарувига доир фаолияти, демакки, бошқарув бўйича ҳам вазият шунга монанд.

Бизнинг ўйлашимизга кўра, авваламбор давлат мулоқотнинг айнан ўзи ва шундан келиб чиққан. Яъни давлат зиммасидаги вазифа – жамиятни бошқариши учун бошқарилувчилар билан мулоқот сари бориши керак. Бу мулоқот шунчаки оддий умр, вақтни ўтказиш эмас, жамият аъзоларини стратегик мақсад сари жамул-жам қилиш. XVI - XVII асрлар орасида яшаган. Ж. – Ж.Руссо наздида индивидларнинг ёлғиз яшаши деярли иложсизлигидан бошқалар билан яқинлашишга табиий (демак, императив) мажбурлигига бориб такалади. Бу ерда эътиборга лойик бир жиҳат кўзга ташланади. Шу мулоқот ҳам давлат шаклланиши ва ҳам давлат томонидан бошқарилишдек икки муҳим ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг бир пайтда синхрон бошланганлигини англаш зарур [5; с. 93-94]. Дастлабки хулоса шуки, бир томондан – давалат ва бошқа томондан, ижтимоий-сиёсий бошқарув бир-бирини имманент тақозо этади.

Ўз-ўзидан стихий тарзда социум (жамият, давлат, ҳамжамият)ни бошқариш муаммоси давлатнинг зиммасига тушмоқда. У учун бунданда масъулиятли вазифа (у барча жабҳада масъул) бўлмаса керак. Аммо давлат томонидан ижтимоий-сиёсий бошқариш учун зарур моддий-маданий, маънавий шарт-шароит ҳам бўлмоғи керак. Зеро, ҳозирги палада бу борада барча имкониятлар мавжуд деб бўлмайди ва бу ерда, жумладан, давлат ҳокимияти эътиборини талаб қиладиган жиҳатлар ҳам йўқ эмас. Бу нарса инфратузилмадан то фуқаролар онги ва тафаккуригача бўлган маконда кўзга ташланади. Демак, давлат ҳокимияти фуқаролар, фуқаролик жамияти билан ҳамкорликда иш олиб бориши керак экан. Илмий жамоатчиликда муҳим бир фикр шаклланган. Гап шу ҳақдаки, “миллий давлат ҳудудида фуқаролар ўртасида нечоғлик “носиёсий”, яъни давлат аралашмаган (у ерда баъзи чекловлар бўлиши табиий) “борди-келди”, самарали мулоқот, келишувлар йўлга қўйилган бўлса, шу давлатнинг куч-қудрати, бошқарув салоҳияти, билими, имконияти шунча кенг бўлар экан”.

Ушбу феномен айниқса Ковид-19 пандемияси туфайли давлатларнинг ўз суверен ҳуқуқидан фойдаланиб айрим жойларда давлат чегараларининг ёпилиши (айрим давлатларда вилоятлар, шаҳарларни вақтинчалик изоляцияга тушириш) билан боғлиқ сиёсий чеклов пайтида яққол кўзга ташланди [6; с. 34-42]. Ҳар кунги алоқалар анча заифлашди. Бундай негатив вазият ҳозирги пайтда Россиянинг Украинани демилитаризация ва денацификация қилиш, уни неонацизм ва милитарлашувдан қутқаришга қаратилган махсус ҳарбий операцияси шароитида ҳам яққол кўзга ташланмоқда. Россияда бу жиҳат минтақаларо борди-келдига сезиларли таъсир қиладиган бўлса,

Украина ҳудудида ундан-да жиддий. Хуллас, давлат бошқаруви, марказлашган бошқарув, умуман, барча қитғаларда мураккаблашиб қолди, бу ҳар бир полития, қолаверса, жаҳон ҳамжамияти кайфиятида ўз аксини топмоқдаки, бу сайёрамиз учун ўта муҳим сиёсий стратегия бўлган давлат бошқарувида инқирозни келтириб чиқарди.

Давлат бошқаруви, яъни социумнинг давлат ҳоқимияти томонидан бошқарилиши тизим сифатида инсоният тараққиётидан орқада қолган кўринади. Бунинг замирида асосан икки сабаб / жараён: а) бошқарув тизимининг номукамаллиги, жиддий илмий асосга эга эмаслиги ва б) давлатнинг бошқарув салоҳиятидан шубҳаланиш, яъни унга нисбатан аксарият одамларда пессимизм / ишончни йўқотиш кайфияти, “сиёсий онгда негативизмнинг кучайиши”[7; с. 185] ётади дейиш жоиз.

Шубҳасиз, бу жабҳада XX асрнинг охири чорагига келиб, турли сабаблар (биринчи навбатда коммунистик тартиботнинг обрўсизланиши)га кўра, бирор бир услуб ўрнига ўрин бўлиши иложсиз давлат бошқарувида сиёсий либерализмнинг салбий таъсири ўз кучини кўрсатди. Ф.Фукуяманинг фикрича, либерал демократиянинг ғалабаси билан инсоният тарихи якунини топди. Тарихи эса қаёқдан келаётганимиз, айниқса ҳам қаёққа кетаётганлигимизни айтишга ожиз, деб олимлар бежиз таъкидлашмаган[8; с. 549]. Этатизм ўрнини анархизм, ҳаддан зиёд эгалитаризм даври ҳам бўлиб ўтди. Устига устак, социум деган супер умумлашманинг бирикмасининг тарих давомида даҳшатли табиат кучлари қаршисида объектив ожизлиги (тўғри, таҳдидларга нисбатан унинг бардош бериш қобилияти тарихан ортиб боради) ҳар доим ўзини кўрсатиб келган[9; с. 36].

Жаҳон ҳамжамияти, миллий давлатлар, умуман, жамики башарият бошбошдоқсизлик оқибатида шундай ҳолатдаки, уни олимлар навбатдаги “геологик эра”га қиёс қилишмоқда. Маъно шуки, “геологик эра” ижтимоий тадрижийликка нисбатан учраб турадиган “босқич”, “давр”дан фарқли ўлароқ яшаш шароитининг радикал ўзгариши (музлик ўрнида курукликнинг пайдо бўлиши, гуллаб-яшнаган боғу роғлар ўрнини саҳро эгаллаши ва ҳ.к.)ни англатади. Агарки, умргузаронликка нисбатан бундай таҳдидлар (давлат бошқарувида нисбатан эътиборсизлик ва ҳатто инкор қилиш шулар жумласидан) олди олинмаса (унга давлатдан бошқа кучнинг қурби етмаслиги аён), унда навбатдаги “геологик эра”га жонзот гувоҳ бўлиши тайин. Унинг аломатлари ва қайси даврлардан бошланганлиги билан боғлиқ муаммолар инсониятнинг хотиржам яшашига, қолаверса, жамиятни бошқаришни тўлалигича зиммасига олган давлатнинг саъйи ҳаракатига зид тенденциялар жойларда илмий жамоатчиликни ташвишга сола бошлайди. Мутафаккирлар турли хил тавсия ва ишланмаларга ҳам келишган пайтлар бўлди. Масалан, деярли бир даврда яшаган Хитой олимлари дунёни бошқариш билан боғлиқ глобал тенденция амалиётига барҳам беришнинг бири бирига ўхшамаган фикрларни ўртага ташлашган.

Хитойда “ҳозирги замоннинг Конфуцийси” деб эътироф этилган Ду Вэймин халқаро форумларда чиқишларидан бирида: “Дунё ҳамжамияти – Ер – Осмон – Инсон” коинот миқёси даражасидаги монандлик. У худбинлик, товламачилик, маҳаллийчилик, этноцентризм ва миллатчилик ва ниҳоят антропоцентризмдан холи”[10; с. 28-29], – дейиш билан жаҳон ҳамжамиятини, ҳар бир давлатни азалий ва абадий яхлитлик, гармоник гипертизим сўнгги таянч сифатида уни юқорида номма-ном санаб ўтилган одамзотни емирувчи кирдикорлардан сақлашга инсониятни чақиради. Унинг замондоши Чэ Юйлинь маълум ва машҳур “Маърифат давридан илдиз отиб, кўплаб ўлкалар учун ижтимоий-сиёсий асос бўлган модерн кадриятлари эскирди. Аллақачон мутлақо янги замон бошланди”[11; С. 206, 209], – дея ватандоши фикрини тўлдиради.

Булардан бир муддат аввал, яъни XX аср ўрталарида “Устоз Кан” деб эъвозланган мутафаккир Кан Ювэй чегара, давлат ва оила тузиш ташувчи омил сифатида ўз ўрнини ижтимоий ўзаро ғамхўрлик қилувчи институтларга бўшатиб бериши ва шу орқали “Буюк хотиржамлик ҳамда Буюк яқдиллик даври”га ўтишни ёқлайди[12; с. 212]. Ушбу фикрларда қандайдир утопия, фантазия мавжудлигини ҳисобга олган ҳолда, бироқ мавжуд ижтимоий-сиёсий тартибот башариятни қаноатлантирмаётганлиги, унга қарши ўлароқ қандайдир идеал кадриятлар, универсалийлар сари интилиш, хуллас, даврнинг туб маънавий, руҳоний янгиланишига инсониятнинг орзу нияти акс этганлигини англамаслик мумкин эмас.

Бир қисм одамлар гўёки азалий-абадий тамал тошлар, устунлар, таянчлар билан ўйнашаётир, дунёни ушлаб турган эзгу интилишлару кадриятларни барбод қилиш пайига тушган шекилли. Айримлар қандай ўйласа – бу уларнинг муаммоси. Лекин умргузаронлик кечаётган даврнинг истиқболи устувор даражада инсониятнинг маънавий куч-қуввати билан ўлчаниши реаллик. Бошқа омиллар ҳам зарур. Дарҳақиқат, аҳли башар маънавий юксалмаса, мақсад ва интилишнинг бошқа бир

фазасига ўтмаса, ҳатто давлатдек қудратли кучнинг ҳам уни бугун бошқаришга қудрати етмай қолди. Аввал яшаб, инсоният учун катта маънавий мерос қолдирган илму орифлар Ер куррасининг деярли ҳамма жойида мавжуд бўлганлигини айтган эдик. Мисол учун, Европа учун мураккаб маънавий, сиёсий вазиятда фикр юритганлардан француз фалсафий меросидаги Боденда таркибий қисмлар, уларнинг функциялари-ю юмушлари устида яхлитлик ғояси бешак ҳукмронлиги, инглиз олими Гоббсда умумий ҳокимият бўлмаган жойда адолат ҳам бўлмайди[13; с. 116] ва нидерландиялик гуманист Роттердамскийнинг ҳаддан зиёд эркинлик инсонни тубсиз жарлик сари судрайди, деган сермазмун фикри бунинг исботидир.

Демак, жамиятни бошқаришга қурби етадиган ягона куч давлат ҳокимиятининг самарали фаолият юритишига қарши жараёнлар, интилишлар ҳар доим – аввал ҳам бугун ҳам ва келажакда ҳам мавжуд. Бу – объектив воқелик. Аммо улар доим бир хил, муқим бўлмасдан, таъсири, оқибати нуқтаи назаридан турли-туман. Давлатнинг фаолиятига кеча унча-мунча хавф солиб турган бир жараённинг олди олинса, иккинчи яна бир тўсиқ унинг ўрнини олаверади. Масалан, ўтмишда давлат ҳокимияти, унинг масъулиятли тармоқлари устувор даражада икки хавфдан – кутилмаганда содир бўладиган ташқи босқин ва ҳукмдор атрофидаги лавозимли шахслар ўртасида мансаб, бойлик талашиш туфайли ички низо – муҳолифатдан кўп талофат кўрар эдилар. Бир томондан, бошқарув издан чиқиб, мамлакатда ноаниқлик, саросима даври ҳукм сурарди. Бугунги босқичда эса давлат бошқарувига тўсиқлар сон-саноксиз. Ҳолбуки, бу асосан ижтимоий-сиёсий фаолият тармоқлари, йўналишларининг йил сайин кўпайиб бориши билан боғлиқ ҳолат. Индивид манфаатлари кўлами, янги муаммоларнинг тезда ечимини излаш, топиш жараёни, барча соҳаларда диверсификация ва инновация жадаллашган сари юқоридаги жараён сақланиб қолади ва ижтимоий тараққиётнинг ўзига хос қонунияти мақомига кўтарилиши мумкин.

Шу муносабат билан бугунги кунда самарали бошқарувга бевосита ташвиш туғдириши тайин бўлган маънавий соҳадаги салбий жараёнларни оладиган бўлсак, баъзи нарсалар янада ойдинлашади. Гап, жумладан, дунёнинг бир қисмини қамраб олаётган миграцион жараён хусусида. Умуман, миграция инсониятга имманент ҳодиса. Доимо бўлган. Аммо ҳар бир жабҳага хос бўлганидек, жаҳондаги мграцион жараён тушунчалари сабаблар (очарчилик, фуқаролик ёки оддий кўникмага айланган уруш ҳолати), уни маълум бир махражга келтиришга бел боғлаган унсурларнинг мақсади миграцион вазиятни барқарорлаштириш эмас, аксинча, ундан (сарф-харажат давлат, аниқроғи фуқаролар чўнтагидан) ўзлари учун фойда орттириш эканлиги аввал-охир маълум нарсаси. Давлат томонидан жамиятни бошқариш олдида тўсиқ доимо мавжуд. Мутахассислар хулосаларига кўра, сўнгги йилларда демократия, эркинлик байроғи остида давлат ҳокимиятига босим кучайгандан кучайди. Шу муносабат билан россиялик политолог олим Святослав Каспэ масалага шундай ойдинлик киритади. “Кейинги пайтларда давлат органларига ҳаддан зиёд қийин бўлди. Ҳатто айримлари умуман мажолсиз бир унсурга айланди. Шунингдек, интеллектуал жамоатчилик сафида, асосан, неолибералистик кайфиятдаги мутахассислар давлат шубҳасиз вақти келиб барҳам топишини башорат қилишга шошилишди. Бироқ давлат билан бевосита боғлиқ функционерлар ва энг муҳими оддий фуқароларнинг аксарияти мутлақо бошқа фикрда эди. Улар “башоратчилар”дан фаркли ўлароқ, “узқдаги қуйруқдан яқиндаги ўпка яхши” деганларидек, инсониятга улкан хизмат қилган ва қилаётган давлат этагидан тутишди”[14; р 174-204], – деб фикрини мухтасар қилади атоқли олим. Бизнингча, мазкур фикр тарихан ҳам ва бугунги воқелик нуқтаи назаридан керагидан ортиқ асосга эга: “давлат – жамият – одамзот” бир пайтда ва маълум бир жойда таркиб топган.

Маълум ва машҳур мутафаккир Макс Вебер фантазиясига мансуб “идеал тип” концепциясидан келиб чиқадиган бўлсак, жаҳон ҳамжамияти, социумлар, цивилизация-ю маданиятлар манфаатлари, интилишлари пировардида қандайдир буюк гармонияга эришишни тақозо этади. Давлат бошқарув институтларининг фаолияти – бир томондан, иккинчи томондан эса, фуқаролик жамияти ўзаро эҳтиётларни ортда қолдириб, самимий манфаатли ижтимоий шериклик томон бориши, бундай қараганда, ўз муқобилига эга эмас. Яъни улар учун ҳамкорликдан-да афзал танлов йўқ. Фикримиз хомхаёл эмаслигига мустаҳкам асос илм аҳлига анча таниш синергетика назариясида шундоққина тайёр турибди-ки, унга кўра гипертизимлар бўлмиш башарият босқичма-босқич ривожланиб, ўзини ўзи бошқариш даражасига чиқиши тайин[15; с. 200-201].

Хулоса ва мунозара. Ушбу мақолада бугунги кунда бошқарув соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар, бошқарувнинг ижтимоий-сиёсий эҳтиёж эканлиги ва унинг янада самарадорлигини ошириш жараёнида энг қуйи поғонадан бошлаб жамиятда мавжуд бўлган барча фуқаролар ва

ижтимоий синфларнинг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда бошқарув тизимини куриш зарурлиги тўғрисидаги фикрлар таъкидланди.

“Олам – ҳамжамият – жамият – давлат – фуқаро” улкан гемостазис тарзида мавриди келиб бошқа бир горизонтга ўтиши мумкин. Унинг учун ушбу гипертизим / гипертузилма ўзини ўзи уюштириш қонунига кўра бирлаштирувчи “ўқ” атрофида жипслик касб этади. Ноорганик маконда нисбатан илмий асосини топган бу жиҳат ижтимоий-сиёсий жабҳада асосланиб улгурди. Хуллас, инсоният томонидан ижтимоий жараёнларни у ёки бу даражада таркибга тушириш объектив ҳамда субъектив, аммо мураккаб интилишлар гирдобиди қийин кечмоқда. Уни инсон талаб-истаги даражасида бошқариш давлатларга ташвиш келтирмоқда. Албатта, бу борада ижобий силжиш бўлиши муқаррар. Бошқариш билан боғлиқ қийинчиликлар билан бир қаторда, айрим умидбахш жараёнларга тўхталдик. Бу муаммолар давлатлар, ҳар бир суверен давлатнинг бошқарув салоҳияти орқали ечимни топиши ва бу йўлда изланишлар давом этаётганлиги хусусида сўз юритар эканмиз, бошқарув ўзи қандай феномен, деган саволга жавоб бериш зарур. Тадқиқотимиз йўналиши нуқтаи назаридан биз учун давлат томонидан бошқарув муҳим.

Бошқарув одатда – бир томондан – давлат ҳокимияти ва иккинчи томондан эса фуқаролик жамияти ўртасидаги деярли мажбурий мулоқотдан, сиёсий келишувлардан иборат. Ва шу маконда ривожланади ҳамда шу маконда амалиётга айланади. Бу ерда асосий омил фуқаролик жамияти бўлиб, давлат унинг ижтимоий-маънавий эҳтиёжларини амалга оширади. Халқ, жамият аъзолари, фуқаролар бошқарувни ўз зиммасига олишга қурби етадиган давлатга шу ваколатни юклайди. Бундай ижтимоий-сиёсий вазиятда бирор бир ижтимоий-сиёсий жараён айнан ижтимоий-сиёсий, шахсий соҳа бундан мустасно, давлат назоратидан четда қолмаслиги талаб қилинади. Ижтимоий жабҳа мураккаб тизимки, у барча катта ва кичик муносабатлардан иборат. Бироқ улар орасида энг устувори жамиятни бошқариш. Шундай экан, бошқарув сиёсати, амалиёти айнан давлатнинг (у халқ хоҳиш-иродасини ташувчи унсур) эҳтиёжу интилишининг ўзидир. Шу боис давлат бошқарувига мажбурлаш, куч ишлатиш хос ва бундай ҳуқуқ фақат давлатда бўлади. Ва бу функция давлат томонидан ошкоралик мақом касб этади. Бошқарув давлат учун ҳам имконият, ҳам амалиёт. Зеро, давлат қудратли сиёсийлик тимсоли сифатида бошқарувда имкониятлар кўламини ахтаради ва шунга эришади. Бу – умумбашарий қонуният.

АДАБИЁТЛАР:

1. Кочетов Э. Диалог. – М., 2011. – С. 27.
2. Федотова В.Г. Меняющаяся современность: всемирность и социальность // Вопросы философии. – 2020. – №11. – С. 9-10.
3. Кудина М.В. Ицкеов К.А., Ленков И.И. Государственное управление: современные вызовы // Вестник Моск. ун-та. Серия 12. Управление (государство и общество). – 2022. – №1. – С. 182.
4. Каспе С.И. Центры и иерархии. – М., 2007. – С. 276; Каспе Святослав. Жизнь, смерть и государство о новых сопряжениях политического и сакрального // Россия в глобальной политике. Том 26. – Январь-февраль 2022. – №1 (113). – С. 8.
5. Руссо Ж. – Ж. О причинах неравенства // Онтология мировой философии. В четырёх томах. – М., 1970. – С. 93-94
6. Умаев У. Сохранить человечество в эпоху Антропоцена // Россия в глобальной политике. Том 29. – Январь-февраль 2022. №1 (113). – С. 34-42.
7. Кудина М.В. Ицкеов К.А., Ленков И.И. Государственное управление: современные вызовы // Вестник Моск. ун-та. Серия 12. Управление (государство и общество). – 2022. – №1. – С. 185.
8. Сергейцев Т.Н., Куликов Д.Е., Мостовой П.П. идеология русской государственности. – Санкт-Петербург: «Питер», 2020. – С. 549.
9. Степанянц М.Т. Учиться быть Человеком // Вопросы философии. – 2019. – №11. – С. 28-29.
10. Чэ Юйлин (XXP) После эпохи Просвещения: возможность появления новой эпохи // Вопросы философии. – 2019. – №4. – С. 206, 209.
11. Кан Ювэй. Книга о Великом Единении (Дантуниу). Из части 6. Уничтожение границ семьи и создании Небесного народа // Вопросы философии. – 2021. – №5. – С. 212.
12. Гоббс. Левиафан. – М., 1936. – С. 116.
13. Kaspe S.G. Life Death and the State // Russia in Global Affairs. – 2021. – 19 (3). – P 174-204; Каспэ С.И. Жизнь, смртть и государство. О нвых сопряжениях политического и сакрального // Россия в глобальной проекции. Том 20. – №1 (113), январь-февраль. Матндаги рус халқ мақоли моҳиятан ўзбекчалаштирилган.
14. Степин В.С. Философская антропология и философия культуры. – М., 2015. – С. 200-201.

УДК:327.58.

МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРНИНГ РИВОЖИДА ТУРКИЙ ДАВЛАТЛАР
БИРЛИГИ

*Матназарова Муҳайё Ахметжановна,
Ўзбекистон Миллий университети
Фуқаролик жамияти ва ҳуқуқ таълими кафедраси изланувчиси.
matnazarova2020@mail.ru*

Аннотация. Мақолада миллатлараро муносабатлар ривожидида туркий давлатларнинг бирлиги, уларнинг жаҳон сиёсий майдонида вужудга келиши, ривожланиши ҳамда глобллашув жараёнида давлатлараро алоқаларга, ўз навбатида, миллатлараро муносабатларга сезиларли таъсир ўтказмоқда. Геосиёсий манфаатлар тўқнашуви ва мафкуравий кураш кучайган ҳозирги пайтда келгусида миллатлар, халқлар, давлатлар, умуман, инсоният жамиятининг тақдири қандай бўлишини белгиловчи сиёсий механизм сифатида ўрни ва аҳамиятига тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: глобллашув, миллатлараро муносабатлар, туркий давлатлар, интеграция, туркий кенгаши, геосиёсат, миллий манфаатлар.

ЕДИНСТВО ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ В РАЗВИТИИ
МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются единство тюркских государств в развитии межэтнических отношений, их возникновение и развитие на мировой политической арене, процесс глобализации оказывают существенное влияние на межгосударственные отношения, и, в свою очередь, на межгосударственные этнические отношения. В настоящее время, когда обострился конфликт геополитических интересов и идеологическая борьба, обсуждаются роль и значение политического механизма, определяющего судьбы наций, народов, государств и человеческого общества в целом.

Ключевые слова: глобализация, международные отношения, тюркские государства, интеграция, Тюркский совет, геополитика, национальные интересы.

UNITY OF THE TURKIC STATES IN DEVELOPMENT
INTERNATIONAL RELATIONS

Abstract. The article deals with the unity of the Turkic states in the development of interethnic relations, their emergence and development in the world political arena, the process of globalization have a significant impact on interstate relations, and, in turn, on interstate ethnic relations. At the present time, when the conflict of geopolitical interests and ideological struggle has intensified, the role and significance of the political mechanism that determines the fate of nations, peoples, states and human society as a whole are being discussed.

Keywords: globalization, international relations, Turkic states, integration, Turkic Council, geopolitics, national interests.

Кириш. Инсониятнинг сиёсий тарихининг охириги юз йили халқаро муносабатларни глобал сиёсат моделига уйғунлаштирувчи жараёнларнинг тобора ривожланиши ва дунё сиёсати майдонига янада кўпроқ давлатларнинг чиқиши билан кўзга ташланади. Тарих инсонларни, жамиятларни ва давлатларни “фавкулотда кучлар”га имкон қадар ишонмасликка ва ўз – ўзига ишонишга ундайди. Бундан юз йилча илгари- Биринчи жаҳон уруши арафасида дунё сиёсатида ўз сўзига эга бўлган бир нечтагина давлат бор эди. Европа китъасининг ўзида, шунингдек, бутун дунёга ҳукмронлик қилиш учун кураш 1914 йилда сайёрамит тарихида илк катта сиёсий блоклашув ҳамда глобал урушни келтириб чиқарган эди. Аини пайтда Биринчи жаҳон урушидан кейин халқаро муносабатларнинг глобал миқёсда тақсимланишининг илк структуралари ташкил қилинган эди. Лекин Париж Тинчлик конференцияси (1919) энг муҳим натижалардан бири сифатида яратилган Миллатлар лигаси ҳали ҳам

кучли империалист давлатларнинг манфаатларига уйғун тарзда фаолият кўрсатгани учун Иккинчи жаҳон уруши арафасида ўз нуфузини йўқўтган эди. Франция 1930 йилда Европа давлатларининг бирлигини таъминлаш мақсадида “Европа федерал иттифоқи” ни яратиш ҳақида китъада 27 та давлатга мурожаат қилади. Аммо бу “ПанЕвропа режасини” нинг амалга ошмагани милитиарист реваншни кучайтирди... Ер курраси аҳолисининг 80 фоизи яшаган 61 мамалакатнинг 110 миллион аҳолиси иштирок этган, ҳарбий амалиётлар жуғрофиясига кўра, сайёрамизнинг энг оммавий кураши – Иккинчи жаҳон уруши 1945 йилда милитиарист давлатлар мағлубияти билан якунланди. Бундан кейин тақрибан СССР нинг бошчилигида дунёнинг икки кутбли халқаро тизими шаклланди. Дунё империализми ичидаги катта ва кескин зиддиятларнинг натижаси бўлган Иккинчи жаҳон уруши ва “Совуқ уруш” сайёрамиз бўйича акс-жараёнларнинг тезлашишига сабабчи бўлди: дунёда “этник ренесанс” кучайди, миллий қаршилик ва мустақиллик ҳаракатлари кенгайди ва бу янги мустақил давлатлар яралиши билан натижаланди. Агар 1914 йилда Европада ҳаммаси бўлиб 17 та мустақил давлат бўлган бўлса, 1922 йилда уларнинг сони 24 тага, 1930 йилда 27 тага, 2000 йилда 44 тага етди. Уларнинг 22 таси СССР парчаланганидан кейин юзага келган давлатлардир. Евро-Осиёнинг марказий минтақасида эса туркий республикалар мустақиллика эга бўлдилар.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Миллатларро муносабатлар ва давлатлар интеграцияси сиёсатшуносликда кўп мурожаат қилинадиган долзарб мавзулардан бири ҳисобланади. Миллатларро муносабатлар, ва шу мавзу доирасида олимлар томонидан қанчалик чуқур тадқиқ қилинган бўлмасин, бу борада ҳаттоки, концепция ва лойиҳалар ишлаб чиқилгани, ва бу борада қилинган ишлар кўлами кўплиги, тадқиқот доирасида қилиниши керак бўлган фан ва жамиятнинг илмий муаммолари сирасига кирувчи асосий ва доимо ўзининг ечимини кутаётган муаммолар қаторига киритишимиз мумкин. Бу ғарб олимларидан Р.Барнет, З.Бжежинский, Б.Бовден, Ж.Вардлау, Е.Гоффман, Э.Геллнер, М.Дженкинс, С.Добсон, Д.Жакобс, Э.Кадоури, К.Крейс, В.Лагуегур, С.Липсет, Р.Мюллер, Г.Ноллау, Р.Пайне, А.Редлик, А.Смит, А.Тойнби, А.Тоффлер, Э.Фромм, С.Хантингтон, Б.Шафер, С.Шилман, Э.Эриксен, К.Ясперс, ўзбек олимларидан Н. Назаров, О.Мусаев, Р.Муртазаева, Ж.Нажмиддинов, Т.Тошлонов, А.Рахманкулова, кабилар ўрганишган.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Ушбу мавзунинг тадқиқ қилишда одатда институционал ёндашувга методига кўпроқ мурожаат қилинади. Шунингдек, биз тадқиқотимизда тизимли-таркибий, функционал ва бошқа умумий илмий усуллардан, комплекс ёндашув методологияси, тарихийлик ёндашуви методологияларидан фойдаландик.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Сўнги бир асрнинг муҳим ҳодисалари қаторида (1) сайёрамизнинг барча китъаларида мустақил давлатларнинг, (2) БМТ нинг яратилиши ва (3) Европа Иттифоқининг яралиши халқаро муносабатларни глобал сиёсат даражасига олиб чиққан ва шу мустақиллика эришган давлатларни халқаро сиёсат майдонида ва халқаро ҳуқуқ муҳитида фаоллаштирувчи жараёнларнинг таркибий қисми сифатида катта аҳамият касб этади. Демак, дунёнинг охириги 100 йиллик даврининг тажрибаси шуни кўрсатадики, мустақиллик ва бирлашиш бир-бирини тақозо этувчи жараёнлар сифатида энг янги сиёсий тарихнинг характерини белгилайди. Глобаллашув ҳам айнан бу жараёнларнинг мантиқий давомини натижаси ўлароқ, ҳақиқий моҳиятини юзага чиқаради: мустақил давлатларнинг бирлашиши глобал сиёсий – ҳуқуқий маконни шакллантиради.

БМТ – дунё давлатларининг суверенитет ҳуқуқларини таниб, уларнинг халқаро миқёсда ҳамкорлик муҳитини шакллантиришга, халқаро муносабатларнинг ривожига маъсулиятларини бирлик яратиш ва бириктириш муҳитида бўлишига асос яратади. [1;]

БМТ нинг ташкил топишида ўтган 68 йил давомида дунёда ўнлаб глобал бирликларнинг яралиши ва Европа минтақаси давлатларининг ягона сиёсий тузилма Европа Иттифоқида бирлашиши планетар консолидатсиянинг муқарарлигини кўрсатади. Туркий давлатлар жойлашган жойлашган тарихий-сиёсий жуғрофияда Туркий давлатлар бирлигининг яратилиши зарурати ҳам шу планетар консолидатсиянинг таркибий қисми сифатида ўртага чиқади.

Мустақил туркий давлатларни бирлашишга ундовчи жараёнларнинг 25 йиллик бошланғич босқичини умумтурк сиёсий ҳаётини инқилобий ўзгаришларга тайёрлаган ҳодисаларнинг ибтидоси деб ҳисоблаш мумкин. Чунки бу босқичда дунёнинг янги тарихининг мустақил туркий давлатлари ўз зиммаларига тушган улкан миссиясини бажариш зарурати билан, эҳтимолки, ҳеч ким кутмаган кучли сиёсий энергия билан (аслида тарих руҳидан туғилган мантиқ билан буюк бирликка томон ҳаракатда қаътиятли эканликларини ва ягона маслакка суянишларини намоиш эттирганлар. Шу давлатлар

орасидаги икки томонлама ва кўп тарафлама муносабатларнинг яқин даврни қамраб олган бутун тарихи ва унинг натижалари (имзоланган шартномалар, ўтказилган учрашувлар, саммитлар, расмий баёноتلар ва б.) очик тарзда шуни исботлайдики, мустақил туркий давлатлар:

1. Иттифоқчилик мақомига мос бирлик яратишга қарор қилишган [2;403]

2. Ўзларининг миллий манфаатларидан келиб чиқадилар [3;42-68]

Геосиёсий қарашларнинг умумийлигидан келиб чиқадилар [4;]

Минтақавий ва глобал миқёсда халқаро хавфсизлик маъсулиятини бирликда бўлишиш ниятидалар [5;]

Евроосиёда кучлар тенглигини бирликдаги компоненти бўлишга қарор қилишган [6;]

Халқаро ташкилотларда умумий манфаатларини ва қарашларини химоя қилиш ваколатига эгадирлар;

Халқаро сиёсатнинг ва халқаро муносабатларнинг динамикасида ўз ўринларини ва вазибаларини ойдин кўра оладилар [7; 177-179]

8. Дунё хўжалик тизимида муҳим вазилавий аҳамиятга эга глобал иқтисодий лойиҳалар бўйича трансминтақавий коммуникация тармоқларининг энг муҳим халқаларини ташкил этадилар [8;210-213]

Мустақилликни қўлга киритган Каспийбўйи худуди туркий давлатлари чуқур иқтисодий бухронга дучор бўлиб, илдизидан кўпорилган тоталитар режимдан – Совет иттифоқидан ажралганлари учун, албатта, энг аввало миллий иқтисодиётнинг бой табиий бойликлари базасидаги уринишлари билан дунё хўжалик тизимига кириб бора оладилар. Совет иттифоқининг вориси Россия бу жараёнга хилма – хил воситалар билан қанчалик қаршилик кўрсатишга ҳаракат қилмасин, суверен турк республикалари қудратли Туркия билан елкама – елка худудий энергия сиёсатини мустақил тарзда ташкил эта оладилар ва миллий давлат манфаатларини бу лойиҳалар бўйича амалга оширишга ёки Европа бозорлари билан бирлаштирувчи нефт ва табиий газ манбаларини ҳамда автомобил йўлларининг тармоқланиши бўйича амалга оширилган энергия сиёсати дунё иқтисодиётининг таянч нуқталаридан саналади” давлатларо муносабатларга импульс беради. Туркий давлатларнинг бирликда жорий қилган энергия сиёсати айни пайтда бу ерда нормал рақобат муҳитини шакллантирадики, бусиз умуман иқтисодий динамикани тасаввур қилишнинг иложи бўлмайди. Шундай рақобат муҳитида энергия захираларига эга давлатлар, истеъмолчи ўлкалар ва транзит мамлакатларнинг ўзаро фойдали манфаатларини таъминланиши учун самарали шароит яратади.

Боқуда мунтазам ўтказиб туриладиган Халқаро энергия саммитларида дунё иқтисодиётини озиқлантириб турган Ҳазар ҳавзасининг энергия захиралари тобора кўпроқ “сиёсий капитал” олиб келиши туркий давлатларнинг раҳбарлари ва тегишли халқаро бирлашмалар, корпорациялар томонидан қайд этилади. Тўртинчи халқаро энергетика саммитида ҳам бу жараённинг истиқболлари ҳақида сўз кетганда иштирокчи давлатларнинг глобал энергия хавфсизлиги таъминоти зарурлиги такидланган Энергия харитасига оид шартномада шарҳланган асосий принциплар қабул қилинган, энергия ва унинг халқаро бозорларига етказилишининг глобал сиёсий ва иқтисодий жараёнларда ортиб бораётган роли эътиборга олинган, энергиянинг дунё бозорига эркин тарзда етказилиши бўйича хавфсизликнинг давомли ривожининг энг муҳим ва зарурий омили сифатида халқаро ҳамжамият мафаатларига мос келиши юқори баҳоланган эди. Каспий минтақаси карбогидроген захираларининг ўзлаштирилиши ва энергия манбаларининг халқаро бозорларга етказилишининг йирик марказларидан бири сифатида Евроосиё Нефт нақлиёти коридори тизимида энг муҳим унсур эканлигини тасдиқлайди ва Каспий минтақасининг карбогидроген захираларини халқаро бозорларга олиб чиқиш учун Евроосиё коридори лойиҳасини амалга оширишга катта эътибор қаратадилар. [9;568-572] Ушбу саммитда иштирок эткан Озарбайжон Президенти Илҳом Алиев бу халқаро тадбирни “келажакдаги ҳамкорликнинг муҳим босқичи” деб баҳолаган эди: “Озарбажонда бошланган энергетика лойиҳалари бугун янадан кенгрок ҳамкорлик имконини беради. Биз кураёткан нефт камарлари Озарбажон нефтини Европа ва дунё бозорига олиб чиқади. Бу биз учун тарихий ҳодиса эди. Биз айни пайтда минтақавий ҳамкорликни ҳам ривожлантираемиз. Каспий денгизи, Қора денгиз, Болтиқ денгизи минтақалари орасида яхши ҳамкорликни олиб бораемиз. Бугун бу ерда иштирокчилар орасида барча минтақалардан давлат, ҳукумат раҳбарлари, делегация раҳбарлари иштирок этмоқда. Мен буни ҳамкорлигимизнинг муҳим йўналиши деб биламан. Бу кенг худудлар, Озарбажон, Туркия, Қозоғистон ва Туркманистонни ҳам бир-бири билан янада яқинлаштиради.

Чунки энергетика сиёсати ва мавжуд нефт кувурлари ана шу ҳамжихатликни мустаҳкамлашга хизмат қилади. Фикримча, бу ҳам алоқаларимизни кенгайтиришга жиддий туртки беради”. [10;573-575]

Туркиянинг бош вазири Ражаб Таййип Эрдуғон ҳам Туркий давлат ва жамиятларнинг ИХ ҳамкорлик, дўслик, қардошлик қурултойида сўзлаган, турк дунёсининг минтақавий ва глобал миқёсида барқарор ҳамкорлик платформасини яратишга ва бутун халқаро масалаларида ҳамфир ва яқдил бўлиш кераклигига катта аҳамият берган эди: “Асримиз – ҳамжихадлик асри. Ҳамкорлик ва Ҳамфирлик бубунги кун учун тобора ортиб бораётган имкониятларимизни амалга оширишга йўл очмоқда. Биз бир-биримизга табиий ҳамкорлармиз. Тарихимизга, маданиятимизга, эътиқодимизга таяниб, орамиздаги ҳамкорлик салоҳиятини ҳаракатга келтиришимиз лозим. Бугунги дунёда муваффақият қозонишнинг йўли асосан ҳамкорлик ва ҳамфирлик билан яшашни талаб қилади. Биз ҳамфир бўлмасак, бизни парчалаб ташлашади!

Ўзимизни дунёдан ажратиб олиш билан қўзлаган манзилимизга ета олмаймиз. Бу мақсад билан демократлашиш, қонун устуворлиги, шаффофлик, муқобул бошқарув, энг асосийси бўлган инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоялаш, ҳудудий ва глобал интеграция ҳаракатларини кучайтириш келажакдаги қарашларимизнинг пойдевори болиши лозим. Умумий минтақамиз – Евроосиёнинг инсоний ва табиий ресурслари барча муаммоларни ҳал қилишга имкон берадиган даражададир. Рақобат ўрнига ҳамкорлик руҳининг ҳукмронлик қилиши ҳаммамиз учун хайирли бўлажак. Бугунга қадар қардош халқларимиз оқасида муҳим қадамларни қўйишга, алоқаларни кучайтиришга ҳаракат қилиб келдик. Шу нуқтаи назардан Туркия билан Озарбажон орасидаги муносабатларнинг даражасини кўп жиҳатдан ўрнатиб қўйиш зарур эканини таъкитлаб ўтмоқчиман. Туркия билан Озарбажон ўртасида кейинги йилларда амалга оширилган са бир пайтлар ҳаёлимизга ҳам келмаган улкан лойиҳалар ҳозирда ҳамкорлик ва ҳамжихатликнинг энг ёрқин намунаси бўлмоқда. [11;]

Чиндан ҳам Туркия билан Озарбажон орасидаги муносабатлар – турк дунёсига, унинг ички муносабатлари – давлатлараро алоқаларга намуна бўладиган даражада ривожланмоқда. Турклар – миллий, ҳудудий ва глобал даражаларда мунтазам ҳамкорлик муносабатларини ўрнатишнинг энг яхши моделларини дунёга тақдир этишади. Бу билан улар Евроосиёда тарихий бирлаштирувлик миссиясига янги нафас беради, қудудда умумтурк сиёсий платформасини актуаллаштиради, танглштирувчи қарашларни юзага чиқариш билан турк минтақаси давлатларнинг бир – бирига мос сиёсатини ягона миқёсда глобал сиёсатнинг олдинги сафларига чиқаради. Демак, бу сўзлар тасодифан айтилмаган: “Биз ҳамфир бўлмасак... бизни парчалашади!” (П.Т.Эрдуғон). Бу сўзлар қўқув эмас, куч мантиғидан келиб чиқиб айтилган. Глобал сиёсатнинг “дипломатия юмшоқлиги”, “дипломатик табассумлари” орқасида “бўлиб ташла ва ҳукмронлик қил” сингари шафқатсиз шиорларга асосланган мақсадлар яширин экани бугун ҳеч кимга сир эмас. Дунё сиёсатида “Глобал куч” омили ҳамон ўз аҳамиятини йўқотмаган.[12;] Турклар эса бу сиёсатнинг ҳассос дипломатик тармоғини юритиш билан, унинг реал сиёсий тенденцияси билан “муомила қилиш” маҳоратига эгадирлар. Улар Евроосиёда қайси манфаатлар қандай тўқнашишни кўришади ва адекват қадамлар ташаб, стратегик мақсадганида тоғри йўланишлари белгилашга, “сиёсат тумани”да адашмай ҳаракат қилишга интилишади. Агар шундай бўлмаганида эди, улар ўзларининг мустақил энергетика сиёсатини глобал иқтисодий сиёсатнинг олд қаторига чиқара олмасдилар. Турклар қўлга киритаётган сиёсий капитал эса, туркий давлатлар бирлигини яратиш жараёнида бир неча барабар ортиши мумкин.

Агар охириги юз йил дунё сиёсатида мустамлакачиликнинг емирилиши, империализм бухроний, иккита жаҳон уруши, унинг ордидан “Совуқ уруш” таҳликалари, улкан давлатларнинг глобал миқёсидаги зиддиятларида қузатилган жараёнларнинг интенсивлашиши тўлқинида жаҳон халқларнинг энг катта миллий озодлик ҳуқуқларига эришиши – мустақил давлатларнинг яралиши мисолида ижодий йўланишини топган бўлса, бугун ўша мустақил давлатлар халқаро сиёсат ривожиди паритетасосларда иштирок этиш ҳуқуқини қўлга киритиш учун курашиши глобал сиёсий ҳаётининг яхши томонга ўзгариши мумкинлигини кўрсатади.

Аслида дунё ўзгаришга маҳқум. Дунёнинг ҳам сиёсий, ҳам иқтисодий тузилиши ўзгаришни тақозо этади. Аммо дунё давлатлари энди бу ўзгаришлар уларнинг иродасига зид равишда, фақат қудратли давлатлар тузган режалар асосида юз беришини исташмайди. Чунки тарихий тажриба шуни кўрсатадики, агар сени ва сен эга бўлган субъектни бошқалар ўзгартирар экан, демак, улар буни ўз

манфаатларига мос тарзда амалга оширадилар. Реал мантиқ шуки, сен ўзгармасан, сени ўзгартиришади!

Фақат ўз манфаатларига уйғун тарзда! Бу ҳам замонавий сиёсий ҳаётнинг беомон ҳақиқатидир. Энди бу ҳақиқат глобал сиёсий ҳаётнинг бутуб борлиғи билан ҳис этмоқда. Янги авлод давлатлари (жумладан турк давлатлари ҳам) битта ҳақиқатни англаб етишлари лозим: миллий, минтақавий ва глобал миқёсидаги барча ўзгарувчан жараёнларнинг масъулятини биргаликда бўлиб олишлари, халқаро муносабатларнинг келгусидаги ривож учун ва уларнинг бу жараёнда қайси даражада ва қандай фаолликда иштирок этишини тушуниб этишлари даркор. Янги давр глобал сиёсатининг асосий парадигмаси ҳам шундан иборат: дунё фақатгина фавқулодда кучларнинг эмас, ҳаммага тегишли, шунинг учун ҳам дунёнинг янги сиёсий тузилишини халқаро субъектларнинг барчаси иштирокида ҳал қилсиҳ лозим. Глобаллашувнинг ҳам ўзига хос йўналиш ва мазмун берувчи замонавий сиёсати ўзининг парадигмал ўзгаришида сиёсий ва иқтисодий капитал тўплаган, табиий ва интеллектуал арсеналга эга бўлган фаол демократик ўлкаларнинг принципиал қарашларининг тобора илгарислишидан куч олиши керак! Келажакнинг глобал сиёсати “ўлик давлатлар”нинг эмас, “тирилган давлатлар”нинг [13;] елкасида туради.

Бу фикрлар ҳам тасодифан илгари сурулмаган: “Замонавий дунё тизими бухрон ичидадир” [14;270-291] Асосан турли моилавий тебранишлар ва бошқа субъектив омиллар таъсири билан изоҳланадиган (формал баҳона) чуқур зиддият ташувчиларнинг – дунё сиёсатида ва иқтисодиётидаги бухрон ва турғунликнинг фундаментал сабаблари бор:

-Дунё сиёсий ва иқтисодий тизимининг номутаносиблиги; йирик давлатларнинг номутаносиб йирик давлатлар орасида “кучлар тенлиги”нинг формал тарзда кўриқланиши:

-Ғарб ва бошқа ўлкалар оқасида анчадан бери яратилган алоқаларнинг йўқотилмаслиги, аксинча бошқа воситалар билан янада чуқурлаштирилиши; мустанлак ҳаракатларининг демократия экспансионизмига айнаниши;

-Дунёнинг заиф нукталарида – беқарор ва “кучсиз давлатлар”да носоғлом сиёсий режимларининг ва зиддият муҳидларидан гегемон кучларининг қурол сифатида фойдаланиши;

-Либерал иқтисодиётни универсал татбиқ этишга ҳаракатлар; молиявий жихатдан арзон тушадиган, экологик томондан “оғир саноат субъективлари”нинг кучсиз мамлакатлар ҳудудига кўчирилиши:

-Глобал миқёсда молия – банк маҳинасиялари ва бошқалар.

Дунёнинг энг муҳим куч марказларидан жорий иқтисодий инқироз, молиявий тебранишлар ҳақидаги шарҳларга қулоқ солсак, шундай савол ўртага чиқади: “Агар дунё инқироз ичида экан, нима учун дунёдаги миллиардерлар сони кундан-кунга ортиб бормоқда?” Демак, бу инқирознинг манбаи – умумжаҳон тенгсизлигида, номутаносиблигида экани ойдинлашади. Камбағаллар янада камбағаллашиб, бойларни янада бойитаётган қандайдир иқтисодий, сиёсий тизим бир куни инқирозга маҳкумдир. Лоақал, ундаги ишлаб чиқариш ва истеъмол жараёнлари ўртасидаги муносабатлар эртами-кечми парокандага учраши аниқ. Прогрессив сиёсий тушунча бу номутаносибликни кўради ва уни бартараф этиш учун муқобил йўллар, воситалар қидиради.

Шу тариқа, замонавий дунёда бухрон яратувчи жараёнларни зарарсизлантиришга қодир, глобал сиёсатнинг мусбат йўналишга ўтишинини таъминловчи, халқаро муносабатларнинг ривожда ўз қарашларини устун қўювчи суверен сиёсий субъектларнинг – кучли миллий давлатларнинг конвергент фаолияти тобора долзарбланиши. Бу интеграл қараш натижасида дунёнинг сиёсий тузилиши тамоман бошқача манзара касб этади.

-Давлатларнинг “реал сиёсий” асосдаги ёпиқ миллий манфаатларини таъминлаган “Вестфалия халқаро тизимининг” [15;] “глобал куч марказларининг” пирамидасимон тизимлашиши [16;] хали яратмаган ва “Европага хос тарихий жараён намунаси бўлган модернизмнинг” эскиргани эътироф этилиши лозим;

-Глобал сиёсатнинг бир тарафлама – тенденциоз моделидан воз кечиш керак, Шарқни Ғарбга, Осиёни Европага ем қилган “глобал сиёсат”га – қалбаки сиёсатга барҳам бериш, ҳукмрон либерализмнинг бир кутбли дунё низомига нисбатан акс-лойиҳалар [17;] устида фикр юритилиши керак;

-Умуман, Ғарбга мойил дунё тизимидан – универсал дунё тизимига ўтишнинг асосий тамойиллари ҳозирланяпти, кўп марказли глобал бошқарув тизими ишга туширилиши керак.

Тарихий аҳамиятга эга бу қайтиш лойиҳасида Марказий Евроосиё – Турк геополитик минтақаси давлатлари эндиликда шу трансформатсияни юзага келтирган жараёнлар марказида кўринади. Шунинг учун турк геосиёсий минтақасида ушбу давлатлар бошқаруви билан Туркий давлатлар бирлигининг яратилиши ана шундай умумжаҳон аҳамиятга эга трансформатсия ҳодисасининг муҳим ютуқларидан бири бўлади. Геосиёсий таҳлил Марказий Евроосиёнинг сиёсий тузилишини янгилашда ривожланган туркий давлатларнинг ҳал қилувчи кучга эга бўлишини ҳозирдан тахмин қилишмоқда.[18;] Албатта, тарихнинг барча даврларида бир-бири билан ажралмас тарзда боғлиқ бўлган Евроосиё ва турк дунёси биргаликда янгиланиши, янги сиёсий, иқтисодий, маданий кўриниш касб этиши, ўз геосиёсий ядросида, чуқур демократик асосларда мустаҳкамланиши лозим. Турклар дунёга Евроосиёнинг янги ривожланиш парадигмасини тақдим этишлари керак. Евроосиёда чегаралар эмас, моҳият алмашиши лозим. Ва у ўзининг ўзгарган моҳияти билан глобал сиёсатнинг мутараққий ўзгаришларини намоён этиши лозим.

Ана шундай зарурат билан туғиладиган Туркий давлатлар бирлиги глобал сиёсат ва халқаро муносабатларнинг асосий йўналишларида ижобий ўзгаришлар жараёнини амалга оширадиган яратувчи куч сифатида ҳаракат қилади, қуйидаги натижаларни юзага келтиради:

-Мустақил туркий давлатлар Евроосиёнинг қудратли иттифоқини – Туркий давлатлар бирлигини яратиб, бир қатор бошқа минтақа давлатларининг ҳам бу бирликка қира олишига имкон беради;

-Евроосиё ўзининг глобал сиёсий макон яхлитлигини қўлга киритади ва дунёнинг энг ривожланган давлатларининг минтақасига айланади;

-Халқаро хавфсизликнинг Европа Иттифоқи (ЕИ) ва НАТО билан бирга яна бир таянчи – Туркий давлатлар бирлиги (ТДБ) яратилади.

-ЕИ ва ТДБ – Евроосиёнинг тарихан ва жўғрофий жиҳатдан туташ икки минтақаси орасида муносабатларнинг суверен давлатлар иттифоқи орасидаги сингари паритет асосларда қурилиши жараёнини яқунлайди;

Халқаро сиёсатнинг гуманистлашуви ва демократлашуви жараёни, дунё иқтисодиётининг либераллашуви ва унинг Европа, Марказий Евроосиё ва жануби-шарқий Осиё тармоғи бўйлаб динамик ривожланиши муқаррар тус олади;

-ТДБ давлатлараро муносабатларнинг шаклан эмас, реал халқаро ҳуқуққа асосланган жаҳон тараққиёти стратегияси бўйича қурилиши тамойилларини ўз фаолиятида моделлаштиради;

-ТДБ Евроосиёни бутун тамаддунларнинг энг катта мулоқот маконига ва шу тамаддунларга мансуб давлатларнинг давомли ҳамкорлик, барқарор тинчлик, икки томонлама ишонч ва тезкор тараққиёт полигонига айлантиради.

Буларнинг натижасида ТДБ яқин келажакда кенг дунё жамоатчилиги ва халқаро ташкилотлар даражасида – инсониятнинг тарихий тараққиётининг порлоқ босқичи сифатида қабул қилиниши ва унинг сиёсий аҳамиятини юсак баҳоланиши муҳим аҳамиятга эгадир.

Туркий тилли давлатлар билан алоқаларни Марказий Осиё минтақаси доирасида ривожлантириш, минтақа давлатларининг ўзаро ҳамкорлик муносабатларини шакллантириш Туркий Кенгаш фаолиятининг асоси ва барқарор истикболи бўлиши мумкин. Минтақа давлатларининг Туркий Кенгашда иштирок этиши минтақавий интеграция жараёнларини тўлдиради ва бу жараённи янада фаоллаштиришга хизмат қилади. Шу билан бирга, Туркий Кенгаш истикболи қанчалик саволлар остида қолган бўлса, Марказий Осиё интеграцияси шунчалик реал ҳаётга яқин тушунчадир. [19;]

2016 йили Шавкат Мирзиёев Президент бўлгач, расмий Тошкент очиқ ташқи сиёсат юрита бошлади ва 2018 йилнинг апрелида ушбу ташкилотга қўшилиш нияти борлигини эълон қилди. Орадан сал кам бир ярим йил ўтиб, 2019 йилнинг сентябрь ойида Нахичеван Битимини ратификация қилиш ҳақидаги Қонун Президент томонидан имзоланди, Ўзбекистон Туркий Кенгашга аъзо бўлди.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2021 йилнинг 12 ноябрь куни Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг саккизинчи саммитида иштирок этди.

Туркия президенти Ражаб Тоййиб Эрдуғон ташаббуси билан тадбир Истанбулдан жануби-шарқда жойлашган ҳамда Туркия учун тарихий аҳамиятга эга бўлган Демократия ва эркинлик оролида бўлиб ўтди.

Кенгаш мажлисида, шунингдек, Озарбайжон президенти Илҳом Алиев, Қирғизистон президенти Садир Жапаров, Қозоғистон президенти Қосим-Жўмарт Тўқаев ҳамда Туркменистон

президенти Гурбангули Бердимухамедов ва Венгрия бош вазири Виктор Орбан қатнашди. Саммит кун тартибига мувофиқ, савдо, инвестициялар, «яшил» иктисодиёт, рақамли технологиялар, транспорт ва коммуникациялар, таълим ва маданият соҳаларидаги кўп қиррали муносабатларни ҳар томонлама кенгайтириш ва мустақамлаш масалалари кўриб чиқилди.

Шавкат Мирзиёев ўз нутқининг аввалида Ўзбекистон Туркий Кенгаш номини «Туркий давлатлар ташкилоти» деб ўзгартириш ҳамда Туркменистонга ташкилотда кузатувчи мақомини бериш тўғрисидаги тарихий қарорларни қўллаб-қувватлашини таъкидлади. Бу муҳим қадамлар ташкилот фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиб, унинг халқаро майдондаги ўрни ва нуфузини ошириши қайд этилди.

Ҳозирги вақтда дунёда юз бераётган шиддатли жараёнлар, турли таҳдид ва хатарлар, пандемия синовлари, озиқ-овқат хавфсизлиги, иқлим ўзгариши ва экология билан боғлиқ муаммолар ташкилотга аъзо давлатлар олдида янги долзарб вазифаларни қўяётгани таъкидланди.

Шу муносабат билан Ўзбекистон раҳбари мамлакатлар ҳамкорлигининг улкан салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариш ва ташкилотни мустақамлашга қаратилган ташаббусларни илгари сурди. Мамлакатлар ўртасидаги савдо алоқалари кенгайтириши учун қулай ва жозибадор шароитлар яратиш бош устувор вазифа экани кўрсатиб ўтилди.

Охириги йилларда Ўзбекистоннинг қардош мамлакатлар билан умумий товар айирбошлаш ҳажми икки баробар ошгани алоҳида таъкидланди. Шу билан бирга, бу кўрсаткич мавжуд имкониятлар даражасида эмас. Таҳлилларга кўра, 2020 йилда Кенгашга аъзо давлатларнинг жами импорти 420 миллиард долларга тенг бўлган, улар ўртасидаги ўзаро маҳсулот етказиб бериш ҳажми эса 21 миллиард долларни ташкил этган. Шу боис, учинчи давлатларнинг маҳсулотларини ташкилотга аъзо мамлакатларда ишлаб чиқариш мумкин бўлган товарлар ҳисобидан қоплаш энг долзарб вазифа экани қайд этилди. Бу борада мавжуд имкониятларни ҳар томонлама ўрганиш мақсадида Туркий давлатлар савдо ҳамкорлиги тадқиқот марказини ташкил этиш таклифи билдирилди. Ушбу марказ савдо тўсиқларини бартараф этиш, электрон тижоратни кенг жорий қилиш, экспорт-импорт ҳажминини кўпайтириш бўйича таклифлар ишлаб чиқади.

Ўзбекистон Президенти транспорт ва транзит соҳаларини ривожлантириш ҳамкорлигининг муҳим йўналиши экани, Ташкилотдаги мамлакатларнинг савдо-иктисодий шериклиги кенгайтиришига хизмат қилишини таъкидлади.

Бугунги вазият Хитойдан Европагача мамлакатлар ҳудудлари орқали ўтган транс-қитъавий транспорт йўлакларини янада ривожлантириш ва янгиларини яратишни тақозо этмоқда. Бу борада тизимли ҳамкорликни йўлга қўйиш мақсадида «Туркий давлатлар ташкилотининг транспорт соҳасидаги ўзаро боғлиқлик дастури»ни ишлаб чиқиш таклиф қилинди.

Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев Бирлашган Миллатлар Ташкилоти билан ҳамкорликда Туркий мамлакатларнинг атроф-муҳит муҳофазаси бўйича тузилмасини тузиш, унинг қароргоҳини эса Оролбўйининг экологик фожиадан энг кўп жабр кўрган туманларидан бирида жойлаштириш ғоясини илгари сурган эди.

Ўзбекистон Президенти туризмни ривожлантириш мавзусига алоҳида урғу бериб, «Туркий дунё туризми» ва «Табаррук зиёрат» лойиҳаларини амалга ошириш, ҳунармандчилик кўрғазмалари ва этноспорт мусобақаларини ўтказиш, маданий мерос объектларини сақлаш ва тиклаш масалалари, соҳадаги ҳамкорлигининг бошқа йўналишларини қамраб олган «йўл харитаси»ни ишлаб чиқишни таклиф қилди.

Шунингдек, Халқаро туркий маданият ташкилоти – Турксой доимий кенгашининг 37-мажлисида 2020 йилда Хива шаҳри “Туркий дунё маданият пойтахти”, деб эълон қилинган эди. Туркий дунё маданият пойтахти сифатида ҳар йили туркий тилли давлатлар шаҳарларидан бири танлаб олинади. Хива шаҳрига бу мақомни бериш таклифи Президент Шавкат Мирзиёев томонидан 2018 йил сентябрь ойида Қирғизистонда ўтказилган Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашининг VI саммитида билдирилган эди. [20] Мазкур мақом Турксой халқаро маданияти ташкилоти томонидан берилди. Ташкилот Озарбайжон, Ўзбекистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Туркия, Туркменистон иштирокида 1993 йил 12 июль кунини ташкил топган. Ҳозирги кунда ушбу ташкилотга 6 та мамлакат аъзо. Унинг бош қароргоҳи эса Туркиянинг Анкара шаҳрида жойлашган. [20]

Давлат раҳбари бу галги саммит давомида Алишер Навоий номидаги халқаро мукофотни таъсис қилиш тўғрисидаги қарор қабул қилингани учун миннатдорлик билдириб, ташкилотга аъзо

мамлакатлар фондларида сақланаётган нодир асарларни тадқиқ ва таржима қилиш, уларнинг ягона электрон базасини яратиш муҳимлигини таъкидлади.

Биргина Ўзбекистон фондларида ташкилот мамлакатларининг муштарак тарихи ва маданиятига алоқадор 200 мингдан ортиқ ноёб қўлёзма асарлар сақланмоқда. Шу муносабат билан Туркий тилли давлатларнинг тарихий, илмий ва маданий меросини ўрганиш тадқиқот марказини ташкил этиш таклиф қилинди.

Ёшлар ташкилотга аъзо мамлакатлар аҳолисининг катта қисмини ташкил этаётгани, ёш авлоднинг халқларимиз ҳаёти ва тақдиридаги, ўзаро муносабатларимиз ривожигаги ўрни тобора ортиб бораётгани қайд этилди.

Ўзбекистон етакчиси ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, креатив ғоя ва лойиҳаларини рағбатлантириш, миллий кадриятларимизга ёт бўлган таъсирлардан асраб-авайлаш барчамизнинг асосий вазифалардан бири эканини таъкидлади.

Шу муносабат билан давлатимиз раҳбари 2022 йилни Туркий дунёда «Ёшлар ташаббусларини қўллаб-қувватлаш йили» деб эълон қилишни таклиф этди. Унинг доирасида биргаликда аниқ чоратadbирлардан иборат қўшма дастурни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, мазкур масалани навбатдаги саммит кун тартибининг асосий мавзуси этиб белгилаш таклиф этилди. Шавкат Мирзиёев ўз нутқида барчанинг эътибори марказида турган Афғонистондаги ҳозирги мураккаб вазиятга тўхталди. «Ушбу мамлакатнинг гуманитар инқирозга тушиб, халқаро майдонда яққаланиб қолишига, унинг террорчилар маконига айланишига йўл қўймаслик ниҳоятда долзарбдир. Афғонистоннинг янги ҳукумати билан мулоқотларда ёндашувларимиз умумий ва яқдил бўлиши лозим», [21]– деди Шавкат Мирзиёев.

Саммит якунида ташкилотга раислик Озарбайжонга ўтиши ва Туркий давлатлар ташкилотининг биринчи саммити келгуси йилда Ўзбекистонда ўтказилиши тўғрисидаги қарорлар қабул қилинди. Давлат раҳбарлари 10 дан ортиқ ҳужжат, саммитнинг якуний декларациясини, «Туркий дунё нигоҳи – 2040» дастурий ҳужжати ва кун тартибига киритилган бошқа қарорларни имзоладилар.

Хулоса ва таклифлар. Ўзбекистоннинг Туркий давлатлар ташкилотидаги фаолияти мамлакатимизнинг халқаро майдондаги нуфузи ва ўрни янада ортиб боришига хизмат қилди. Туркий давлатлар ташкилоти бугунги кунда дунёнинг нуфузли халқаро ташкилотлари қаторидан жой олди. Кенгаш туркий тилли халқларнинг ўзаро мулоқоти учун бир қўшимча платформа вазифасини бажариб келмоқда. Бугунги кунда Туркий давлатлар ташкилотига аъзо мамлакатлар фуқаролари ўртасида “халқ дипломатияси” асосида мунтазам ва ўзаро фойдали муносабатларни йўлга қўйиш, улар билан дўстона муносабатларни ва маданий-маърифий алоқаларни мустаҳкамлаш борасида салмоқли ишлар олиб борилмоқда. Ушбу жиҳат эса қардош халқлар ўртасидаги узвий алоқаларни янада мустаҳкамламоқда

АДАБИЁТЛАР:

1. Braudel F., *A History of Civilizations*. Penguin Books, 1995
2. *Türk Dünyası Küresel Entegreye Doğru*, Caferov N., Musayev O., Osmanli D., *Türk Dünyasının Lideri*. Bakü, Çaşıoğlu Yayınevi. 2009, s. 403
3. *Azerbaycan Cumhuriyeti Cumhurbaşkanı İlham Aliyev'in Kazakistana' Resmî Ziyarati*/, Caferov N., Musayev O., Osmanli D., *Türk Dünyasının Lideri*. Bakü, Çaşıoğlu Yayınevi. 2009, s. 42-68
4. Cumilyov L., *Etnogenezva yerin biosferi*. Bakü, Nurlan Yayınevi, 2005
5. Ulusel R., *Küreselleşme ve Türk Uygurlığı*. Bakü, Çaşıoğlu, Yayınevi, 2005
6. *Kitabi-Dede Korkut*, Bakü, Gençik Yayınevi, 2005
7. *Azerbaycan ve Türkiya Bölgede Önemli Güce Dönüşür*//, Caferov N., Musayev O., Osmanli D., *Türk Dünyasının Lideri*. Bakü, Çaşıoğlu Yayınevi. 2009, s. 177-179
8. “Baki-Tiflis-Ceyhan Boru Hattının Resmî Açılışı Haydar Aliyevin Petrol Stratejisinin Tentenesidir” //, Caferov N., Musayev O., Osmanli D., *Türk Dünyasının Lideri*. Bakü, Çaşıoğlu Yayınevi. 2009, s. 210-213
9. “Baki Enerji Zirvisi Bildirisi”, /, Caferov N., Musayev O., Osmanli D., *Türk Dünyasının Lideri*. Bakü, Çaşıoğlu Yayınevi. 2009, s. 568-572

10. "Bakü Zirvesi Gelecek Ortak Faaliyette Önemli Merhalelidir", Caferov N., Musayev O., Osmanli D., *Türk Dünyasının Lideri. Bakü, Çaşıoğlu Yayınevi.* 2009, s. 573-575
11. www.president.az/articles/3397
12. <http://en.wikipedia.org/wiki/Kazakhstan>
13. Robson L.L., *A History of Tasmania. Volume 1/Velbourne: Oxford University Press, 1983*
14. Woytak R., *The Promethean Movement in Interwar Poland, East European Quarterly, 1984, №13(3), pp270-291*
15. http://eeas.europa.eu/delegations/azerbaijan/index_az.htm
16. Roy O., *The New Central Asia: Geopolitics and the Birth of Nations. NYU Press, 2007*
17. Шаханов М., «Заблуждение цивилизации» (Сага о нравах эпохи) и «Космоформула карающей памяти» (Тайна, унесенная Чингисханом) Астана: Foliant, 2003
18. Swietochowski T., *Russia and Azerbaijan. A Borderland in Transition. New York: Columbia University Press, 1995*
19. Икромов Ш. Туркий Кенгаи – туркий халқларни бирлаштирувчи платформа бўла оладими? // <https://www.uzanalytics.com>
20. <https://xs.uz/uzkr/post/khiva-turkij-dunyo-madaniyat-pojtakhti-logotipi-tasdiqlandi>
21. www.president.uz

УЎК: 004:372(575.1)

**ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА КРЕАТИВ ФИКРЛАШНИ ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИ
МЕДИАКОНТЕНТЛАРИ АСОСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ**

Тайлакова Шахноза Норбековна,

*Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети
кафедра мудири, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент
shakhnoza_taylakova@mail.ru*

Аннотация: *Медианинг ривожланиши ва унинг жамият тараққиётидаги аҳамияти нақадар ортиб бораётгани бу жабҳада илмий изланишларни олиб боришни тақозо этмоқда. Кўплаб мамлакатларда ўсмирларга оид аудиовизуал медиаматериаллардаги муаммоларга ўз вақтида ечим топилмаётгани сабаб ёш авлод тарбияси ва руҳиятида намоён бўлаётган салбий таъсирлар ҳам бундай тадқиқотларга нисбатан заруратни оширмоқда. Ўқувчи-ёшлар қабул қилаётган ҳар қандай визуал ахборотларни медиатаълим ва медиасаводхонлик талаблари доирасида таҳлил қилиш, саралаш лозим. Мақолада айнан шу жиҳатларга эътибор қаратилган бўлиб, унда ўсмирларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда медиаконтентларнинг маърифий функцияларидан фойдаланиш имкониятлари ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *ўсмир ёшидаги болалар, оммавий ахборот воситалари, медиаконтентлар, медиатаълим, медиасаводхонлик, ахборот*

**ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩЕЙСЯ
МОЛОДЁЖИ НА ОСНОВЕ МЕДИАКОНТЕНТА СМИ**

Аннотация: *Развитие средств массовой информации и возрастающее их значение в развитии общества требует проведения научных исследований в этой области. В связи с тем, что во многих странах проблемы подростков и аудиовизуальных медиаматериалов, связанных с подростками, своевременно не решаются, негативные последствия, проявляющиеся в воспитании и психике подрастающего поколения, также повышают потребность в подобных исследованиях. Необходимо анализировать и систематизировать любую визуальную информацию, получаемую подростками в рамках требований медиаобразования и медиаграмотности. В статье акцентируется внимание на этих аспектах, и говорится о возможностях использования воспитательных функций медиаконтента в духовно-нравственном воспитании подростков.*

Ключевые слова: *подростки, СМИ, медиаконтент, медиаобразование, медиаграмотность, информация*

**POSSIBILITIES OF FORMING CREATIVE THINKING IN STUDENTS AND YOUNG
PEOPLE BASED ON THE MEDIA CONTENTS OF THE MASS MEDIA**

Abstract: *The development of the media and their growing importance in the development of society requires scientific research in this area. Due to the fact that in many countries the problems of adolescents and audiovisual media related to adolescents are not addressed in a timely manner, the negative consequences that are manifested in the upbringing and psyche of the younger generation also increase the need for such studies. It is necessary to analyze and systematize any visual information received by adolescents within the framework of the requirements of media education and media literacy. The article focuses on these aspects, and talks about the possibilities of using the educational functions of media content in the spiritual and moral education of adolescents.*

Keywords: *adolescents, media, media content, media education, media literacy, information*

Қириш. *Оммавий ахборот воситалари соҳасида амалга оширилган кенг кўламли ислохотлар Ўзбекистонда медианинг ривожланишига ҳам асос бўлди. Аудиовизуал медиада ўқувчи-ёшлар аудиториясига тегишли медиаконтентларнинг тараққий этишини мамлакатимизда фаолият олиб бораётган болалар телеканалларининг ташкил топиши ва фаолияти ҳам яққол мисол бўла олади.*

Ўсмир ёшдаги болаларнинг билиш ва атрофни ўрганиш, таҳлил қилиш, кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш билан боғлиқ эҳтиёжларини оммавий ахборот воситалари материаллари орқали тўлдириш мумкин.

Ўсмирлар аудиторияси учун медиамаҳсулотлар тайёрлайдиган телеканалларнинг фаолият вазибаларига ўқувчи-ёшлар кўрсатувларида англашга таъсир этиш орқали уларни умуминсоний кадриятлар асосида тарбиялаш, шунингдек, халқимизнинг тарихий анъаналари, миллий маданиятимиз ҳақидаги ёшга доир бошланғич тушунчаларни болага тушунарли тилда баён этиш воситасида маънавий-ахлоқий жихатдан етук авлодни шакллантиришга йўналтирилган телекўрсатувларни эфирга узатишдан иборат.

Бугун ёш авлод кундалик ҳаётида турли мазмундаги маълумотларга ахборот воситалари орқали эга бўлмоқдалар. Улар кўраётган фильмлар, кўрсатувлар, тинглаётган мусиқа, ўйнаётган компьютер ўйинлари ўсмирларнинг маънавий оламига турлича таъсир кўрсатади. Медиа воситалари орқали таъсир этишнинг ижобий ва салбий кўринишларини ҳисобга олган ҳолда, шунини айтиш мумкинки, инсон маънавий камолотида у қабул қилаётган ахборот муҳитининг роли катта. Демак, бугун ўсмирларнинг нимани кўриб, нимани тинглаётгани биринчи навбатда у вояга етаётган оила, шу билан бир қаторда таълим муассалари эътиборидан ҳам четда қолиши керак эмас.

Теледастурлар улар ҳоҳ кўрсатув, ҳоҳ мулътфильм ёки видеороликлар мисолида бўлсин, бола дунёқарашига кучли таъсир этиш хусусиятига эгадир. Телемаҳсулотнинг таъсирчанлик хусусияти бола онгида ёки салбий ёки ижобий фикр ва ғояларнинг туғилишига сабаб бўлади. Шундай экан, телемаҳсулот тайёрлайдиган соҳа вакили ўсмирлар журналистикасининг ўзига хос йўналиш эканлигини ҳисобга олиши лозим. Ўсмирлар теледастурларининг биринчи хусусияти шундаки, тасвир, монтаж, мусиқа усулларида маҳорат билан фойдалана олиши натижасида кўрсатувни томоша қилган ёш томошабинда катта ижобий таассурот қолишига эришиш мумкин [3].

Телекўрсатувларнинг иккинчи медипедагогик хусусияти-воқеани айнан телетомошабиннинг кўз ўнгида содир этиши билан характерланади. Бу хусусият томошабин (ўсмирлар) қалбига таассуротдан ташқари воқеа билан бола ўртасида восита йўқолиб, олам билан одам юзма-юз бўлиб қолади [3].

Асосий қисм. Ўсмирлар кўрсатувлари оламини англаш орқали уларни ҳаётга мослаштириш, ижтимоий кўникмаларни малакага айлантириш ва маънавий тарбиялаш характерида эга бўлиши керак. Медиамаҳсулотнинг тарбияловчи хусусиятларга эга бўлиши, миллий менталитетимизга мос келиши катта аҳамиятга эга. Миллий ахборот маконида медиаконтентларнинг маърифий функциясини бажарилиши ана шунга боғлиқ.

Тадқиқот жараёнида телеканалларда эфирга узатиладиган кўрсатувларнинг ўсмир ёшдаги болаларни маърифий-ахлоқий ривожлантиришга хизмат қилувчи: огоҳлантирувчи, маълумот берувчи, интегротив, ижтимоий, маданий-рекреатив эҳтиёжларни таъминловчи ташкилий-эдукатив функциялари аниқлаштирилди.

Огоҳлантирувчи функцияси – телекўрсатувларнинг огоҳлантирувчи функцияси бола шахсида турли шубҳали медиа материалларга нисбатан сезгир ва огоҳ бўлиш, уларга дуч келганда тўғри ҳаракатлар қилиш ва эҳтиёткорлик сифатларининг шаклланишига хизмат қилади.

